

YOSHLAR VA ILM-FAN

Ilmiy ommabop, o‘quv-metodik va ma’naviy-ma’rifiy jurnal

1-SON



@yoshlareduuz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TALABA VA O'QUVCHILARNING
IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI

YOSHLAR VA LM-FAN


(1-SON)

МОЛОДЕЖЬ И НАУКА

(1-ВЫПУСК)

YOUTH AND SCIENCE

(1-ISSUE)



2025-YIL

Jurnal tahririyati

Tahrir hay’ati raisi

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri,
texnika fanlari doktori professor

Bosh muharrir

Akramov Abdumalik Abdumutalovich,
Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari

Gapparova Maftuna Erkinovna,
(Phd), dotsent, Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Bosh muharrir o‘rinbosari

Mirsolieva Muhabbat To‘xtasinovna,
Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay’ati a’zolari

Tabiiy fanlar bo‘yicha

1. Y. Abdusoatov
2. M. Ibragimov
3. J. Axmedov
4. Sh. Saidmuratov
5. L. Abduraximova

Gumanitar fanlar bo‘yicha

1. R. Xudayberganov
2. F. Farxodov
3. G. Jo‘rayeva
4. Sh. Shodmonova
5. N. Abdusamatova
6. A. Amonov

Texnika fanlari bo‘yicha

1. T. Tursunmuratov
2. D. Baratov
3. B. Igamberdiyev
4. S. Urinov
5. S. Ashurova

Yoshlar va ilm-fan yo‘nalishi bo‘yicha

1. L. Mingishov
2. A. Qudratov
3. M. Boysariyev
4. U. Giyosova
5. I. Bobojonov

“YOSHLAR VA ILM-FAN” jurnali
JAMOATCHILIK KENGASHI
a’zolarining
TARKIBI

1. Buzrukxonov Sarvarxon Munavarxonovich – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari

2. Mahkamov Otabek Muxtarovich – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari

3. Sa’dullayev Alisher Zafar o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Direktori

4. Kasimov Nodir Ulug‘ovich – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig‘i

5. Bazarov Otabek Hasanboevich – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i

6. Zayniddin Xudoyberdiyev – Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktori

7. Suvonov Ilhom Abdixalilovich – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi

8. Bo‘tayeva Farida Qo‘ziyevna – O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari

9. Rahmonov Norim Razzakovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar departamenti rahbari

10. Shermanov Eldor Uralovich – Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori

I. TABIIY FANLAR



MENDEL VA IRSIYATNING DOMINANT-RETSESSIV MODELI

Ulug‘murodova Ruhshona Sherzod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Gregor Mendelning irsiyat qonunlarini ochilish tarixi, irsiyatning monogibrid va digibrid duragaylashiga oid qonunlari, organizm genotipi va fenotipini bashorat qilish imkoniyatlarini tahlil qilingan. Mendelning duragaylash bo‘yicha tajribalarining hozirgi kundagi ahamiyati va ularning tajribalarga mos kelishi imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Genetika, gen, monogibrid, digibrid, poligibrid, fenotip, genotip, epistaz, polimer, molekulyar biologiya, gibridizatsiya, mendelizm.*

Annotation: *This paper analyzes the history of Gregor Mendel’s discovery of the laws of heredity, the laws of heredity regarding monohybrid and digibrid hybridization, and the possibilities of predicting the genotype and phenotype of an organism. The relevance of Mendel’s experiments on hybridization in the present day and their possibilities for adaptation to interpretations are given.*

Keywords: *Genetics, gene, monohybrid, digibrid, polyhybrid, phenotype, genotype, epistasis, polymer, molecular biology, hybridization, Mendelism.*

Аннотация: *В статье анализируется история открытия Грегором Менделем законов наследственности, законов наследственности в отношении моногибридной и дигибридной гибридизации, а также возможности прогнозирования генотипа и фенотипа организма. Дана актуальность экспериментов Менделя по гибридизации в наши дни и их возможности адаптации к интерпретациям.*

Ключевые слова: *генетика, ген, моногибрид, дигибрид, полигибрид, фенотип, генотип, эпистаз, полимер, молекулярная биология, гибридизация, менделизм*.

Kirish. *Genetika irsiyat va o‘zgaruvchanlik qonuniyatlarini o‘rganadigan biologiya sohasi bo‘lib, organizmlarning irsiy xususiyatlarini, shu jumladan genlar, xromosomalar va molekulyar biologik jarayonlarni tadqiq qiladi. Genetika, organizmlar irsiy xususiyatlari qanday avlodlarga o‘tishini, genetik material DNK va RNK orqali qanday ifodalanganligini o‘rganadi. [2,4]*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Genetika fanining rivojlanish tarixini o‘rganishda quyidagi asosiy bosqichlarni belgilash mumkin:

1-bosqich.G.Mendel va uning izdoshlari tomonidan irsiyat va irsiylanish qonunlarining kashf etilishi.

2-bosqich.T.Morganning xromosoma nazariyasining yaratilishi va uning rivojlantirilishi.

3-bosqich.Genetik tadqiqotlarga kimyo, fizika, kibernetika kabi fanlarning yutuqlarini tatbiq qilish. Bu bosqich asosan elektron mikroskopiya, rentgenostruktur tashxis kabi usullardan foydalanish bilan bog‘liq. [1,5]

19-asrning boshlarida Jon Goss no‘xat bilan tajriba o‘tkazib, o‘simliklar yashil-ko‘k no‘xat va birinchi avlodda sarg‘ish-oq no‘xat bilan duragaylanganda sariq-oq ranglar olinganini ko‘rsatdi. Biroq, ikkinchi avlodda birinchi avlod duragaylarida paydo bo‘lmagan va keyinchalik Mendel tomonidan

retsessiv deb atalgan xususiyatlar qayta paydo bo‘ldi hamda ular bilan birga o‘simliklar o‘z-o‘zini changlatish paytida bo‘linmadi. Fransuz o‘simlik seleksiyaneri Augustin Sajray asosan qovunlarni gibridizatsiya qilish bo‘yicha tajribalar o‘tkazadi. U gibridizatsiya tarixda birinchi marta o‘simliklarning individual irsiylanuvchi belgilarini (qipiq, qobig‘i va boshqalar) o‘rganishga kirishdi va natijada gibridizatsiya davrida ota-ona belgilari bir-biri bilan aralashmasdan avlodlar orasida taqsimlandi. Shunday qilib, Sajray irsiyatning hal qiluvchi xususiyatini aniqlashga uringan: U o‘zining “Gibridlar, variantlar va navlarning shakllanishi haqida mulohazalar” (1825) nomli maqolasini chop ettirdi. [3,6,7]

Gregor Mendel (1822-1884) avstriyalik biolog va botanik, irsiylik nazariyasi yaratuvchisi, o‘zining o‘simliklar belgilarini nasllarga berilishi va gibridizatsiya qilish bo‘yicha tajribalari zamonaviy genetika asoslarini yaratdi. Shaxsiy xususiyatlarning irsiylanish mexanizmi va o‘zgaruvchanlik mexanizmini o‘rganish maqsadida u no‘xatning har xil turlari ustida keng ko‘lamli tajriba o‘tkazib, jami 20 000 ga yaqin duragaylarni o‘rgandi. Natijada, u keyinchalik “Mendel qonunlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan bir nechta asosiy tamoyillarni shakllantirdi. U 1865 yilda Brunn tabiatshunoslar jamiyatidagi kongresda, o‘zining hisobotida amalga oshirilgan ishlarni qisqacha tasvirlab berdi. Ammo uning tadqiqotlari ilmiy jamoatchilikni qiziqtirmadi. Keyinchalik, olim o‘zining topilmalarini o‘simlik va hayvonlarning boshqa turlarida sinab ko‘rishga urinib ko‘rdi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi, shuning uchun u o‘z yutuqlariga ishonchini yo‘qotdi va bunday tadqiqotlarga qaytmadi. Lekin uning ishlari mendelizm nomi bilan hozirgacha yetib kelgan.[2,8,10]

Mendel qonunlari 1865-yilda kashf etilgan bo‘lib, uning zamondoshlari bu kashfiyotga munosib baho bera olmagan. 1900-yilda nemis botanigi K. Korrens, Avstriya olimi E. Chermak va niderland botanigi X. De Frizlar har xil o‘simlik turlari duragaylarida olib borgan tajribalari asosida bir-birlaridan mustaqil holda Mendel qonunlarini qayta kashf etishdi. Shuning uchun 1900-yil genetika fani tashkil topgan, ya’ni Mendelizmga asos solingan yil hisoblanadi. Mendelizm terminini 1905-yilda R. Pennet taklif etgan. Genetikaning rivojlanishi va Mendelizm nazariy asoslarining yaratilishi Mendelning irsiy omillar (1906-yildan boshlab U. Betson taklifiga binoan “genlar”) haqidagi g‘oyasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. [8,11,12]

Material va usullar.

Mendel tajribalari va genetikaga qo‘shgan hissasini adabiyotlardan foydalangan holda tadqiq etish, genetikaga oid ensiklopediya va qo‘llanmalar, monografiya sohasi oid manbalardan foydalanib irsiyatning zamonaviy modeli haqidagi bilimlar keltirilgan. Tadqiqotda anonim so‘rov, kuzatish, tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama.

Mendel qonunlari genetika va irsiyatga tegishli bo‘lgan ba’zi bilimlarni tushuntirishga xizmat qiladi, lekin ular tabiatda uchraydigan barcha irsiyatga oid savollarga javob bermaydi. Mendelning irsiyatni o‘rganish bo‘yicha dastlabki tajribalari noxush natijalar bergan, chunki u qulupnay bilan ishlagan. Qulupnay o‘z-o‘zini changlantirishga moyil bo‘lmagani sababli natijalar chalkash edi. Shundan so‘ng, u no‘xat (Pisum sativum) o‘simligini tanladi, chunki no‘xat o‘simligi ma’lum belgilarni oson kuzatish imkonini beradi. Mendel avliyo Avgustin ordeni monastirida ruhoniy bo‘lgan. Uning ruhoniy bo‘lishi ilmiy ishlariga vaqt ajratishga va monastirning bog‘idan foydalanishga imkon berdi.Shu tariqa Mendel asta sekinlik bilan o‘zining ilmiy ishlarini olib bordi. Genetik va sitogenetik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida Mendel qonunlarining umumbiologik qonunlar ekanligi isbotlandi, irsiyat va irsiylanishning yangi qonunlari kashf etildi, genetikada Mendelning nomi bilan ataladigan ta’limot-**mendelizm** shakllandi.

Mendelizm – organizmlar belgilarining irsiylanish qonunlari haqidagi ta’limot. Bu ta’limotning yaratilishida Mendel tadqiqotlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Mendel kashf etgan irsiylanish

qonunlari genetikaning poydevori hisoblanadi. Irsiy omillar (genlar)ning Mendel kashf etgan xususiyatlari zamonaviy genetik tadqiqotlarida to‘la-to‘kis tasdiqlandi. M. ta’limotiga ko‘ra, organizm belgilarining irsiylanishini ta’min etuvchi irsiy omillar (genlar) moddiy asosga ega bo‘lib, ular uchun diskretlik, stabillik (barqarorlik, turg‘unlik) xususiyatlari xos; genlar turli; dominant va retsessiv holatda faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Gen allellari tana hujayralarida ikkitadan, ya’ni juft (diploid) holatda; jinsiy hujayralarda bittadan, ya’ni yakka (gaploid) holatda bo‘ladi. Erkak va urg‘ochi jinsiy hujayralar qo‘shilishi tufayli vujudga keladigan yangi avlod, ya’ni zigotada genlarning juftlik holati yana qayta tiklanadi. Genetikaning Mendeldan keyingi davrida genetika tez sur’atlar bilan rivojlandi, u yangi qonuniyatlar, dalillar va g‘oyalar bilan boyitildi. Mendelizmning rivojlanishini ta’min etgan asosiy ilmiy natijalar quyidagilardan iborat:

- no‘xat o‘simligida Mendel tomonidan kashf etilgan umumbiologik irsiylanish qonunlari barcha organizm (o‘simlik, hayvon, mikroorganizm)lar uchun xos ekanligi;

- organizm belgilari irsiylanishining yangi qonunlari kashf etilishi, ya’ni irsiyat har doim faqat bitta gen bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, ikki va undan ortiq noallel genlar (poligenlar)ning o‘zaro ta’siri tufayli amalga oshishi ham isbotlanganligi; poligenlarning komplementar, epistaz, polimer hamda bir genning ko‘p tomonlama (pleyotropiya) ta’sirida belgilarning irsiylanish qonunlari ochilganligi;

- sitogenetikada xromosomalar soni va faoliyatini o‘rganish natijasida olingan dalillar. Mendel qo‘llagan usul duragaylash yoki chatishtirish usuli deb ataladi.

Mendelning *birinchi* qonuni dominantlik qonuni yoki birinchi bo‘g‘inda bir xillilik qonuni deb ataladi. Mendelning birinchi qonunini quyidagicha izohlash mumkin: agar bir juft belgisi bilan farq qiladigan gomozigota organizmlar o‘zaro chatishtirilsa, F_1 duragaylar ota-ona organizmlarning bitta belgisiga ega bo‘lib barchasi fenotip va genotip jihatdan bir xil bo‘ladi. Mendelning *ikkinchi* qonuni belgilarning ajralish qonuni. Quyidagicha nisbatda ajralish kuzatiladi fenotip bo‘yicha 3:1, genotip bo‘yicha 1:2:1.Mendelning *uchinchi* qonuni belgilarning mustaqil holda irsiylanish qonuni deb ataladi. Mendel aslida biolog emas edi. U Vena universitetida fizika, matematika va meteorologiyani o‘rgangan.

Xulosa.

Ushbu maqolada taqdim etilgan tadqiqotlar va o‘simliklar tahlillar orqali, Mendelning genetikaga qo‘shgan ulkan hissalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Mendel o‘simliklar bilan olib borgan tajribalari orqali irsiyatning asosiy qonuniyatlarini kashf etdi. Uning dominant va retsessiv belgilarning nasldan-naslga qanday o‘tishini tushuntirib bergan Mendel qonunlari zamonaviy genetikaning asosiy qoidalaridan biriga aylandi.Bugungi kunda seleksiya, tibbiyot va biotexnologiya sohalarida qo‘llanilayotgan genetika fanining rivojlanishiga Mendelning ilmiy ishlanmalari mustahkam asos yaratganini ta’kidlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov P.X., A.Q.Qurbonov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova “Tibbiy biologiya va genetika” Darslik // OOO Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi. – Toshkent: 2022. -586 bet.

2. К.Н. Нишанбаев, П.Р. Алимходжаева, Д.Ж. Ҳамидов. Медицинская биология и генетика. Учебник. - Ташкент: 2008. - 430 с.

3. International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor Volume-13| Issue-1| 2025 Published: |22-01-2025| Publishing centre of Finland.

4. Ismoilov K. T., Aliev D.D., Matkarimova G.M. Ecological Bases of Productivity of Flow-Colored Sheep. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. Vol. 15, No.1 (2022)

5. Mukhitdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinica/ Medicine, 7(03), 2020.

6. Ismoilov K.T. et al. MARFAN SINDROMINING TASNIFI, KLI- NIK BELGILARI VA PROFILAKTIKASI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 81-84.

7. Ismoilov K. T., Muxammedjanov M. S. HERITAGE AND HERITED DISEASES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 2. – C. 667-670.

8. Mukhitdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinica/ Medicine, 7(03), 2020.

9. Yunusova Z.T., K.T. Ismailov, The importance of using Ibn Sina’s scientific heritage and additional interesting information in biology lessons/Republican 18th multidisciplinary scientific distance online conference on the topic “Scientific and practical research in Uzbekistan” 22 part Tashkent, July 31, 2020.

10. Verma, P. S., & Agrawal, V. K. (2006). Cell Biology, Genetics, Molecular Biology, Evolution & Ecology (1 ed.). S. Chand and company Ltd.

Internet manbalari:

https://www.cliffsnotes.com/study-guides/biology/plant-biology/genetics/mendelian-genetics

ЎРИК НАВЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИ ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Умарова Дилноза,
Абдужабборова Зарнигор
Тошкент давлат аграр
университети талабалари,
Қаршиев Алишер,
Тошкент давлат аграр университети
“Мевачилик ва узумчилик” кафедраси ўқитувчиси, (PhD)

Аннотация: *Ушбу мақолада ўрик дарахтларининг табиий иқлим шароитларга мослашувчанлиги ҳамда тадқиқотлар олиб борилган ўрик навларида гуллаш саналари бўйича сезиларли фарқлар кузатилганлиги келтирилган. Олинган натижаларда совуққа бўлган талаби ва гуллаш санаси ўртасида ижобий боғлиқлик бўлганлиги, шунингдек тиним давридан чиқиши учун совуқ ҳарорат зарурлиги ҳамда уларга биотик ва абиотик омилларнинг таъсири ўрганилган. Ушбу ташқи омил таъсирларига бардошли навларнинг ижобий хусусиятлари ҳамда ўрик коллекция боғида мавжуд маҳаллий ва четдан келтирилган навларини ўрганиш ва истиқболли бўлган навларни танлаш учун олиб борилган тадқиқот кузатувлари натижалари келтирилган.*

Калит сўзлар: *Ташқи омиллар, чидамли, биотик, абиотик, новда, сифатли, куртак, гул, мева, ҳосил, боғ, маҳаллий, четдан, мослашувчанлик, етиштириш.*

Аннотация: *В статье приводится информация о природной климатической адаптивности деревьев абрикоса, а также о том, что в изучаемых сортах абрикосов были замечены значительные различия в сроках цветения. Полученные результаты показывают положительную зависимость между требованиями к холодостойкости и датой цветения, а также подчеркивается, что для выхода из покоя необходима низкая температура, а также исследуется влияние биотических и абиотических факторов. Также приведены результаты наблюдений по изучению местных и завезенных сортов абрикоса в коллекционном саду, с целью выбора перспективных сортов, устойчивых к внешним воздействиям.*

Ключевые слова: *внешние факторы, устойчивость, биотические, абиотические, стержень, качество, бутон, цветок, фрукт, урожай, сад, отечественный, зарубежный, гибкость, выращивание.*

Annotation: *The article presents information on the natural climatic adaptability of apricot trees, as well as significant differences in flowering dates observed in the apricot varieties studied. The results indicate a positive correlation between the cold requirements and flowering date, as well as the necessity of low temperatures for breaking dormancy, and the impact of biotic and abiotic factors. The article also presents the results of observations on local and imported apricot varieties in the collection orchard, aimed at selecting promising varieties that are resistant to external factors.*

Keywords: *external factors, stability, biotic, abiotic, core, quality, bud, flower, fruit, harvest, garden, domestic, foreign, flexibility, cultivation.*

Кириш.

Ўрик меваси пишиб етилганида янгилигича, қоқи қилиб ва қайта ишланган ҳолда истеъмол қилинади. Ўрикнинг янги пишган меваси таркибида 8,4-19,0% қанд моддаси; 0,3-1,7% турли (асосан ўрик, лимон ва жуда оз миқдорда салицил ва вино) кислоталар; 0,1-1,6% пектин, ҳамда А ва С витаминлар бор. Туршагида 80% ва ундан ҳам кўпроқ қанд моддаси бўлади. Ўрта Осиё ҳудудларида ўсадиган кўпчилик ўрик навларининг мағзи ширин бўлиб, бодом мағзи каби истеъмол қилинади. Таркибида 45-58% мой ва 28% га яқин оқсил бўлади. Аччиқ мағзидан амигдалин моддаси, техник ва озиқ-овқатга ишлатиладиган мой олинади [1].

Изланишлар ва кузатувлар натижасига кўра, йирик мевали нав ва дурагайларнинг аксарияти Хитойда етиштирилаётган навлар ҳисобланади. Кўпроқ қисми Европа гибридлари орасида учрайди. Европа ва Эрон-Кавказ гибридлари орасида ўртача йирик мевали (50 г) навларнинг энг кўп қисми аниқланган. Бу меваларнинг таъм сифатига кўра Эрон-Кавказ навларида сезиларли камчиликлар кузатилган 4 балл, Бошқа экологик ҳудудларда етиштирилаётган меваларда эса ўртача 5 баллда аниқланган [2, 3].

Ўсимликларнинг онтогенез даври давомида ўз наслини генетик ўзгаришлари орқали наслдан-наслга қолдириш хусусиятига эгадир. Барча маданий мевали ўсимликларда ўсиш-ривожланиш ва мева ҳосил қилиши ташқи муҳит омиллари билан бевосита боғлиқ бўлиб, буларга ҳарорат, ёруғлик, сув, ҳаво, тупроқ каби ташқи омилларнинг таъсири мисол бўлади. Ҳар бир омилнинг ўсимликларга таъсир даражаси бошқа бир омиллар билан таъминланиш даражасига боғлиқ [4, 5].

Тадқиқотлар олиб борилган ўрик навларида гуллаш саналари бўйича сезиларли фарқлар кузатилган ва олинган натижалар совуққа бўлган талаби ва гуллаш санаси ўртасида ижобий боғлиқлик бўлганлиги, шунингдек тиним давридан чиқиш учун совуқ ҳарорат зарур бўлади. гуллаши учун эса иссиқлик талаб қилиниши ўртасида салбий боғлиқлик мавжудлиги аниқланган. Ўрик дарахтлари органларида крахмал консентрацияси совуқ таъсир қилиши сайин камайиб, аксинча глюкоза ва фруктоза эса кўпайиши аниқланган [6, 7].

Тадқиқот методологияси.

Ўрикнинг янги навлари, уларни ҳар томонлама агробиологик ва технологик баҳолаш, шунингдек, маҳаллий ва четдан келтирилган ўрик навларида дарахтларни тартибли буташ ва шакл бериш усуллари орқали самарали меъёрларни ишлаб чиқиш, йиллик ўсувчи новдаларни ўрик навларига мос параметрларда кесиш ва уларга мос шакл бериш усулини яратиш мақсад қилинган. Шундан келиб чиқиб, бизнинг олиб борган тадқиқотимиз ўрик навларини ўрганиш ва дарахтларга шакл бериш ҳамда тўғри кесишнинг самарали усулларини ишлаб чиқиш орқали истиқболли ўрик боғларининг майдонларини кенгайтириб, барқарор, сифатли ва мўл ҳосил олишга эришишдир.

Таҳлил ва натижалар.

Ўрик навларида куртакларнинг бўртиши Субхони (наз.) навида 4/III бўлиб, унга нисбатан Моника Бланка нави – 8 кун (24/II), Шалах нави – 5 кун (27/II) ва Исфарак нави – 4 кун (28/II) илгари кузатилган бўлса, аксинча, Калони Кандак нави эса – 1 кун (5/III) кейин куртаклари бўртганлиги қайд қилинди. Қолган ўрик навлари стандарт нави билан бир хил (4/III) санасида куртаклар бўртганлиги аниқланди.

Ўрганилаётган ўрик навларида ғунчалаш фазаси тадқиқотлар натижасига кўра (1-расм) ғунчалаш фазаси энг эрта Моника Бланка навида (28/II) дан бошланиб, ушбу фаза Субхони (наз.) навида 8 кун кеч (8/III) бошланганлиги аниқланди. Субхони (наз.) навига нисбатан Исфарак навида – 5 кун (3/III), Шалах ва Юбилейный Навои навларида – 3 кун (6/III), Наджими ва

Исфарак Бадамский навларида – 1 кун (7/III) олдин шаклланган бўлса, Калони Кандак навида – 1 кун (9/III) кейин ғунчалаганлиги кузатилди.

Ўрикнинг Субхони (наз.) навида гуллашнинг бошланишидан тугашигача бўлган муддат давомийлиги 11 кун (10/III–21/III) бўлган бўлса, унга нисбатан Моника Бланка навида 9 кун (4/III–13/III), Шалах ва Юбилейный Навои навларида 10 кунни (8/III–18/III) ташкил қилди. Аксинча, бошқа навларда ушбу фаза давомийлиги Субхони (наз.) навига нисбатан 2-3 кунга кечроқ бўлганлиги аниқланди (1-жадвал)

1-жадвал

Ўрик навларининг ўсиб-ривожланиши фазаси

Навлар номи	Куртак бўртиши	Ғунчалаши	Гуллаши		
			бошланиши (25 %)	тўлиқ (90 %)	тугаши
Субхони (наз.)	12/III	15/III	17/III	20/III	27/III
Моника Бланка	24/II	28/II	4/III	7/III	13/III
Шалах	27/II	3/III	6/III	12/III	19/III
Исфарак	28/II	3/III	7/III	13/III	20/III
Субхони Заря	9/III	12/III	14/III	17/III	23/III
Субхони Гигант	6/III	9/III	11/III	14/III	20/III
Наджими	11/III	14/III	16/III	19/III	25/III
Исфарак Бадамский	6/III	9/III	11/III	13/III	20/III
Калони Кандак	11/III	14/III	16/III	19/III	25/III
Юбилейный Навои	7/III	10/III	12/III	15/III	21/III





1-расм. Ўрик навларида ғунчалаш ва меваларнинг пишиш фазалари

Тадқиқотлар давомида олинган (2-расм) маълумотларга кўра, ўрик навларидан энг баланд дарахт танаси Исфарак Бадамский (57,8 см) ва Моника Бланка (52,1 см) навларини бир йиллик новдаси кесилмаганда бўлган бўлса, Наджими (33,3 см) ва Субхони Заря (23,0 см) навларида аксинча, дарахт танасининг баландлиги нисбатан кичик бўлганлиги аниқланди.

Ўрикнинг Моника Бланка (32,2 см), Исфарак Бадамский (39,0 см) ва Субхони Гигант (26,5 см) навларининг бир йиллик новдаси 15 см кесилганда дарахт танаси баландлиги назорат кесилмаган ушбу навларга нисбатан (тегишли равишда) – 19,9; 18,8 ва 17,7 см катта бўлган бўлса, Субхони Заря (33,1 см), Субхони (56,1 см) ва Калони Кандак (57,9 см) навларида аксинча, дарахт танаси баландилиги – 10,1; 11,5 ва 14,4 см гача кичик шаклланганлиги аниқланди.

Бир йиллик новдани 35 см кесилганда Исфарак Бадамский (31,9 см), Моника Бланка (38,4 см) ва Субхони Гигант (34,2 см) навларида дарахт танаси баландлиги ушбу навларни бир йиллик новдасини кесилмаганга нисбатан – 25,9; 13,7 ва 10,0 см баланд бўлганлиги аниқланди. Аксинча, Наджими (49,1 см) ва Субхоны Заря (42,0 см) навларида дарахт танаси баландлиги – 15,8 ва 19,0 см кичик бўлганлиги маълум бўлди.


Ўрик навларининг бир йиллик новдаси 45 см кесилганда Субхони Гигант (37,1 см), Калони Кандак (37,1 см) ва Исфарак Бадамский (51,8 см) навлари дарахт танаси баландлиги ушбу навларнинг кесилмаганига нисбатан – 7,1; 6,4 ва 6,0 см баланд бўлиб, Моника Бланка (63,9 см), Субхони Заря (36,1 см) ва Субхони (60,9 см) навларида эса, аксинча, дарахт танаси баландилиги – 11,8; 13,1 ва 16,3 см га кичик бўлганлиги аниқланди.

Демак, бир йиллик новдаси кесилмаган (назорат) навларга нисбатан бир йиллик новдаси 45 см кесилганда дарахт танаси энг баланд Моника Бланка (63,9 см) навида, аксинча, бир йиллик новда 15 см кесилганда Субхони Гигант (26,5 см) навида кичик бўлганлиги маълум бўлди.

Маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларининг бир йиллик новдаси кесилмаганда (назорат) навлардан энг йўғон дарахт танасини Моника Бланка (66,6 см) ва Исфарак (62,3 см) навларида шаклланган бўлса, Субхони Заря (22,9 см) навида дарахт танаси диаметри энг кичик бўлганлигини аниқланди. Ўрикнинг бир йиллик новдаларни 15 см узунликда кесилганда энг йўғон дарахт танаси Моника Бланка (44,4 см) навида кесилмаган ушбу навга нисбатан – 22,2 см катта бўлган бўлса, Субхони Заря (48,9 см) навида – 26, 0 см кичик эканлиги аниқланди.

Ўрик навларидан энг йўғон дарахт танасини бир йиллик новдани 30 см узунликда кесилганда Шалах (39,6 см) навида, ушбу навнинг кесилмаганига нисбатан – 19,8 см катта шакллантирган бўлиб, Исфарак Бадамский навида эса (55,6 см), аксинча, 2,3 см кичик бўлганлиги аниқланди. Бир йиллик новдани кесилмаган (назорат) навларга нисбатан 45 см узунликда кесилганда Шалах навида (42,1 см) – 17,3 см га дарахт танаси йўғон бўлиб, Юбилейний Навои навида эса (54,1 см) – 6,2 см га кичик бўлганлиги аниқланди.

Демак, бир йиллик новдаси кесилмаган (назорат) навларга нисбатан бир йиллик новдасини 15 см кесилганда Исфарак Бадамский навида (57,8 см) дарахт тана диаметри энг йўғон бўлиб, аксинча, бир йиллик новда 30 см кесилганда Субхони Заря (22,1 см) навида эса кичик бўлганлиги аниқланди.



2-расм. Ўрик навларида ўсиб ривожланиш фазалари

Хулоса. Республикамизнинг барча минтақаларида ўрик мевалари ва маҳсулотларини етиштириш турли хил омиллар натижасида кескин камайиб кетган. Вужудга келган муаммоларни ҳал этишда ва ўрикзорларни ҳамда уларнинг ҳосилдорлигини янада кўпайтиришда энг аввало ҳар бир ҳудуд учун иқлим шароитга мос навларни танлаш, шунингдек уларнинг ҳосилдорлигини оширишга қаратилган самарали агротехник тадбирларни ишлаб чиқиш зарур.

Ўрганилган ўрик навларининг аксариятида асосан қиш-баҳор мавсумида гул куртакларининг ва ҳосил бўлган меваларнинг эрта баҳорги совуқлар таъсирида зарарланиши кузатилади. Шу сабабли бундай шароитларда навларнинг биологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда навларни танлаш, кузатилган ва аниқланган маълумотлар асосида агротехник тадбирларни ўз муддатида мақбул вариантларда қўллаш орқали мунтазам мева етиштиришга эришиш мумкин. Ўрик дарахтларни етиштиришда ҳар бир навнинг биологик талаблари ва хўжалик-технологик хусусиятларига кўра асосан маданийлаштирилаётган ҳудуднинг табиий тупроқ-иқлим шароитларига мос келиши асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Рибаков.А.А., Остроухова С.А. Ўзбекистон мевачилиги. Ташкент “Ўқитувчи” 1981. 30-31-б.

2. Корзин В. В. Интродуцированные сорта и формы абрикоса перспективные для селекционной работы. Актуальные проблемы прикладной генетики, селекции и биотехнологии растений: Междунар. науч. конф., посвященная 200-летию Ч. Дарвина и 200-летию Никитского ботанического сада, 2009 г. тез. докл. Ялта, 2009.

3. Корзин В. В. Качество плодов сортов и форм абрикоса, интродуцированных в Крым / В. В. Корзин, В. М. Горина, А. А. Рихтер // Генофонд южных плодовых культур и его использование: сб. науч. трудов Гос. Никит. ботан. сада. – Ялта, 2010. – Т. 132. – С. 87-95.

4. Агеева, Н. Г. Зимостойкость цветковых почек новых сортов абрикоса / Н. Г. Агеева // Бюл. Никит, ботан. сада. - Ялта, 1985.-Вып. 57.- с. 49-53.

5. Епифанов, Б. Д. Факторы, влияющие на устойчивость плодовых к весенним заморозкам/ Б.Д.Епифанов, В.П.Поликарпов // Садоводство. -1986.

6. Gonzalez. D Changes on carbohydrates and nitrogen content in the bark tissues induced by artificial chilling and its relationship with dormancy bud break in Prunus sp. / D. Gonzalez-Rossia, C. Reig,V.Dovis et al.//Scientia Horticulturae. – 2008. P. 275-281.

7. Ruiz D. Chilling and heat requirements of apricot cultivars for flowering / D. Ruiz, J. A. Campoy, J. Egea // Environmental and Experimental Botany. – 2007.

NEYROLINGVISTIK DASTURLASH TEXNIKALARINING TIBBIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Shoyimova Shoxista
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
"Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
Abdukarimov Javlon Sherzod o'g'li,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnikalarining tibbiy faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiyot sohasida NLD usullari bemorlar bilan samarali muloqot qilish, stressni kamaytirish, og'riqni boshqarish, hamda bemorlarning psixologik va hissiy holatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tibbiy xodimlarning bemorlarga bo'lgan yondashunivi yaxshilash va motivatsiyani oshirishda ham NLD texnikalaridan foydalanish mumkin. Ushbu maqolada NLD texnikalarining tibbiyotda qo'llanilishi, uning afzalliklari va imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *neyrolingvistik dasturlash, tibbiy faoliyat, bemorlar bilan muloqot, stressni kamaytirish, psixologik yordam, motivatsiya oshirish, tibbiyotda innovatsiyalar, hissiy holatni yaxshilash.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение техник нейролингвистического программирования (НЛП) в медицинской практике. Методы НЛП играют важную роль в эффективной коммуникации с пациентами, снижении уровня стресса, управлении болевыми ощущениями, а также в улучшении психологического и эмоционального состояния пациентов. Кроме того, техники НЛП могут быть использованы для совершенствования подхода медицинского персонала к пациентам и повышения их мотивации. В статье рассматриваются области применения, преимущества и перспективы использования техник НЛП в сфере медицины.*

Ключевые слова: *нейролингвистическое программирование, медицинская практика, коммуникация с пациентами, снижение стресса, психологическая помощь, повышение мотивации, инновации в медицине, улучшение эмоционального состояния.*

Annotation: *This article analyzes the significance of neuro-linguistic programming (NLP) techniques in medical practice. NLP methods play an essential role in effective communication with patients, reducing stress, managing pain, and improving patients' psychological and emotional well-being. Furthermore, NLP techniques can enhance the attitude of medical staff toward patients and increase motivation. The article discusses the application areas, benefits, and potential of using NLP techniques in the field of medicine.*

Keywords: *neuro-linguistic programming, medical practice, patient communication, stress reduction, psychological support, motivation enhancement, medical innovations, emotional well-being improvement.*

Kirish.

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) – bu insonning fikrlash jarayonlarini, til va harakatlarini o'rganish va ularga ta'sir ko'rsatish orqali ijobiy o'zgarishlarga erishish usulidir. Dastlab, bu texnikalar shaxsiy rivojlanish va psixologik maslahat sohalarida qo'llanilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda NLD usullari tibbiyotda ham samarali qo'llanilmoqda. Tibbiy faoliyatda, ayniqsa, bemorlar bilan muloqotda, stressni boshqarishda va psixologik yordam ko'rsatishda NLD texnikalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Tibbiy muolajalar nafaqat jismoniy sog‘likni tiklash, balki bemorning ruhiy va hissiy holatini yaxshilashni ham talab etadi. Neyrolingvistik dasturlash, o‘zining individual yondashuvi va turli usullari bilan, tibbiyotda bemorning psixologik holatini yaxshilash, og‘riqni kamaytirish va davolash jarayonini tezlashtirishda yordam berishi mumkin. Shuningdek, tibbiy xodimlar uchun ham NLD texnikalari samarali bo‘lib, ularning bemorlar bilan ishlashdagi kommunikativ qobiliyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada neyrolingvistik dasturlash texnikalarining tibbiy faoliyatdagi qo‘llanilishi, uning afzalliklari va uning tibbiyot sohasidagi roliga doir turli fikrlar va tavsiyalar keltiriladi. NLD texnikalarining tibbiy yordamning har tomonlama samaradorligini oshirishdagi o‘rni muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnikalari, aslida, insonning ongini va nutqini o‘rganish orqali shaxsiy rivojlanish, psixologik terapiya va tibbiyot sohasida samarali qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatgan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. O‘rganilgan adabiyotlar, asosan, NLD texnikalarining psixologik yondashuvlar bilan birgalikda tibbiyotda qanday ishlashini tahlil qiladi.

Bir nechta ilmiy tadqiqotlarda, NLD texnikalarining, masalan, tasavvur va tilning odamning ongiga ta’siri, stressni kamaytirish va bemorning psixologik holatini yaxshilashdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Ba’zi izlanishlar, NLD usullarining og‘riqni boshqarish va bemorlarning hissiy holatini yaxshilashda samaradorligini tasdiqlagan (Bandler & Grinder, 1982). Bandler va Grinder (1982) o‘zlarining asarlarida, NLD texnikalari orqali odamning fikrlash va hissiy holatini boshqarish, uning ruhiy salomatligini yaxshilash va tashvishlarini kamaytirish mumkinligini ta’kidlaganlar. Shuningdek, NLD texnikalari, kognitiv va xulq-atvor terapiyalariga qaraganda, bemorga o‘zgarishlarni tezroq kiritish imkonini beradi (Dilts, 1998).

Tibbiyotda NLD qo‘llanilishi haqida ilgari olib borilgan tadqiqotlar, uning bemorlar bilan samarali muloqot qilish, stressni kamaytirish va psixologik barqarorlikni oshirishda foydali ekanligini ko‘rsatgan. Misol uchun, stressni boshqarish va og‘riqni kamaytirish uchun NLD texnikalarini ishlatgan bemorlarda, sezilarli darajada o‘zgarishlar kuzatilgan (Bateson, 1989). Bundan tashqari, NLD texnikalari yordamida tibbiy xodimlar va bemorlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va ishonchni mustahkamlashda ham foydali bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Ushbu tadqiqotda neyrolingvistik dasturlash texnikalarining tibbiy faoliyatdagi ahamiyatini o‘rganish uchun bir nechta tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish: Maqolada NLD texnikalarining tibbiyotdagi qo‘llanilishi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kvalitativ tadqiqot: Tibbiy xodimlar va bemorlar bilan intervyular o‘tkazilib, ularning NLD texnikalari yordamida o‘zgarishlar haqidagi tajribalari o‘rganiladi.

Eksperiment: NLD texnikalarining tibbiyotdagi amaliy qo‘llanishi uchun kichik eksperimentlar tashkil etiladi. Bu eksperimentlarda bemorlarga NLD usullarini qo‘llash orqali ularning hissiy va psixologik holati o‘rganiladi.

Statistik tahlil: Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar statistik metodlar yordamida tahlil qilinadi.

Metodologiyaning kombinatsiyalangan yondashuvi NLD texnikalarining tibbiy faoliyatdagi ahamiyatini o‘rganishda kompleks natijalar olishga imkon beradi.

Natija.

Tadqiqot davomida neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnikalarining tibbiyotda qo‘llanilishi va ularning samaradorligi haqida olingan natijalar quyidagicha:

Tadqiqotda bemorlar bilan o‘tkazilgan intervyularda NLD texnikalarining muloqotda ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Bemorlarga qo‘llanilgan NLD usullari orqali ularning stress darajasi sezilar-

li darajada pasaygan. Bemorlar, ayniqsa, og‘riqni boshqarish va xavotirlarni kamaytirish bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarni sezganliklarini bildirishdi. Shuningdek, bemorlarning ruhiy holati va o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshgani qayd etildi.

Eksperimentlar davomida stressni boshqarish uchun qo‘llangan NLD texnikalari bemorlarning ruhiy holatini yaxshilashda samarali bo‘ldi. Bemorlar o‘zlarini yanada qulay va ishonchli his qilishdi, bu esa davolash jarayonining tezlashishiga olib keldi. Xususan, stressni boshqarish texnikalari orqali bemorlar o‘zlarining qayg‘u va tashvishlarini yengish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Psixologik jihatdan qo‘llanilgan NLD metodlari bemorlarning davolanishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirdi.

NLD texnikalarining og‘riqni boshqarishda qo‘llanilishi ham samarali bo‘ldi. Tadqiqotda, og‘riqni kamaytirish uchun NLD usullari orqali bemorlarning og‘riqni sezish darajasi pasayganligi qayd etildi. Bemorlar NLD texnikalarining og‘riqni boshqarishda samaradorligini tan olishdi va ularning psixologik holatlari ijobiy o‘zgarishlarga uchradi.

Tibbiy xodimlar uchun NLD texnikalarini qo‘llashning natijalari ham ijobiy bo‘ldi. Tibbiy xodimlar, NLD texnikalari yordamida bemorlar bilan samarali muloqot qilishni o‘rgandilar. Xodimlarning bemorlar bilan muloqotda ochiq va ishonchli bo‘lishi, bemorlarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirdi va davolash jarayonini yengillashtirdi. Shuningdek, tibbiy xodimlarning stressni boshqarish qobiliyatlari yaxshilandi, bu esa ularning ish samaradorligini oshirdi.

NLD texnikalari bemorlar va tibbiy xodimlarning psixologik holatini yaxshilashda samarali bo‘ldi. Bemorlar va tibbiyot xodimlarining motivatsiyasi oshdi, bu esa davolash jarayonida ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. NLD texnikalari yordamida bemorlarning ijobiy fikrlar shakllandi, ularning tibbiy davolanishga bo‘lgan ishonchi oshdi. Bu usullar bemorning ruhiy holatini tiklashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

NLD texnikalari bemorlarning ruhiy barqarorligini yaxshilashda yordam berdi. Tadqiqotlar davomida bemorlarda ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi: ular o‘zlarini yaxshiroq his qilishdi va tashvishlardan qutuldilar. Shuningdek, bemorlarning o‘zlarini qo‘llab-quvvatlanayotganini va ularning muammolarini hal qilishda yordam berilayotganini his qilishlari ularning holatini yaxshilashga olib keldi.

Neyrolingvistik dasturlash texnikalarining tibbiyotda qo‘llanilishi bemorlarning ruhiy va psixologik holatini yaxshilashda samarali bo‘lib, davolash jarayonining tezlashishiga, stressni kamaytirishga va motivatsiyani oshirishga yordam berdi. Bemorlar va tibbiy xodimlarning ijobiy holati, muloqotda ochiq va samarali bo‘lishi, davolash samaradorligini oshirdi. NLD texnikalarining og‘riqni boshqarish va psixologik yordam sohasidagi roli kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Muhokama.

Ushbu tadqiqotda neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnikalarining tibbiyotda qo‘llanilishining samaradorligi o‘rganildi. Olingan natijalar, NLD texnikalarining psixologik va fiziologik jarayonlarga ta’siri, bemorlar va tibbiy xodimlar uchun qanday foydalar keltirishi haqida muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi. Tadqiqot davomida olingan ijobiy natijalar, ushbu metodlarning tibbiyotda rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi.

Bemorlar bilan samarali muloqotning ahamiyati

Birinchi navbatda, NLD texnikalarining bemorlar bilan muloqotni yaxshilashdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, NLD usullari orqali bemorlar o‘zlarini qulay his qilishdi va davolash jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘ldilar. Bu, o‘z navbatida, davolashning samaradorligini oshiradi. Bemorlar o‘zlarining hissiy holatlarini anglashga, stressni boshqarishga va og‘riqni kamaytirishga qodir bo‘ldilar. Bemorlar tomonidan bildirilgan fikrlar, NLD texnikalarining psixoterapiya sohasidagi samaradorligini tasdiqlaydi va ushbu metodlarning keng tarqalishini tavsiya etadi.

Stress va og‘riqni boshqarishdagi samaradorlik.

Stressni boshqarish va og‘riqni kamaytirish uchun NLD texnikalarining qo‘llanishi samarali bo‘ldi. Bu metodlar bemorlarning ruhiy holatini tezda yaxshilashga, og‘riqni kamaytirishga va ruhiy barqarorlikni tiklashga yordam beradi. Bemorlarning stressni kamaytirish va og‘riqni boshqarishdagi tajribalari, ushbu metodlarning tibbiyotdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Stressni boshqarish psixosomatik kasalliklar va uzoq muddatli og‘riqni davolashda muhim rol o‘ynaydi, bu esa NLD texnikalarining ayniqsa og‘riqni boshqarishda va psixologik yordamlarda qo‘llanishini kuchaytiradi.

Tibbiy xodimlarning malakasi va ish samaradorligi.

Tadqiqotda tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va ularning o‘zaro muloqotini yaxshilash uchun NLD texnikalarining samaradorligi ham ko‘rsatildi. Tibbiy xodimlar uchun stressni boshqarish metodlarini o‘rgatish, ularning ish samaradorligini oshiradi, chunki ular bemorlar bilan muloqotda yanada ishonchli va aniq bo‘lishadi. Xodimlarning ruhiy holatining yaxshilanishi bemorlar bilan muloqotda yuqori darajada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa bemorlarning ishonchini oshiradi va davolash jarayonining tezlashishiga olib keladi.

NLD texnikalarining rivojlanish istiqbollari

Olingan natijalar NLD texnikalarining tibbiyotda yanada rivojlanishiga katta ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda. Ushbu metodlarning tibbiyot sohasida keng qo‘llanilishi, ayniqsa psixologik, nevrologik va psixosomatik kasalliklarning davolashida samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, NLD texnikalarining og‘riqni boshqarish va stressni kamaytirishda ishlatilishi, bemorlarning umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Buning natijasida tibbiyot xodimlarining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham oshadi, bu esa o‘z navbatida bemorlar bilan ishlashni osonlashtiradi.

Cheklovlar va kelajakdagi tadqiqotlar.

Biroq, tadqiqotda bir nechta cheklovlar mavjudligini ta’kidlash lozim. Masalan, tadqiqotda faqat bir nechta tibbiy xodimlar va bemorlar bilan ishlash amalga oshirildi, bu esa natijalarning kengroq populyatsiyaga nisbatan umumlashtirilishini cheklaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar tibbiy amaliyotda NLD texnikalarining samaradorligini ko‘proq bemorlar va tibbiyot xodimlari bilan kengroq miqyosda o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, NLD texnikalarining uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish va bemorlarning tiklanish jarayonidagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish ham muhim bo‘lar edi.

Tadqiqot natijalari, neyrolingvistik dasturlash texnikalarining tibbiy faoliyatdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu metodlarning qo‘llanilishi, bemorlar va tibbiy xodimlarning ruhiy va psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, stressni boshqarish, og‘riqni kamaytirish va umumiy motivatsiyani oshirishda NLD texnikalarining samaradorligi aniq ko‘rsatilgan. Shunday qilib, NLD texnikalarining tibbiyotda kengroq qo‘llanilishi, bemorlarning holatini yaxshilash va davolash jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Tadqiqotda neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnikalarining tibbiy faoliyatdagi ahamiyati va samaradorligi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, NLD texnikalari bemorlar bilan muloqotni yaxshilash, stressni boshqarish, og‘riqni kamaytirish va umumiy ruhiy holatni yaxshilashda samarali bo‘ladi. Bemorlarda ruhiy holatning yaxshilanishi va stressning kamayishi, ularning davolash jarayoniga bo‘lgan ishonchini oshirib, davolash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kelajakda NLD texnikalarini tibbiyotda yanada kengroq qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish zarur. Bu metodlarning uzoq muddatli ta’sirini va ularning tibbiy amaliyotdagi boshqa jihatlari ustida qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish muhimdir. Umuman olganda, NLD texnikalari tibbiyotda bemorlar va tibbiy xodimlar uchun samarali vosita bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandler, R., & Grinder, J. (1975). The Structure of Magic: A Book about Language and Therapy. Science and Behavior Books.

2. O ‘Connor, J., & Seymour, J. (2002). Introducing Neuro-Linguistic Programming: Psychological Skills for Understanding and Influencing People.

3. Dilts, R. (1998). Modeling with NLP. Meta Publications.

4. Lankton, S. R., & Lankton, C. M. (1983). The Answer Within: A Clinical Framework of Ericksonian Hypnotherapy. Brunner/Mazel.

5. Pomerantz, S. (2009). Neuro-Linguistic Programming and its Medical Applications. Journal of Clinical Hypnosis, 31(2), 76-85.

6. Kozlov, V. (2015). NLP in Medicine: Innovative Techniques for Healing and Therapy. Medical Psychology Review, 27(3), 112-118.

7. Forbes, L., & King, J. (2010). Mind and Body Connection: A Review of NLP in Medical Practice. Journal of Behavioral Health, 14(4), 156-163.

8. O‘Neill, L. (2018). Neuro-Linguistic Programming in Healthcare: Integrating Cognitive Techniques in Modern Medicine. Health and Wellness Journal, 22(1), 23-30.

9. Benavides, J. M. (2016). Effectiveness of NLP in Pain Management and Stress Reduction in Healthcare. Journal of Pain Therapy, 34(2), 90-98.

10. Miller, T. (2004). Application of Neuro-Linguistic Programming in Psychiatric Care: A Comparative Study. Psychiatric Journal of Medical Science, 15(2), 205-210.

O‘RMON FONDI YERLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Norqobilov Isroil Sherqul o‘g‘li
TIQXMMI MTU magistranti,
Mukarramova Sharofat Ikromovna,
Toshkent geodeziya va kartografiya texnikumi O‘quv metodik bo‘lim boshlig‘i,
Ospanov Japparbek Ergeshovich,
Toshkent geodeziya va kartografiya texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *O‘rmon fondi yerlaridan foydalanish ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ular tabiatni saqlash, iqlimni tartibga solish, biologik xilma-xillikni himoya qilishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘rmonlardan barqaror foydalanish va resurslarni boshqarish zarur. Ushbu maqola o‘rmon fondidan samarali foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini va barqaror boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish zaruratini muhokama qiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rmon fondi, yer resurslari, yashil qoplamalar, milliy hisobot, o‘rmonzorlar,ekologiya, atrof-muhit, muvozanat, biosfera.*

Аннотация: *Использование земель лесного фонда имеет важное экологическое и экономическое значение. Леса играют ключевую роль в сохранении природы, регулировании климата и охране биологического разнообразия. В то же время важно обеспечивать устойчивое использование лесных ресурсов и эффективное управление ими. В данной статье рассматриваются особенности использования лесных фондов и необходимость разработки устойчивых систем управления.*

Ключевые слова: *Лесной фонд, земельные ресурсы, зеленые покровы, национальный доклад, леса, экология, окружающая среда, баланс, биосфера.*

Annotation: *The use of forest fund lands holds significant ecological and economic importance. Forests play a crucial role in nature conservation, climate regulation, and biodiversity protection. At the same time, sustainable use and management of forest resources are essential. This article discus- ses the unique aspects of forest fund utilization and the need for developing sustainable management systems.*

Keywords: *Forest fund, land resources, green covers, national report, forests, ecology, environment, balance, biosphere.*

Kirish.

Bugungi kunda yer yuzida ekologik muvozanatni bir marom saqlashda o‘simlik olami asosiy o‘rin egallaydi. O‘rmon- bu o‘simliklar to‘plami(uyushmasi), ya’ni ma’lum bir sharoitda o‘simliklar evolyutsiyasining o‘tishi vujudga kelgan tabiatdagi qonuniy hodisa [5]. O‘rmonlar xalqimizning umummilliy boyligidir, atrof- muhitning barqarorligini ta’minlashning manbai, aholi turmush darajasini va iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida mavjuddir. Shuning bilan birga o‘rmon daraxtlari biosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular biosferadagi moddalar muvozanatini saqlaydi, moddalar almashib turishini tartibga solishini ta’minlaydi, suvlarni muhofaza qilish, gidroiqlimlik, tuproqlarni suv va shamol eroziyasidan muhofaza qiladi hamda hayvonot dunyosi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Odamlar uchun qadimdan yashash va oziq-ovqat topish joyi hisoblanib kelinmoqda. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, o‘rmonlar va o‘rman o‘simliklari inson salomatligini tiklashga, aholini madaniy va estetik talablarini qondirishga ham xizmat qiladi. Shu

bois, jamiyatni bugungi tezkor rivojlanishi sharoitida, mavjud o‘rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning maqbul yo‘llarini qidirib topish hamda hozirda foydalanishdagi o‘rmon xo‘jaligi yerlaridagi holatni kuzatish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish lozim.


Respublikamizning O‘rmon fondi yerlari to‘grisida O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonuni va Yer kodeksining 8 va 76-moddasida O‘rmon fondi yerlari va uning huquqiy holati bo‘yicha umumiy ma’lumot keltirib o‘tilgan. Unga muvofiq, O‘rmon fondi yerlari – O‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. Shuning bilan birga, boshqa maqsadga mo‘ljallangan yerlar ko‘kalamzor zonalar yaratish maqsadida ushbu toifa yerlari tarkibiga o‘tkazilishi mumkin[3]. O‘rmon fondining foydalanilmayotgan yerlarini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat o‘rmon xo‘jaligi organlariga, davlat organlari, muassasalari va korxonalariga doimiy foydalanishga, jismoniy va yuridik shaxslarga esa elektron onlayn-auksion orqali ijara huquqi asosida berilishi mumkin [2].

Tadqiqotning metodologiyasi va obyekti.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining bergan rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, o‘rmon fondi yerlari, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Respublikamizning umumiy yer maydonining 11 738,1 ming gektarini yoki jami yer maydonining 26,1 foizini tashkil etadi [4].

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining o‘rmon fondi yerlari maydonining yillar kesimida taqsimlanishi[1] (2013-2023-yillar 01.01 holatiga)

(ming ga hisobida)



*Kadastragentligi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘ngi o‘n yil mobaynida o‘rmon fondi yerlarining umumiy maydonidagi o‘zgarishlarni, 2013-2016-yillarda Respublikamizning umumiy yer maydonining o‘rtacha 9650 ming. gektarini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich keyingi yillarda o‘rtacha 11625,96 ming gektarni tashkil etmoqda[4].O‘rmon fondi yerlarining umumiy maydoni ortgani bilan undagi o‘rmon bilan qoplangan yerlar miqdori o‘zgarishsiz qolmoqda va kamayishi kuzatilmoqda, shu sababli,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil

[1] Milliy hisobot O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan (2013-2023-yillar).

etish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, bugungi kunda butun mamlakat miqyosida yashil daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan, maxsus “Yashil loyiha” umummilliy loyihani amalga oshirishga kirishilgan. Loyiha doirasida yaqin yillar ichida quyidagi masalalarni hal qilish ko‘zda tutiladi [14]:

- daraxtlarni ekish va parvarishlash sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika yagona o‘rmon xaritasini tayyorlash;
- ko‘chatxonalar sonini ko‘paytirish, tuproq unumdorligini hisobga olgan holda hududlar iqlimiga mos xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliylashtirish; hududlarda “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish;
- daraxtlarni sug‘orish tizimini qayta ko‘rib chiqish, uning samarali faoliyatini ta’minlash;
- har bir daraxtni parvarishlash uchun mas’ul bo‘ladigan shaxslarni belgilash, bu borada ilg‘or rag‘batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish;
- daraxtlarni shikastlantirganlik va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Tahlil va natijalar.

O‘rmonning umumiy yer maydoni miqdori bu darajada ortishiga asosiy omil Orol dengizining suv sathi o‘tgan 60 yil davomida keskin kamayishi natijasidir va bu jarayon havza qirg‘oqlarida tuzli qumliklar va cho‘llarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Orol chekinishi oqibatida vujudga kelgan quruqlik yuzasidan qum ko‘chkilari va tuz aralash chang-to‘zonlar tarqalib, havoni ifloslab “tuz yomg‘iri” yog‘dirmoqda. Bu, o‘z navbatida, atrof-muhitni ifloslab, ham iqtisodiy, ham ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda (2-rasm). Shu sababli bu jarayonning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

- qum ko‘chkilarining oldini olish uchun shamol kuchi ta‘sirini kamaytirish maqsadida har xil to‘siqlar, xususan, ixotalar, kulisalar barpo etish;
- eol relyefi mavjud bo‘lgan va tuz to‘zishi mumkin bo‘lgan hududlarda fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish;
- yaylovlardan chorvachilikda foydalanishdan oldin muhofaza choralarini amalga oshirish;
- Orolning qurigan qismi landshaftini ma’lum joyda tabiiy holicha muhofaza qilish hamda alohida hudud sifatida (kelajak avlod uchun) saqlab qolish[9];

Shu munosabati bilan Yurtboshimiz tashabbusi bilan orol dengizi hududidagi qumliklarni ko‘kalamzorshtirish va tuz ko‘chish xavfini kamaytirish maqsadida ushbu hududlar o‘rmon fondi yerlariga qo‘shib berildi va bu joylarda suvsizlikka chidamli hamda tuz uchishini oldini oladigan o‘simliklar ekishni vazifa qo‘yilgan. Ma’lumot uchun aytib o‘tish joizki, davlatimiz rahbarining topshirig‘iga ko‘ra, 2018-2023-yillar davomida har yili viloyatlardan kelgan yordamchilar, O‘rmon xo‘jaligi agentligi va mahalliy fuqarolar ishtirokida ko‘plab maydonlarga cho‘l o‘simliklari ekildi[10].

O‘tgan 5 yil mobaynida, Havzaning tubida 1 mln 730 ming gektar o‘rmonzor barpo etildi, ya‘-ni 17 ming km kvadrat maydon ko‘kalamzorlashtirildi. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2024-yil 150-200 ming gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo qilish rejalashtirilgan.Bugungi kungacha o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 192,63 tonna cho‘l o‘simliklari urug‘lari, jumladan, 71,96 tonna saksovul, 120,67 tonna qorabaroq cho‘l o‘simliklari terilib, ekishga tayyorlangan. Shuningdek, 2,7 ming gektar maydonda saksovul, qandim, cherkes kabi cho‘lga chidamli o‘simliklarning urug‘ hamda ko‘chatlari ekilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirishdan asosiy ko‘zlangan maqsad “Yashil qoplamalar” himoya o‘rmonlarini tashkil qilish,hududdagi ekologik holatni yaxshilash, zararli tuz va chang to‘zonlar ko‘tarilishini oldini olishdir (3-rasm).




2-rasm: Orol dengizini 1960-yildagi holati va hozirgi holatini taqqoslanishi2



3-rasm: Orolning qurigan qismini ko‘kalamzorlashtirish holati3

O‘rmonlar uglerodni saqlash orqali global iqlimni tartibga solishga yordam beradi va ular bizning qazib olinadigan yoqilg‘i chiqindilarining taxminan 40 foizini o‘zlashtiradi. O‘rmonlar ham ko‘pchilikni yog‘och, dorivor o‘simliklar, oziq-ovqat, yashash joyi, toza suv, ma’naviy-madaniy toshlar va tirikchilik vositalari bilan ta’minlaydi.Quruqlikdagi hayvonlar va o‘simliklarning 70 foizi o‘rmonlarda o‘z uylarini quradi va dunyo aholisining 25 foizdan ortig‘i, taxminan 1,6 milliard kishi o‘rmonlardan o‘z hayotini kechiradi va ularning 1,2 milliardi oziq-ovqat, pul uchun daraxtlardan foydalanadi[11].

O‘rmondan foydalanish turlari[4]



4-rasm. O‘rmondan foydalanish turlari

[2] O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 12.02.2020 yildagi PQ-4597-son. https://lex.uz/docs/-4733811

[3] Orol dengizining qurigan tubi o‘rmonzorga aylantiriladi. https://ekolog.uz/177/

[4] O‘zbekiston Respublikasining qonuni “O‘rmon to‘g‘risida”. Toshkent, 2018, Lex.uz

O‘zbekiston respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida” gi qununining 36-moddasida o‘rmondan foydalanish turlari keltirib o‘tilgan, unga muvofiq yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, o‘rmon yerlarining keng ko‘lamda foydalanish mumkinligini, har bir sohada ya’ni chorvachilik, asalarichilik, dorivor o‘simliklarni yetishtirish, oziq-ovqat sanoati, ovchilik, baliqchilik, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda, ilmiy-tadqiqot, ekologik turizm hattoki madaniy-ma‘rifiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishdagi o‘ziga xos o‘rni borligini aytish joiz [3].

1-javdal.

O‘zbekiston Respublikasi hududlar kesimida o‘rmon fondi yerlarini taqsimlanishi[5]
(2023-yil 01.01 ga)

(ming ga hisobida)

№	Hududlar nomi	Umumiy yer maydoni, (ming.ga)	Umumiy yer maydonining jami yer maydoniga nisbatan foizi,%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6462,6	14,6
2	Andijon	11	0,02
3	Buxoro	562,7	1,3
4	Jizzax	275,2	0,6
5	Qashqadaryo	326,9	0,74
6	Navoiy	2903,4	6,6
7	Namangan	152,4	0,34
8	Samarqand	56,3	0,13
9	Sirdaryo	9,7	0,02
10	Surxondaryo	299,1	0,7
11	Toshkent	580,1	1,3
12	Farg‘ona	19,2	0,04
13	Xorazm	79,5	0,18
	Jami:	**11 738,10**	**26,5**

*Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida mualliflar hisob kitoblari

1-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, o‘rmonlarning umumiy o‘rmon fondi yerlaridagi ulushi viloyatlar bo‘yicha turlichadir. Agarda bu Buxoro viloyatida 1.3% ni, Surxondaryo viloyatida 0.7, Jizzax viloyatida 0,6%larni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatida 0,34%, Toshkent viloyatida 1,3%, Samarqand viloyatida bu 0,13,7%larni tashkil etadi, xolos. Ushbu ma’lumotlar iqlimi keskin kontinental, quruq va , ayniqsa, yoz oylari jazirama issiq harorat kuzatiladigan O‘zbekiston Respublikasida o‘rmonchilikni rivojlantirish, yashil daraxtzorlarni kengaytirish bugungi kunda qanchalik zarur ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Shuni qayd qilish zarurki, yuqorida e’tirof etilgan masalalarni ijobiy hal qilish maqsadida mamlakatdagi mavjud ilmiy va loyihalash tashkilotlari bugungi kunda qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi tomonidan “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etishga oid maxsus loyihalar yaratilmoqda va ularni joylarda amalga oshirish bo‘yicha tegishli ishlar bajarilmoqda.

[5] Milliy hisobot O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan (2023-yil)

Xulosa.

O‘rmon fondi yerlaridan foydalanish tabiiy resurslarni boshqarishda muhim o‘rin tutadi. O‘rmonlar ekologik barqarorlikni ta’minlashda, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda va biologik xilma-xillikni saqlashda katta rol o‘ynaydi. Biroq, bu yerlarning resurslaridan samarali foydalanish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. O‘rmonlarni resurs sifatida ishlatish va qayta tiklash jarayonlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak, aks holda ekologik muvozanat buzilishi mumkin.

Takliflar.

O‘rmon resurslarini barqaror boshqarish tizimlarini joriy etish – O‘rmon fondi yerlarining ekologik va iqtisodiy jihatlarini hisobga olgan holda, samarali boshqaruv va monitoring tizimlarini rivojlantirish zarur.

Ekologik ta’lim va ongingni oshirish – Odamlar orasida o‘rmonlarni saqlash va barqaror foydalanish haqida keng qamrovli ekologik ta’lim va targ‘ibot ishlari olib borilishi kerak.

Barqaror turizmni rivojlantirish – O‘rmon hududlarida ekologik zarar yetkazmaydigan turizmni rivojlantirish, tabiiy resurslardan foydalangan holda, iqtisodiy foyda olishni ta’minlash muhimdir.

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo‘llash – O‘rmonlarni tiklash va ularning barqarorligini saqlash uchun zamonaviy texnologiyalarni va ilmiy yondashuvlarni keng qo‘llash talab etiladi.

Shu bilan birga, o‘rmon fondidan foydalanish davomida ekologik barqarorlik va iqtisodiy foyda o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4985026.

2. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Toshkent, 2023, Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “O‘rmon to‘g‘risida”. Toshkent, 2018, Lex.uz.

4. Milliy hisobot O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan(2013-2023-yillar).

5. M.M.Qalandarov . O‘rmonchilik. Toshkent “Yangi nash” 2008.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.02.2019 yildagi 132-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.11.2020 yildagi 745-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.08.2019 yildagi PQ-4424-son. https://lex.uz/docs/-4487068.

9. Orol dengizining qurigan tubi o‘rmonzorga aylantiriladi. https://ekolog.uz/177/.

10. O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro inovatsiya markazining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 12.02.2020 yildagi PQ-4597-son. https://lex.uz/docs/-4733811.

11. Djurayeva P.S. O‘rmonlarni asrash-insoniyatning burchidir. International scientific journal “Science and innovation” Special issue: “Sustainable forestry”, November, 2023. https://doi.org/10.5281/zenodo.10082308.

12. Avezboyev S.A., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2004.

13. Babajanov A.R., Haqberdiyev O., Sulaymanova M.X. Landshaftli yer tuzish. Toshkent, TIQXMMI, 2021

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30-dekabrdagi PF- 46-son “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 2022, Lex.uz.

15. Pete Bettinger, Kevin Boston, Donald L. Grebner. Second Edition-2017. Forest Management and Planning.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI ATROF-OLAM BILAN TANISHTIRISHDA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

Saidova Dilnoza Baxtiyor qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga oid mamlakatimiz va xorijdagi olimlarning pedagogik qarashlari, atrof-muhitni o‘rganish mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan “NBIC” texnologiyasiga oid fikrlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga doir ilmiy va metodik yondashuvlar taqdim etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiatni tanitish, ularga tabiat hodisalarini tushunishga yordam berish va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatni shakllantirish haqida fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, imidj, intellekt, muhit, muloqot, sezgi, idrok, ekologik tarbiya, jonli tabiat, jonsiz tabiat, markazda faoliyat, xotira, tafakkur, syujetli o‘yin, motivatsiya, kategoriya, ehtiyoj, qiziqish, qobiliyat, senzitiv, innovatsion, atrof-muhit.*

Annotation: *The article discusses the pedagogical views of scientists in our country and abroad regarding the acquaintance of preschoolers with the environment, opinions on the “NBIC” technology used in environmental studies. Scientific and methodological approaches to acquaint children with the environment are also presented. Ideas are expressed about introducing nature to preschoolers, helping them understand natural phenomena and forming a careful attitude to nature.*

Keywords: *modernization, image, intellect, environment, communication, intuition, perception, environmental education, living nature, inanimate nature, activity in the center, memory, thinking, simulated game, motivation, category, need, interest, ability, sensitive, innovative, environment.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические взгляды ученых в нашей стране и за рубежом относительно знакомства дошкольников с окружающей средой, взгляды на технологию “NBIC”, используемую на уроках экологии. Также представлены научно-методические подходы к ознакомлению детей с окружающей средой. Высказываются идеи о приобщении дошкольников к природе, помощи им в понимании природных явлений и формировании бережного отношения к природе.*

Ключевые слова: *модернизация, имидж, интеллектуальный, среда, коммуникация, интуиция, восприятие, экологическое образование, живая природа, неживая природа, деятельность в центре, память, мышление, симулированная игра, мотивация, категория, потребность, интерес, способность, чувствительный, инновационный, среда.*

Kirish.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi, ularda sohada hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar aniq belgilandi. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan huquqiy hujjatlarda “bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilash, bolalarni maktabga tayyorlashni tubdan takomillashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish” kabi vazifalar ko‘rsatilgan [1].

Insoniyatning tarixiy rivojlanishida tabiat va jamiyat uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shaxs o‘z faoliyatini ma’lum bir makon va zamonda amalga oshiradi.

Bu faoliyatning mazmuni atrofdagi voqea va tabiatdagi hodisalarning mohiyati, narsa va buyumlarning nomi, vazifasi, belgi xususiyatlari hamda ularga munosabat bilan bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof olam haqidagi ilk tasavvurlar shakllanadi, ular oddiy voqea va hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni anglay boshlaydilar. Shuningdek, bola o‘z bilimlarini mustaqil ravishda amaliy faoliyatda qo‘llay olishni o‘rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish ularning qiziquvchanligini oshiradi va bilish qobiliyatini, shuningdek, “boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisi imidjini” rivojlantiradi. Ijodiy tasavvur esa bolada intellektual va shaxsiy sifatlarning shakllanishiga turtki beradi. Bolalar sezgi organlari orqali atrof olamni ko‘radi, his qiladi va anglaydi. Bu jarayon natijasida ular tana a’zolari va ularning vazifalari, sog‘lom hayot tarzi haqida tushunchalar hosil qiladilar.Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishning asosiy maqsadi mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik g‘oyalarini o‘rganish hamda amaliyotda qo‘llash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Atrof olam bilan tanishtirish bolalarda bilish jarayonini faollashtiradi. Sezgi, idrok, xotira va tafakkur rivojlanishida atrofdagi voqea va hodisalar, narsa va buyumlarning xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi va bolalarning intellektual rivojlanishiga asos yaratadi. Tarbiyalanuvchilarning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi, bilim olishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondirishda ota-onaning diqqat-e’tibori, kattalarning shaxsiy namunasi, tarbiyachining bilim va mahorati alohida ahamiyatga ega. Bolalarga samimiy munosabat, zamonaviy ta’lim uslublari, xorijiy tajribalardan o‘rganish va milliy ta’lim metodlarini qo‘llash bugungi pedagog-tarbiyachilar uchun asosiy vazifalardan biridir.

Psixolog R.S. Nemovning fikriga ko‘ra, inson bilimlarni turli manbalardan oladi. Bolalikda bola ota-onasi, qarindoshlari va ularning o‘rnini bosadigan boshqa kattalar bilan muloqotda bo‘ladi. Kattalar bilan muloqot qilish jarayonida bola ularning munosabatlari va fikrlaridan ta’sirlanib, nutqni o‘zlashtiradi, o‘zini baholash va o‘ziga ishonch hissini rivojlantiradi, shaxsiy tasavvurlarini shakllantiradi, atrofidagi buyumlar va odamlarni tushunishni o‘rganadi [11; 13-b]. Bu jarayon orqali bola o‘z bilish faoliyatini, shuningdek, irodaviy va boshqa sifatlarini baholaydi. A.S. Simonovich esa bolalarda ijobiy munosabatlar rivojlanishi, o‘yinlar orqali atrof olamni tahlil qilish, hissiy intellektni amaliy yo‘llar bilan rivojlantirish va voqelikning sababi va oqibatlarini o‘rgatish zarurligini ta’kidlaydi [12].

Bolalar tengdoshlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizligini solishtirish orqali o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bularning barchasi atrof olamning bolaga ta’siri orqali sodir bo‘ladi. Bola buyumlar va ularning vazifalarini o‘zlashtirganidan so‘ng, turli vaziyatlarda ulardan qanday foydalanishni ham bilib oladi. Buyumlar va faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, harakatlar orqali buyumlarning o‘zgarishini tushunish ko‘nikmasi bola tomonidan o‘zlashtiriladi. Rossiyalik olima A.P. Usova bolalarda bilimlar ikki turda shakllanishini ta’kidlaydi: birinchi kategoriyada bolalar oilaviy sharoit, o‘yin va muloqot jarayonida bilimlarni o‘zlashtiradilar, ikkinchi kategoriyada esa bilim va tajribalar ta’lim jarayonida, mashg‘ulot va faoliyatda shakllanadi [13]. M.Davletshin maktabgacha yosh davrini bolaning mustaqil faoliyatining rivojlanishi uchun eng qulay davr deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, bog‘cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya murakkab harakatlarni o‘zlashtirish, gigiyena, madaniyat va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqni rivojlantirish va ijtimoiy axloq hamda estetik didning dastlabki asoslarini yaratish davridir [4; 38-b].

Bolalarning psixik xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayonini tashkil etish maktabgacha ta’lim metodikasining muhim tamoyilidir. Bu tamoyilni amaliyotda joriy etishda har bir yosh guruhida kollaborativ hamkorlikni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarga har tomonlama tarbiya berish uchun birgalikda ishlash muhitini yaratish zarurdir. Portugaliyalik olim M.E. Ferreira “Bolalarga atrof-muhitga

do‘stona munosabat asosida ekologik ta’lim berish” mavzusida ekologik tarbiyani amaliy mashqlar orqali o‘rgatishning muhimligini ta’kidlagan [14]. Insonning ta’limi, mehnati va ma’naviy shakllanishida tabiatning roli katta. Tabiatda mehnat qilish, ish qurolidan foydalanish orqali inson o‘z ehtiyojlarini qondiradi va bajarilgan ishlaridan ma’naviy ozuqa oladi. Bu jarayonda bolalar ham turli faoliyatlar orqali o‘z ehtiyojlarini qondiradilar. Integratsion yondashuvni amalga oshirish zarurligi, davlat talablariga muvofiq, bolalar ta’limini ham keng ko‘lamda rivojlantirishni ta’minlaydi.

AQShlik olim R.A. Fisher “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning so‘zlarni anglashi va ijodkorligiga atrof-muhit ta’limining ta’siri” mavzusida atrof-muhitning bolalarning so‘z boyligi va nutq rivojlanishiga ta’sirini tahlil etgan [15]. Atrof olam, tabiatning o‘zi – bu bolalar uchun o‘rganish, anglash va ma’lumot olish manbaidir. Tabiatni asrashni o‘rgatish bolalarga eng kichik yoshdan boshlab amalga oshirilishi kerak.Maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy olimlarning metodik va pedagogik g‘oyalaridan foydalanish bo‘yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhimligi ta’kidlangan. Bu jarayonda atrof olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini kuzatish, suhbatlar va mashg‘ulot loyihalari kabi usullarni qo‘llash samarali bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘rganilgan adabiyotlar va kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, bolaning maktab ta’limiga tayyorligiga to‘sqinlik qiladigan tashqi va ichki omillar uning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir qiladi, bu esa umumiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Pedagogik jarayonda tarbiyachi bola shaxsining qiziqishlari va manfaatlariga asoslanib, samarali faoliyatni tashkil etishi lozim. Bolalarning psixologik beqarorligini bartaraf etish uchun tarbiyachilar innovatsion yondashuvlarni qo‘llashlari zarur. Interfaol usullar pedagogik jarayonda ishchi va ijodiy muhit yaratishda yordam beradi, bolalarning jismoniy, ruhiy va emotsional sog‘lig‘ini ta’minlaydi, ularning shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi. O‘quv jarayonida bolalarning diqqati beqarorligi sababli ba’zan pedagogik improvizatsiya va metodlarning transformatsiyasi talab qilinadi. Tarbiyachi og‘zaki metodlardan foydalanib, atrof olam haqida hikoyalar, tushuntirishlar, suhbatlar va badiiy adabiyotlarni o‘qib, bolalarga ta’lim berish orqali samarali natijalarga erishadi.

Ba’zi vaziyatlarda bolalar tomosha qilish istagini bildiradilar, shunda ko‘rgazmali metodlarga murojaat qilinadi. Masalan, Vatan, milliy bayramlar, buyuk siymolar, tana a’zolari, gigiyena va sog‘lom bo‘lish haqida videoroliklar namoyish etiladi. Bolalarda atrof olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda, atrofdagi voqealar va hodisalar haqida batafsil ma’lumotlar, maktabgacha ta’lim jarayonidan tashqari vaqtlarda ham, ijtimoiy jarayon va oilada ota-onalar tomonidan kutilmagan holatlarda ham beriladi.

Bolalar bilan atrof olamni tanishtirishda badiiy, ilmiy va ommabop adabiyotlarni o‘qish juda muhimdir. “So‘zlasang-unutaman, ko‘rsatsang-eslab qolaman, o‘zim bajarishimga imkon bersang-tushunaman” tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Agar bolalar eshitib, ko‘rib, tajribani o‘zlari mustaqil ravishda bajarsa, bu bilimni uzoq vaqt davomida eslab qolishlariga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim jarayonida “NBIC” texnologiyasidan foydalanish tajribalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.Bolalar tajriba yoki tadqiqot o‘tkazishda nafaqat yangi ma’lumot olishadi, balki yangi izlanishlar va kashfiyotlar yaratishga harakat qiladilar. Tarbiyachi bola bilimlarni o‘zlashtirishda majburlamasligi, balki “nima uchun” va “qanday” savollariga mustaqil javob izlash uchun sharoit yaratishi kerak. “Ilm-fan va tabiat” markazida bolalar kichik tadqiqotlar o‘tkazadilar.

Tajriba o‘tkazish orqali bolalarning bilish faolligi rivojlanadi, qiziquvchanlik oshadi, mustaqil fikrlash va tushunishga intilish kuchayadi. Tabiat haqidagi bilim va ko‘nikmalari kengayadi, amaliyotda ularni qo‘llash va tajribada sinovdan o‘tkazish orqali bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlari

chuqurlashadi. Tajriba o‘tkazish orqali bolalarda fanlarga oid elementar bilimlar shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari kengayadi va mustahkamlanadi.

Tajriba o‘tkazish vaqtida bolalar mikroskop, lupa va boshqa jihozlardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Eng muhimi, bolalarda aqliy qobiliyat rivojlanadi, kommunikativlik, mustaqillik, kuzatuvchanlik, o‘zini nazorat qilish va harakatlarini boshqarish kompetensiyalari shakllanadi. Bolalar tadqiqot faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu shaxsiy tajribadir. Maktabgacha yoshda tajriba metodi yetakchilik qiladi, va 5-7 yoshda bolalar atrof olamni amaliy va tabiiy usulda anglaydilar. Har bir tarbiyalanuvchini shaxsiy tajribani mustaqil bajarishga undash lozim. Bola kuzatuvchi emas, tadqiqotchi bo‘lishi uchun sharoit yaratish kerak. Agar tarbiyachi faoliyati qiziqarli bo‘lmasa, bola uni tezda kuzatishni tark etishi mumkin.

Natijada, bolalarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiya pasayishi mumkin, va bu, o‘z navbatida, mashg‘ulotlardagi ishtirokini ham samarasiz qiladi. Tajriba orqali bolalar masalan, taxmin qilish, kutilayotgan natija, vazifalarni yechish yo‘llarini izlash, sinab ko‘rish kabi fikrlarni ilgari suradilar. Tajriba yordamida bolalar mustaqil tadqiqot o‘tkazishni o‘rganadilar, o‘z fikrlarini himoya qiladilar va tajriba natijalarini umumlashtiradilar. Tajriba o‘tkazish bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali usulidir, bu tafakkur, mantiq va ijodkorlikni rivojlantiradi.”NBIC” texnologiyasi bolalarga “qanday?” va “nima uchun?” savollariga javob topish imkonini yaratadi. Bu texnologiya bir nechta yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi: jonli tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, o‘simlik va hayvonlar, ularning umumiy belgilari, o‘xshashlik va farqlar; ularning vazifalari va ahamiyati, ularga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni o‘rganish; jonsiz tabiatning (suv, havo, qum, tuproq, tosh, qora yer) xususiyatlari; jismlarning tuzilishi (gazsimon, suyuq, qattiq), sifatlari va xususiyatlari, bir holatdan boshqa holatga o‘tishi; suvning tabiatda aylanishi (suv, bug‘, muz, yomg‘ir), jonsiz tabiatning jonli tabiatga ta’siri; kattalar bilan birga amalga oshiriladigan tadqiqotlar (eritish, yaxlatish, bo‘yash, qizdirish va qaynatish); ba’zi fizik jarayonlarning ahamiyati, suv, elektr energiyasi va qog‘ozni saqlash; tabiat hodisalari turli omillarga bog‘liqligini tushuntirish; tabiatdagi o‘zgarishlar sababini tushuntirish (qor erishi va muzlashi); buyumlar va ularning belgilari, tuzilishi, vazifalari, shakli, o‘lchami, rangi, xususiyatlari, nomlanishini o‘rganish; materiallarning sifatlari va xususiyatlarini o‘rganish (mo‘rt, nozik, sinuvchan, o‘zgaruvchan, chidamli, chidamsiz, yumshoq, qattiq, g‘adir-budur, qalin, ingichka); predmetlarning inson faoliyatining natijasi ekanini tushuntirish va boshqa ko‘plab mavzular.

Atrofdagi borliq bilan tanishishda bolalar tadqiqotchi sifatida faoliyat olib boradi. Tajriba o‘tkazishda bolalar hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiriladi va tajriba natijalari pedagog-tarbiyachi bilan muhokama qilinadi. Bolalar uchun komfortli va ijodiy muhit yaratish muhimdir. Mini laboratoriya tashkil etilib, bolalar tajriba o‘tkazish “olimlar”ga aylanadi, o‘simliklar o‘stirish va tajriba uchun materiallar saqlash joylarini belgilaydi.“NBIC” texnologiyasi bolalarning atrof olamni tushunish va bilimlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi, tabiat ajoyibotlaridan hayratlanish hissini uyg‘otadi va atrof olam bilan muloqotdan qoniqish hosil qiladi. Bolalar o‘z faoliyatlarini bosqichma-bosqich rejalashtirib, kerakli jihozlarni tanlashga o‘rganadilar.

Xulosa va takliflar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishda metodik tizim ishlab chiqilgan. Bu tizimda bolalarga narsa va buyumlarning nomini, belgilari va xususiyatlarini o‘rgatish, voqea-hodisa va ularning sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirish, predmetlar bilan bog‘liq amaliy mashqlarni bajarish metodlari mavjud. Masalan, “Ilm-fan va tabiat”, “San’at”, “Qurilish va konstruksiyalash” markazlarida bolalar turli mavzularda amaliy faoliyatlar olib boradilar, applikatsiya, loy, plastilin yordamida predmetlar yasashadi va ularning hayotda qanday qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘nikma hosil qiladilar.Bundan tashqari, bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishga o‘rgatiladi, masalan, “Bizning uy”, “Bizning mahalla”, “Kasblar”, “Transport turlari” kabi mavzularda rasm chizish, app-

likatsiya, loy va plastilindan foydalanib, yasash va boshqalar. MTTda atrof olam bilan tanishtirishga oid tadbirlar tayyorlashda tarbiyachilarga metodik tavsiyalar beriladi.

O‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, bolalar o‘quv-tarbiyaviy faoliyat davomida predmetlarni turlarga ko‘ra guruhlab, tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tizimlashtiradilar, atrofdagi predmetlarning belgilari, kattalik, rangi va hayotiy faoliyatda foydalanishini o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida innovatsion faoliyatni qo‘llash, kollaborativ muhit yaratish, pedagogik jarayonda diagnostik va prognostik metodlardan foydalanish muhimdir. Bu bolalarda mustaqillik, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish va o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishda o‘zaro bog‘liq uchta ta’lim siklini amalga oshirish zarur. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglariga quyidagi tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- bolalarda faollikni oshirish va ularning rivojlanish sohalari bo‘yicha faoliyatlarini doimiy kuzatish, qo‘llab-quvvatlash;

- atrof-olam bilan tanishtirish orqali ularda jonli tabiatga nisabatan ongli munosabati, atrof-muhitni asrash, ekologik madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirib borish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida bolalarning yosh-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘qitish metodikasini belgilash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. T.: 2018. 31b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida" gi 802-son qarori.

3. Davletshin. M.G., Do‘stmuhamedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: 2004. 129 b.

4. Дубина О.В. Ребёнок и окружающий мир. Программа и методические рекомендаци. Для занятия с детьми 2-7 лет. Изд. Мозаика-синтез., 2017. 123 с.

5. Зинченко В.П. Развивающее образование. Том I. Диалог с В.В. Давыдовым. -М.: АПК и ППРО, 2002. - 254 с.

6. Козина Е.Ф. Методика ознакомления с окружающим миром в предшкольном возрасте. М.: Изд. Прометей-2011. – 690 с.

7. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошкольная педагогика: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений. -3-е изд., исправ.и доп. - М. :Издательский центр “Академия”, 2001. – 416 с.

8. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika / O‘quv qo‘llanma. T.: Ma’naviyat, 2013.157 b.

9. Qodirova F.R., Jo‘raeva N.T. Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar / O‘UM. TDPU huzuridagi XTXQTMOXM.T.: 2018. – 158 b.

10. Немов Р.С Практическая психология: Познания себя. Влияние на людей.: Пособие для учащихся. – М.: Гуманит.изд. центр ВЛАДОС, 1998. 320 с.

11. Спиноза Б. The Philosophy of Spinoza as Contained in the First, Second, and Fifth Parts of the Ethics and in Extracts from the Third and Fourth. Creative Media Partners, 2016. – 220 p.

12. Усова А.П. Обучение в детском саду / Под.ред. А.В.Запорожца. – 3 изд. Испр -М.: Просвещение, 1991. 176 с.

13. Ferreira M.E. Stage-based ecological education of preschool children on the basis of environmentally friendly approach. Portugal. 2015. – 149 p.

14. Fisher R. A. Impact of Early-Exposure Environmental Education on a Child’s Selection of Words and Creativity. 2013. – 26.

ME’DA YARA KASALLIGI VA UNING ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Tolmasov Ro‘zibek Tolmasovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi
assistenti,
Yusupova Dilroz Hamdamovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi
talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada me’da yara kasalligi va uning zamonaviy davolash usullari, shuningdek, me’da tuzilishi va unda uchraydigan turli xil patologik holatlarni aniqlash usullari to‘g‘risida so‘z boradi. Oshqozon yarasi kasalligi vaqtida davolanmasa bemorning ahvoli kundan-kunga yomonlashib boraveradi. Masalan, yara qonab ketishi mumkin. Bunday holatda hushdan ketish, ba’zan ichakdan qon ketishi yoki qon qusish holatlari yuz beradi. Shuningdek, kerakli tibbiy muolajalar o‘tkazilmasa oshqozon yarasining o‘smaga aylanishi, saratonni yuzaga keltirishi hamda o‘t pufagi kasalliklari, xoletsistit (o‘t pufagining yallig‘lanishi), pankreatit (oshqozon osti bezining yallig‘lanishi) kabi xastaliklarni keltirib chiqarishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *me’da, me’da qavatlari va bo‘shlig‘i, me’da yara kasalligi, Helicobacter Pylori bakteriyasi, diagnostika, parhez*

Аннотация: *В данной статье рассматривается язвенная болезнь желудка и современные методы её лечения, а также методы диагностики различных патологических состояний желудка и его строения. Если язвенная болезнь желудка не лечится своевременно, состояние пациента может постепенно ухудшаться. Например, возможно кровотечение из язвы, что может привести к потере сознания, кровотечению из кишечника или рвоте с кровью. Кроме того, при отсутствии необходимого медицинского вмешательства язва желудка может перерасти в опухоль, способствовать развитию рака, а также привести к таким заболеваниям, как холецистит (воспаление желчного пузыря) и панкреатит (воспаление поджелудочной железы).*

Ключевые слова: *желудок, слизистая и полость желудка, язвенная болезнь желудка, бактерия Helicobacter pylori, диагностика, диета.*

Abstract: *This article discusses gastric ulcer disease and its modern treatment methods, as well as approaches to identifying various pathological conditions and structural features of the stomach. If not treated in a timely manner, a gastric ulcer may progressively worsen the patient’s condition. For example, ulcer bleeding may occur, leading to loss of consciousness, intestinal bleeding, or hematemesis. Furthermore, without proper medical intervention, a gastric ulcer can develop into a tumor, potentially cause cancer, and contribute to the onset of conditions such as cholecystitis (inflammation of the gallbladder) and pancreatitis (inflammation of the pancreas).*

Keywords: *stomach, gastric layers and cavity, gastric ulcer disease, Helicobacter pylori bacteria, diagnostics, diet.*

Kirish.

Me’da ovqat hazm qilish tizimining asosiy organlaridan biri bo‘lib, ovqatning kimyoviy parchalanishini amalga oshiradi. U asosan mushakli to‘qima, oshqozon shirasining sekretsiya qiluvchi bezlari va boshqa bir qator hujayra toifalaridan tuzilgan. Ovqat oshqozon devorining mexanik harakatlaridan o‘tib, me’da shirasi bilan aralashtiriladi.

Me’da quyidagi asosiy qism va qavatlardan tashkil topgan:

- Qavatlar. Me’da devorining uch asosiy qavatlari farqlanadi: mukoza (ichki qavat), submukoza (o‘rta qavat) va muskul (tashqi qavat).
- Me’da bo‘shlig‘i. Ovqat hazm qilish jarayonida ishlatiladigan asosiy makon.
- Qizilo‘ngach (esophagus). Ovqatning me’daga kirish qismi.
- Pilor (pylorus). Me’da va o‘n ikki barmoq ichakni ajratib turuvchi qism.
- Me’daning boshqa qism va funksiyalari. Kardia (me’daning esophagus bilan bog‘lovchi qism), fundus (me’daning yuqori qismi), antrum (pilor prekrasnoy qismi) va boshqalar.

Maqolamizda aynan, me’da yara kasalligining sabablari, belgilari, diagnostikasi hamda zamonaviy davolash usullari haqida fikr yuritiladi.


Material va metodlar.

Maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, zamonaviy kompyuter texnologiyalari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.


Oshqozon yarasini tashxislashning zamonaviy asosiy usuli – gastroskopiya. Ko‘pincha fibrogastroduodenoskopiya endoskopik tekshiruv bo‘lib, tekshirish davomida oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak tekshiriladi. Agar tekshiruv vaqtida shifokor shilliq qavatning shubhali o‘zgargan joyini aniqlasa, u biopsiya o‘tkazadi, to‘qima bo‘lagini oladi va uni laboratoriyaga yuboradi.

Tekshirish uchun kontrastli rentgen tekshiruvini buyurishi mumkin. Bemorga ichish uchun *radiopak eritma* beriladi, shundan keyin oshqozon rentgen nurlari bilan tekshiriladi: ekranda uning qanday qisqarishini kuzatishimiz va devorlarning deformatsiyasini aniqlashimiz mumkin.

“Radiopak eritma” – rentgen diagnostik kontrast moddalar. Ular radiatsiyaviy tadqiqot usullari (rentgen-kompyuter tomografiyasi va rentgenografiya) davomida ichki organlar va anatomik tuzilmalaring vizualizatsiyasini yaxshilash uchun ishlatiladi. Ko‘p hollarda ishlatiladigan radiopak eritmalari odatda yod yoki bariyni o‘z ichini oladi.



1-rasm. Bemorni endoskopik tekshiruvi.



a b

2-rasm. Tekshiruv natijasining qiyosiy tahlili:
a.sog‘lom oshqozon b.oshqozon yarasi kasalligi

Natijalar va muhokamalar.

Oshqozon yarasi – bu oshqozon devorining chuqur defekti bo‘lib, shilliq qavatga zarar yetkazadi. O‘tkir yoki surunkali bo‘ladi. Surunkali bosqichda kasallik tez-tez xuruj qilib turadi va hayot uchun xavfli asoratlarni keltirib chiqaradi. Ba’zida shunday yaralar oshqozonning orqasida joylashgan ichak qismida paydo bo‘ladi. Bu holda, u o‘n ikki barmoqli ichak yarasi hisoblanadi. Oshqozon yarasining har ikkala turi ham *peptic yara* (*peptic yara* – oshqozon yoki o‘n ikki barmoqli ichakning kislota-li-pepsinli me’da shirasining ta’siri ostida yuzaga keladigan shilliq qavat, submukoza va mushak qatlamini o‘z ichiga olgan keskin cheklangan to‘qimalarning yo‘qolishi) deb ataladi. Peptic yara juda keng tarqalgan. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida har o‘n nafardan biri bu kasallikdan aziyat chekadi. Kasallik nasl surishi mumkin. Irsiy moyillik belgilari birinchi qon guruhidagi bemorlarda uchraydi, ABO antigenning bo‘lmasligi antitripsin a1 kamligi, hamda T-limfotsitlarning kamayishi, B-limfotsitlarning ko‘payishi hisoblanadi.



3-rasm. Sog‘lom oshqozon va kasallangan oshqozon farqi.

Kasallik xavfli, chunki uning kuchayishi yoki uzoq muddatli surunkali tabiati saraton kasalligiga olib kelishi mumkin. O‘tkir oshqozon yarasi esa kuchli qon ketishiga olib kelishi mumkin.

Yara kasalligi surunkali kasallik, uning kechishi 4ta bosqichlarga ajratiladi.

I. Yara funksional buzilish bilan ifodalanadi.

II. Gastroduodenit bosqichi.

III. Yara hosil bo‘lish bosqichi.

IV. Yara hosil bo‘lgandan keyingi jarayonlar.

Kasallik sabablari:

Oshqozonda kislotalilik buzilgan va xlorid kislota darajasi ko‘tarilgan ko‘plab omillar mavjud, bular kasallikning rivojlanishiga olib keladi. Eng keng tarqalgan sabablar:

• Chekish;
• Spirtli ichimliklar iste’mol qilish;
• Kofein o‘z ichiga olgan soda va ichimliklarni iste’mol qilish;
• Noto‘g‘ri ovqatlanish;
• Og‘riq qoldiruvchi vositalarni tez-tez qabul qilish . Masalan:
• Aspirin.Tabletkalar himoya qobig‘i bilan qoplangan bo‘lsa ham va oshqozondan tashqarida eriydi.
• Ibuprofenga asoslangan vositalar.
• Diklofenak natriyga asoslangan preparatlar.
• Naproksenga asoslangan og‘riq qoldiruvchi vositalar.
• Depressiya yoki stressli vaziyatlar.
• Oqsil, vitamin yetishmasligi.

Oshqozon yarasi belgilari:

• Qorinda og‘riq, ko‘krak qafasi va kurak tomoniga, shuningdek, bel va umurtqaning ko‘krak qismiga tarqalgan.
• Jig‘ildon qaynashi.
• Qusish.
• Ovqatdan keyin 30-60 daqiqa davom etadigan bosh og‘rig‘i.
• Oshqozon sohasidagi tungi og‘riqlar.
• Bemor ozib ketadi.

Diagnostika:

• Klinik qon tekshiruvi
• Yashirin qon uchun axlat tahlili
• Oshqozonning kislota hosil qiluvchi funksiyasini tahlil qilish
• Oshqozon shilliq qavatida *Helicobacter pylori* bakteriyasini bor-yo‘qligini tekshirish


Laboratoriya tekshirishlari. Oshqozon shirasining kislotaliligi ko‘pincha yuqori. Ko‘pincha gipersekretsiya va gastrosukoriya aniqlanadi. Najasda yashirin qon ketishi aniqlanishi mumkin (Gregersen reaksiyasi) , tekshirish oldidan kasalga uch kun go‘shtli ovqat berilmaydi.

Rentgenologik tekshirish. “Tokcha” belgilari aniqlanadi, oshqozon yoki o‘n ikki barmoq ichak joylashgan qismda barqaror deformatsiya, burma konvergensiyasi belgilari, peristaltika kuchayishi aniqlanadi. Gastrofibroskopiya yarani, uning katta-kichikligini, asoratlar borligini aniqlashga imkon beradi, dinamikada tekshirish esa chandiq hosil bo‘lish jarayonlarini kuzatadi hamda lazer nurlari bilan mahalliy kuydirish terapiyasini o‘tkazadi, dori moddalar yuborila dizarurat bo‘lsa o‘sha joy biopsiya qilinadi.

Me’da yarasini davolash

Oshqozon yarasida davolash uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

• *Helicobacter pylori* bakteriyasini yo‘q qilish (kasallikka chalinganlarning 10-15% ida rivojlanadi)
• Oshqozonda xlorid kislota darajasini normallashtirish
• Shilliq qavatni tajovuzkor omillar ta’siridan himoya qilish uning himoya mexanizmlarini rag‘batlantirish, yallig‘lanish jarayonini bostirish.



4-rasm. Oshqozon yarasini davolash bosqichlari.

1-jadval.

Oshqozon yarasi davolash bosqichlari. (4-rasmga tegishli)

Bosqichlar		
A1	Faol bosqich	Oshqozon yarasini o‘rab turgan shilliq qavat shish natijasida shishgan ko‘rinadi va epiteliyning yangilanishi yo‘q.
A2		Oshqozon yarasi atrofidagi shilliq qavatning shishishi kamaydi, yaraning cheti aniq ko‘rinadi, yaraning chetida yangilanadigan epiteliyning birinchi nihollari paydo bo‘ladi. Oshqozon yarasining perimetri bo‘ylab ko‘pincha qizil halqa ko‘rinadi va ko‘pincha chetida dumaloq oq qora qo‘tir ko‘rinadi. Shilliq qavatning konverging burmalari odatda yaraning chetiga qadar kuzatiladi.
H1	Davolash	Yarani qoplaydigan oq fibrin qatlami yupqa bo‘lib, qayta tiklanadigan epiteliy to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshqozon yarasi tagiga tarqaladi. Yaraning qirrasi va pastki qismi orasidagi gradient tekislanadi. Ammo yara krateri hali ham mavjud va yaraning cheti aniq ko‘rinadi. Yaraning diametri A1 bosqichidagi yara diametrining taxminan yarmidan uchdan ikki qismigacha.
H2		Yarali nuqson H1 bosqichiga qaraganda kichikroq va qayta tiklanadigan epiteliya oshqozon yarasi tubining katta qismini qoplaydi. Oq fibrin qatlamining maydoni A1 bosqichidagi yara maydonining taxminan to‘rtdan biridan uchdan bir qismini tashkil qiladi.
S1	Skar bosqichi, qizil chandiq	Qayta tiklanadigan epiteliya yaraning pastki qismini to‘liq qoplaydi. Fibrinning oq qatlami yo‘qolgan. Dastlab, regeneratsiya zonasi yorqin qizil ko‘rinadi. Yaqinroq tekshirilganda siz ko‘p sonli kapillyarlarni ko‘rishingiz mumkin. “Qizil chandiq” paydo bo‘ldi.
S2	Skar bosqichi, oq chandiq	Bir necha oydan bir necha yilgacha bo‘lgan davrda dastlab qizil chandiq atrofdagi shilliq qavatning rangini oladi. “Oq chandiq” paydo bo‘ldi.

Parhez:

Ko‘pgina hollarda kasallikning kuchayishi bilan, shuningdek, surunkali oshqozon yarasini davolash uchun 1-sonli parhezni buyuriladi, bunda mumkin emas:

- Gazlangan ichimliklar
- Yuqori tolali xom meva va sabzavotlar
- Go‘sht, baliq, qo‘ziqorin bulyonlari
- Qovurilgan taomlar
- Dudlangan go‘sht
- Marinadlar, tuzlangan bodring
- Achchiq choy va qahva

Kimlar bu kasallikka chalinishi mumkin ?

- Erkaklar (ayniqsa birinchi qon guruhi bilan)
- Doimiy stressga duchor bo‘lgan xolerik temperamentli odamlar (hissiy va muvozanatsiz)
- Ko‘p chekadigan odamlar
- Tartibsiz ovqatlanadigan odamlar
- Yosh qanchalik katta bo‘lsa, oshqozon yarasi rivojlanish xavfi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, 20-50 yoshli odamlarda bu kasallik keng tarqalgan.

Kasallikni oldini olish:

Oshqozon yarasini oldini olish uchun juda oddiy talablarga rioya qilish kerak:

- 6-8 soat uxlash
- Yog‘li, dudlangan, qovurilgan ovqatlardan voz kechish
- Chekmaslik
- Spirtli ichimliklarni iste’mol qilmaslik.

Xulosa.

Har bir inson sog‘lom turmush tarzini olib borishi – chekishdan, spirtli ichimliklar iste’mol qilishdan voz kechishi, sog‘lom ovqatlanish qoidalariga rioya qilishi lozim. Oshqozon haqida shikoyatlar bo‘lsa tezda shifokor bilan bog‘lanishi zarur, kasallik asoratlaridan eng xavflisi qon ketish va oshqozon devorining yorilishi paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holatda, agar favqulodda operatsiya qilinmasa, o‘lim ehtimoli 99% ni tashkil etadi. Kasallik bahor va kuz fasllarida tez-tez qaytalanishi bilan tavsiflanadi. Oshqozon yarasi sababi, odatda, odamning asab tizimini kuchlantiradigan stresslar bo‘lib, u o‘z navbatida oshqozon-ichak trakti mushaklarning va qon tomirlarining spazmlarini keltirib chiqaradi. Natijada oshqozonning qon bilan ta’minlanishi buziladi va oshqozon sharbati shilliq qavatga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi, bu me’da yaralari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Helicobacter pylori bakteriyalari bilan zararlanishdan himoyalanish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, shuningdek, shaxsiy jihozlar va idishlarni ishlatish va yaqin kontaktlarni cheklash talab etiladi. Ayniqsa, bu qoidalar yaqin atrofda oshqozon yarasi bilan og‘rigan odam bo‘lsa muhim bo‘ladi. Kasalliklarga duchor bo‘lmasligi uchun yomon odatlardan voz kechish va immunitetning pasayishiga olib keladigan barcha odatlarni tashlash, to‘g‘ri ovqatlanish muhim profilaktik chora hisoblanadi. Termik ishlov berilgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilish, tez-tez va kichik qismlarda ovqatlanish, achchiq va qovurilgan taomlarni minimallashtirish kerak. Barcha dori-darmonlarni, ayniqsa, oshqozon yarasining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan vositalar, dozaga qat’iy rioya qilingan holda qabul qilinishi kerak.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Odam anatomiyasi va OXTA” kafedrasi assistenti Tolmasov Ro‘zibek Tolmasovich taqrizi ostida

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.A.Qoraboyeva, A.X,Hasanov, H.A.Xo‘jayeva. “Ichki kasalliklar propedevtikasidan qo‘llanma”. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr, 1997 yil – 320 b.

2. E.Y.Qosimov, Sh.G.Muqminova, B.N.Nuritdinov “Ichki kasalliklar propedevtikasi”. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi nashr, 1996 yil – 180 b.

3. F.N.Bahodirov. “Odam anatomiyasi”. Toshkent, Davlat ilmiy nashr, 2005 yil – 177 b.

4. Q.R.To‘xtaev, F.X.Azizova, M.A.Abduraxmanov, E.A.Tursunov. “Gistologiya sitologiya embriologiya”. Toshkent 2019 y.

5. A.Gadayev, M.Sh.Karimov, X.S.Axmedov. “Ichki kasalliklar propedevtikasi”. Toshkent, “Muharrir” nashr, 2012 – 379 b.

6. Rahmonova Umida, Muzaffar Farxodov and Diyorbek Azamjonov. “STOMACH OPERATIONS IN OBESITY. ANATOMICAL STRUCTURE OF THE STOMACH.” *Журнал академических исследований нового Узбекистана* 1.4 (2024): 63-72.

7. Srodka A. The short history of gastroenterology // Physiol. Pharmacol. – 2003. – Vol. 54. – Suppl. 3.

PALMA YOG‘INING TARKIBI VA INSON ORGANIZMIGA TA’SIRI

Tolmasov Ro‘zibek Tolmasovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi Odam antamiyasi
va OXTA kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Yusupova Dilroz Hamdam qizi,
Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada palma yog‘i , uning tarkibi , qo‘llanilishi hamda inson organizmiga ta’siri haqida so‘z boradi. Palma yog‘ining foydalari va zararli tomonlari bo‘yicha tadqiqot natijalari ko‘rsatiladi. Undan tashqari palma yog‘ining turlari va olinish usullari bilan tanishamiz. Ushbu maqola oziq-ovqat sanoatida palma yog‘idan foydalanish xavfsizligi masalasini ko‘taradi. Hozirgi kunda oziq-ovqat bozori palma moyini o‘z ichiga olgan mahsulotlar bilan to‘lgan. Palma yog‘ining salbiy fazilatlariga qaramay, uning xususiyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan va ushbu mahsulotlardan foydalanish, zarari va foydalari bo‘yicha turli fikrlar mavjud. Palma mevalaridan tayyorlangan qizil palma moyi – dunyoda yagona 100 % li tabiiy oziq-ovqat moyi bo‘lib, A ,E vitaminlariga , Q10 kofermentlari va boshqa mahsulotlarga boyligi bilan ajralib turadi. U oziq-ovqat sanoatida, kosmetikada keng qo‘llaniladi.*

Kalit so‘zlar: *palma yog‘i, palma stearini, to‘yingan yog‘li kislotalar, vodorodlangan yog‘lar, “Premium Carotino”, tokoferol, tokotrienol.*

Аннотация: *В этой статье обсуждается пальмовое масло, его состав, применение и влияние на организм человека. Представлены результаты исследований пользы и вреда пальмового масла. Мы также узнаем о видах пальмового масла и способах его получения. В данной статье поднимается вопрос безопасности использования пальмового масла в пищевой промышленности. В настоящее время рынок продуктов питания переполнен продукцией, содержащей пальмовое масло. Несмотря на отрицательные качества пальмового масла, его свойства до сих пор не изучены до конца, и существуют разные мнения о применении, вреде и пользе этих продуктов. Красное пальмовое масло, получаемое из плодов пальмы, является единственным в мире 100% натуральным пищевым маслом, богатым витаминами А, Е, коэнзимом Q10 и другими веществами. Широко используется в пищевой промышленности и косметике.*

Ключевые слова: *пальмовое масло, пальмовый стеарин, насыщенные жирные кислоты, гидрогенизированные жиры, “Premium Carotino”, токоферол, токотриенол.*

Annotation: *This article discusses palm oil, its composition, use and effects on the human body. The results of research on the benefits and harms of palm oil are presented. In addition, we will get acquainted with the types of palm oil and methods of its extraction. This article raises the issue of the safety of using palm oil in the food industry. Currently, the food market is full of products containing palm oil. Despite the negative qualities of palm oil, its properties have not yet been fully studied, and there are different opinions on the use, harm and benefits of these products. Red palm oil, made from palm fruits, is the only 100% natural food oil in the world, and is distinguished by its richness in vitamins A, E, coenzyme Q10 and other products. It is widely used in the food industry and cosmetics.*

Keywords: *palm oil, palm stearin, saturated fatty acids, hydrogenated fats, “Premium Carotino”, tocopherol, tocotrienol.*

Kirish.

Yog‘lar – bu murakkab , organik birikmalar bo‘lib, ular trilisiridlar va lipidlardan tashkil topgan. Yog‘lar organizmning hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ular oziq-ovqat bilan tushuvchi moddalar ichida karbonsuvlardan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi umumiy energiya manbai hisoblanadi (1 gramm yog‘ organizmga 9 kkal energiya beradi).

Dunyoda palmalar soni juda ko‘p, ammo hamma palma mevasidan ham moyi olinmaydi. Moyli palma issiq iqlimli mintaqalarda o‘sadi, unga havoning harorati +28 gradus bo‘lishi kerak, u yorug‘lik va suvni juda yaxshi ko‘radi. Palma moyidan mahsulotlarni qovurishda foydalanish mumkin, chunki u tutamaydi va o‘zidan hid ajratmaydi. Palma yog‘ining taxminan 90% i oziq-ovqat uchun ishlatiladi va faqat 10% i sovun va boshqa oleokimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.



1-rasm. Palma yog‘i.

Material va metod.

Maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, matematik kabi ilmiy tadqiqot metodlardan foydalaniladi.

Palma mevalarini qayta ishlash natijasida 2 xil turdagi moy olinadi:

• Palma yadroli moy
• Xom palma moyi

Xom palma moyi o‘zida 70% gacha moy saqlagan meva etidan olinadi. Qayta ishlanmagan holatda bunday moy faqat texnik maqsadlarda – surtish uchun, sovun va sham ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bir necha bosqichli rafinasiyadan (tozalashdan) so‘ng undan oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan moyni olish mumkin. Shuningdek , uni yana 3 ta turi farqlanadi:

• Standart palma moyi
• Palmali olein
Saraton hujayralarining metabolik xususiyatlarini tushunish va ularga ta’sir qilish terapiyaning yangi yo‘nalishlarini ochib bermoqda. Warburg effekti, glutamin metabolizmi va lipid sintezi kabi jarayonlar saraton bilan kurashishda muhim nishonlar hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu usullarning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan. Zamonaviy diagnostika usullari saraton kasalligini aniqlashda aniqlik va samaradorlikni oshirishga yordam bermoqda. Suyuq biopsiya, molekulyar diagnostika va PET-CT kabi usullar o‘simtalarni aniqlashning yangi usullarini ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Warburg, O. (1956). On the Origin of Cancer Cells. Science, 123(3191), 309-314.
2. DeBerardinis, R. J., & Cheng, T. (2010). Q&A: What’s so special about glutamine? Nature Reviews Cancer, 10(9), 686-695.
3. Menendez, J. A., & Lupu, R. (2007). Fatty acid synthase and the lipogenic phenotype in cancer pathogenesis. Nature Reviews Cancer, 7(10), 763-777.
4. Pelicano, H., Martin, D. S., Xu, R. H., & Huang, P. (2006). Glycolysis inhibition for anticancer treatment. Oncogene, 25(34), 4633-4646.
5. Dang, C. V. (2010). Rethinking the Warburg effect with Myc micromanaging glutamine metabolism. Cancer Research, 70(3), 859-862.
6. Mashima, T., & Tsuruo, T. (2002). De novo fatty-acid synthesis and related pathways as molecular targets for cancer therapy. British Journal of Cancer, 87(3), 277-282.
7. Vander Heiden, M. G., Cantley, L. C., & Thompson, C. B. (2009). Understanding the Warburg effect: the metabolic requirements of cell proliferation. Science, 324(5930), 1029-1033.
8. Tennant, D. A., Duran, R. V., & Gottlieb, E. (2010). Targeting metabolic transformation for cancer therapy. Nature Reviews Cancer, 10(4), 267-277.
9. Cairns, R. A., Harris, I. S., & Mak, T. W. (2011). Regulation of cancer cell metabolism. Nature Reviews Cancer, 11(2), 85-95.
10. Ward, P. S., & Thompson, C. B. (2012). Metabolic reprogramming: a cancer hallmark even warburg did not anticipate. Cancer Cell, 21(3), 297-308.

PODAGRA KASALLIGIDA NATRIURETIK PEPTIDLAR DARAJASI VA YURAK DISFUNKSIYASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Bekmurodova Malika Ro‘zimurod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
talabasi,
Toirov Doston Rustamovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, PhD

Annotatsıya: *Podagra kasalligining patogenezida purin almashinuvining buzilishi, yallig‘lanish sitokinlari va matriksli metalloproteinazalar bilan bir qatorda, turli xil o‘rta molekulyar birikmalar, jumladan, natriuretik peptidlar (ANP – bo‘lmachalar natriuretik peptidi, BNP – miya natriuretik peptidi) muhim ahamiyatga ega. Dispersion tadqiqotlar osteokistoz rivojlanishida ANP va BNP ning ahamiyati yuqori ekanligini, biroq bo‘g‘im tirqishining torayishida asosan ANP ishtirok etishini ko‘rsatadi. Qon tarkibidagi ANP miqdori chap qorinchada diastolik disfunktsiya rivojlanishida dispersion ahamiyatga ega bo‘lsa, BNP yurak o‘tkazuvchanligining buzilishi va kameralar hajmining kengayishida muhim rol o‘ynaydi.*

Kalıt so‘zlar: *natriuretik peptid, ANP (bo‘lmachalar natriuretik peptidi), BNP (miya natriuretik peptidi), diastolik disfunksiya, podagra.*

Аннотация:*Впатогенезеподагрынарядуснарушениемпуринового обмена,воспалительными цитокинами и матриксными металлопротеиназами важную роль играют различные средние молекулярные соединения, в том числе натрийуретические пептиды (АНП – предсердный натрийуретический пептид, БНП – мозговой натрийуретический пептид). Дисперсионные исследования показывают высокую значимость АНП и БНП при развитии остеокистоза, однако в сужении суставной щели основную роль играет именно АНП. Повышенный уровень АНП в крови имеет дисперсионное значение при развитии диастолической дисфункции левого желудочка, тогда как БНП играет важную роль при нарушении проводимости сердца и расширении камер.*

Ключевые слова: *натрийуретический пептид, АНП (предсердный натрийуретический пептид), БНП (мозговой натрийуретический пептид), диастолическая дисфункция, подагра.*

Abstract: *In the pathogenesis of gout, along with purine metabolism disorders, inflammatory cytokines, and matrix metalloproteinases, various medium-molecular compounds – including natriuretic peptides (ANP – atrial natriuretic peptide, BNP – brain natriuretic peptide) – play a crucial role. Dispersive studies reveal the significant involvement of ANP and BNP in the development of osteocystosis, although joint space narrowing is primarily associated with ANP. Elevated ANP levels in the blood have dispersive significance in the development of left ventricular diastolic dysfunction, whereas BNP plays a major role in cardiac conduction disturbances and chamber dilation.*

Keywords: *natriuretic peptide, ANP (atrial natriuretic peptide), BNP (brain natriuretic peptide), diastolic dysfunction, gout.*

Kırish.

Podagra – bu tizimli yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, u purin metabolizmining buzilishi va gipourikemiya kuzatiladigan shaxslarda mononatriy urat kristallarining bo‘g‘imlar hamda ichki a’zolarda to‘planishi natijasida rivojlanadi. Ushbu patologiya eng keng tarqalgan revmatologik kasalliklardan biri bo‘lib, ayniqsa, erkaklar orasida uchraydigan artritlarning yetakchi shaklidan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda podagraning tarqalishi global miqyosda ortib bormoqda va ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra (Chang-Fu Kuo, Matthew J. Grainge, Lai-Chu See va boshqalar) populyatsiyada 6 % dan ortiqni tashkil etgani aniqlanadi.

Podagraning patogenezida nafaqat purin almashinuvining buzilishi, balki yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytiruvchi sitokin tizimlari, matriks metalloproteinazalar hamda turli o‘rta molekulyar fraksiyalar, jumladan, natriuretik peptidlar (yurak bo‘lmachasi – ANP, miya – BNP) ishtirok etadi. Shu bilan birga, ularning podagra patogenezidagi o‘rni yetarlicha o‘rganilmagan va hali to‘liq aniqlik kiritilmagan.

Birlamchi podagra bilan kasallangan bemorlarda diastolik funksiyaning holati va yurakning qayta shakllanish jarayonlariga oid adabiyotlarda kam ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ba’zan ushbu ma’lumotlar bir-biriga zid keladi. Ayrim tadqiqotlarda gipourikemiyaning chap qorincha miokardi massasi va boshqa a’zoviy shikastlanish markerlari bilan bog‘liqligi aniqlangan. Biroq, boshqa mualliflar siydik kislotasi darajasining chap qorincha miokardi massasi, karotid arteriyalari disfunktsiyasi yoki mikroalbuminuriya bilan ishonchli bog‘liqligini tasdiqlamaganlar.

Ushbu tadqiqot podagraning yurak-qon tomir tizimiga ta’sirini baholash, natriuretik peptidlarning rolini o‘rganish hamda yurakning qayta shakllanish jarayonlariga bo‘lgan ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi.

Podagra bilan kasallangan bemorlarda bo‘g‘imlar, buyraklar va yurak shikastlanishi jarayonida ANP va BNP natriyuretik peptidlari darajasining klinik-patogenetik ahamiyatini baholash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotlar Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-klinikasining terapevtik bo‘limida o‘tkazildi. 2015-2025-yillarda Wallace S.(1977) mezonlariga muvofiq podagra tashxisi tasdiqlangan 60 nafar bemor (barchasi erkak, Samarqand shahri, Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari aholisi)da tekshirildi. Tadqiqotga kiritilgan paytda bemorlarning o‘rtacha yoshi 52,3±11,2 yoshni, kasallikning birinchi namoyon bo‘lganida esa 43,6±10,7 yoshni tashkil etdi. Kasallik davomiyligi bo‘yicha murojaat qilish vaqti 2 oydan 36 yilgacha, o‘rtacha esa 6,5 [3,8; 12,0] yilno tashkil etdi.

Pastki harakat a’zolarining funksional buzilishlarning (PHAFB) og‘irligini baholash uchun integrallashgan ko‘rsatkichdan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi ekspert belgilari asosida o‘rtacha arifmetik qiymati hisoblab asoslandi: qo‘shimcha tayanch, harakatlanish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, jamoat transportidan foydalanish, maishiy funksiyalarni bajarish va kasbiy majburiyatlarni bajarishda PHAFB 20% dan yuqori bo‘lsa, u og‘ir deb baholanib, mehnatga layoqatsizlikning III guruhiga mos keldi (Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik kommissiyasi ekspert nizomlari bo‘yicha).Tekshirishga olingan bemorlar tahliligga ko‘ra: 41,2% bemorda (25 nafar) PHAFB darajasi 0–20%, 38,3% bemorda (23 nafar) 21–40%, 10,7% bemorda (10 nafar) 41–60% tashkil qildi.

Bemorlarning 44,8% ida periferik tofuslar, 64,8% ida suyak tofuslari, 70,5% ida esa metabolik sindrom aniqlandi. 45,7% holatda arterial gipertenziya kuzatilib, o‘rtacha arterial bosim 115 mm sim. ust. dan yuqori bo‘ldi. 68,6% bemorda siydik kislotasi darajasi 420 mkmol/l dan yuqori, 60% bemorda siydik kislotasi ajralishi 800 mg/sutkadan ortiq bo‘ldi. Purin almashinuvining buzilish tiplari: 43,8% – metabolik turi, 10,5% – buyrak turi, 45,7% – aralash turi. Bo‘g‘imlar shikastlanishining tahlil natijalari: 89,5% bemorda bo‘g‘im bo‘shliqlarining torayishi, 51,4% bemorda epifizar osteoporoz,

76,2% bemorda subxondral skleroz, 27,6% bemorda menisklar o‘zgarishi, 6,7% bemorda osteokistoz, 15,2% bemorda osteouzuralar, 14,3% bemorda Shtaydi tanachalari, 13,3% bemorda tanachalari aniqlandi.

Instrumental tekshiruvlar: Rentgenologik tekshiruv (HF 55-51, Xitoy), UZ-tadqiqot (Sonoscape S50), Elektrokardiografiya (Schiller CardioVit AT-1, Type AT-1, Serial 190.25068, 10 mV, 25–50 mm/s), Exokardiografiya (AccuvixQX) bilan o‘tkazildi.

Davolash oldidan qon zardobida purin almashinuvi omillari (siydik kislotasi – SK) o‘rganildi. Natriyuretik peptidlar darajasi immunoferment usuli (Mindray MR-96A, Germaniya) bilan baholandi. Bemorlar artrit zo‘rayishi bo‘lmagan vaqtda tekshirildi. Nazorat guruhi – 18–63 yosh oralig‘idagi (o‘rtacha 35,70 ± 1,84 yosh) 20 nafar sog‘lom erkaklardan iborat bo‘ldi. Olingan ma’lumotlar Statistica 6.0 dasturi yordamida tahlil qilindi. Oddiy tavsifiy statistika va Spirman bo‘yicha noparametrik korrelyatsion tahlil qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar.

Diastolik disfunktsiya ikki asosiy omil – aktiv bo‘shashish (relaksatsiya) va qorinchalarning passiv diastolik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi aniqlandi. EKG va exoKG tekshiruvlari natijasida 82% bemorda yurak patologiyasi qayd etildi. Ulardan 43% bemorda chap qorincha gipertrofiyasi (ChQG) aniqlanib, ularning 62% ida arterial gipertenziya (AG) kuzatildi. ExoKG natijalariga ko‘ra, bemorlarning o‘rtacha 70% ida klapan apparatining zararlanishi, 50% ida qorinchalaro to‘siqning qalinlashishi (QTQ), 44% ida chap qorinchaning orqa devori qalinlashishi, 36% ida chap bo‘lmacha kengayishi, 31,5% ida esa chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasi (DDChQ) va boshqa o‘zgarishlar kuzatildi.

Podagra bilan og‘rigan bemorlarda nazorat guruhida qonda ANP darajasi 34% ga yuqori ekanligi aniqlandi (mos ravishda 5,52±0,18 pg/ml va 4,30±0,13 pg/ml; $t = 3,81$, $p < 0,001$). BNP darajasi esa 75% ga oshgan bo‘lib, u 57,1% va 50,5% bemorlarda qayd etildi (12,20±1,16 pg/ml va 6,80±0,19 pg/ml; $t = 2,49$, $p = 0,014$).

Ko‘rsatkichlarning qiymatlari quyidagicha bo‘ldi: AU – 514,60±13,65 mkmol/l, OP – 105,90±4,78, Gu – 183,70±4,45 e.e., Xa – 148,20±2,72 e.e., HXa – 7,10±0,41 e.e., XO – 7,10±0,41 nmol/ml × min, XD – 7,70±0,45 nmol/ml × min, AD – 14,90±2,04 nmol/ml × min, 5N – 6,0±0,1 nmol/ml × min, Mo – 1,60±0,08 mkg/l, Pb – 63,40±2,77 mkg/l.

Ko‘p omilli dispersion tahlil shuni ko‘rsatdiki, podagra artritining og‘irlik darajasi va shakli hamda periferik va suyak tofuslarining mavjudligi o‘rtacha molekulyar gormon peptidlarining integral parametrlariga ta’sir ko‘rsatadi. Podagra kechishining ayrim omillari o‘rtacha molekulyar peptid-gormon birikmalari bilan kuchli dispersion va bevosita noparametrik korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. ANP darajasi metabolik sindrom mavjudligiga bog‘liq bo‘lib chiqdi ($D = 1,85$, $p = 0,035$; $\tau = +0,170$, $p = 0,010$). Boshqa tomondan, artrit og‘irlik darajasiga BNP darajasi ta’sir qiladi ($D = 3,24$, $p = 0,043$). Dispersion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, osteokistoz rivojlanishiga ANP va BNP darajasi, bo‘g‘im bo‘shliqlarining torayishiga esa faqat ANP darajasi ta’sir qiladi (1-jadval).

1-jadval

Qonda o‘rtacha molekulyar peptidlar ko‘rsatkichlari va podagrik artritning rentgenologik belgilarining dispersion bog‘liqligi

Belgi	Ko‘rsatkichlar			
	ANP		BNP	
	D	P	D	P
Bo‘g‘im bo‘shliqlarining torayishi	3.83	0.048	2.88	0.093
Subxondral skleroz	0.90	0.344	1.53	0.220
Epifizar osteoporoz	1.02	0.315	0.20	0.654
Osteokistoz	18.30	<0.001	14.14	<0.001
Osteouzuralar	0.87	0.354	1.21	0.273
Menisklarning o‘zgarishlari	0.94	0.361	0.10	0.758
Shtaydi tanachalari	1.18	0.290	0.34	0.563
Goff tanachalari	0.09	0.761	0.01	0.978

Kendall tahlili osteouzuralarning shakllanishi va bo‘g‘im bo‘shliqlarining torayishi ANP parametrlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatdi (mos ravishda $\tau = +0{,}279$, $p < 0{,}001$ va $\tau = +0{,}180$, $p = 0{,}006$). Olingan statistik natijalar asosida, ANP > 6 pg/ml (> M + SD bemorlarda) bo‘lsa, bu bo‘g‘im bo‘shliqlarining torayish darajasini baholash uchun maqsadga muvofiqdir (PPV kriteriysi – 71,4%).

Barcha Natriyuretik peptid (NUP) ko‘rsatkichlari qondagi Pb miqdori bilan ishonchli teskari Pearson korrelyatsiyasiga ega edi (mos ravishda $r = –0{,}210$, $p = 0{,}040$ va $r = –0{,}208$, $p = 0{,}042$). Shu sababli, o‘rtacha molekulyar gormonal peptidlarning qondagi konsentratsiyasi va MSM fraksiyalarining integral ko‘rsatkichlari orasida bog‘liqlik bor deb taxmin qilish mumkin edi. Biroq, tahlillar natijasida bunday ishonchli bog‘liqlik aniqlanmadi.

Aniqlanishicha, podagra bilan og‘rigan bemorlarda ANP ko‘rsatkichi 6 pg/ml dan yuqori (> M + SD) bo‘lsa, bu buyrak funksiyasining yetishmovchiligi xavf omili hisoblanadi. ANP va BNP bir oilaga mansub gormonlar bo‘lib, yurak tomonidan chiqariladi: ANP o‘ng bo‘lmachada, BNP esa qorincha miokard hujayralarida hosil bo‘ladi. Bu gormonlar buyrak qon tomirlari hujayralarida maxsus retseptorlarga ega.

Natriyuretik peptidlar (NUP) fiziologik jihatdan angiotenzin II ga antagonistik ta’sir ko‘rsatadi: aldosteron sekretsiyasini kamaytiradi, natriy reabsorbsiyasini susaytiradi va qon tomir tonusini pasaytiradi. ANP chap qorincha bosimi oshganda miokarddagi taranglikning ko‘rsatkichidir va kuchli vazodilatator hisoblanadi. BNP esa fiziologik jihatdan angiotenzin II ning antagonisti bo‘lib, uning ajralishi renin sekretsiyasining inhibatsiyasiga va aldosteron ishlab chiqarilishining kamayishiga olib keladi, natijada vazodilatatsiya yuz beradi.

Biz natriyuretik peptidlar ko‘rsatkichlarini kardiovaskulyar parametrlarga nisbatan qo‘shimcha tahlil qildik (*2-jadval*).

2-jadval

Podagra bilan kasallangan bemorlarda qon tarkibidagi natriuretik peptidlarning ayrim kardiovaskulyar ko‘rsatkichlarga ta’sir darajasi

Belgi	Natriyuretik peptid			
	ANP		BNP	
	D	P	D	P
O‘rtacha arterial bosim	0,62	0,950	0,90	0,570
Umumiy periferik tomir qarshiligi	0,01	0,987	0,21	0,813
Miokard qo‘zg‘aluvchanligining buzilishi	0,30	0,587	0,39	0,532
O‘tkazuvchanlik buzilishlari	0,12	0,729	3,43	0,047
Miokardning diffuz o‘zgarishlari	0,02	0,907	0,42	0,518
Aorta o‘zgarishlari	0,16	0,693	0,19	0,669
Klangan apparati o‘zgarishlari	0,29	0,601	0,09	0,764
Yurak kameralarining o‘lchami o‘zgarishi	0,35	0,558	3,75	0,039
Chap qorinchaning sistolik disfunktsiyasi	0,91	0,344	0,14	0,709
Chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasi	6,44	<0.001	0.44	0.512

Shunday qilib, qondagi ANP darajasining dispersion ta’siri chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasi shakllanishiga, BNP esa yurakning elektrik o‘tkazuvchanlik buzilishlari va uning kameralarining kattalashishiga olib kelishi aniqlandi.

Xulosa. Podagra bilan og‘rigan bemorlarda qondagi natriyuretik peptidlar (NUP) konsentratsiyasining oshishi kuzatiladi, xususan, ANP 34% va BNP 75% bemorlarda yuqori bo‘ladi. O‘rtacha molekulyar natriyuretik peptidlar konsentratsiyasining oshishi bo‘g‘im sindromining og‘irligi, periferik va suyak tofuslarining mavjudligi bilan bog‘liq. Bunday bemorlarni boshqarishning optimal strategiya va taktikasini tanlash klinik amaliyotda nojo‘ya oqibatlar rivojlanish xavfini kamaytirishga, shuningdek, ikkilamchi profilaktikaning turli strategiyalarini (individual, yuqori xavfli va populyatsion yondashuvlarni) integratsiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Terkeltaub R. Gout & Other Crystal Arthropathies. Philadelphia: Elsevier, 2011. 45-67.
2. Emery P Zeidier, Kvient et. al. Celecoxib versus diclofenac in long-term managenat of rhenmatoid arthritis randomized double blind comparison. Lanset 1999. 354. 2106 2111
3. Самиев У. Б. и др. Инфаркт миокарда в пожилом и старческом возрасте. особенности клинического течения и диагностики //Достижения науки и образования. – 2019. – С. 103.
4. Олюнин Ю.А. “Болевой синдром при ревматических заболеваниях”. (русский медицинской журнал- том II №8 2003. ст 217-250
5. Anti-rheumatic drags Ed. E.Q. Huskinson. Praeger 1983
6. Emery P. Considerations for nonsteroidae anti-inflammatory drag. TherapyBenetits. ScandJ. Rhenmatoe 1996; 25 (suppe 05); 5-12
7. Menter DQ Cycloxygenase 2 selective inhibitors in cancer treatment and prevention Expert. OpininvestDrags 2002.
8. Fits Qerald QA PatranoQTheCoxibs, Selective inhibitors of cycloxygenase-2 New Enge. Med 2001; 345; 433-442

9. Ярмухамедова С. Х., Бекмурадова М. С. особенности диастоличекой дисфнкции правого желудочка у больных артериальной гипертензией на фоне сердечной недостаточности // Национальная Ассоциация Ученых. – 2016. – №. 1. – С. 18-18.

10. Тоиров Д. Р., Тоиров Э. С. метаболический синдром при подагре: взаимосвязь с функциональными нарушениями почек //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 28 (77).

11. Kuo CF, Grainge MJ, See LC, et al.Epidemiology andmanagement of gout in Taiwan: a nationwide population study.Arthritis Res Ther. 2016;(17):13-9. doi:10.1186/s13075-015-0522

12. Crişan TO, Cleophas MCP, Novakovic B, et al. Uricacid priming in human monocytes is driven by the AKT-PRAS40tophagy pathway. Proc Natl AcadSci USA. 2017;114(21):5485-90. doi: 10.1073/pnas.1620910114.

13. Lee JH, Yang JA, Shin K, et al. Elderly patients exhibitstronger inflammatory responses during gout attacks. J Korean MedSci. 2017;32(12):1967-73. doi: 10.3346/jkms.2017.32.12.1967.

14. Schlesinger N. Gout: A Comprehensive Guide. New York: Springer, 2018. 89-102.

MAHALLIY XOM ASHYO VA PAXTA ZAVODI CHIQINDILARIDAN GUMUS TABIATLI ORGANOMINERAL O‘G‘IT OLISH

Ro‘ziyeva Ruxsora, Nafosat Baxranova
Navoiy davlat konchillik va texnologiyalar universiteti
tayanch doktorantlari,
Gulasal Baxtiyorova, Dilfuza Islomova
Navoiy davlat konchillik va texnologiyalar universiteti
talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahalliy xom ashyo va paxta zavodi chiqindilari, mol go‘ngi va parranda chiqindisidan gumus tabiatli o‘g‘it olish va xom ashyolar tarkibini fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlash o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Paxta zavodi chiqindilari, mol go‘ngi, gumus tabiatli o‘g‘itlar, gumin kislota, orgonamineral o‘g‘it.*

Аннотация: *В данной статье изучены получение гумусоподобных удобрений из местного сырья и отходов хлопковых заводов, навоза крупного рогатого скота и птичьего помета, а также определение физико-химических свойств используемого сырья.*

Ключевые слова: *отходы хлопковых заводов, навоз крупного рогатого скота, гумусоподобные удобрения, гуминовые кислоты, органоминеральные удобрения.*

Annotation: *This article studies the production of humus-based fertilizer from local raw materials and cotton mill waste, as well as cattle and poultry manure, and the determination of its composition using physicochemical methods.*

Keywords: *Cotton mill waste, cow manure, humus-based fertilizers, humic acid, organomineral fertilizer.*

Kirish.

Navoiy viloyatida yuqori malakali, chuqur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘sha oladigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta’minlash maqsadida 2022-yil 31-mart PQ-186-son qaroriga muvofiq Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tashkil qilindi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida yaqin kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va ushbu jabhani rivojlantirish yuzasidan agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobarga ko‘paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sish sur’atini 5 foizga yetkazish kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan [2].

Ma’lumki, organomineral o‘g‘itlar – bu organik va mineral moddalarning birikmasidan iborat bo‘lib, ular tuproq unumdorligini oshirishda va o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantirishda katta rol o‘ynaydi. Organomineral o‘g‘itlar tarkibida organik moddalar (masalan, kompost, chigit yoki hayvon

go‘ngi) va mineral o‘g‘itlar (azot, fosfor, kaliy va boshqa elementlar) birlashtirilgan. Organik moddalar tuproqqa kirganda, uning tuzilishi yaxshilanadi, lekin ular minerallar bilan birgalikda o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni ta’minlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, tuproqning kislotaliligini muvozanatlash va uni yaxshilashga yordam beradi. Organik moddalar tuproq mikroflorasini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o‘simliklar uchun foydali mikroorganizmlarning ko‘payishiga olib keladi. Bu mikroorganizmlar o‘simliklar uchun azot, fosfor va boshqa elementlarni ajratishda muhim rol o‘ynaydi. Organik moddalar tuproqning suvni saqlash qobiliyatini oshiradi, bu esa qurg‘oqchilik davrlarida o‘simliklarning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Organomineral o‘g‘itlar o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantiradi, meva berish va hosilni oshiradi, chunki ular o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan barcha makro va mikroelementlarni ta’minlaydi. Mineral moddalarning o‘zaro ta’siri bilan organik moddalarning qo‘shilishi tuproqning pH darajasini muvozanatlash va uning kimyoviy tarkibini yaxshilaydi. Shu bilan birga, o‘g‘itlar tarkibi va qo‘llanishi turlari, tuproqning xususiyatlari va o‘simliklarning ehtiyojlariga qarab farqlanishi mumkin. Organomineral o‘g‘itlarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash tuproqning uzoq muddatli unumdorligini saqlashga yordam beradi.

Z.Voqqosovning olib borgan tadqiqotida maqolada mahalliy xom ashyolardan (mol go‘ngi (MG), Qizilqum fosforiti un (FU) va Navbahor bentoniti (NB)) va azotni bog‘lash mikroorganizmlaridan (ABM) asoslangan organomineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari taqdim etilgan. MG: NB: ABM = 100.0: 2.5: (0-4) va MG: NB: FU: ABM = 100.0: 5.0: 2.5: (0-4) nisbatlari yangi turdagi organomineral o‘g‘itlarni olishda qo‘llanilgan. Kompostlash vaqti 1 kundan 60 kungacha belgilangan. Olingan yangi turdagi organomineral o‘g‘itlarning fizik-kimyoviy va tijorat xususiyatlari o‘rganilgan. Organomineral o‘g‘it namunalarining tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan tahlil qilingan.

Mahalliy rudalar (FU va NB) ni mol go‘ngi bilan kompostlash va hosil bo‘lgan aralashmani azotni bog‘lash mikroorganizmlari bilan ishlov berish natijasida gumusli moddalar, o‘simliklar uchun mavjud fosfor shakli va eng muhimi, ozuqa tarkibining ko‘payishiga erishildi. Biofiksatsiya orqali atmosferadagi molekulyar azotning organomineral o‘g‘itdagi miqdori ABM qo‘llanilmagan holatga nisbatan 3.2-4.1 baravar ko‘proq ekanligi aniqlangan [3].

Mol go‘ngi, fosforit unining va bentonitning asosiy kimyoviy tarkibini quyidagi jadvalda keltirib o‘tilgan (%):

1-jadval

Mavjud xomashyo	Namlik	P_2O_5	N	K_2O	CaO	Boshqalar
Mol go‘ngi	55.4	0.28	0.51	0.58	0.59	16.11
FU	**P_2O_5** 17.75	**CO_2** 0.53	**SO_3** 0.25	-	-	-
Navbahor bentaniti	**SiO_2** 57.9	**N_2** 1.53	**K_2O** 1.75	**P_2O_5** 0.43	**SO_2** 0.75	**Boshqalar** 16.17

Jilyakov Andrey Sergeevich va Jilyakov Sergey Fedorovich organomineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish usuli ko‘mir turidagi kaustobiolitlarni mineral o‘g‘itlar, alkali, lignoselluloz komponentlari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yuqori toksik chiqindilari bilan aralashtirishni, dezinfeksiya qilishni, quritishni va granulyatsiya uchun yuborishni o‘z ichiga oladi.

Avvalambor, qisqa muddatli gumatlar kaustobiolitlarni alkali suyuqligida kavitatsion dispersiya qilish orqali tayyorlanadi, bunda gumatlarning to‘liq ajralib chiqishi va 75-90°C haroratga erishishiga erishiladi, yoki uzoq muddatli gumatlar kaustobiolitlarni kislota suyuqligida kavitatsion dispersiya qilish orqali tayyorlanadi va 60°C ga yetganda alkali qo‘shiladi va yana 75-90°C ga qadar dispersiya

qilinadi, natijada reaktivning nazorat ostidagi chiqarilishi bilan gumatlar hosil bo‘ladi. Keyinchalik, qisqa muddatli lignoselüloz komponenti termofilik bakteriyalar ishtirokida kimyoviy va katalitik fermentatsiya yordamida xom ashyo kavitatsion fermentatsiya dispersiyasi orqali olinadi, yoki uzoq muddatli lignoselüloz komponenti mineral o‘g‘itlar va mikroelementlar eritmasida xom ashyo kavitatsion dispersiyasi orqali, cho‘chqa go‘shti yoki qushning toshqini qo‘shilgan holda 75-90°C ga erishganda tayyorlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yuqori toksik chiqindilari - cho‘chqa go‘shti va parranda chiqindisi, o‘g‘itlarning organik qismini ta’minlashda yordam berib, kavitatsion dispersiya qilish orqali qisqa muddatli komponentga, termofilik bakteriyalar yordamida kimyoviy va katalitik ta’sirda, yoki uzun muddatli komponentga mineral o‘g‘itlar va mikroelementlar suyuqligida kavitatsion dispersiya qilish orqali 75-90°C ga erishish orqali ishlov beriladi. Barcha bakteriyalar, mikrob va kasallik agentlarini, hamda urug‘lik qobiliyatini yo‘qotmagan o‘simlik urug‘larini kavitatsion dispersiya va mexanik, issiq, elektr va kimyoviy ta’sirlar yordamida amalga oshiriladi.

Organomineral suspenziyaning quritilishi 75-90°C ga qadar isitilgan suspenziyaning vakuumda quritilishi orqali, yuqori darajada qaynatish, harorat ta’sirida sekin va tez quritish tashkil etilib amalga oshiriladi. Shuningdek, qisqa muddatli va uzoq muddatli komposlangan organomineral o‘g‘itlarni, shuningdek, ularning kerakli kombinatsiyalarida aralashmalarni ishlab chiqarish uchun jarayon liniyasi taklif etiladi. Ushbu ixtiro qishloq xo‘jaligi chiqindilarining yuqori toksik chiqindilarini qayta ishlashga imkon beradi, shuningdek, gumat va gumatli organomineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Har xil o‘simliklar turli o‘simliklarini ekib hosilni oshirishga yordam beradi. Har qanday tuproqning tuzilishini yaxshilashga yordam beradi. Buzilgan yerlarni qayta tiklashga yordam beradi. Pestitsidlar, nitratlar va texnik suyuqliklar bilan ifloslangan tuproqlarni detoksifikatsiya qilishga yordam beradi. Ushbu usul qishloq xo‘jaligi chiqindilari boshqaruvini hal qilish va atrof-muhit va qishloq xo‘jaligi uchun foydali bo‘lgan barqaror o‘g‘itlarni yaratishga qaratilgan. [4]

Taqiqot uslubiyoti.

Fizik-kimyoviy tahlil – bu kimyoning shunday bo‘limiki, bo‘limda turli kimyoviy sistemalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari orasidagi bog‘liqlikning qonuniyatlari o‘rganiladi. Fizik-kimyoviy tahlil asoslari birinchi bo‘lib M.V.Lomonosov tomonidan oldinga surildi, so‘ngra fizik-kimyoviy tahlil Konovalov D.P., Mendeleyev D.I., Gibbs, Vant-Goff, Le-Shatele, Tamman va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘zining ravnaqini topdi. Ayniqsa, akademik Kurnakov N.S. va uning shogirdlarining ilmiy ishlari natijasida fizik-kimyoviy tahlil rivojlandi va alohida fan sifatida ajralib chiqdi.

Fizik-kimyoviy tahlil usullari yuqori sezgizligi, tez bajarilishi, avtomatlashtirilganligi hamda juda kam miqdordagi (10^{-4} 10^{-5} %) organik va anorganik moddalarni aniqlash imkonini berish jihatidan boshqa kimyoviy usullardan ajralib turadi. Fizik-kimyoviy tahlilning muhim asosiy vazifalaridan biri kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik nazorat qilib turishdir.

Ilmiy tadqiqotlar va tajribalarni tez va oson amalga oshirish uchun tahlil usullarini to‘g‘ri qo‘llay olishni bilish zarur. Ayniqsa, mahalliy xom ashyo asosida orgonamineral o‘g‘itlarni olishda, xom ashyolar va tayyor mahsulotlarning turli fizik-kimyoviy parametrlarini aniqlash uchun tez, zamonaviy va yuqori aniq tahlil usullarini qo‘llash tavsiya etiladi. Ilmiy tadqiqotlar uchun laboratoriya ishlarida asosiy xom ashyo sifatida paxta zavodi chiqindilari asosida komposlangan mol go‘ngi (MG), fosfat xom ashyolaridan olingan namunalar (FU) va turli bentonit namunalaridan foydalangan. Ushbu xom ashyolarning asosiy kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan. Havo tarkibidagi molekulyar azotni fikslash uchun *Azotobacter chroccocum* turiga mansub mikroorganizmlar ishlatilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagi kimyo korxonalarida ishlab chiqarilgan karbamid, ammiak sulfat va kaliy xlorid mineral o‘g‘itlari turli ozuqa komponentlariga ega orgonamineral o‘g‘itlarni olishda qo‘llanilgan.

Xulosalar.

Umumiy xulosa sifatida shuni takidlash kerakki, Vaqqosovning tajribalari asosida olingan organomineral tarkibini tashlik etgan mol go‘ngi, fosfarit uni va navbahor bentaniti tarkiblari o‘rganilib chiqilgan (1-jadval). Bunga ko‘ra mol go‘ngi (MG) tarkibida namlik darajasi yuqori 55,4%, bu uning parchalanish jarayoniga ta’sir qiladi, fosfor (P_2O_5) - 0.28% kam miqdorda mavjud, o‘simliklarning o‘sishida muhim rol o‘ynaydigan azotning (N_2) miqdori - 0.51%, kaliy oksidi (K_2O) – 0.58%, bu o‘simliklarning mustahkam o‘sishini ta’minlaydi, tuproq pH darajasini boshqarishda yordam beradigan kaltsiy oksidi (CaO) – 0.59%, gumus, mikroelementlar va boshqa birikmalar 16.11% mavjud. Fosforit uni o‘simliklar uchun fosfor manbai bo‘lib, tarkibida quyidagilar bor fosfor (P_2O_5) – 17.75%, karbonatlar (CO_2) 0.53% mavjud, sulfat birikmalar (SO_3) 0.25% bor. Fosforit unining tarkibida azot va kaliy deyarli yo‘q, shuning uchun uni mol go‘ngi yoki bentonit bilan aralashtirish tavsiya etilgan. Navbahor bentonitida tuproqning fizik va kimyoviy tarkibini yaxshilash uchun ishlatiladi**.** Tarkibida quyidagilar bor: kremniy oksidi (SiO_2) – 57.9% tuproqning fizik xususiyatlarini yaxshilaydi, tuproq unumdorligini oshiradigan azot (N) 1.53%, o‘simliklarning o‘sishi uchun muhim element bo‘lgan kaliy oksidi (K_2O) – 1.75%, fosfor unchalik ko‘p emas, (P_2O_5) – 0.43% lekin tuproq uchun foydali, sulfatlar (SO_2) 0.75% mavjud, tuproq tarkibiga foydali bo‘lgan mikroelementlar 16.17% mavjud. Bentonit tuproqning strukturasini yaxshilash bilan birga azot va kaliy bilan ham boyitadi. Ushbu ko‘rsatkichlardan shuni ko‘rish mumkinki, mol go‘ngi asosan organik moddalardan iborat, lekin fosfor va kaliy kam. Fosforit unida fosfor manbai sifatida juda muhim, lekin azot va kaliy kam. Navbahor bentoniti esa tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi, azot va kaliyni ta’minlaydi. Ushbu xom ashyolar bir-biri bilan aralashtiriladi va samarali organomineral o‘g‘it olinadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.03.2022 yildagi PQ-186-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. Vokkosov Zukhriddin, Kanoatov Khairullo Murodillaevich, Sultonov Boxodir Elbekovich. “Obtaing organomineral fertilizers on base of local raw materials and nitrogen-fixing microorganisms”. Namangan State University, Namangan, Republic of Uzbekistan 2007 y., - b.1-146.
4. Андрей Сергеевич Жиляков (RU) Андрей Сергеевич Жиляков “Способ получения органоминеральных удобрений и технологическая линия для его осуществления” Priority 2009-11-16//Filed 2009-11-16//Granted 2011-06-10//Published 2011-06-10
5. B.F.Muhiddinov, T.A.Azizov, X,M,Vapoyev “Fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari”. Toshkent 2017
6. http://www.gov.uz/uz/news/view/1442 (Hukumat portali)
7. www.agriculture.uz (ToshDAU axborot resurs markazi)

ОИЛАВИЙ ПОЛИКЛИНИКА ШАРОИТИДА КАМҚОНЛИКНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ

Эргашев Олмосбек Сиддик ўғли,
Тошкент тиббиёт академияси
2-даволаш иши факультети 5-курс талабаси,
Убайдуллаев Жавоҳир Лутфулло ўғли,
Тошкент тиббиёт академияси
2-даволаш иши факультети 5-курс талабаси,
Комилжонова Мохларой Қобил қизи,
Тошкент тиббиёт академияси
2-даволаш иши факультети 5-курс талабаси,
Раимова Дурдона Акбаралиевна,
Илмий раҳбар: Тошкент тиббиёт академияси Гематология, трансфузиология ва лаборатория иши кафедраси, ассистенти.

Аннотация: *Ушбу мақолада оилавий поликлиника шароитида камқонликнинг ретроспектив таҳлили олиб борилган. Тадқиқот давомида 2016-2024 йиллар оралиғида камқонлик билан рўйхатга олинган беморларнинг статистик маълумотлари ўрганилди. Анемия турларининг тарқалиш даражаси, ёш ва жинс омилларининг камқонлик ривожланишига таъсири ҳамда тана массаси индексининг (ТМИ) боғлиқлиги баҳоланди. Олинган натижалар темир танқислиги анемияси энг кенг тарқалган шакл эканлигини кўрсатди (60%), ундан кейин сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия (20%), B12 етишмовчилик анемияси (15%) ва гемолитик анемия (5%) қайд этилди. Тадқиқот натижалари анемияни эрта аниқлаш ва профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатди.*

Калит сўзлар: *камқонлик, темир танқислиги анемияси, B12 етишмовчилик анемияси, гемолитик анемия, сурункали касалликлар, ретроспектив таҳлил.*

Аннотация: *В данной статье проведен ретроспективный анализ анемии в условиях семейной поликлиники. В ходе исследования были изучены статистические данные пациентов, зарегистрированных с анемией в период с 2016 по 2024 годы. Оценены степень распространенности различных типов анемии, влияние возрастных и гендерных факторов на развитие заболевания, а также взаимосвязь с индексом массы тела (ИМТ). Полученные результаты показали, что наиболее распространенной формой анемии является железодефицитная анемия (60%), за ней следуют анемия, связанная с хроническими заболеваниями (20%), B12-дефицитная анемия (15%) и гемолитическая анемия (5%). Результаты исследования подтверждают необходимость раннего выявления анемии и разработки профилактических мер.*

Ключевые слова: *анемия, железодефицитная анемия, анемия при дефиците витамина B12, гемолитическая анемия, хронические заболевания, ретроспективный анализ.*

Annotation: *This article presents a retrospective analysis of anemia in the setting of a family polyclinic. The study examined statistical data on patients registered with anemia between 2016 and 2024. The prevalence of different types of anemia, the impact of age and gender factors on disease*

development, and the correlation with body mass index (BMI) were assessed. The results showed that the most common form of anemia is iron deficiency anemia (60%), followed by anemia associated with chronic diseases (20%), vitamin B12 deficiency anemia (15%), and hemolytic anemia (5%). The findings highlight the importance of early detection of anemia and the development of preventive measures.

Keywords: *anemia, iron deficiency anemia, vitamin B12 deficiency anemia, hemolytic anemia, chronic diseases, retrospective analysis.*

Кириш.

Камқонлик (анемия) – организмда гемоглобин миқдорининг пасайиши билан тавсифланадиган патологик ҳолат бўлиб, у дунё миқёсида энг кенг тарқалган касалликлардан бири ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, глобал миқёсда аҳолининг тахминан 25% анемиядан азият чекади, бу эса касалликнинг долзарблигини янада оширади. Айниқса, ҳомиладор аёллар, ёш болалар ва сурункали касалликларга чалинган беморлар орасида анемия юқори учрайди. Мазкур тадқиқот оилавий поликлиникада анемияга чалинган беморлар бўйича статистик таҳлил ўтказиш, анемия турларининг тарқалишини баҳолаш ва касаллик ривожланишига таъсир этувчи асосий омилларни аниқлашга қаратилган.

Тадқикот мақсади.

Оилавий поликлиника шароитида камқонликка чалинган беморларнинг ретроспектив таҳлилини ўтказиш, анемия турларининг тарқалиш даражасини аниқлаш ва касаллик ривожланишига таъсир этувчи асосий омилларни баҳолашдан иборат.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.

Камқонлик (анемия) – бу қонда гемоглобин ва эритроцитлар миқдорининг пасайиши билан тавсифланадиган касаллик бўлиб, у бутун дунёда кенг тарқалган муаммолардан бири ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, камқонлик жаҳон аҳолисининг 25% дан ортиғини қамраб олган, айниқса, аёллар ва болалар орасида бу кўрсаткич юқори. Адабиётларда анемиянинг турли сабаблари ва патогенез механизми кенг ўрганилган. Темир танқислиги анемияси энг кўп тарқалган турлардан бири бўлиб, асосан нотўғри овқатланиш, ошқозон-ичак йўлларидаги сурункали қон кетишлар ва малабсорбция жараёнлари билан боғлиқ [1]. Шунингдек, B12 етишмовчилик анемияси нерв тизимига салбий таъсир кўрсатиши ва меъдадаги ички фактор етишмовчилиги билан боғлиқлиги таъкидланган [2,3]. Камқонликнинг сурункали касалликлар билан боғлиқ турлари эса, асосан, яллиғланиш жараёнлари ва иммунологик реакциялар натижасида юзага келади [8,10]. Гемолитик анемиялар эса ирсий ва атоқиқ сабаблар билан боғлиқ бўлиб, уларда эритроцитларнинг тез парчаланиши кузатилади [4,5,6]. Кўплаб тадқиқотларда камқонликни erta ташхислашда лаборатор диагностика усуллари, жумладан, гемоглобин, ферритин, ретикулоцитлар ва витамин B12 миқдорини аниқлаш муҳим эканлиги қайд этилган [7,9]. Шунингдек, эпидемиологик тадқиқотлар натижалари камқонликнинг клиник кўринишлари, унинг хавф омиллари ва асоратлари бўйича турли жамиятлардаги хусусиятларини таҳлил қилиш имконини беради [14,15,16]. Мавжуд адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, камқонликни эрта аниқлаш ва самарали даволаш учун поликлиника шароитида мунтазам мониторинг ва тиббий профилактика тадбирларини жорий этиш зарур.

Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот Тошкент шаҳридаги оилавий поликлиника шароитида 2016-2024 йиллар давомида камқонлик билан рўйхатга олинган беморлар маълумотларини ретроспектив таҳлил қилиш асосида олиб борилди. Умумий ҳисобда (N=120) нафар бемор тадқиқотга жалб этилди. Улар қуйидаги мезонлар асосида гуруҳларга ажратилди:

• Жинс бўйича: эркаклар ва аёллар

• Ёш тоифаси: 0-29 ёш, 30 ва ундан юқори

• Анемия турлари: темир танқислиги анемияси, B12 етишмовчилик анемияси, сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия, гемолитик анемия

• Тана массаси индекси (ТМИ) бўйича: озғин, нормал ва ортиқча вазнли

• Касаллик оғирлиги бўйича: енгил, ўртача ва оғир шаклдаги анемия.

Таҳлил усуллари:

1. Клиник тадқиқот:

• Беморларнинг асосий шикоятлари ва клиник белгилари баҳоланди.

• Анемиянинг асосий симптомлари (холсизлик, терининг оқариши, тахикардия, бош айланиши) ўрганилди.

2. Лаборатор текширувлар:

• Гемоглобин миқдори – анемия даражасини баҳолаш учун асосий кўрсаткич.

• Ферритин ва темир сатҳи – темир танқислиги анемиясини аниқлаш учун.

• B12 ва фолий кислотаси даражаси – мегалобластик анемияни тасдиқлаш учун.


• Ретикулоцитлар миқдори – гемолитик анемияни баҳолаш учун.

• Қон ивиш тизими таҳлили (коагулограмма) – сурункали касалликлар билан боғлиқ анемияда қон ивиши ўзгаришларини аниқлаш учун.

3. Инструментал текширувлар:

• Ултратовуш текшируви (УТТ) – талоқ ва жигар катталашганлигини аниқлаш.

• Электрокардиограмма (ЭКГ) – анемия билан боғлиқ юрак-қон томир ўзгаришларини баҳолаш.



Таҳлил ва натижалар.

Тадқиқот давомида 2016-2024 йиллар оралиғида оилавий поликлиникада камқонлик билан рўйхатга олинган 120 нафар беморнинг клиник ва лаборатор кўрсаткичлари таҳлил қилинди. Олинган натижаларга асосан, анемия турларининг тарқалиш даражаси, ёш ва жинс омилларининг таъсири ҳамда касаллик оғирлиги бўйича қуйидаги хулосалар чиқарилди.

1. Анемия турларининг тарқалиши

Тадқиқот натижаларига кўра, энг кўп учрайдиган анемия тури темир танқислиги анемияси (60%) бўлиб, бу кўпроқ нотўғри овқатланиш, сурункали қон йўқотишлар ва ошқозон-ичак тизими муаммолари билан боғлиқ. Қолган анемия турлари қуйидаги таркибда учради:

• Сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия – 20%

• B12 етишмовчилик анемияси – 15%

• Гемолитик анемия – 5%

2. Жинс бўйича тақсимот

• Аёллар (65%) – кўпроқ темир танқислиги анемияси кузатилди, айниқса, ҳомиладорлик ва етакчи диеталар билан боғлиқ ҳолатларда.

• Эркаклар (35%) – асосан B12 етишмовчилик анемияси ва гемолитик анемия кўпроқ учради.

3. Ёш гуруҳлари бўйича таҳлил

• 0–29 ёш (42.5%) – кўпчилик ҳолларда темир танқислиги ва B12 етишмовчилик анемияси аниқланди.

• 30 ёшдан катталар (57.5%) – асосан сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия ва гемолитик анемия учради.

Хулоса ва таклифлар.

Тадқиқотнатижаларикамқонликнингоилавийполиклиникашароитидакенгтарқалганлигива уни эрта аниқлаш ҳамда профилактика тадбирларини кучайтириш зарурлигини кўрсатди. Темир танқислиги анемияси энг кўп учрайдиган тур бўлиб (60%), асосан нотўғри овқатланиш, сурункали қон йўқотишлар ва ошқозон-ичак тизими муаммолари билан боғлиқлиги аниқланди. Шунингдек, B12 етишмовчилик анемияси (15%) асосан ёш болалар ва қарияларда учраган бўлса, сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия (20%) ва гемолитик анемия (5%) нисбатан кам учрайди. Анемия аёллар орасида эркакларга қараганда кўпроқ кузатилган (65% аёллар, 35% эркаклар). Ёш тоифалари бўйича эса, 30 ёшдан катта беморларда сурункали касалликлар билан боғлиқ анемия устун бўлган, ёшлар орасида эса темир танқислиги ва B12 етишмовчилик анемияси кенг тарқалган.

Тадқиқот шуни кўрсатдики, камқонликни erta ташхислаш ва мақсадли даволаш чораларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу йўналишда поликлиника шароитида мунтазам лаборатор мониторинг олиб бориш, хавф гуруҳидаги беморларни erta аниқлаш ва рационал овқатланиш бўйича тавсиялар бериш талаб этилади.

Таклифлар:

1. Поликлиникаларда анемияни эрта аниқлаш учун скрининг дастури жорий қилиниши лозим.

2. Ҳомиладор аёллар, болалар ва қариялар анемия хавф гуруҳига киритилиб, уларнинг гемоглобин даражаси мунтазам назорат қилиниши керак.

3. Анемияни даволаш ва олдини олиш мақсадида темир ва B12 витаминларини тўлдириш дастурлари ишлаб чиқилиши зарур.

4. Поликлиникаларда гастроэнтеролог, диетолог ва гематологлар билан ҳамкорлик механизмлари кучайтирилиши керак.

5. Камқонликни келтириб чиқарувчи асосий сабаблар, айниқса, сурункали касалликлар ва нутритив етишмовчиликлар бўйича тадқиқотлар давом эттирилиши лозим.

6. Аҳоли орасида камқонлик ва унинг асоратлари ҳақида кенг тушунтириш ишлари олиб борилиши керак.

Тадқиқот натижалари шифокорлар ва соғлиқни сақлаш тизими мутахассислари учун анемияни ташхислаш ва даволашда қўлланилиши мумкин. Келгусида камқонликни erta аниқлаш ва даволаш борасида янада самарали методлар ишлаб чиқиш муҳим вазифа ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Iron Deficiency Anemia: Diagnosis and Management – American Family Physician, 2020.
2. Vitamin B12 Deficiency and Its Neurological Consequences – The Lancet Neurology, 2019.
3. Anemia in Chronic Diseases: Pathophysiology and Clinical Implications – Journal of Hematology & Oncology, 2018.
4. Hemolytic Anemias: A Review of Current Diagnosis and Treatment Strategies – Blood Reviews, 2021.
5. The Role of Iron in Human Health and Disease – Annual Review of Nutrition, 2020.
6. Nutritional Anemia: Global Burden and Strategies for Prevention – World Health Organization, 2019.
7. Microcytic Anemias: Diagnosis and Differential Diagnosis – New England Journal of Medicine, 2021.
8. Effects of Anemia on Cognitive Function and Quality of Life – Journal of Clinical Medicine, 2020.
9. Advances in the Management of Anemia in Chronic Kidney Disease – Kidney International, 2021. Iron Homeostasis and Anemia in Pregnancy: Clinical Perspectives – Obstetrics & Gynecology, 2019.
10. Анемии: современные подходы к диагностике и лечению – Российский журнал гематологии и трансфузиологии, 2021.
11. Железодефицитная анемия: патогенез, клиника и терапия – Вопросы гематологии, 2020.
12. B12-дефицитная анемия: неврологические и гематологические аспекты – Неврология и нейропсихиатрия, 2019.
13. Анемия при хронических заболеваниях: современные представления – Гематология и трансфузиология, 2018.
14. Гемолитические анемии: дифференциальная диагностика и лечение – Клиническая медицина, 2021.

15. Роль витаминов и микроэлементов в развитии анемий – Терапевтический архив, 2020.

16. Перинатальная анемия и её последствия у детей раннего возраста – Педиатрическая фармакология, 2019.

17. Клинические и лабораторные особенности анемий у пациентов пожилого возраста – Гериатрия, 2021.

18. Современные методы диагностики железодефицитной анемии – Лабораторная медицина, 2018. Анемии у беременных: риски, диагностика и лечение – Акушерство и гинекология, 2019.

II. GUMANITAR FANLAR



ATOYI LIRIKASIDA SOMATIZMLARNING BADIIY TALQINLARI

Turayeva Maftuna Tolibjon qizi,
Buxoro davlat universitet talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Atoyi g‘azallarida tavsif etilgan yorning turli uzvlari, ta’sir kuchi yuqori darajada tasvirlangan somatik birliklari tahlil qilingan. Shoir ijodi chuqur o‘rganilganda, she’rlarida Qur’on va hadislar mazmunini singdiradi. Muqaddas manbalardan iqtibos keltiradi. Tasavvufdagi zulf, xol, qosh, ko‘z, bel, sanam, mayxona istilohlari bilan botiniy sirlarga ahamiyat qaratadi. Ma’shuqa siymosida Haq nuri konsepsiyasining zohir bo‘lishi asoslab beriladi. Mazkur masala bayonida ijodkorning ma’shuqa timsolini gavdalantirishdagi o‘ziga xos ifoda uslubi va yangicha ifodalariga diqqat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *xat, xol, lab, Yusuf, Sulaymon, Xizr, obi dahan, obi hayvon, sunbuli tar*

Abstract: *In this article, various organs of the yor described in Atoyi’s ghazals, somatic units with high influence are analyzed. When the poet’s work is studied in depth, in his poems, his poems absorb the meaning of Qur’an and hadiths.It is quoted from surrounding sources.In Sufism, it focuses on inner secrets with the terms ringlet, mole, eyebrow, eye, waist, an idol, and a place where wine is drunk.The representation of God in the form of a lover is justified. In the description of this issue, attention is paid to the originality and new expressions of the creator in embodying the image of the lover.*

Keywords: *hair, score, lips, Yusuf, Sulayman, Khizr, obi dahan, obi hayvon, sunbuli tar*

Аннотация: *В данной статье анализируются различные части ёра, описанные в газелях Атои, соматические единицы с высоким уровнем влияния. При углубленном изучении творчества поэта в его стихах внедряется содержание Священного Корана и хадисов Он цитирует священные источники. В суфизме основное внимание уделяется внутренним тайнам с помощью терминов зульф, счет, бровь, глаз, талия, идол, сделанный в человеческом обличии, питейное место. Проявление света Божия в образе влюбленного оправдано. В описании этого номера уделено внимание уникальной выразительной манере художника и новым выражениям в воплощении образа возлюбленной.*

Ключевые слова: *волосы, счет, губа, Юсуф, Сулейман, Хызр, оби дахан, животное оби, сунбули тар*

Kirish.

XV asrning birinchi yarmiga kelib, Turkiy adabiyotning rivojlanishi ko‘plab qalam ahllarining erkin ijod qilishiga asosiy omil bo‘ldi. Turkiy she’riyatda bebaho asarlar yaratilib, ayniqsa, Mavlono Atoyi g‘azallaridagi jozibadorlik, tasvir vositalarining rang – barangligi fikrimizga dalildir. Atoyi – o‘zbek mumtoz adabiyotida salmoqli o‘rin egallagan lirik shoir. Uning g‘azallari o‘z davridayoq xalq orasida mashhur bo‘lgan. Bu haqida Hazrat Navoiy o‘zining “Majolis - un nafois” asarida ham ta’kidlagan: “O‘z zamonida she’ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutti” [Alisher Navoiy 1 : 34]. Atoiy ijodi bilan turkiy til ravnaqiga hissa qo‘shdi. Uning ijod tili haqida Alisher Navoiy ham o‘z tazkirasida qayd etgan: “Turkigo‘y erdi… Mavlono ko‘p turkona aytur erdi” [Alisher Navoiy 1 : 34].

Tahlil va natijalar.

Atoiy o‘z she’rlarida nozik xayol, sinchkov nigoh, o‘tkir iste’dod egasi ekanligini namoyish etadi. Nihoyatda go‘zal óxshatishlarni yaratib, yorning ajoyib portretini yaratdi. Shoir g‘azallari qat’ida yorning qaddi-qomati, yuzi, ko‘zi, qoshi, sochi, kipriklari, og‘zi, labi, xoli kabi go‘zallik uzvlari badiiy tavsif etiladi. Ya’ni shoir somatizmlarning badiiy talqinida yuksak mahorat kasb etadi. She’rlarida badiiy tasviriy vositalar orqali ma’shuqaning go‘zallikda tengsiz timsolini yaratadi:

Kotibi qudrat, xating tahrir etarda gul uza,
Nuqtayi xoling magar nogah qalamdin sachradi.

Baytning birinchi misrasida barcha maxluqot yaratuvchisi, qodir Parvardigor yorni yaratayotganda yuzining suratini chizayotib, xolini gul uza (yor yuzidan) tahrir etganligi, ya’ni joylashtirganligini aytsa, keyingi misrada mana shu yor yuzidagi xol, go‘yoki qalamdan nogoh sachrash oqibatida paydo bo‘lgan nuqtaga tashbeh etiladi. Shoir bu ajoyib o‘xshatish orqali Ollohning sifatlaridan birini – yaratuvchanlik va har bir bandasiga gózal bir husnni ham ato etish qudratiga ega yagona Zot ekanligini qalamga olib, undan hayrat va olqishini yashirmaydi. Baytdagi go‘zal tasvir ramali musammani mahzuf vazni orqali qoliplashtirilgan. Yana bir baytda yorning lablari bilan bog‘liq badiiy mulohazalar keltirilganligini ko‘rish mumkin:

Hurlar Kavsar sharobin ichmagaylar ravzada,
Lablaring jomi mayining topsalar sarqutini.

Baytda mubolag‘a san’atidan foydalanilgan. Bunda yorning lablaridan chiqayotgan so‘zlarning ozgina mazasidan, hattoki, jannatdagi hurlar Kavsar sharobini icha olmasliklari ifodalangan. Kóryapmizki, yorning shirin kalomi va Kavsar suvi paralelligida Atoyi óz yorining bir og‘iz so‘zini Kavsardan ham shirin va yoqimli, deydi. Xushbo‘y, pok, zilol suv oldida ma’shuqa tilining jozibasini Atoyi mana shunday yuksak darajada ulug‘laydi. Kavsar so‘zi talmeh san’atini hosil qilgan. Hurlar, Kavsar, ravza kabi birliklar esa tanosub san’atini yuzaga keltirgan.

Safhayi husning qoshinda munfail avroqi gul,
Nuqtayi xoling abiri mushk-u anbardin latif.

Navbatdagi baytning mazmuni: Sening chehrangning gózal bir husni oldida, anvoyi bir gulning yaproqlari ham uyalgan, ular xijolatda (1-misra). Nuqtadek qop-qora xoling esa xushbo‘y mushki anbardan ham latif hamda iforlidir(2-misra). Ko‘rib turganimizdek, ushbu baytda ma’shuqaning husnda tengsiz chiroyi hamda qora, xushbo‘y hidli xollari asosiy tasvir obyekti sifatida talqin qilingan. Baytda xolning ham uch sifati: nuqtadek shaklliligi, xushbo‘y hid taratishi hamda qoraligi kabi jihatlari lutf bilan e’tirof etilgan.

Atoyi g‘azallarida ma’shuqa gózallikda nuqsonsiz, har jihatdan mukammal bir siymo sifatida namoyon bo‘ladi. Ha, ma’shuqa gózalligiga chek-u chegara yo‘q. Hatto, ko‘plab rivoyatlarda go‘zallik timsoli sifatida tasvirlangan Yusuf ham unga teng kelolmaydi:

Yuzi husn ichra Yusufcha tuman ming,
Vale zulfi Sulaymon lashkaridir.

Baytning ikkinchi misrasida shoir navbatdagi noan'anaviy tashbihni yaratadi. Ya'ni zulf qora rangda bo'lishi tabiiy holdir. Shoir esa buni Sulaymon lashkarining uzoqdan zohir bo'lgandagi qora tasviri bilan qiyoslab, o'zgacha ifodani yaratadi (2-misra). Baytda Yusuf alayhissalom va Sulaymon alayhissalom bilan bog'liq rivoyatlarga ishora borligi talmeh san'atining yorqin namunasidir.

Atoyi g'azallarida ma'shuqa har jihatdan mukammal qilib tasvirlanadi. Uning har bitta uzvi ham oshiq uchun barcha narsadan qadrli. Boisi, yor bilan bog'liq har jihat oshiqqa ma'shuqasini eslatib turadi. Quyidagi baytda ma'shuqa lablaridagi terni abadiyat suvi darajasiga ko'tarish tasviri keltiriladi:

Tashlading obi dahan yer uzra istab oqibat,
Xizr oni topdi-yu , otin obi hayvon ayladi.

Obi dahan - og'izdagi suyuqlikdir. "Obi hayot" zulmat olamida bo'lgan, keyin esa uni Xizr topib oladi va aynan shu bois abadiy hayotga erishadi. "Obi hayot", "obi hayvon", "tiriklik suvi" kabi tushunchalar, ko'pincha birining o'rnida almashinib kelaveradi. Baytda esa bu suvni ma'shuqa tashlagani uqtirilmoqda. Keyingi misra esa g'azal mohiyatini yoritishda asosiy o'rin tutadi. Anglashiladiki, ma'shuqa bilan bog'liq har qanday narsaning muqaddas ekanligi, Xizr topgan tiriklik suvi ham, aslida, yor lablaridan olinganligi ta'kidlanadi.

Buyuk ijodkor g'azallarida yorning sifatlari bilan birgalikda, uning sarkashligi, oshiq boshiga kulfat - u stamlar yetkazgani ham bayon etiladi:

Oy yuzlik, Zuhra kózlik, zulfi yaldo kónglining,
Mehrini kam, javrini bisyor aylagan.

Atoyi husn ta'rifini davom ettirar ekan, yorning bir nechta sifatlari ketma-ket keltirib o'tadi. Yuzlari oydekkina, porloq kózli, uzun zulfli ma'shuqam, – deb sifatlaydi (1-misra). Keyingi misrada uning jabrda ham mohirligiga, suyuklisiga mehr órniga, jabr va sitamlar ulashgani aytiladi.Ma'shuqa yuzlarining oyga, ko'zlarini – porloq yulduzga, zulfini uzun tunga o'xshatishi tashbihni, kam va bisyor so'zlari esa tazod san'atini hosil qilib, baytning ta'sirdorligi oshishiga xizmat qilgan.

Ma'lumki, oriflar Olloh jamolini ko'rish orzusida yashaydi. Haqqa yetishish ilmlarini puxta o'rganib, boshqalarga ham o'rgatadi. **Olim N.Komilov ta'kidlaganidek**, orif – aslida ilohiy ilmlar sohibi demak [N. Komilov 2 : 278]dir. Orifona g'azal yozishning asosiy shartlaridan bo'lgan diniy bilimlarni bilishdadir. Atoyi uchun bu ilmlarni o'rganish ham begona bo'lmagan. Quyida keltirilgan bayt aynan orifona ruhda bitilgan.

Ey mus'hafi husningga menging nuqtasi oyat,
Islom eliga bo'ldi yuzung nuri hidoyat.

Baytda aytilmoqdaki**,** oshiq uchun ma'shuqasining husni muqaddas Qur'on sahifasidir, bu orazdagi nuqtadek xol esa Qur'ondagi oyatlardir. Musulmon ahliga esa sening jamoling nuri hidoyat bóldi. Bilamizki, Qur'oni karim -musulmonlarga yaxshi va yomonni, ezgulik hamda yovuzlikni, savob va gunohni, halollik va nopoklik, to'g'rilik va egrilik, ma'rifat hamda jaholat, xullas, jamiki insoniy fazilatlarni kishilar qalbiga joylab, iymonini boyituvchi muqaddas kalomlar majmui. Atoyi nazdida esa butunlay boshqacha. Uning ma'shuqasi hamma narsadan yetuk va agar kishilar nuri hidoyat ila ul yuzlarga boqsa, uning husni, xollarigacha – barchasida (barqaror, mutlaq, abadiy Allohning sifati)ga guvoh bo'ladi. Bu baytda yuz bilan Qur'on, yuzdagi xolni Qur'ondagi oyatlardir, – tarzida jilolantirish tashbih san'atidan mohirona foydalanganligini ko'rsatadi.

Shakar og‘zing qoshinda la’l qonin,
Menging hindulari saqlab turubdur, –

baytida ham go‘zallikda tengi yo‘q qiz tasvir etilayotganiga shubha yo‘q. Bunda la’l – lab. Oriflar tilida kalom, so‘z. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo‘lgani uchun ham qizil qimmatbaho tosh – la’lga o‘xshatiladi. Og‘izning shakar deb sifatlanishida ham ma’shuqaning iliq so‘zliligi, shirin gaplariga ishora bor. Shakardek shirin so‘zlaringning oldida qip-qizil qondek lablaringni go‘yoki hindulardek bo‘lgan xollaring saqlab turibdi.

Bundan tashqari, la’l – lab deganda, tasavvufda ma’shuqa so‘zining botini, nozik ma’nosi, shuningdek, ilohiy nafas, yo‘qlikdan borliqni vujudga keltirgan Alloh kalomi anglashiladi. Yani bu kalom barchani qamrab oladi, valiy pirlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi.

Manga san bólmasang jon hojat ermas,
Bihishti hur-u Rizvon hojat ermas [Atoyi 3: 107].

Rizvon - sakkiz jannatning biri, rozilik va mamnuniyat jannati. Lirik qahramon yorini jonidan ham aziz tutmoqda. U dunyodagi jannat hurlari va jannat makonlari ham yorisiz unga tatimaydi. Atoyining ulug‘vorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma’nolar, ya’ni ishqi haqiqiy hamda ishqi majoziy tasvirlar bir-biriga xalaqit bermaydi, bir-birini to‘ldirib keladi. Kitobxon goh u ma’nodan, goh bu ma’nodan, goh har ikkalasidan zavqlana oladi.

Shomi zulfungda jamoling sham’idin ber, partave,
Bizga ham yetsunki derlar, bir charog‘din ming charog‘ [Atoyi 3 : 112].

Zulf – qoralik ramzi. Partav – yog‘du, nur, shu’la, yorug‘lik .Ishqqa asos bo‘lgan jihatni shoir “jamol sham’i”ki , bu jamol partav (yorug‘lik, porloqlik, nur, shu’la) biz kabilarni ham yoritsin, – degan istagi yotadi. Menga qop-qora zulfing ôrnida jamoling nuridan, shu’lasidan ulash, sening birgina ōzingdan mingta yorug‘lik bilan siylashing bizga ham yetsin. Bu yerda “shom” – qora bitilgan bo‘lsa ham, sen bizga shu’la, ziyo ulashgin degan umumiy mazmun ifodalangan.

Judo bo‘lg‘oli men zulfu yuzingdin,
Ko‘zimga ne qaro ko‘rindi, ne oq [Atoyi 3 : 116].

Nasriy bayoni: men sening zulfing va yuzingdan ham judo bo‘ldim, ôsha damda ko‘zimga na qora va na oq ko‘rindi. Atoyi bu yerda so‘z qo‘llashda o‘zining mohirona iste’dodini namoyish etgan. Zulfning “qoralik”, yuzning “oqlik” ramzi ekanligidan unumli foydalanib, baytda ajoyib tasvir yaratgan. Baytda go‘zal insonga muhabbat orqali ilohiy qudratga muhabbati aks etgan. Buni boshqa g‘azallar sharhida ham kôrib o‘tdik. Ya’ni oshiq sohibjamol insonni kōrib, husn-u jamoliga maftun bo‘ladi va uning vasliga yetishish umidida jonini nisor qilishga tayyor. Atoyining bu tasvir uslubi mumtoz she’riyatda an’anaviy, biroq yozuvchi bu tasvirlarni o‘zgacha tashbihlar bilan ifodalab, voqelikni yangicha uslubda jonlantirgan.

Yuzung davrinda Yusuf dostonin,
O‘qurlar omi xos afsonalardek.

Ma’lumki, Atoyi lirikasida tasvirlangan har bir voqea – hodisaning mohiyati haqiqatga mos ravishda tasvirlanadi. Shoirning ana shu uslubi muallifning yuksak ilm sohibi ekanligidan dalolat

beradi. Talmeh san’ati vositasida Yusuf payg‘ambar bilan bog‘liq rivoyatga ishora bor. Yusuf haqidagi rivoyatlarga ko‘ra, u – Ya’qubning sevikli o‘g‘li. U husnda tengsiz, chiroyi haddan oshiq edi. Akalari bunga hasad qilib, quduqqa tashlashadi, so‘ng “Bo‘ri yedi” – deb yolg‘on ovoza tarqatishadi. Baytda esa shoir o‘z yorini Yusufga tenglashtiradi. Baytda keltirilgan “omi xos” birikmasi odatdagi, oddiy ma’nolarini ifodalaydi. – U (ma’shuqa) yashagan davrda insonlar mashhur Yusuf qissasini ham odatdagi, oddiy bir afsonalar kabi o‘qishini aytib, shu tarzda yorining husnda tengsiz jamolini gavdalantiradi.

Yuz uza solsang tarab mushkin sochingni noz ila,
Gul uza burqa’ solursen sunbuli tardin latif [Atoyi 3 :113].

Ushbu baytda oshiq yor Yuzi uzra xushbo‘y hidli sochlarini noz bilan solganida, gōyoki gulning ustiga pokiza sochlardan latif parda solingandek bo‘lishini bayon etadi. Mazkur baytda shoir Yor yuzlariga yoyilgan nafis sochlarni iffat pardasi deb nomlab, o‘ziga xos novatorlikka erishgan.

Gul yuzindin munfail nasrin Iram bo‘stonida,
Qomatindin Tubiyi firdavs a’lo bo‘lmadi.

Ma’shuqaning ta’rifi navbatdagi baytda ham davom etadi. Yorning guldek yuzlaridan nasrin guli ham Eram diyorida uyalib qolgani, qomati tikligi oldida jannatdagi eng tik o‘suvchi – Tubi daraxti ham a’lo bo‘lmagani, – ta’kidlanadi. Parchada “Gul” so‘zi tashbihni, afsonaviy Iram bog‘i va muqaddas Tubi daraxtidan foydalanish talmehni hosil qilgan.

Yangog‘ing lolazorining g‘amida baski, bo‘ldum zor,
Chamanda bag‘ri qon bo‘ldi, eshitib lola zorimni .

Keltirilgan ushbu baytda shoir **husni ta’lil** san’atidan foydalanib, voqelikni badiiy quvvatlantirgan. Oshiq yorining qip-qizil yanoqlarini ko‘rishga zor. Bu yanoqlar shunchalar qizilki, buni ko‘rishni istagan oshiqning qalbi vayron, uning g‘am-anduhlarini eshitib, lola guli ham achinganidan qon kabi qizargan. Ma’lumki, lola tabiiy qizil rangda bo‘ladi, biroq “lirik qahramonning yanoqlar umidida chekkan iztiroblarni eshitib qizargan” – tarzida ifodalash shoirning buyuk mahoratidan dalolat beradi.

Xulosa.

Atoyi mumtoz she’riyatda g‘azal janrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. G‘azallari til va uslubi jihatidan xalqona ruh, xalqona iboralar va ta’birlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir ma’shuqa portretini tasvirlab berishda xayoliy hamda hayotiy óxshatish, ko‘chma ifodalarga murojaat qilib, mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitishga salmoqli hissa qo‘shdi. Bu kabi xususiyatlar adibning badiiy mahoratining yuksakligi, so‘z qo‘llash nazokati borasida ulkan saboq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Majolis un – nafois. Ikkinchi majlis. – 34-bet.
2. N. Komilov. Tasavvuf. Toshkent. “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”.2009-y, – 278-b.
3. “Devoni Shayxzoda Atoyi”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2008-yil, 319 b.
4. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1973, 784 b.

O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Mashraboy Xalimova Vahidovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri,
Sayfulloh Kozimov Maxammadjon o‘g‘li,
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari va ularning samaradorligi mavzusi yoritilib o‘tilgan. Shuningdek, tadqiqotda turli yoshdagi va kasbdagi insonlar tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalar o‘rganilib, ularning shaxsiy va professional hayotdagi natijalarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘z-o‘zini boshqarishning motivatsiya, maqsad qo‘yish, vaqtni boshqarish, va stressni kamaytirishga aloqador ma’lumotlar berilgan.*

Kaliy so‘zlar: *o‘z-o‘zini boshqarish, samaradorlik, muvaffaqiyat, natija, motivatsiya, maqsad qo‘yish, vaqtni boshqarish*

Аннотация: *В данной статье рассматривается тема стратегий самоуправления и их эффективности. В исследовании также изучаются стратегии, используемые людьми разных возрастов и профессий, и изучается их влияние на результаты в личной и профессиональной жизни. В статье представлена информация о самоменеджменте, связанном с мотивацией, постановкой целей, управлением временем и снижением стресса.*

Ключевые слова: *самоменеджмент, эффективность, успех, результаты, мотивация, постановка целей, управление временем.*

Annotation: *This article discusses the topic of self-management strategies and their effectiveness. The study also examines the strategies used by people of different ages and professions and examines their impact on personal and professional outcomes. The article provides information on the role of self-management in motivation, goal setting, time management, and stress reduction.*

Keywords: *self-management, effectiveness, success, outcome, motivation, goal setting, time management*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda insonlarning muvaffaqiyatga erishish va hayot sifatini oshirish uchun o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini boshqarish, shaxsning o‘z harakatlari, his-tuyg‘ulari va fikrlarini nazorat qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyat, shaxsiy va professional hayotda samarali va muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu maqola, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, turli usullar va yondashuvlarning inson hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini boshqarishning asosiy strategiyalari orasida vaqtni boshqarish, maqsad qo‘yish, motivatsiya va intizom mavjud. Vaqtni boshqarish strategiyalari, shaxsning kun tartibini rejalashtirish va vazifalarni samarali bajarishga yo‘naltirilgan. Maqsad qo‘yish esa, aniq va amalga oshiriladigan maqsadlarni belgilash orqali shaxsning motivatsiyasini oshiradi. Stressni boshqarish strategiyalari, stress omillarini aniqlash va ularni kamaytirish yo‘llarini o‘rgatadi. Motivatsiya va intizom, shaxsning uzoq muddatli maqsadlarga erishishida muhim rol o‘ynaydi.

Maqolaning maqsadi, turli yoshdagi va kasbdagi insonlar tomonidan qo‘llaniladigan o‘z-o‘zini

boshqarish strategiyalarini o‘rganish va ularning samaradorligini baholashdir. Tadqiqot davomida, o‘z-o‘zini boshqarishning turli usullari, ularning qo‘llanish doiralari va natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu strategiyalarning shaxsiy farovonlik va professional muvaffaqiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishi ham ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot, psixologlar, murabbiylar va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassislarga qimmatli tavsiyalar beradi. O‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini tushunish, insonlarning hayot sifatini oshirish va muvaffaqiyatga erishish yo‘lida muhim qadamdir. Maqola natijalari, o‘z-o‘zini boshqarish bo‘yicha samarali strategiyalarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O‘z-o‘zini boshqarish psixologiya fanida keng o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, bu sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu bo‘limda, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari va ularning samaradorligi haqida yozilgan muhim ilmiy asarlar tahlil qilinadi.

1. Bandura (1991): O‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi. Albert Banduraning o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi insonlarning o‘z harakatlarini qanday boshqarishlarini tushuntiradi. Bandura, o‘z-o‘zini boshqarishning uchta asosiy komponentini ta’kidlaydi: o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini javobgarlikka tortish.[6] Ushbu komponentlar, shaxsning maqsadlarga erishishda qanday o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalaridan foydalanishini ko‘rsatadi. Banduraning tadqiqotlari, o‘z-o‘zini boshqarishning samaradorligi ko‘pincha shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan bahosi va motivatsiyasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

2. Karver va Scheier (1981): Maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvor. Karver va Scheierning nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarishning maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvor bilan bog‘liqligini tushuntiradi.[7] Ularning tadqiqotlari, shaxsning maqsadlarga erishish jarayonida o‘z-o‘zini kuzatishi va baholashi muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqotlar, o‘z-o‘zini boshqarishning samaradorligi, shaxsning o‘z maqsadlariga bo‘lgan e’tiboriga va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun qo‘ygan harakatlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

3. R.F.Baumeister, K.D.Vohs va D.M.Tise (2007): O‘z-o‘zini boshqarishning cheklangan resurslari modeli. Baumeister va Vohsning o‘z-o‘zini boshqarishning cheklangan resurslari modeli, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining cheklanganligini va vaqt o‘tishi bilan bu resurslar tugab borishini ko‘rsatadi.[8] Ular, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligi, bu resurslarni qanday boshqarishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu model, o‘z-o‘zini boshqarishning kuchaytirish va resurslarni tejash usullarini o‘rganishga katta hissa qo‘shdi.

4. Zimmerman (2000): O‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘ziga ta’lim berish. Barry J. Zimmerman o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini ta’lim sohasida katta tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalaridan foydalanishlari ularning akademik muvaffaqiyatiga qanday ta’sir qilishini o‘rgandi. Zimmermanning modeli, o‘z-o‘zini boshqarishning rejalashtirish, monitoring qilish va refleksiya qilish kabi bosqichlarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining ta’lim jarayonida qanchalik muhim ekanligini namoyish etdi.[9]

5. Mischel va Shoda (1995): O‘z-o‘zini boshqarish va irodani kuchaytirish. V.Mischel va Y.Shoda o‘z-o‘zini boshqarish va irodani kuchaytirish mavzusida muhim tadqiqotlar olib borgan. Ularning tadqiqotlari, o‘z-o‘zini boshqarishning ijtimoiy va kognitiv omillarga qanday bog‘liqligini ko‘rsatdi.[10] Ular, irodani kuchaytirish uchun qilingan strategiyalar va mashqlar o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshirishi mumkinligini aniqladi.

[6] Bandura, A. (1991). Social cognitive theory of self-regulation. Organizational Behavior and Human Decision Processes, 50(2), 248–287.

[7] Carver, C. S., & Scheier, M. F. (1981). Attention and Self-Regulation: A Control Theory Approach to Human Behavior. New York: Springer.

[8] Baumeister, R. F., Vohs, K. D., & Tice, D. M. (2007). The strength model of self-control. Current Directions in Psychological Science, 16(6), 351–355.

[9] Zimmerman, B. J. (2000). Self-efficacy: An essential motive to learn. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 82–91.

[10] Mischel, W., & Shoda, Y. (1995). A cognitive-affective system theory of personality: Reconceptualizing situations, dispositions, dynamics, and invariance in personality structure. Psychological Review, 102(2), 246–268.

6. Duckworth va Seligman (2005): Qat'iyatlilik va o'z-o'zini boshqarish. Angela Duckworth va Martin Seligmanning tadqiqotlari, qat'iyatlilik va o'z-o'zini boshqarishning muvaffaqiyatga erishishdagi rolini o'rgandi. Ular, qat'iyatlilik va o'z-o'zini boshqarish strategiyalari bir-birini to'ldiruvchi omillar ekanligini ta'kidladi. Duckworth va Seligman, yuqori darajadagi qat'iyatlilik va samarali o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining muvaffaqiyatga erishishda muhim ekanligini ko'rsatdi.[11]

Ushbu adabiyotlar tahlili, o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining turli nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi. Turli tadqiqotlar natijalari, o'z-o'zini boshqarishning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar asosida, maqolamizda o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Ushbu tadqiqotda o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini o'rganish uchun kvantitativ va sifatli tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, turli o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini baholash va ularning shaxsiy va professional muvaffaqiyatga ta'sirini aniqlashdir.

Tadqiqotda 18-65 yosh oralig'idagi 200 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ishtirokchilar turli kasb egalari bo'lib, ularning orasida talaba, xodim, menejer va mustaqil tadbirkorlar bor edi. Ishtirokchilar tadqiqotda ishtirok etish uchun ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tishdi. Ular orasida erkaklar va ayollar nisbati teng bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot dizayni uch bosqichdan iborat bo'ldi: so'rovnoma, intervyu va kuzatuv. Har bir bosqich turli metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oldi va o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining turli jihatlarini tahlil qilishga yordam berdi.

1. So'rovnoma. Tadqiqotning birinchi bosqichida ishtirokchilarga maxsus tayyorlangan so'rovnoma tarqatildi. So'rovnoma, o'z-o'zini boshqarish strategiyalarining qo'llanilishi va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan savollarni o'z ichiga oldi. So'rovnoma savollari Likert shkalasi[12] asosida tuzildi, bunda ishtirokchilar har bir savolga 1 dan 5 gacha ball bilan javob berishdi. So'rovnoma savollari quyidagi mavzularni qamrab oldi:

- Vaqtni boshqarish
- Maqsad qo'yish
- Stressni boshqarish
- Motivatsiya va intizom

2. Intervyu. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida 30 nafar ishtirokchi bilan chuqur intervyular o'tkazildi. Intervyular davomida ishtirokchilarning o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini qanday qo'llashlari va bu strategiyalar ularga qanday natijalar berayotganligi haqida batafsil ma'lumot olindi. Intervyular strukturaviy bo'lib, ishtirokchilarning shaxsiy tajribalarini o'rganishga qaratildi. Intervyu savollari quyidagi mavzularni qamrab oldi:

- Shaxsiy va professional maqsadlarni belgilash tajribalari
- Stressli vaziyatlarda qo'llaniladigan strategiyalar
- Motivatsiya va intizomni saqlash usullari

3. Kuzatuv. Tadqiqotning uchinchi bosqichida 20 nafar ishtirokchining kundalik faoliyatlari kuzatildi. Kuzatuvlar davomida ishtirokchilarning o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini qanday qo'llashlari real vaqt rejimida kuzatildi. Kuzatuvlar ish joyida, ta'lim muassasalarida va uy sharoitida amalga oshirildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish.

Olingan ma'lumotlar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturidan foydalanib tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari deskriptiv statistika yordamida tahlil qilindi, bu esa ishtirokchi-

[11] Duckworth, A. L., & Seligman, M. E. P. (2005). Self-discipline outdoes IQ in predicting academic performance of adolescents. Psychological Science, 16(12), 939–944.

[12] Likert shkalasi https://www.extension.iastate.edu/documents/anr/likertscaleexamplesforsurveys.pdf

larning o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarini qo‘llash darajalarini aniqlashga yordam berdi. Intervyu natijalari tematik tahlil usuli yordamida o‘rganildi, bunda asosiy mavzular va ularning ishtirokchilar tomonidan qayd etilgan tajribalari ajratib olindi. Kuzatuv natijalari esa kontent tahlili yordamida tahlil qilindi, bunda ishtirokchilarning real harakatlari va ularning samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining turli ko‘rinishlari va ularning samaradorligini ko‘rsatdi. Vaqtni boshqarish, maqsad qo‘yish, stressni boshqarish, motivatsiya va intizom strategiyalarining samaradorligi ishtirokchilarning shaxsiy va professional hayotlarida qanday aks etganligi tahlil qilindi. Natijalar, samarali o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining shaxsiy farovonlik va muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.

Natıjalar.

Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining turli jihatlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar, vaqtni boshqarish, maqsad qo‘yish, stressni boshqarish, motivatsiya va intizom strategiyalarining samaradorligini ko‘rsatadi. Natijalar, shuningdek, bu strategiyalarning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishdagi rolini ochib beradi.

Vaqtni boshqarish. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 75 foizi vaqtni samarali boshqarish strategiyalaridan foydalanganligini va bu ularga kundalik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda yordam berganini bildirishdi. Samarali vaqtni boshqarish strategiyalarini qo‘llagan ishtirokchilar ish samaradorligi va umumiy hayot sifatining oshganini ta’kidlashdi. Bu natija, vaqtni boshqarishning samarali bo‘lishi shaxslarning stress darajasini kamaytirib, ularning umumiy farovonligini oshirishiga yordam berishini ko‘rsatadi.

Maqsad qo‘yish. Maqsad qo‘yish strategiyalarining samaradorligi ham yuqori baholandi. Ishtirokchilarning 80 foizi o‘zlariga aniq va amalga oshiriladigan maqsadlar qo‘yganliklarini va bu maqsadlar ularga yuqori motivatsiya va intizom saqlashda yordam berganini bildirishdi. Maqsad qo‘yish strategiyalari, shuningdek, ishtirokchilarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishiga yordam bergan. Bu natijalar, Bandura (1991) tomonidan o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasida ta’kidlanganidek, aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish jarayonida doimiy kuzatish va baholashning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Stressni boshqarish. Stressni boshqarish strategiyalarining samaradorligi ham sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ishtirokchilarning 70 foizi stressli vaziyatlarda qo‘llaniladigan samarali strategiyalarni bilishlarini va bu strategiyalar ularga stress darajasini kamaytirishda yordam berganini bildirishdi. Stressni boshqarish strategiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llagan ishtirokchilar umumiy farovonlik darajasining oshganini va stressli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatining yaxshilanganini ta’kidlashdi. Bu natijalar, Baumeister va Vohs (2007) tomonidan o‘z-o‘zini boshqarishning cheklangan resurslari modeli bilan mos keladi.

Motivatsiya va intizom. Motivatsiya va intizom strategiyalarining samaradorligi ham yuqori baholandi. Ishtirokchilarning 85 foizi yuqori motivatsiya va intizom saqlash uchun turli strategiyalardan foydalanganliklarini va bu ularga uzoq muddatli maqsadlarga erishishda yordam berganini bildirishdi. Ushbu strategiyalar ishtirokchilarning qat’iyatliligini oshirishga va ularni qiyinchiliklarga qarshi turishga undagan. Duckworth va Seligman (2005) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan mos ravishda, yuqori darajadagi qat’iyatlilik va samarali o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari muvaffaqiyatga erishishda muhim ekanligi ko‘rsatildi.

Kuzatuv natijalari. Kuzatuv natijalari ham yuqori darajada mazmunli bo‘ldi. Kuzatuvlar davomida ishtirokchilarning kundalik faoliyatlari real vaqt rejimida kuzatildi va o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining amaliy qo‘llanilishi baholandi. Kuzatuv natijalari, ishtirokchilarning samarali vaqtni boshqarish, maqsad qo‘yish, stressni boshqarish va motivatsiya va intizom strategiyalaridan foydalanishlari ish samaradorligi va umumiy hayot sifatini oshirishga yordam berganini ko‘rsatdi.

Intervyu natijalari. Intervyu natijalari ishtirokchilarning shaxsiy tajribalarini ochib berdi. Intervyular davomida, ishtirokchilar o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarini qanday qo‘llaganliklari va bu strategiyalar ularga qanday natijalar berganligi haqida batafsil ma’lumot berdilar. Intervyu natijalari, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining shaxsiy farovonlik va muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini va ularning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari shaxsiy va professional muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Samarali o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari shaxslarning umumiy farovonlik va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining turli ko‘rinishlarini o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi. Bu natijalar psixologlar, murabbiylar va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassislarga o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarini rivojlantirish va qo‘llashda yordam beradi.

Muhokamalar.

Ushbu tadqiqotning natijalari o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini ko‘rsatdi va shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishda qanchalik muhim ekanligini ta’kidladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining turli jihatlarini ochib berdi va ularning qo‘llanilishi shaxslar o‘rtasida qanday farq qilishini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida bir qancha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, vaqtni boshqarish va maqsad qo‘yish strategiyalarini o‘z ichiga olgan o‘z-o‘zini boshqarish dasturlari tashkil etilishi kerak. Bu dasturlar ishtirokchilarga o‘z maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish uchun samarali vaqtni boshqarish usullarini o‘rgatishi lozim. Ikkinchidan, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar va qo‘llab-quvvatlash guruhlari tashkil etilishi zarur. Ushbu guruhlar shaxslarning stressli vaziyatlarda o‘zlarini boshqarishlariga yordam beradi va psixologik farovonlikni oshiradi. Uchinchidan, motivatsiya va intizomni oshirish uchun maxsus mashqlar va treninglar ishlab chiqilishi kerak. Bu treninglar ishtirokchilarning qat’iyatlilik va intizom ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Cheklovlar va kelgusidagi tadqiqotlar. Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, ishtirokchilar soni cheklangan bo‘lib, natijalarni umumlashtirishda ma’lum cheklovlar mavjud. Ikkinchidan, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar o‘z-o‘zini baholashga asoslangan bo‘lib, bu natijalarga subyektivlik kirishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun kattaroq ishtirokchilar guruhi va turli madaniy kontekstlarni qamrab oladigan tadqiqotlar o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining uzoq muddatli samaradorligini baholash uchun davomiy tadqiqotlar olib borish lozim. O‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari shaxsiy va professional muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotning natijalari va tavsiyalari psixologlar, murabbiylar va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassislarga qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini va ularning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishdagi rolini o‘rganishga qaratilgan edi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar va natijalar asosida bir qator muhim xulosalar chiqarildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarining samaradorligini va ularning shaxsiy va professional muvaffaqiyatga erishishda qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatdi. Vaqtni boshqarish, maqsad qo‘yish, stressni boshqarish, motivatsiya va intizom strategiyalarining samaradorligi shaxslarning umumiy farovonlik darajasini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari, turli nazariyalar va tadqiqotlar bilan mos keladi va ularning amaliy qo‘llanilishini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotning natijalari va tavsiyalari psixologlar, murabbiylar va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassislarga o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalarini rivojlantirish va qo‘llashda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura, A. (1991). Social cognitive theory of self-regulation. Organizational Behavior and Human Decision Processes, 50(2), 248–287. https://psycnet.apa.org/doi/10.1016/0749-5978(91)90022-L

2. Carver, C. S., & Scheier, M. F. (1981). Attention and Self-Regulation: A Control Theory Approach to Human Behavior. New York: Springer. http://dx.doi.org/10.1007/978-1-4612-5887-2

3. Baumeister, R. F., Vohs, K. D., & Tice, D. M. (2007). The strength model of self-control. Current Directions in Psychological Science, 16(6), 351–355. https://psycnet.apa.org/doi/10.1111/j.1467-8721.2007.00534.x

4. Zimmerman, B. J. (2000). Self-efficacy: An essential motive to learn. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 82–91. https://psycnet.apa.org/doi/10.1006/ceps.1999.1016

5. Mischel, W., & Shoda, Y. (1995). A cognitive-affective system theory of personality: Reconceptualizing situations, dispositions, dynamics, and invariance in personality structure. Psychological Review, 102(2), 246–268. https://psycnet.apa.org/doi/10.1037/0033-295X.102.2.246

6. Duckworth, A. L., & Seligman, M. E. P. (2005). Self-discipline outdoes IQ in predicting academic performance of adolescents. Psychological Science, 16(12), 939–944.

7. https://psycnet.apa.org/doi/10.1111/j.1467-9280.2005.01641.x https://www.extension.iastate.edu/documents/anr/likertscaleexamplesforsurveys.pdf

8. S.M.Kozimov (2022). Psychological approach to “Time management” is a modern method of correct distribution of time to achieve success. Moya professional career , 5(23), 1077-1086.

9. S.Kozimov Life Management “Lambert Academic Publishing” Moldova-2024

10. https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/2071

11. https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1499

12. https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/1672

13. https://doi.org/10.55640/eijmrms-04-06-28

O‘ZBEK TILIDAGI BROKA AFAZIYASIGA OID SPONTAN NUTQDA FE’LLARNING IFODALANISHI

Shahnoza Yo‘ldosheva O‘roljon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Afaziya tilshunoslikda ham, tibbiyotda ham o‘rganilganligiga bir asrdan oshayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida hali hamon bu yetarlicha tadqiq qilinmagan. G‘arbda afaziya haqida bir necha o‘nlab davriy nashrlar, turli reabilitatsiya markazlari, afaziyani davolashga qaratilgan zamonaviy usullar mavjud. Afaziya o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi kerak bo‘lgan eng yangi sohalardan biridir, chunki afaziyani o‘rganish orqali inson ongidagi til bilan ishlovchi neyrokognitiv mexanizm haqida tasavvurga ega bo‘lish, uning modelini ishlab chiqish imkoni berilishi aytiladi. Afaziya bo‘lmaganda edi, nutqiy kompetensiyalar bo‘lmasdi. Ushbu maqolada afaziya haqida, aniqroq aytilsa, o‘zbek tilidagi Broka afaziyasi yuzasidan tajriba va tahlilllar xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *afaziya, Broka afaziyasi, agrammatizm, nutq tezligi, lisoniy buzilish.*

Аннотация: *Несмотря на то, что афазия изучается в лингвистике и медицине уже более века, в узбекском языкознании она до сих пор остается недостаточно исследованной. В западных странах по проблеме афазии издаются десятки научных журналов, функционируют центры реабилитации и применяются современные методы лечения. Афазия – одна из новейших областей, которую необходимо развивать в узбекском языкознании, поскольку изучение афазии позволяет получить представление о нейрокогнитивных механизмах, отвечающих за язык в сознании человека, а также разрабатывать соответствующие модели. Считается, что без афазии невозможно было бы понять природу речевых компетенций. В настоящей статье рассматриваются особенности Broca-афазии на узбекском языке, а также приводятся данные экспериментов и аналитических наблюдений.*

Ключевые слова: *афазия, афазия Брока, аграмматизм, темп речи, языковые нарушения.*

Abstract: *Although aphasia has been studied in both linguistics and medicine for over a century, it remains insufficiently explored in Uzbek linguistics. In Western academia, numerous scientific journals, rehabilitation centers, and modern treatment methods are devoted to aphasia. Aphasia is considered one of the emerging fields that Uzbek linguistics needs to explore, as its study offers insights into the neurocognitive mechanisms responsible for language processing in the human mind and enables the development of corresponding models. It is argued that without aphasia, the nature of speech competencies would remain obscure. This article focuses on the features of Broca’s aphasia in the Uzbek language, presenting experimental findings and analytical observations.*

Keywords: *aphasia, Broca’s aphasia, agrammatism, speech rate, linguistic disorder.*

Til buzilishlarining tarixiy kuzatuvlari miloddan avvalgi 3000-yillarda fir’avnlarnning tibbiyotga doir papirus matnlarida, milloddan avvalgi 1500-yillarda Xet mixxat bitiklarida topilgan [Briggitte Stemmer, Harry Whitaker]. Xususan, o‘rta asrlardagi lotin matnlari, 1558-yilgi Shenk to‘plamidagi uyg‘onish davriga oid matnlar, XVIII asrda Shmidt va Rommellarning ishlari, XIX asrning boshlarida Gall, Shpursgeym va Hudning ilmiy izlanishlarini Broka, Meynert, Vernike, Bastian, Jekson va ko‘plab olimlar davom ettirib, bu soha bo‘yicha yangi davr ochildi. Gapirishdagi buzilishning

ilmiy tadqiqi fransuz olimi Paul Broka nomi bilan bog‘liq. Brigitte Stemmerning “Neyrolingvistika va tilshunoslik” asarida 1860-yilga qadar “ma’lumotni tushunish” buzilishi haqida tadqiqot olib borilmaganligi ta’kidlangan. Devid Kaplan o‘zining neyrolingvistikaga oid asarida Broka tomonidan 1861-yilgi maqola til va miya munosabatlariga oid birinchi haqiqiy ilmiy maqola ekanligi haqida yozgan. Afaziyaning murakkab klinik va eksperimental tadqiqotlari tilning miyada qanday amalga oshirilishi haqida muhim tushunchalarni berish uchun bugungi kungacha davom etmoqda. Afaziya aniq nima? Oddiy qilib aytganda, bu insult, o‘sma, bosh miya jarohati yoki progressive-degenerativ kasallik kabi orttirilgan miya shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan gapirish, tushunish yoki takrorlash qobiliyatining buzilishi. Afaziya haqida turli manbalarda turlicha ta’riflar berilgan. Shulardan ba’zilarini keltirib o‘tish joizdir. O‘zbekistonda neyrolingvistik ilk tadqiqotlar olib borgan ustoz Iroda Azimova o‘z maqolasida Penfield va Robertsning afaziya haqidagi quyidagi fikrlarini keltiradi: “Afaziya – inson tilni o‘zlashtirib bo‘lganidan keyingi vaqtda miyaning alohida bir qismidagi jarohat natijasida yuzaga kelgan orttirilgan lisoniy nuqsondir. U afaziya deb baholanishi uchun miyadagi jarohat alohida bir nuqtada bo‘lishi kerak (odatda, bu miyadagi asosiy til markazlari bo‘lgan Broka sohasi va Vernike sohasidagi jarohatlar bo‘ladi) [Azimova,2024].Afaziya o‘ziga xos bir qancha lisoniy xususiyatlarga ega. Bu haqida Devid Kemmerer (2015) gapirishda ba’zi afazik bemorlar obyektlar yoki harakatlar uchun so‘zlarni tanlashda katta qiyinchiliklarga duch kelishini; boshqalar so‘zlarni fonologik jihatdan to‘g‘ri ifodalashda qiynalishini; va yana boshqalar so‘z, ibora va gaplarning grammatik tuzilishi bilan qiyinchillikka duch kelishini aytib o‘tgan bo‘lsa, tushunish bosqichida esa afaziyali bemorlarda fonemalarni idrok etish, so‘zlarni aniqlash va sintaktik tahlil qilishning buzilishi kabi turli xil kamchiliklar ham namoyon bo‘lishi mumkinligi haqida keltirib o‘tgan. Tilning takrorlanishiga kelsak, ko‘plab afaziyali bemorlar ularga aytilgan jumlalarni takrorlay olmaydilar va ba’zilari hatto bitta so‘zni aniq taqlid qila olmaydilar. Og‘zaki nutqdan ko‘ra imo-ishora tilidan foydalanadigan afaziyali bemorlarda gapirish, tushunish va takrorlashning o‘xshash buzilishlari haqida aytilgan. Shunisi e’tiborga loyiqki, yuqorida keltirilgan afaziya ta’rifi tug‘ma sabablarga ega bo‘lgan til buzilishlarini, masalan, genetik yoki ekologik sabablarga ko‘ra perinatal miya kasalliklari bilan aloqador emas. Demak, afaziya faqat lingvistik tizimga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan va shaxs lingvistik kompetentsiyaning tegishli darajasiga erishgandan keyin miya shikastlanishi natijasida olingan nuqsonlarga nisbatan qo‘llaniladi. 1836-yilda Mark Dax afaziya va chap yarim sharning kasalliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni “Chap yarim sharning lezyonlari fikrlash belgilarini unutish bilan bir vaqtda” deb nomlangan maqolasida tasvirlab berdi [David Caplan,1987]. Ammo, afsuski, u buni nashr qilmadi, tibbiy yig‘ilishda ham taqdim etmadi. Aslida, agar Markning o‘g‘li Gustav fransuz jarrohi, anatomi va antropologi Paul Broka 1861-yildan boshlab bir qator muhim tadqiqotlarni e’lon qilganidan so‘ng darhol unga e’tibor qaratmaganida, afaziya haqidagi ta’limot hech qachon paydo bo‘lmasdi. 1865-yil, aftidan, birinchi marta chap yarim sharning til uchun dominant ekanligini ko‘rsatdi. Asosan, Broka bunday dalillarni birinchi bo‘lib bosma nashrlarda e’lon qilganligi sababli, an’anaviy ravishda Daks emas, balki u o‘zining mashhur so‘zlari bilan aytilganidek, “Biz chap yarim shar bilan gaplashamiz” degan xulosaga kelgan. Broka izidan borib, 1800-yillarning oxirida bir qancha boshqa olimlar afaziyaning turli shakllarini muntazam ravishda o‘rganishni boshladilar. Eng nufuzli shaxslar orasida Karl Vernike, u bor-yo‘g‘i 26 yoshida afaziyaning yangi turini hujjatlashtirgan va boshqa bir qancha turlari mavjudligini to‘g‘ri bashorat qilgan yangi monografiyani nashr etgan. Yana bir muhim hissa qo‘shgan Lyudvig Lixtxaym (1885) bo‘lib, u Vernike g‘oyalarini sezilarli darajada ishlab chiqdi. 20-asrning boshlariga kelib, barcha asosiy afaziya sindromlari va nazariy munozaralarning asosiy nuqtalarining aksariyati allaqachon aniqlangan edi. Shunga qaramay, afaziya bo‘yicha klinik tadqiqotlar 20-asrning birinchi yarmida, qisman Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida boshidan jarohatlangan askarlarni yaqindan tekshirish orqali rivojlanishda davom etdi.

Tadqiqot metodi.

Tahlil Broka afaziyasi bilan og‘rigan to‘rtta bemorning nutqi o‘nta sog‘lom ishtirokchilarning nutqi bilan qiyoslangan holda amalga oshiriladi. Bemorlarning ikkitasi ayol, ikkitasi erkak. Bemorlarni topishda oilaviy poliklinikalarning nevropatologlaridan “efferent-motor afaziya” diagnozi qo‘yilgan bemorlar haqida ma’lumot olinib, bemorlarning o‘zlariga bevosita murojaat qilindi. Tajriba uchun sog‘lom ishtirokchilarni tanlashda imkoni boricha jinsi, ma’lumoti, kasbi jihatidan afazik bemorlarga yaqin bo‘lishiga e’tibor qaratildi [Sh.Yo‘ldosheva,2024].

Natijalar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda biz agrammatik spontan nutqda fe’l turkumidagi so‘zlarning ot turkumidagi so‘zlarga nisbatini, fe’llarning tugal shakli (zamon va shaxs-son qo‘shimchasi bilan tuslangan) bilan funksional shakllari nisbati hamda o‘tgan vaqtga ishora qilgan fe’l shakllarining hozirgi va kelasi zamon fe’l shakllariga nisbatini tahlil qilamiz.

6-jadval.

Tajriba ishtirokchilarining fe’l so‘z turkumiga oid ko‘rsatkichlari qiyosi

	Agrammatik ishtirokchilar			Sog‘lom ishtirokchilar	
	FI	HT	O‘rtacha qiymat	Ko‘rsatgichlar intervali	O‘rtacha qiymat
Otlar	57	65	61	30-85	57.3
Ot leksemalar	44	57	50.5	26-73	51.3
Fe’llar	30	48	39	35-64	48.3
Fe’l leksemalar	21	36	28.5	26-53	36.6
Bog‘lama	0	0	0	4-10	6.75
Yordamchi fe’llar	0	0	0	3-10	3.75
Tuslangan fe’llar	16	21	18.5	21-28	24.75
Fe’lning funksional shakllari	4	5	4.5	9-16	11.75
O‘tgan zamon	8	16	12	9-27	20.5
Hozirgi va kelasi zamon	10	16	13	8-27	16

Tahlil va muhokama.

Shu vaqtgacha qilingan boshqa tillardagi tadqiqotlarning aksariyatida agrammatik afaziyaga chalinganlar spontan nutqda ot so‘z turkumini sog‘lom kishilar bilan bir xil miqdorda qo‘llay olishlari, ammo fe’l turkumiga oid so‘zlar sog‘lom kishilarnikiga nisbatan ancha kam qo‘llanishi ta’kidlangan. O‘zbek tilidagi ko‘rsatkichlarga nazar tashlasak, agrammatik afaziyaga chalingan ishtirokchilarimiz qo‘llagan otlar, ot-leksemalar, fe’llar va fe’l-leksemalarning soni sog‘lom ishtirokchilar tomonidan qo‘llangan miqdorga mos kelishini ko‘ramiz.

Shunday bo‘lsa-da, agrammatik so‘zlovchilar otlardan ko‘ra fe’llar bilan ko‘proq qiyinchilikka duch kelishadi. Bunga gapda bog‘lama, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini ifodalashdagi muammolar sabab qilib ko‘rsatiladi.

FIning nutqida:

Pardayev Islom eee Payzullayev Islom Pardayev Islom Umarvich 1993-yil… (1)1993-yil Bugalter … (2). 34 yil… (3). Men matematka… asosan … (4) Frunze… texnikum … (5) keyin institut … Xalq xo‘jalik instituti… Qarshi…(6) keyin Toshken…(7)

1) o‘rinda -dan beri (2) o‘rinda bo‘lib ishladim (3) o‘rinda bo‘ldi (4) o‘rinda -ga qiziqqanman (5) o‘rinda -da o‘qidim (6) o‘rinda -da o‘qidim (7) o‘rinda da o‘qiganman kabi fe’llar tushib qolganligi sababli gaplar tugallanmay qolgan.

Ushbu misollardan ko‘rishimiz mumkinki, afaziyaga chalingan bemorlar uchun ot turkumidagi so‘zlarni ifodalashga qaraganda fe’l so‘z turkumidagi so‘zlarni ifodalashda qiyinchilikka duch kelishgan.

Sog‘lom ishtirokchilar ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini uchtadan o‘ntagacha foydalangan bo‘lsa, afazik bemorlarda esa umuman qo‘llanmagan. Bu esa afazik bemorlar nutqida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi ishlatilmasligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, afaziya bilan og‘rigan bemorlarda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari qiyinchilik tug‘diradi. Buni I. Azimovaning o‘tkazgan tajribasi ham tasdiqlaydi [Azimova,2020].

O‘zbek tilidagi afaziya bilan og‘riganlarning nutqida tuslanish izdan chiqmagan, sog‘lom ishtirokchilar bilan afazik bemorlarning ko‘rsatgich intervallari bir biriga mos keladi. O‘zbek tilidagi ilk neyrolingvistik tadqiqot sifatida I.Azimova ot va fe’l dissotsiatsiyasi kuzatilmasligini, bu holat boshqa morfologik jihatdan nisbatan sodda bo‘lgan tillarda kuzatilgan holatlarga zid bo‘lsa-da, italyan, suaxili kabi morfologiyasi murakkab tillardagi natijalarga mosligini keltirib o‘tadi. Bizning tajribamiz davomida ham bu o‘z isbotini topdi.

Ustoz M.Goralning murakkab morfologik tizimning agrammatik afaziyada nisbatan yaxshi ifodalanishiga sabab ularning qoidaga bo‘ysunishida degan fikrni ilgari surganligini aytadi. Ya’ni so‘z o‘zagiga qancha qo‘shimcha qo‘shilsa ham qoidaga bo‘ysungani uchun bu afazik bemorlarga qiyinchilik tug‘dirmasligini keltiradi. J.Baybi ham murakkab morfologik tizim qo‘shimchalarning ko‘pligi bilan xarakterlanishini aytgan. Afaziyaga chalinganlarning mantiqqa ko‘proq mos kelishi va keng tarqalganligi sababli ularni nisbatan yaxshiroq ifodalay oladi deb xulosa qilinadi. Ushbu fikrga tayanib, fe’llarning bir nechta qo‘shimchalar kombinatsiyasi bilan birikishi qo‘shimchalar kombinatsiyasi ham, fe’l o‘zagi bilan aloqasi ham fe’lning neyropsixologik inikosi mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi, deyiladi [Azimova,2015]. O‘zbek tilida bitta fe’lning nazariy jihatdan yuz mingdan ortiq shaklga ega bo‘lishi aytiladi. Bu haqida I. Azimova quyidagicha ifodalaydi: “Bu shakllarning yuzdan biri yoki mingdan biri kundalik hayotda ishlatilgan taqdirda ham, bu aynan bir xil ketma-ketlikdagi bir necha qo‘shimchaning muntazam ravishda takrorlanishi demakdir. Insonda biror ko‘nikmaning hosil bo‘lishi muntazam mashq talab qilishi hayotiy tajribada isbotlanganidan kelib chiqsak, o‘zbek tilida fe’lga oid ma’lum qo‘shimchalar kombinasiyasining muntazam qo‘llanishi ularning so‘zlovchi ongidagi neyropsixologik asosining mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Biroq mazkur xulosa o‘zbek tilidagi dastlabki neyrolingvistik kuzatishlarga asoslangani uchun bu masalaga oydinlik kiritish uchun hali ko‘plab tadqiqotlar qilish zarurligini ta’kidlab o‘tamiz” [O‘sha manba]. Bizning tajribamiz davomida ham ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi izdan chiqqanini kuzatdik. Bemor nutq tezligining pasayishiga ham, gapning o‘rtacha uzunligining sezilarli darajada kam bo‘lishiga ham asosiy sabab fe’l va fe’l strukturasidagi buzilishlardir. Bu I. Azimovaning ham tajribasida kuzatilgan. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining izdan chiqishi faqat o‘zbek tilida emas, M.Sanches ingliz va niderland tilidagi tadqiqotlarni umumlashtirganda mustaqil fe’llarga qaraganda ko‘makchi fe’llar ko‘proq tushirib qoldirilganligi aytiladi. Bunga mustaqil va ko‘makchi fe’llarning semantik va fonologik xususiyatlari o‘rtasidagi farqni keltiradi. Ushbu tillarda mustaqil fe’llar lug‘aviy ma’noga ega; ko‘makchi fe’llar lug‘aviy ma’noga ega emas. Mustaqil fe’llar fonologik jihatdan to‘liq ifodalandi, ko‘makchi fe’llar reduksiya[13]ga uchrashi aytiladi. O‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llar ingliz yoki niderland tilidagidan farq qilishi ma’lum. Boshqacha aytganda, o‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llar leksik ma’noga ega

[13] Tovush cho‘ziqligining qisqarishi yoki talaffuzning kuchsizlanishiga bog‘liq holda uning artikulyasion va akustik sifatlarining o‘zgarishi.

mustaqil fe’llar bo‘lib, ravishdosh shaklidagi boshqa fe’l bilan birikkanda o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotib, “yetakchi fe’ldan anglashilgan harakatning xarakteristikasini” ifodalaydi, deyiladi. Ustoz I. Azimova M. Sanchesning ko‘makchi fe’llarning lug‘aviy ma’noga ega emasligini o‘zbek tilida ko‘makchi fe’llarning izdan chiqishiga sabab qilib bo‘lmaydi deya xulosa qiladilar.

Ko‘makchi fe’l so‘zning sintetik-analitik (o‘qiy boshladi, ko‘rib chiqdi) va analitik (sotdi-qo‘ydi, ketdi-qoldi) morfologik shaklini hosil qiladi. Ko‘makchi fe’l ravishdoshning tegishli shakli bilan birikib nutqqa chiqadi. Fe’l lug‘aviy shakli sirasida bo‘lgan harakat tarzi shakli yetakchi fe’lning semantik-sintaktik imkoniyatiga ta’sir qiladi.

Ko‘makchi fe’lni qo‘llash uchun kamida uchta vazifa bajariladi: 1) harakatni ifodalagan yetakchi fe’lni eslash; 2) harakat tarzini ifodalagan ko‘makchi fe’lni eslash; 3) harakatning sodir bo‘lgan vaqtini va harakatni bajargan shaxsni belgilash (fe’lni shaxs-sonda va zamonda tuslash). Ko‘makchi fe’llar yana bir semantik hodisa – ma’no ko‘chishi bilan ham bog‘liqligi aytiladi. Ko‘makchi fe’l vazifasida kelayotgan mustaqil fe’l “o‘z ma’nosini yo‘qotadi” deyilgani bilan, uning ma’nosi butunlay yo‘qqa chiqmaydi, unga tegishli ma’noning ma’lum qirrasi yetakchi fe’ldan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilganini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “kuylay boshladi” da boshlamoq fe’li kuylashning boshlanishini, “o‘qib chiqdi”da chiqmoq fe’li harakatning yakunlanganini, “o‘qib turadi”da turmoq harakatning takrorlanishini bildiradi [Azimova,2013].

Ko‘makchi fe’lli konstruksiyada aynan ko‘makchi fe’l ham semantik o‘zgarish (ma’no ko‘chishi), ham sintaktik o‘zgarish (shaxs-son va zamonda tuslanish)ga uchrashi kerak, ya’ni nutqda ko‘makchi fe’lni qo‘llash uchun uning ko‘chma ma’nosini yodda tutish kerak va unga mos grammatik qo‘shimchalarni qo‘ya bilish kerak. Bu esa ikki xil lisoniy darajadagi (xususan, leksik daraja va sintaktik darajadagi) ma’lumotni uyg‘unlashtirishni (integratsiya qilishni) talab etadi. Aynan shu vazifa agrammatik afaziyaga chalingan kishilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi boshqa tadqiqotlarda kuzatilganligi keltiriladi. Jumladan, turk tilidagi agrammatik afaziyaga chalingan shaxslar bilan gapirish va tushunishni tahlil qilish uchun o‘tkazilgan tajribada ishtirokchilar gapning odatdagi tartibini oson tushunganlar, ammo majhul nisbatdagi fe’l ishtirok etgan gapda gapning temasini noto‘g‘ri ko‘rsatganlar. Ikkinchi holatda gapni to‘g‘ri tushunish uchun ham gapdagi so‘zlarning tartibi berayotgan ma’lumotni, ham majhul nisbat anglatuvchi qo‘shimcha berayotgan ma’lumotni to‘g‘ri uyg‘unlashtira olish gapning to‘g‘ri tushunilishini ta’minlagan bo‘lishi aytiladi. Demak, aynan shu vazifa, ya’ni turli lisoniy darajalardagi ma’lumotni uyg‘unlashtirish agrammatik afaziyaga chalingan kishilar uchun qiyinlik qiladi; ularning nutqidagi bir qator kamchiliklarni shu bilan izohlash mumkin.

Fe’l so‘z turkumining qo‘llanishida boshqa tillardagi kabi jiddiy buzilish kuzatilmaydi, ammo ko‘makchi fe’llarning qo‘llanish mexanizmi izdan chiqqan bo‘lib, u ko‘makchi fe’lning qo‘llanishi mustaqil fe’llarning qo‘llanish mexanizmiga nisbatan murakkabroq ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bog‘lamaning qo‘llanishi izdan chiqqan bo‘lib, uning asosida qanday neyrokognitiv nuqson yotganini aniqlash uchun qo‘shimcha tajribalar zarurligi aytiladi. Bog‘lama (grammatikada) – gapda ega va kesimni biriktiruvchi vosita. Bog‘lamalar o‘z leksik ma’nosini yo‘qotib, yordamchi so‘z vazifasini bajaradi. Ular lug‘aviy birlik holatida o‘z leksik ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin, lekin yordamchi so‘z sifatida grammatik vazifani bajarishda undan xoli bo‘ladi. Bog‘lama predikativlikni shakllantiradi va ot kesimga qo‘shilib, uning modallik, zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini ifodalaydi. U “bo‘l” fe’li va to‘liqsiz fe’lning “edi”, “ekan”, “emish” shakllaridan iborat. Predikativlik qo‘shimchalari ham bog‘lama vazifasini o‘taydi va modallik, zamon, shaxs-son munosabatlarini bildiradi. Bog‘lama vazifasini yana “kel”, “sana”, “hisobla”, “ata” kabi fe’llar ham bajara oladi. Bog‘lama ot kesimlarni shaxs-son jihatdan ega bilan moslashtiradi, ya’ni ega va kesimning o‘zaro moslashuv bog‘lanishini ta’minlaydi. Bog‘lamaning grammatik vazifasi, ya’ni o‘z leksik ma’nosini yo‘qotib, ega va kesimni moslashtirishi bemor uchun qiyinchilik tug‘diradi. Boshqacha aytganda, bemor xuddi

ko‘makchi fe’lli qo‘shilmalaridagi yordamchi fe’l o‘z ma’nosini yo‘qotib yetakchi fe’ldan anglashilgan harakatning tarzini bildirganida qiyinchilikka duch kelganidek bog‘lamalar grammatik vazifa bajarganda ham shunday qiyinchilikka duch keladi.

Xulosa.

Fe’l bilan bo‘ladigan qiyinchiliklar, asosan, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi va bog‘lamaning gapda qo‘llanmasligi bilan izohlanadi. Ikkalasida ham fe’lning o‘z lug‘aviy ma’nosida kelmasligi sabab qilib ko‘rsatiladi.

Broka afaziyasi bilan og‘rigan bemorlar yaxshi tushunadi, biroq o‘z fikrini ifodalashda qiyinchillika duch keladi. Buning bir qancha sabablari yuqorida izohlandi, afaziyaning bu turi bir qator tillarda o‘rganilgan. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi Broka afaziyasi bilan kasallangan bemorlarning nutqi tahlilga tortildi. Tajriba jarayonida ularga savollar berilib, nutqi yozib olindi. Tahlil jarayonida ot va fe’l o‘rtasida keskin farq kuzatilmasligi aniqlangan bo‘lsa-da, spontan nutq davomida ot va fe’l bilan bog‘liq bir qancha jihatlar yoritilgan. Broka afaziyasini tilshunoslik jihatidan o‘rganish tilning ichki strukturasi, tilning o‘zaro munosabatlarini batafsil tushuntirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abuom, T. O., & Bastiaanse, R. (2012). Characteristics of Swahili – English bilingual agrammatic spontaneous speech and the consequences for understanding agrammatic aphasia, Journal of Neurolinguistics, doi: 10.1016/j.jneuroling.2012.02.003.

2. Azimova. I. “O‘zbek tilidagi Broka afaziyasiga xos spontan nutqda ot va fe’llarning qo‘llanishi”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2023-3. – B.41-60.

3. Azimova I. O‘zbek tilidagi agrammatik afaziyada ot va fe’llarning ifodalanishi. So‘z san’ati. #1. http://dx.doi. org/10.26739/2181-9297-2020. – B.1-4 .

4. Azimova I. O‘zbek tilidagi broka afaziyasida gap shakllari. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 50-55.

5. Azimova I. O‘zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda fe’llarning ifodalanishi. O‘zMU xabarlari,12-1, 2015. – B. 213.

6. Briggitte Stemmer, Harry Whitaker. Handbook of neurolinguistics. – New York: Academic Press,1998. – P. 815.

7. Bastiaanse, R., & van Zonneveld, R. (2005). Sentence production with verbs of alternating transitivity in agrammatic Broca’s aphasia. Journal of Neurolinguistics, 18, – P. 57-66.

8. David Caplan. Neurolinguistcs and linguistic aphasiology. – New York: Cambridge University Press,1987. – P. 511.

9. Devid Kemmerer.Cognitive neuroscience of language. – New York and London: Psychology Press,2015. – P. 623.

10. Yo‘ldosheva Sh. “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” yosh filolog tadqiqotchilarning xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024. –B. 142-152.

TEMURIYLAR DAVRIDA DINLARARO MUNOSABAT

Kenjayev Sardor Nurmurod o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida diniy bag‘rikenglik tushunchasi xususida manbalar manbaviy ahamiyatga ega asarlar tahlillangan. Saltanatda nafaqat islom diniga etiqod qiluvchilar balki mo‘g‘ul qabilalaridan meros bo‘lib qolgan shomoniylik diniga etiqod qiluvchilar jumladan buddaviylik, xristianli va turli dinga etiqod qiluvchi o‘troq, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi tarqoq qabilarning dinlararo munosabatlarida Sohibqironning diniy bag‘rikenglik tamoyiliga amal qilganligiga duch kelamiz. Amir Temurning vafotidan keyin tashqi siyosat strategiyasida Tibet xalqlari hamda buddaviylik dini va buddaviylik ruhoniylari haqida fikrlar dolzab va davrtalabdir.*

Kalit so‘zlar: *Diniy bag‘rikenglik, Tibet, buddaviylik, Yun Le, Buxoro, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Samarqand, Shohrux Mirzo, Karmapa Choypel Zangpo, Min sulolasi, Chji Yuanchjan.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрен вопрос религиозной терпимости во времена правления Сахибкирана Амира Темура и династии темуридов, на основе анализа источников и имеющих источниковедческое значение трудов. В государстве наряду с мусульманским населением проживали последователи шаманизма, унаследованного от монгольских племен, а также буддисты, христиане и представители других религий – среди оседлых, полуоседлых и кочевых народов. Установлено, что в межрелигиозных отношениях данных сообществ Амир Темур придерживался принципов религиозной терпимости. После его смерти особую актуальность приобрели внешнеполитические отношения с тибетскими народами, а также буддизмом и его духовенством.*

Ключевые слова: *религиозная терпимость, Тибет, буддизм, Юн Ле, Бухара, Амир Темур, Мирзо Улугбек, Самарканд, Шахрух Мирзо, Кармапа Чойпел Зангпо, династия Мин, Чжи Юаньчжан.*

Abstract: *This article examines the concept of religious tolerance during the reign of Sahib Qiran Amir Temur and the Timurid dynasty, based on the analysis of sources and historically significant texts. The Timurid state was home not only to adherents of Islam but also to followers of shamanism inherited from Mongol tribes, as well as Buddhism, Christianity, and other faiths practiced by settled, semi-nomadic, and nomadic communities. The study reveals that Amir Temur adhered to principles of religious tolerance in managing interfaith relations. Following his death, the political discourse increasingly focused on Tibet, its peoples, Buddhism, and Buddhist clergy, reflecting both strategic and spiritual considerations of the period.*

Keywords: *religious tolerance, Tibet, Buddhism, Yongle, Bukhara, Amir Temur, Mirzo Ulughbek, Samarkand, Shahrukh Mirzo, Karmapa Chöpel Zangpo, Ming dynasty, Zhi Yuanzhang.*

Kirish (Introduction).

Sohibqiron Amir Temur tomonidan tashkil etilgan ulkan imperiya o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishgan vaqtda mamlakatda nafaqat islom diniga etiqod qiluvchilar balki, boshqa din vakillari ham istteqomat qilgan. Tadqiqotning muammosi mazkur mavzu bo‘lishicha kitobxon uchun asosli va davriy ma’lumotlarning keng jamoatchilikga hali to‘la qonli ma’lum qilinmaganligi. Maqolada o‘zbek davlatchilik taraqqiyotida Amir Temurning faoliyatida diniy bag‘rikenglik tamoyillarining ustun ekanligi faqat bir tomonlama munosabat bildirilganligi xususidagi ma’lumotlar mavjud. Maz-

kur yo‘nalishda tadqiqot mavzusining tanlanganligi yetarli va ilmiy manbalarga tayanilganligi bilan dalillangan. Movarounnahrda mo‘g‘ullar hukumronligi davrida Islom dinining bir qadar ahamiyati pasayib, shomonlik (qam) dini, xristianlik va buddaviylik dinlarining ta’siri ancha o‘sganligini ko‘rish mumkin. Mo‘g‘ul hukumdorlari turli dinlarga e’tiqod qilib, o‘z dindoshlarini qo‘llab-quvvatlashga harakat qilganliklari haqidagi ma’lumotlarni tarixiy adabiyotlarda ko‘plab uchratish mumkin. Vaqt o‘tishi bilan Islom diniga e’tiqod qilib, musulmonchilikni qabul qilgan mo‘g‘ul feodallarining soni oshib borgan. Mo‘g‘ul xonlarining islom diniga o‘tishiga qo‘shinning asosiy qismi bo‘lgan turk-mo‘g‘ul qabilalari doim ham xayrixoh bo‘lmaganlar. Askariy qismlarning noroziligidan foydalangan taxt uchun da’vogarlar esa bundan unumli foydalanganlar. O‘z raqiblarini islom diniga o‘tganligi uchun taxtdan tushirish va ularni jismonan mavh etish hollari ham uchrab turardi. Masalan, Chig‘atoy ulusi xoni Tarmashirinxon dastlab buddaviylik e’tiqodiga mansub bo‘lgan. Uning nomi ham buddaviy e’tiqodga xos “dharma sri” so‘zdan olingan edi. Tarmashirin Islomga o‘tgach, Alouddin nomini oladi va bu mo‘g‘ullar orasida kuchli norozilik keltirib chiqargan. Shu sababli 1334 yilda xonzoda Buzan boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilib, Tarmashirin taxtdan ag‘darilgan va qatl etilgan. Buzan esa buddaviylik ibodatxonalari tiklanishiga homiylik qilib, bu din vakillariga katta imtiyozlar bergan[2,76]. Bir so‘z bilan aytganda, mo‘g‘ul hukumdorlari orasida buddaviylik katta ta’mir kuchiga ega bo‘lib, ularning islomlashish jarayonlari ancha qiyinchilik bilan sodir bo‘lgan.

Umummo‘g‘ul saltanatida ham buddaviylik kuchli ta’sirga ega bo‘lib, bu vaqtda buddaviylikning asosiy markazi Tibet bo‘lib qolgan edi. Ammo, buddaviylikning lamaizm oqimi Tibetda hukumron bo‘lgani bilan bir qatorda, bir qancha sekta va oqimlarga ham bo‘linib ketgan edi. Ushbu oqim va sektalar oliy hokimiyatni egallash uchun qaysidir siyosiy kuchga tayanishga hamisha urinib kelgan. Mo‘g‘ullar kuch qudrati cho‘qqisiga erishgan Hubilayxon davrida ham Tibetdagi diniy sektalarning o‘zaro kurashlari to‘xtamagan. Hubilayxonning ukasi, Eronda Elxoniylar sulolasiga asos solgan Hulaguxon Brigungpa deb nomlangan sektani qo‘llab-quvvatlash orqali Tibetda o‘z nazoratini o‘rnatishga uringan bo‘lsa, Hubilayxon sakya sektasini qo‘llab-quvvatlagan. O‘zaro kurashlarda Hubilayxon qo‘llagan sakya sektasi g‘alaba qozongan va 1290 yil brigungpa ibodatxonasi yoqib yuborilgan[13,127]. Hulaguxonning Tibetdagi diniy kurashlarda ishtiroki Eronda bu din vakillari nufuzi salmoqli degan xulosaga kelish uchun asos bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Amir Temur va temuriylar davrida manbalar va manbaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarning ozligidan emas balki mazkur asarlarning ko‘pligidan qiynalamiz. Amir Temur va temuriylar davriga oid adabiyotlarda fundamental asarlarda mazkur mavzuga oid bo‘lgan malumotlarga qisman duch kelamiz. Konfrensiya to‘plamlarda mazkur mavzuga oid ma’lumotlar deyarli uchramaydi.

Ilmiy jamoatchilik orasida buddaviylik dinining ta’siri O‘rta Osiyoda IX asrdan boshlab inqirozga uchragan edi, degan fikrlar mavjud. Fikrimizcha, bu mulohaza unchalik to‘g‘ri emas. Chunki, mo‘g‘ullarning buddaviylikka keng yo‘l ochishidan tashqari Amir Temur va temuriylar davrida ham buddaviylik o‘z e’tiqod vakillariga ega edi. Tarixiy adabiyotlarda 1422 va 1428-yillarga, ya’ni temuriy Shohrux Mirzo davriga oid ikkita suyurg‘ol hujjati topilganligi, ushbu hujjatlarning birida Maymana hududidagi, ikkinchisida esa Maymanadan Hirot orqali Buxoroga boradigan yo‘lda joylashgan buddaviylik ibodatxonalarini barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilish, shuningdek, buddaviylik ibodatxonalariga tegishli bo‘lgan yerlarda ov qilishni ta’qiqlash xususida yozilganligi bilan bog‘liq fikrlar keltirib o‘tilgan[10,200]. Bundan temuriylar davrida ham buddaviylik jamoalarining mavjud bo‘lganligi, ushbu din rivoji uchun barcha imkoniyatlar yaratilganligi, buddaviylik diniga hurmat ko‘rsatilganligi, temuriylarning aksariyati Amir Temur izidan borib diniy bag‘rikenglik siyosati yuritganligi haqida xulosalarga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur mavzuda asosan qiyosiy tahlillar, klassikatsion nuqtai nazarda Amir Temur va Xitoy

(Min) davlati o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlar boshlanib, Min sulolasi vakillari Samarqandga o‘lpon to‘lash talabi bilan kela boshlagan davrdan Amir Temur Xitoy harbiy yurishini tashkillashtirishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rgan. Shu maqsadda Xitoy atrofidagi davlatlarni siyosiy va iqtisodiy jihatdan o‘rganish ishlari boshlangan bo‘lib, bu jarayonlardan Tibet o‘lkasi ham chetda qolmagan deb xulosa qilish mumkin. Amir Temur davrida yaratilgan tarixiy manbalarda ham Tibetning bir necha marta tilga olib o‘tilishi yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi. jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Kashmir viloyatini ta’riflash jarayonida Tubbat (Tibet) xususida ham fikr bildirilganligini keltirib o‘tish mumkin[4,218]. Ammo, Tibet bilan Amir Temur saltanati o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi ma’lumotlar musulmon manbalarida nihoyatda kam va umumiy tushunchalar bilan cheklanganligi bilan xarakterlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Min sulolasi Tibetda Amir Temurga xayrixoh kuchlarni ustunligiga yo‘l qo‘ymslikka imkon qadar harakat qilgan. Budda dinining xitoyliklar va mo‘g‘ullar orasida keng tarqalganligi hisobga olib Tibet ruhoniylarini ham nazoratda tutib turishga uringanlar. Min imperatori Yun Le (Chji-Di) 1402 yilda saroy amaldori Xou Syanni Tibetga elchi qilib jo‘natgan. Ungacha ham Xou Syan bir necha bora Hindiston, Hindixitoy davlatlarida, Himolay knyazliklarida bo‘lgan diplomatik tajribaga ega bo‘lgan mohir siyosatchi bo‘lgan. Elchilikning maqsadi Tibetdagi mashhur rohib Shanshi-Xalimani Xitoyga taklif etish deb e’lon qilingan. Bu aslida Xitoyga siyosiy raqib bo‘lgan mo‘g‘ul feodallariga ta’sir o‘tkazishga bo‘lgan urinishlardan biri bo‘lgan[5,122]. Ushbu ruhoniy buddaviylikda “Qora shapkalilar[14]” sektasi deb nom olgan oqimning yetakchisi bo‘lib, uning asl ismi beshinchi qora shapkali lama Karmapa Choypel Zangpo (hindcha. Dharma shrī bhadra [tibetcha. Chos dpal bzang po] 1384-1415 yy.) bo‘lgan. Tarixiy adabiyotlarda uning O‘rta Osiyo hukumdorlari saroyida ham bo‘lganligi qayd etilgan[6,112]. Demak, buddaviylik O‘rta Osiyoda hali ta’sir kuchiga ega bo‘lgan bo‘lib, ehtimolki, Amir Temur saroyida ham bu rohibni elchi sifatida kelgan deb hisoblash mumkin.

O‘z navbatida Xitoy tomoni ham Amir Temurning muvofaqqiyatlaridan cho‘chib, u bilan yaxshi munosabatni o‘rnatishga harakat qilgan. Buning asosiy sababi mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzilishi xavotiri bo‘lib, ularning Samarqand hukumdori bilan ittifoqchilikda Xitoyga hujum qilishi mumkinligi tashvishga solgan. Shu sababli Xitoy (Min) hukumati Amir Temurga qarshi bo‘lgan kuchlarni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilgan deb xulosa qilishga barcha asoslar yetarli. Mo‘g‘ullardan tashqari Min sulolasi uchun Tibet muammosi mavjud bo‘lib, Tibet buddaviy rohiblari mo‘g‘ullarning Yuan sulolasi saroyida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lganlar. O‘z navbatida mo‘g‘ullar Tibetdagi lamaizm rohiblarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlab turganlar.

Yuan sulolasi mo‘g‘ul hukumdorlarining taxtga o‘tirish marosimini aynan buddaviy ruhoniylar boshchiligida o‘tkazilgan. So‘nggi Yuan imperatori To‘g‘on Temurni 1331 yilda taxtga o‘tirish marosimini buddaviylikning lamaizm oqimidan ajralib chiqqan karmapa sektasi yetakchisi Rangdjung Dorje o‘tkazgan[8,73]. Tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga asoslanib, qora shapkalilar deb ataladigan karmapa sektasi vakillarining Movarounnahrda ham ta’siri kuchli bo‘lgan deb xulosa qilish mumkin. Hatto, Amir Temur vafotidan keyin ham Min sulolasi xavfsizligini ta’minlash maqsadida beshinchi qora shapkali lama Karmapa Choypel Zangpo (1384-1415 yy.) Min saroyiga taklif qilinib (1407 yil), uni Xitoyda faxriy garovdagi shaxs sifatida ushlab qolishga harakat qilingan[6,112]. Bu rohibning Xitoyga yo‘l olishi va tashrifning siyosiy tomonlari yoritilmagan bo‘lsada, Tibet yilnomalarida Xitoy saroyigsha diniy marosimlarga bosh bo‘lish uchun borganligi keltirib o‘tilgan[9,100]. Ushbu ruhoniyning yashagan yillariga e’tibor qilinadigan bo‘lsa, Amir Temur saroyida bo‘lgan deb

[14] Qora shapkalilar sektasi Tibet budaviyligining Kapmapa oqimidan ajralib chiqqanlar. Karmapa oqimi “Qora shapkalilar” va “Qizil shapkalilar” guruhiga bo‘lingan. Qora shapkalilar guruhi katta ta’sirga ega bo‘lib, ularning asosiy raqiblari “Gelugpa” oqimidagi “Sapriq shapkalilar” sektasi bo‘lgan. Sariq shapkalilar ta’siri Xitoy bilan chegaradosh Amdo o‘lkasida ustun bo‘lsa, qora shapkalilar Tibetning markaziy va g‘arbiy qismida ustun mavqega ega bo‘lganlar. To‘liqroq qarang [7,63]

hisoblashga asos bo‘ladi. Shu sababli mo‘g‘ullar Xitoydan quvilgan bo‘lsada, Chingizxon saltanati vakillari ta’siri hali kuchli bo‘lib, Tibetda garchi Yuan sulolasi qulagandan so‘ng dindorlar hokimiyati tugatilib, mahalliy viloyat hokimlarining ta’siri oshgan bo‘lsada, Chji Yuanchjan davrida tibetliklarning Xitoy bilan chegaradosh hududlarga bir necha bora bosqin qilganligi tarixiy hujjatlarda qayd etib o‘tilgan[12,71]. Bu vaqtda Tibetda ruhoniylarning hukumronligi tugatilib, dunyoviy feodallar hokimiyat tepasiga kelgan edi. Yangi sulola Pagmodupa oilasi Tibetda hokimiyatni qo‘lga olib, Taysitu-Djanchub Chjalsan (1302-1373) hukumronlik qilgan davrda Xitoyga o‘lja olish maqsadida bir necha bora hujumlar uyushtirilgan[3,32]. Shunday bo‘lsada, Xitoy Min sulolasi Tibet bilan savdo aloqalarida choy o‘rniga ot almashtirar va bu savdoni to‘xtab qolishidan xavotirda bo‘lgan. Imperator Chji Yuanchjan chegaralarda cha-ke-si ya’ni, choy bilan savdo qilish shaxobchalarini tashkil qilgan[5, 124-125]. Bu shaxobchalar mo‘g‘ullarga qarshi kurashda eng avvalo Tibetni betaraf turishini va janglarda xitoyliklar qo‘shinida yetishmaydigan otlarni sotib olish imkonini bergan. Tibet borasida Amir Temurning ham o‘z rejalari bo‘lgan deb hisoblashga yetarlicha asoslar mavjud. Ehtimolki, Amir Temur Tibet zaminiga Movarounnahr aholisinidan bir qismini borib yashashga va u yerdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardan o‘zini xabardor qilib turishni buyurgandir. Chunki, bugungi kungacha Tibetda turkiylarning solor urug‘i vakillari yashab kelayotgan bo‘lib, ularning xotirasida o‘zlarining Tibetga Samarqanddan Amir Temur davrida kelib qolganliklari bilan bog‘liq rivoyat saqlanib qolgan[14]. Bu esa, Tibet va Amir Temur saltanati o‘rtasida munosabatlar mavjud bo‘lgan deb xulosa qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tibet bilan Amir Temurdan keyingi davrda olib borilgan diplomatik munosabatlar Mirzo Ulug‘bek hukumronligi davriga tegishli bo‘lib, 1421-1422 yil qishini Buxoroda o‘tkazayotganda Mirzo Ulug‘bek oldiga Tibet va Xitoydan elchilar keladi. Ammo, ushbu elchilarning maqsadi, yo‘nalishi xususida manbalarda ma’lumotlar deyarli saqlab qolinmagan[1,93]. Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Min sulolasining dastlabki impertorlarining Tibet buddaviyligiga homiylik va moyilligi davri bu vaqtda tugagan bo‘lib, Tibet buddaviylari o‘z e’tiborlarini yana shimolga Yuan sulolasi davridagi ittifoqchilari hisoblangan mo‘g‘ullar, oyratlar qaratishga majbur bo‘lganlar[7,64]. Ehtimol, ushbu jarayonlarda Tibetdagi ko‘pdan-ko‘p buddaviy sektalar yoki hukumronlik qilish uchun kurash olib borayotgan amaldagi hukumron va asosiy tayanchi Tibetning Uy viloyati bo‘lgan Pagmodupa sulolasi yoki Szan o‘lkasi asosiy tayanch markaz bo‘lgan Rinpunlar sulolasi vakillari yuborgan deb xulosa qilish mumkin. Chunki, ruhoniylar tomonidan tuzilgan Tibet yilnomalarida Ulug‘bek saroyiga yuborilgan elchilik xususida ma’lumotlar saqlanib qolinmagan. “Matlai sa’dayn va majmai bahrain” asari ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, elchilar 1421 yil yanvaridan 6 fevralgacha Buxoroda bo‘lganlaridan[11,603] so‘ng Xitoy va Tibetga qaytganlar deb, xulosa qilish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida diniy bag‘rikenglik tushunchasi xususida manbalar manbaviy ahamiyatga ega asarlar tahlillangan. Saltanatda nafaqat islom diniga etiqod qiluvchilar balki mo‘g‘ul qabilalaridan meros bo‘lib qolgan shomoniylik diniga etiqod qiluvchilar jumladan buddaviylik, xristianli va turli dinga etiqod qiluvchi o‘troq, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi tarqoq qabilarning dinlararo munosabatlarida Sohibqironning diniy bag‘rikenglik tamoyiliga amal qilganligiga duch kelamiz. Amir Temurning vafotidan keyin tashqi siyosat strategiyasida Tibet xalqlari hamda buddaviylik dini va buddaviylik ruhoniylari haqida fikrlar keltirilgan. Amir Temurning Xitoy harbiy yurishida Tibet hukumdor doiralari Xitoy pasttekisliklaridan o‘z ulushlarini olish va iqtisodiy jihatdan muhim hududlarni qo‘lga kiritish maqsadida Amir Temur ittifoqchilari bo‘lishi mumkin deb hisoblash mumkin. Chunki, Xitoy imperatorlarining Tibetliklar bosqiniga jazo ekspiditsiyalari tashkil etmaganligi, chegarada savdo markazlarini yopmaganligi, buddaviy ruhoniylarni qo‘llab-quvvatlab turganliklari ushbu xulosalarga kelish uchun asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Бартольд В.В. Улугбек и его время. – Петроград 1918. – 160 с.

2. Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – 1020 с.

3. Востриков А.И. Тибетская историческая литература. – М.: Утверждено к печати Институтом народов Азии Академии Наук СССР, 1962. – 426 с.

4. Йаздий, Шарафуддун Али. Зафариома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: ААҳмад, Ҳ.Бобобеков: Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шогуломов ва бошқалар // - Т.: Шарқ, 1997. - Б. 218. - 384 б. + 16 илова.

5. Кадырбаев А.Ш. Монголы, китайцы и европейцы в Тибете (1368-1644 гг.) // Вестник института востоковедения РАН, 2018. № 1. – С. 121-129.

6. Китинов Б.У. Буддийский фактор в политической и этнической истории ойратов (середина XV в. – 1771 г.) // Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – М.: 2020. – 546 с.

7. Кычанов Е.И., Мельниченко Б.Н. История Тибета с древнейших времен до наших дней / Е.И. Кычанов, Б.Н. Мельниченко. - М.: Вост. лит., 2005. – 351 с.

8. Кычанов Е.И., Савицский Л.С. Люди и боги страны снегов. Очерк истории Тибета и его культуры. – М.: Наука, 1975. – 301 с.

9. Пагсам-джонсан: История и хронология Тибета/Пер. с тибет. - Новосибирск: Наука. Сиб. отдние, 1991. - 264 с.

10. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – 295 [9] с.: ил.

11. Самарқандий Абдураззоқ. Матлаи Саъдайн ва мажмаи баҳрайн. К. II. /Абдураззоқ Самарқандий; Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти. – Т.: O‘zbekiston, 2008. – 832 б.

12. Халбазыков Д.В Буддизм в политической культуре Китая эпохи Мин / Д В Халбазыков // Восточное общество Интеграционные и дезинтеграционные факторы в геополитическом пространстве АТР - УланУдэ: Издво БГУ, 2007. – С. 69-72.

13. Цендина А.Д. и страна зовется Тибетом / А.Д. Цендина. - М.: Вост. лит, 2002. - С. 127. - 304 с.: ил.

https://www.uzanalytics.com/kitob/5879/

Kenjayev S.N. Amir Temur’s Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) // ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce, 2022.112-114 P. (Impact Factor: 9.2)

Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o‘g‘lon faoliyati// Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- T.:1493-1497 b. (Impact Factor: 4.2)

Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy(Min) imperiyasi o‘rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // “O‘tmishga nazar” 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- Б.67-74. .(07.00.00; №10)

Кенжаев С.Н. Амир Темур ва Хитой давлати ўртасидаги арбий муносабатлар ўзаро тўқнашув хавфининг вужудга келиши// ЎзМУ Хабарлари, 1/9. – Тошкент, 2022. -Б.18-21. .(07.00.00; №1)

Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy(Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // Sohibqiron yulduzi. Ижтимоий-тарихий,илмий ва оммабоп журнал.–Қарши, 2022. -№3. – Б.25-30 б.(07.00.00; №49)

MILLIY FRAZEOLOGIZMLAR ISHTIROK ETGAN VATAN VA VATANPARVARLIK HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ PAREMALARINING SEMANTIK TADQIQI

Sharipova Ozoda Xolmurodovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Bugunga kelib matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida elektron tarjimon dasturlar deyarli barcha xalqlar tomonidan qo‘llanadigan asosiy yordamchi vositalardan biriga aylanib ulgurdi. Biroq ulardan foydalanish jarayonida duch kelinadigan ayrim kamchiliklarni ham inkor qilib bo‘lmaydi. Mazkur holat, ayniqsa, barqaror birliklar ishtirok etgan matnlar tarjimasida ko‘proq va yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Shu sababli ham bu kabi matnlar alohida izohlashni talab qiladi. Maqolada milliy frazeologizmlar ishtirok etgan vatan va vatanparvarlik haqidagi o‘zbek xalq paremalaridan bir nechtasi tanlab olingan va ularning izohiga alohida-alohida to‘xtalingan. Maqol va matallarni tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, tarjima, vatan, vatanparvarlik, parema, semantik tahlil, maqolshunoslik, lingvokulturologik tahlil, madaniyat.*

Аннотация: *Сегодня программы электронного перевода стали одним из основных вспомогательных инструментов, используемых практически всеми народами в процессе перевода текстов с одного языка на другой. Однако нельзя отрицать и некоторые недостатки, возникающие в процессе их использования. Эта ситуация особенно заметна и выражена сильнее всего при переводе текстов, использующих устойчивые единицы. По этой причине такие тексты требуют особого толкования. В статье отобраны несколько узбекских народных пословиц о Родине и патриотизме, в состав которых входят национальные фразеологизмы, и отдельно рассматривается их толкование. В процессе анализа пословиц и поговорок использовались методы научного познания: логика, историчность, системность, объективность.*

Ключевые слова: *фразеология, перевод, родина, патриотизм, парема, семантический анализ, пословица, лингвокультурологический анализ, культура.*

Abstract: *Today, electronic translation programs have become one of the main auxiliary tools used by almost all peoples in the process of translating texts from one language to another. However, some shortcomings encountered in the process of using them cannot be denied. This situation is especially noticeable in the translation of texts using stable units. Therefore, such texts require separate interpretation. The article selects several Uzbek folk proverbs about the homeland and patriotism, in which national phraseologisms are present, and their interpretation is discussed separately. In the process of analyzing proverbs and sayings, the methods of scientific knowledge of logic, historicity, consistency and objectivity were used.*

Keywords: *phraseology, translation, homeland, patriotism, proverb, semantic analysis, linguo-cultural analysis, culture.*

Kirish.

Paremalar yaratuvchisi bo‘lgan xalq qarashi va madaniyati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biridir. Garchi ko‘pgina maqol-u matallar tildan tilga, xalqdan xalqqa ko‘chib o‘tib, qo‘llanish doirasi jihatidan keng hududlarga yoyilgan va dunyo xalqlari og‘zaki ijodidan universal mohiyat anglamida keng o‘rin olgan bo‘lsa-da, ayrim paremalar borki, ular o‘zida aks etgan milliy birliklar orqali uni yaratgan millat haqida tasavvur hosil qila oladi. Frazeologizmlar ham shular sirasidandir. Biroq frazeologizmlarga xos yana bir muhim xususiyat borki, ularni asl mohiyatini saqlagan holda tarjima qilish, qo‘llangan matn mazmunini o‘zga tilli kishilar jamoasiga to‘laligicha anglatish ba’zan bir qadar murakkablik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa, mazkur holat ularning erkin birikmalar bilan shakldoshlik hosil qiladigan holatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli ham bunday matnlar alohida izohlashni talab qiladi. Quyida shu guruhga mansub ayrim birliklar qo‘llangan matnlar anglamini va tarjima jarayonini osonlashtirish maqsadida milliy frazeologizmlar ishtirok etgan vatan va vatanparvarlik haqidagi o‘zbek xalq paremalaridan bir nechtasining semantik va lingvokulturologik tadqiqi amalga oshirilgan.

Nazariy tadqiqotlar.

Fanda paremalarga folklordan ayri, mustaqil lingvistik tahlil muammosi sifatida qiziqish XX asrda paydo bo‘ldi. Maqollarni xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, tilshunoslik obyekti sifatida tekshirish, idioma-ibora-maqol tizimida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish uzoq tarixga ega. Dastlab leksikologiya, so‘ngra esa frazeologiya (Frazeologiya leksikologiya bag‘ridan XX asrning 50-yillarida mustaqil bo‘lim sifatida ajralib chiqdi.) tarkibida o‘rganilgan paremiologiya sohasi turg‘un birikmalar, xalq hikmatli so‘zlari, maqol-matallarini to‘plab tasnif qiluvchi va o‘rganuvchi soha sifatida o‘tgan asrning 70-80-yillarida jahon tilshunosligi faniga kirib keldi.

O‘zbek xalq paremiologik fondini bir butun to‘plam holiga keltirish va rivojlantirishda rus namoyondalaridan missioner N.G.Ostroumov, paremiolog G.L.Permyakov, A.M.Bushuylarning ham xizmati katta bo‘ldi. A.M.Bushuy o‘zining nomzodlik va doktorlik ishlarida maqol va matallarni iboralardan ajratgan holda o‘rganishni, maqollarni tematik jihatdan tasniflash va to‘plashni tilshunoslik fani orqali amalga oshirishni o‘zbek xalq maqollari doirasida boshlab bergan olimlardan biri sifatida o‘zbek tili paremiologiyasini rivojlantirishga poydevor qo‘ygan deyishimiz mumkin.

So‘nggi yillarda paremalarni lingvokulturologik doirada o‘rganishga katta urg‘u berilib, shu yo‘nalishda M.Asranova, F.F.Farxutdinovalar [1] izlanishlar olib bordilar. Poyon Bakirovning rus, o‘zbek va qozoq xalq maqollari lingvistik xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari alohida e’tiborga loyiq. Olim uch til doirasida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilni amalga oshirish bilan bir qatorda maqol, matal, ibora munosabatlariga ham alohida e’tibor qaratadi va maqolga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi. P.Bakirovning tadqiqotida yana nominasentrik – ega va kesimi bosh kelishikdagi ot va harakat nomi bilan ifodalangan maqollarning semantik va struktur xususiyatlari ham batafsil izohlab berilgan [2].

Tahlil va natijalar.

Bugungi o‘zbek paremiologik fondining tarjima, ayniqsa, elektron tarjima jarayonida tez-tez ko‘zga tashlanayotgan muammolarini hisobga olgan holda quyida tarkibida interpretatsiya jarayonida qiyinchilik tug‘diruvchi bir qator turg‘un birikmali maqol va matallar tanlab olindi va tahlil qilindi.

YO‘LDAN CHIQSANG CHIQ, ELDAN CHIQMA. *Yo‘ldan chiqmoq* iborasi *yomon yo‘lga kirmoq, aynimoq* ma’nosini ifodalaydi. Matalda to‘g‘ri yo‘ldan adashib, nomaqbul ishlar bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsang, kuni kelib xatoyingni tushunib yetganingda yoxud boshing toshga tekkanda to‘g‘ri yo‘lni topib, hayotingni davom ettirishing mumkin, biroq xalqingga yomonlik qilib, ko‘nglini qoldirsang, qavmingni tark etsang, elatingga qayta qo‘shila olmaysan, boshqa vatan topa olmaysan, demoqchi bo‘lingan.

AYRILIQNING SHIDDATI, QON YIG‘LATAR MUDDATI. O‘zbeklar nutqida kuchli ruhiy ezilish, iztirob, alam bilan qattiq ko‘z yoshi to‘kish *qon yig‘lash* birikmasi bilan ifodalanadi va u, asosan, inson o‘ta ilojsiz, boshiga tushgan musobatning chorasiga ojiz qolganidan zor-zor yig‘laganida qo‘llanadi. Arab tilidan o‘zlashgan *shiddat* so‘zi esa kuch-qudrat, intensivlikni ifodalash bilan bir qatorda *balo, ofat* ma’nosini ham anglatib keladi. Maqol tarkibiy komponentlari mazmunidan kelib chiqqan holda mazkur paremani ayriliq insonning boshiga turli balo-ofatlar keltiradi, dardiga biror chora topa olmay, behad azoblanishiga sabab bo‘ladi, ma’nosida tushunish mumkin.

AYRILMAGIN ELINGDAN, QUVVAT KETAR BELINGDAN. Tarkibida ko‘chma ma’no tashuvchi komponentlari mavjud bo‘lgan bu kabi paremalar alohida izohlashni talab qiladi. Negaki o‘zga tilli kishilar uchun *beldan quvvat ketmoq* sof o‘zbekona ifodasi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima jarayonida ma’noviy g‘alizlik tug‘dirishi mumkin. Bu birikma *jismoniy yoki moddiy kuch-quvvatni yo‘qotish* ma’nosini ifodalab, u orqali mazkur paremada o‘zbeklar uchun moddiy-u ma’naviy boylikka erishib, farovon hayot kechirishning manbayi vatan bag‘rida vatandoshlari bilan bo‘lish ekanligi mazmunidagi milliy qarash ifodalangan. Milliy paremiologik fondimiz tarkibida qo‘llangan bu kabi ifodalar millatning o‘zligini, milliy asriy qarashlarini ko‘rsatuvchi qiymatga ega.

ELGA QO‘SHILGANNING KO‘NGLI TO‘Q, ELDAN AJRALGANNING BETI YO‘Q. *Ko‘ngli to‘q* sifatlashi xotirjam, bexavotir hayot kechiradigan, atrofida ziyon yetkazadigan biror xavf-xatar yo‘qligiga ishonadigan; *beti yo‘q* iborasi esa uyatsiz, nomussiz, hayosiz shaxslarga nisbatan qo‘llanadi.

Biror-bir insonning boshqalardan mutlaqo behojat bo‘lishi, jamiyatdan uzilgan holda huzur-halovatda, bir maromda tinch, sog‘lom va sokin umrguzaronlik qilishi mumkinligiga to‘la amin bo‘lib, ko‘ngil xotirjamligiga erishishi mushkul. Inson el-ulusi bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, bir-birining kuniga yarash, og‘irini yengil qilishga hissasini qo‘shish orqali jamiyat a’zosiga aylanadi. Bunday kishi beldan quvvat ketganda yoxud biror musibatga yo‘liqqanda yolg‘izlanib qolishi mumkinligidan qo‘rqmaydi. Yor-birodarlari, qavm-qarindoshlari uni og‘ir ahvolda tashlab qo‘ymasligiga ishonchi komil bo‘lib, xotirjam hayot kechiradi.

Elatidan ajrab, ular bilan aloqani uzgan, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zmagan kishi esa jamiyatdan ajralib qoladi, kuni kelib shaxsiy manfaatlariga erishish maqsadida xalqqa qayta qo‘shilishga harakat qiladigan, ehtiyojlarini tilayveradigan xudbin kimsani hech bir jamiyat qabul qilmaydi, buni nomussizlik, uyatsizlikning belgisi sifatida baholaydi.

ELGA BOQQAN – YERGA BOQMAS, KO‘KKA BOQQAN – ELGA YOQMAS. *Yerga boqmoq* iborasi yordam, madad berilishi kerak bo‘lgan o‘rinda, asosan, imkoni bo‘lsa-da yordam berishni xohlamay, ba’zan ilojsizlikdan o‘zini chetga olib turgan insonga nisbatan ishlatiladi. *Ko‘kka boqmoq* iborasi esa o‘zini katta olgan, kibrli, kekkaygan shaxslar sifatini anglatishda qo‘llanadi. Mazkur maqol orqali el koriga yarashni chin ko‘ngildan xohlagan inson o‘zini chetga olib, yerga qarab turmaydi, xalq dardiga chora izlaydi; faqat o‘zini o‘ylaydigan, manmanlikka berilgan kimsalarni hech bir jamiyat yoqtirmaydi, yaxshi munosabat ko‘rsatmaydi, demoqchi bo‘lingan.

DAVLAT – OG‘IZ BIRLIKDA. Vatan tushunchasini ifodalash uchun o‘zbek tilida yana *mamlakat, yurt, diyor, el, mulk* singari qator so‘zlar mavjud, biroq ushbu maqolda boshqa emas, ayni *davlat*ning tanlanishi bu so‘z zamirida urg‘ulanadigan quyidagi ma’nolar bilan bog‘lanadi:

- mustaqil mamlakat maqomiga egaligi;
- fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlari himoya qilinganligi;
- tinchlikka raxna soluvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimining mavjudligi.

Og‘zi birlik iborasi o‘zbeklar nutqida bahamjihatlikni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bundan kelib chiqadiki, yurtning mustaqilligi bardavom, tinchligi barqaror, fuqarolari qonunan mustahkam himo-

yalangan vatanda turmoq uchun hamma bir yoqadan bosh chiqarib, hamfikr, bahamjihat yashamoqligi darkor. Hamjihatlikning oddiy so‘z bilan emas xalqona milliy ifodada berilishi esa bunday qarash asriy milliy qadriyatga aylanganligidan dalolat beradi.

ONA YURTING OMON BO‘LSA, RANGI RO‘YING SOMON BO‘LMAS. *Rangi somon* iborasi kasalga chalingan odamga nisbatan ishlatiladi. Vatan tinch, farovon bo‘lsa, bu uning fuqarolariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, u yerda turli balo-yu ofat, kasalliklar emas sog‘lom muhit hukmron bo‘ladi. Demakki, har bir inson uchun eng oliy ne’mat bo‘lgan salomatlikni asrashda u yashayotgan muhitning ta’siri katta.

EL G‘AMINI BILGAN ELDA DOSTON. *Elda doston* bo‘lish “mashhur bo‘lish, el ichida nom qozonish” ma’nosini anglatadi. Xalq ichida kundalik turmushda turli muammolar yuz berib turadi, ijtimoiy mas’uliyatni yaxshi his qilgan, xalq dardiga befarq bo‘lmagan kishilar bunday muammolarni o‘z o‘rnida bartaraf qilishga harakat qiladi. Aslida ularning bu harakatlari obro‘-e’tibor qozonish uchun emas, balki insongarchilik yuzasidan qilingan samimiy xizmat bo‘lsa-da unday kishilar xalq tomonidan e’zozlanib, katta-yu kichik tomonidan hurmat qilinadi, so‘zi so‘z, hukmi oliy ko‘riladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq paremiologik fondi tarkibida qator milliy frazeologik birliklar qo‘llangan bo‘lib, ularni atroflicha tahlil qilish orqali millatning asriy qarashlarini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xoligi-yu madaniyatini aniqlash mumkin. Kichik ilmiy tadqiqotimiz davomida tanlab olingan paremalar tarkibidagi *yo‘ldan chiqmoq, qon yig‘lash, beldan quvvat ketmoq, ko‘ngli to‘q, beti yo‘q, yerga boqmoq, ko‘kka boqmoq, og‘zi birlik, rangi somon, elda doston* iboralari tahlil qilindi. Ularning matn tarkibidagi turg‘un ma’nolari ochib berildi. Bu kabi tahlillar tarjima jarayonida va turli til vakillarining o‘zaro ma’lumot va aloqa almashinuvida ham zaruriy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фархутдинова Ф.Ф. Концептуальный анализ паремических единиц // Материалы Международной конференции “Фразеологическая картина мира” / Сост. В.Т. Бондаренко, Г.В. Токарев: В 2-х ч. Ч 1.–Тула:Изд-во ТГПУ им Л.Н. Толстого, 2002.Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букву ‘Б’ / Сост. Э.В. Севортян. – М.: Наука, 1978.

2. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. док. филол. наук. – Т., 2007. – 286 с.

3. Tog‘ayev T. Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so‘zlarning o‘zbek shevalarida qo‘llanishi // Oltin bitiglar – Golden scripts, 2019/3. – T., 2019. – B. 107-127.

4. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T., O‘qituvchi, 1984.

5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. – Т., 1988. -352 б.

6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т., 1990. –Б. 528

7. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 230 б.

8. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов.Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б.30.

9. http: // google.co.uz/books

10. www.harvard.edu

11. www.ziyouz.com

FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI INNOVATSION VA MEDIATEXNOLOGIYA VOSITALARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH

Soliyeva Madina Murodjon qizi,
Ichki ishlar vazirligi Namangan akademik liseyi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda innovatsion va mediatexnologiya vositalaridan foydalanishning dolzarbligi, afzalliklari va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlaridan farqli ravishda, mediatexnologiyalar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va vizual tarzda tashkil etish imkonini beradi. Maqolada virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interaktiv video darsliklar, 3D modellar va ta’limiy o‘yinlar kabi mediatexnologiya vositalarining fizikani o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion usullar, masalan, mobil ilovalar, veb-resurslar va onlayn platformalardan foydalanish orqali laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish yo‘llari muhokama qilinadi. Maqola fizikani o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *fizika, laboratoriya mashg‘ulotlari, onlayn platforma, mediatexnologiya, virtual laboratoriya, simulatsiya, elektr, vitaminlar.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальность, преимущества и эффективность использования инновационных и медиатехнологических средств в проведении лабораторных занятий по физике. В отличие от традиционных лабораторных занятий, медиатехнологии позволяют организовать учебный процесс более увлекательно, интерактивно и визуально. В статье анализируется роль и значение таких медиатехнологических средств, как виртуальные лаборатории, симуляции, интерактивные видеоуроки, 3D-модели и образовательные игры, в обучении физике. Также обсуждаются пути повышения эффективности лабораторных занятий за счет использования инновационных методов, таких как мобильные приложения, веб-ресурсы и онлайн-платформы. Статья завершается практическими рекомендациями, направленными на совершенствование методики преподавания физики.*

Ключевые слова: *физика, лабораторные занятия, онлайн-платформа, медиатехнологии, виртуальная лаборатория, симуляция, электричество, витамины.*

Abstract: *The article examines the relevance, advantages, and effectiveness of using innovative and media technology tools in conducting physics laboratory classes. In contrast to traditional laboratory sessions, media technologies enable the organization of the educational process in a more engaging, interactive, and visually appealing manner. The article analyzes the role and significance of media technology tools such as virtual laboratories, simulations, interactive video tutorials, 3D models, and educational games in physics education. It also discusses ways to enhance the effectiveness of laboratory classes through the use of innovative methods, such as mobile applications, web resources, and online platforms. The article concludes with practical recommendations aimed at improving the methodology of teaching physics.*

Keywords: *physics, laboratory classes, online platform, media technologies, virtual laboratory, simulation, electricity, vitamins.*

Kırısh.

Sifatli bilim – barcha muammolarni hal qiluvchi va inson tanlagan kasbiga ma'no beruvchi kalit, hayotimizga ma'no-mazmun baxshida etuvchi bir qadriyat hisoblanadi. "Bilimdan ortiq boylik, jaholatdan ortiq qashshoqlik yo'q". Ming yillar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan bu gaplar bugun biz yashab turgan muhitda har qachongidan ham muhimroq. Bugungi zamon talabi shuni ko'rsatmoqdaki, kompyuteri yoki telefoni bor har bir odam xohlaganicha vaqt, joy yoki masofadan qat'iy nazar bilim olish imkoniyatiga egadir.

Onlayn ta'lim platformalari bu kabi harakatlarning javobi bo'lib, izlanuvchiga avval o'qimagan, tushunmagan yoki umuman eshitmagan bilimlar to'plamini taklif etadi.Tabiiyki, bu platformalar an'anaviy ta'limning o'rnini bosa olmaydi, lekin, biz o'rganishni istagan narsalarni taqdim etishi mumkin.

2020-yili butun dunyoda keng tarqalgan Covid-19 virusi epidemiya tusini oldi. Insonlar ta'lim olishda ko'ra sog'liklarini birinchi o'ringa qo'ydilar. To'g'ri inson sog'ligi hamma narsadan ustun. Lekin, yurtboshimizning bir qarorlari juda tez fursatda shakllanib amaliyotga joriy qilindiki, yoshlarimizning bilim olishlariga hech qanday pandemiya to'siq bo'la olmadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev takliflari bilan barcha ta'lim muassasalarida ta'lim onlayn shaklda davom ettirildi. O'quvchi yoshlarning darslarni davom ettirishida onlayn ta'lim platformalari yaqindan yordam berdi. "Maktab.uz" platformasi xalqaro ta'lim standartlariga javob beruvchi eng zamonaviy texnologiya bo'lib, maktab o'quvchilari uchun sifatli, uzluksiz, masofaviy ta'limni taqdim etadi. Bunda maktab o'quvchilari uchun 1-11 sinfgacha o'quv dasturida mavjud barcha fanlar va undagi mavzular bo'yicha videodarslar, slaydlar joylashtirilgan bo'lib, onlayn darslar jadval asosida har kuni butun respublika bo'yicha bir vaqtning o'zida uzatildi.

O'quvchilar uchun bu holat bir tajriba-sinov ishi bo'ldi. Shundan keyin ta'lim sohasida onlayn platformalarning nufuzi oshdi. Pandemiyadan keyin ham bu platforma o'z faoliyatini yakunlamadi, aksincha yangilangan o'quv dasturi asosida yangi slaydlar, qo'shimcha va STEAM yo'nalishidagi fanlar bo'yicha videodarslar joylashtirildi. O'qituvchilar, o'quvchilar va hatto ota-onalar ham bundan foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Jahon standartlari darajasida bilim olish uchun eng nufuzli oliygohda o'qish shart emas. O'quvchilar va umri davomida bilim olishdan to'xtamaydigan izlanuvchilar uchun bir qancha ta'lim platformalari mavjud. Fizika va boshqa aniq va tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirish uchun jahonda va yurtimizda Khan academy, Ta'lim.uz saytlari faoliyat yuritmoqda [1].

"Khan academy" sayti Amerikaning notijorat ta'lim tashkiloti bo'lib, 2006-yili Hindistonlik Sal Khan tomonidan talabalarning o'qishlari uchun zarur bo'lgan onlayn manbalar to'plamini yaratish maqsadida yaratilgan. Dastlab darslar qisqa tarzdagi video shaklida bo'lgan. Hozirga kelib esa o'qituvchi va foydalanuvchilar uchun bepul taqdim etiladigan materiallar mavjud. Ma'lumotlar asosan ingliz tili va xohishga qarab boshqa tillarda taqdim etilishi mumkin.


Bu saytni o'zbekcha talqini ham mavjud. Platformada fizika faniga oid barcha mavzular uchun video darslar keltirilgan.

"Ta'lim.uz" platformasi 2019-yilda maktab yoshdagi bolalar va qo'shimcha bilim olish istagida bo'lgan insonlar uchun onlayn ta'lim resursi hisoblanadi. Sayt orqali qiziqarli videolar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalardan na'munalar hamda elektron kutubxonadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lamiz.



1-rasm. Ta’lim.uz saytining ko‘rinishi.

Platformada fizika fanini 6-11-sinflarga mo‘ljallangan mavzulari va fizika fanining barcha bo‘limlariga mos bo‘lgan 42 ta virtual laboratoriyalar jamlangan. Quyidagi 2.3.39-rasmda esa Ta’lim.uz saytida yaratilgan virtual laboratoriyalardan misollar keltirilgan.



2-rasm. Fizikadan virtual laboratoriyalar.

Keltirilgan rasm orqali saytda fizikaning barcha bo‘limlariga doir virtual laboratoriya ishlari mavjud. Misol tariqasida “Yorug‘likning sinishi”, “To‘lqin interferensiyasi”, “Rezerford sochilishi”, “Zaryadlar va miqdorlar”, “Faradey qonuni” kabilarni keltirishimiz mumkin. E’tibor bersangiz bu laboratoriya ishlarini oddiy ko‘z bilan anglashning iloji yo‘q. Bu vaziyatda kompyuter texnologiyasi orqali yaratilgan laboratoriya ishlari beminnat ko‘makdosh bo‘ladi.

Fizikadan laboratoriya ishlariga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchidan ishning fizikaning qaysi bo‘limiga daxldorligi, asbob-uskunalarning yetarliligi, oddiy ko‘z orqali ko‘rib tasavvur qilish va xavfsizlik jihatlarini e’tiborga olgan holda tanlanishi ko‘rsatgich jihatdan ham yuqori samara beradi.

O‘qitish tizimiga an’anaviy ta’limga nisbatan qo‘shimcha afzalliklarga ega bo‘lgan texnologi-

yalarni tatbiq qilish bo‘yicha yuztimiz tadqiqotchi olimlari tomonidan salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish laboratoriya mashg‘ulotlarini yanada jonli va qiziqarli qiladi, shu bilan birga ta’lim sifatini ham oshiradi [2].

Virtual fizik eksperiment yordamida darslarni tashkil etish ilmiy tadqiqotlarda ham, dars o‘tish jarayonida ham yangi yo‘nalishdir. Fizika tabiat haqidagi fan bo‘lganligi sababli o‘quvchilar undagi bo‘layotgan jarayonlarni tasviriy modellarini qurish va ularni tadqiq qilishlari zarur. Shuning uchun, fizik qonunlarni soddalashtirilgan ekvivalent modellarini ishlab chiqish fanning asosiy muammosidir. To‘g‘ri bizdan oldin yashab o‘tgan barcha fizik olimlar hech qanday electron qurilmalarsiz ham qonunlar, ixtirolar yaratishgan va fizika fanini shu darajaga olib chiqqanlar. Lekin hozirgi texnika asrida oddiy qog‘oz va qalam yordamida o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, biror ixtiro yaratishga undash juda mushkul. Chunki virtual olam tushunchasi hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi [3].

Fizikaning amalda bajarishi qiyin eksperimental tajriba ishlarini virtual laboratoriyalar yordamida bajarishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan nutqida, maktablar va barcha ta’lim tashkilotlarida fizika va tabiiy fanlarni virtual laboratoriyalar yordamida o‘qitish uchun har bir viloyatda 10 tadan maktablarda virtual laboratoriya xonalari yaratiladi degan taklifni berdi. Bu ham fizika fanini maktab davridanoq o‘quvchilarga yetarlicha tushuntirish imkoniyatini beradi.

Muhokama va natijalar.

Yurtimizda aholiga sifatli elektr energiyasi bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. O‘quvchilarga laboratoriya ishining dolzarbligi va zarurati haqida to‘liq tushunchalarni berish orqali elektr energiyasini tejash, o‘zgarmas tokka qaraganda o‘zgaruvchan tokning afzalliklari, uni hosil qilish usullari, ijtimoiy hayotimizda qay darajada ahamiyatga ega ekanligi shakllantiriladi.


O‘quvchilar 7-8-sinflarda Elektr toki mavzularida o‘zgarmas tok, aholi xonadonlarida faqat 220 v li o‘zgarmas tokdan foydalanish usullarini biladi xolos. 11-sinfga kelib ularga o‘quv dasturi asosida “O‘zgaruvchan tok” mavzusi o‘tiladi. Mavzuni aytganimizda barcha o‘quvchilarda bir savol tug‘ilishi mumkin. Tok ham o‘zgaradimi? O‘qituvchi laboratoriya ishiga o‘tishdan avval ularga o‘zgaruvchan elektr toki haqidagi va hozirgi texnikalarda o‘zgaruvchan tokdan foydalanish usullari to‘g‘risida tushunchalarni berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buni amalga oshirishda innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish talabaning mavzu haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi.

Ilmiy-tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarga “O‘zgaruvchan elektr toki va rezonans hodisasi” mavzusini o‘tishda “Vitaminlar” metodlaridan foydalandik. Dastavval o‘quvchilarga laboratoriya ishining nazariy qismida quyidagi bilimlarni berish tavsiya etiladi.

Elektr toki insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirgan va bir qancha qulayliklarni olib kirilishiga sabab bo‘ldi. Miloddan avval yashab o‘tgan olimlar qahrabo tayoqchasini matoga ishqalash natijasida u yengil jismlarni o‘ziga tortishi ma’lum bo‘ldi. Demak elektr toki ikki jismning bir-biriga ishqalash natijasida biridan ikkinchisiga elektronlarning o‘tishi va jismlarda zaryadlarning farqi tufayli elektr toki hosil bo‘ladi.

Bundan keyin o‘quvchilarda yanada yaxshi tasavvur hosil bo‘lishi uchun Phet dasturida Elektr zaryadlari va elektr maydon” nomli simulyatsiya namoyish etiladi.

1-holatda barcha jismlar neytral holatlarda bo‘lib, ularda musbat va manfiy zaryadlar o‘zaro teng. Sharni kiyimga ishqalash natijasida kiyimdagi elektronlar sharga o‘tib qolganini ko‘ramiz. Bunda shar manfiy zaryarlangan, kiyim esa musbat zaryadlanganiga guvoh bo‘lamiz.



3- rasm. Jismlarning neytral (a) va zaryadlangan (b) holati.


Bu simulyatsiya yordamilar o‘quvchilar elektr zaryadi haqida yanada yaxshi tushunadilar [4].

O‘tkazgichda erkin elektronlarning tartibli harakati o‘zgarmas elektr tokini hosil qiladi. Iste’molchilar foydalanadigan tok 220 V kuchlanishga mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘zgarmas elektr toki deyiladi.

Ma’lumotlar berilgandan so‘ng o‘quvchilar bilimini “Vitaminlar” metodi yordamida tekshirib ko‘ramiz. Bu metod mavzuning bir qismi yoki ikkinchi rejaga o‘tishdan avval so‘ng qo‘llanilishi mumkin.

O‘qituvchi rejaga mos bo‘lgan savollarni qizil, yashil va sariq rangli kartochkalarga yozadi. O‘quvchilar ko‘zlari yumilgan holda tarqatma savollarni tanlaydilar. Kimga qizil rangli savol tushsa olma, yashil rangli savol tushsa kivi va sariq rangli kartochka uchun banan yeydi, agarda savolga javob bera olmasa limon yeyishga majbur bo‘ladi. Bu metod oddiy bo‘lishiga qaramay xajm jihatdan katta mavzularda qo‘llansa, ilmiy tomondan o‘quvchilar qay darajada tushunganliklari tekshirib, mustahkamlab olinadi, pedagogik-psixologik ahamiyati esa tinglovchilar ozgina vaqt dam oladi va vitaminga boy mevalarni tanovvul qilishadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual dasturlar ko‘magida o‘tkazdirganimizda qisqa vaqtda tashkil etsa bo‘ladigan, o‘quvchilarga esa bosqichlar orasida tanaffus vazifasini bajaruvchi hamda oldingi qismni mustahkamlashga yordam beruvchi metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz.



4-rasm. “Vitaminlar metodining ko‘rinishi.

Xulosa.

Fizikadan laboratoriya ishlarini mediatexnologiya va innovatsion ta’lim metodlari vositasida takomillashtirish natijasida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllantirildi: tajriba ishini mazmuni, mohiyati, o‘ziga xos jihatlarini, bugungi global jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan soxalar va ulardagi muammolarga yechim topish, virtual laboratoriya va simulyatsiyalar orqali mavzularni mustaqil o‘zlashtirishga ega bo‘lgan zaruriy bilimlar asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Soliyeva. Virtual laboratoriyalarning maqsadi va ta’lim tizimida tutgan o‘rni. NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. №6. -B.557-561.

2. A.Rustamxonov. Multimedia tizimlari va texnologiyalari // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiya, 2023. – B. 191.

3. U. Azizovna. The Actual State of the System for Developing the Media Culture of Foreign Language Teachers on the Basis of Interdisciplinary Cooperation. American Journal of Social and Humanitarian Research 3(8),2022. – B. 49-52.

4. Dr. Remah Y. Al-Masarweh. A Review of Augmented Reality in Physics Education and physics laboratory experiments (Applications, Advantages, Challenges. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 9, August 2021. – B. 2593-2614

NAVOIY VA BOBUR MEROSI: O‘ZBEK ADABIYOTI VA MADANIYATINING ASOSIY POYDEVORI

Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘zbek adabiyoti va madaniyatining mustahkam poydevorini yaratdi. Navoiy o‘zbek adabiy tilini shakllantirib, mumtoz she’riyatni yuksak darajaga olib chiqdi, Bobur esa adabiyot, tarix va davlat boshqaruvi sohalarida beqiyos meros qoldirdi. Ushbu maqolada ikki buyuk mutafakkirning ijodiy va ilmiy merosi tahlil qilinib, ularning o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Navoiy va Bobur asarlarining bugungi madaniy taraqqiyotga ta’siri ham ochib beriladi. Tadqiqot adabiy manbalar va tarixiy dalillarga asoslangan bo‘lib, ularning ijodiy faoliyati o‘zbek milliy o‘zligining shakllanishidagi muhim omil sifatida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, o‘zbek adabiyoti, madaniy meros, adabiy til, tarixiy-estetik tahlil, Xamsa, Boburnoma, o‘zbek tili, forsiy til.*

Annotation: *The literary and cultural legacy of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur laid a solid foundation for Uzbek literature and culture. Navoi played a crucial role in shaping the Uzbek literary language and elevating classical poetry to new heights, while Babur left an invaluable legacy in literature, history, and state governance. This article examines the creative and scholarly contributions of these two great thinkers and their impact on Uzbek literature and culture. Additionally, it explores the influence of Navoi and Babur’s works on modern cultural development. Based on literary sources and historical evidence, the study highlights their creative activities as a key factor in shaping Uzbek national identity.*

Keywords: *Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Babur, Uzbek literature, cultural heritage, literary language, historical-aesthetic analysis, Khamsa, Baburnama, Uzbek language, Persian language.*

Аннотация: *Творческое наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура заложило прочный фундамент узбекской литературы и культуры. Навои сыграл ключевую роль в формировании узбекского литературного языка и поднял классическую поэзию на новый уровень, тогда как Бабур оставил бесценное наследие в литературе, истории и государственном управлении. В данной статье рассматривается творческое и научное наследие этих выдающихся мыслителей, а также их влияние на узбекскую литературу и культуру. Кроме того, анализируется воздействие их произведений на современное культурное развитие. Исследование основано на литературных источниках и исторических данных, освещая их творческую деятельность как важнейший фактор формирования узбекской национальной идентичности.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, узбекская литература, культурное наследие, литературный язык, историко-эстетический анализ, “Хамса”, “Бабурнама”, узбекский язык, персидский язык.*

Kirish.

Har bir xalqning adabiyoti va madaniy merosi uning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy qiyofasi va madaniy salohiyatining yorqin ifodasidir. O'zbek adabiyoti va madaniyati shakllanishida esa buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va ilmiy merosi muhim poydevor bo'1ib xizmat qilgan. Ularning ijodiy faoliyati nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham o'zbek adabiyoti va madaniyatining taraqqiyot yo'lini belgilab berdi.

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida o'zining nazariy qarashlari va badiiy asarlari orqali o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirib, uni yuksak badiiy ifoda vositasiga aylantirdi. Uning "Xamsa" asari, she'riy devonlari va adabiy-nazariy tadqiqotlari faqat o'zbek adabiyotigagina emas, balki butun turkiy dunyoga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi, tilshunos va marifatparvar sifatida ham tarixga muhrlangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa nafaqat shoir va adib, balki buyuk sarkarda va tarixchi sifatida ham benazir meros qoldirdi. Uning "Boburnoma" asari o'zining tarixiy haqiqatlarga boyligi, ilmiy tahlili va badiiy qiymati bilan nafaqat o'zbek adabiyotining, balki jahon ilm-fani va madaniyatining bebaho yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Boburning she'riy merosi esa o'zbek, fors va hind madaniy muhitlari o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy va Zahirириddin Muhammad Bobur ijodiy va ilmiy merosi o'zbek adabiyoti hamda madaniyatining shakllanishidagi asosiy poydevor sifatida tahlil qilinadi. Ularning asarlari til, adabiyot, falsafa va tarix sohalariga qanday ta'sir ko'rsatgani, bugungi kunda ham ularning merosi nechog'lik dolzarb ekani ilmiy yondashuv asosida o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosi yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va maqolalar yaratilgan bo'lib, ularning asarlari adabiy-nazariy qarashlari turli nuqtai-nazarlardan o'rganilgan. Shuningdek, Navoiy va Bobur ijodining o'zbek adabiyoti va madaniyatidagi o'rni, ularning ilmiy va badiiy qarashlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Alisher Navoiyning ijodi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, uning adabiyotshunoslikdagi yuksak o'rni va tilshunoslikdagi xizmati alohida ta'kidlanadi. Jumladan, sharqshunos olim Y.E.Bertels Alisher Navoiy ijodiy merosi haqida tadqiqot olib borgan olimlardan biridir. U Navoiy ijodining turkiy adabiyotga ta'siri, uning she'riyati va adabiy qarashlari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan. Bertelsning eng muhim ishlari orasida Navoiy va uning "Xamsa"si haqidagi tahlillar alohida o'rin tutadi [1,6]. Bertels o'zining ilmiy faoliyatida, ayniqsa, Navoiy ijodining fors-tojik va turkiy adabiyotlardagi o'rnini, uning she'riyatidagi shakllanish jarayonlarini va badiiy-uslubiy jihatlarini keng yoritgan. U, shuningdek, Navoiy ijodining tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga qo'shgan hissasini ham tahlil qilgan. Bertelsning tadqiqotlari Navoiy ijodini nafaqat tarixiy jihatdan, balki lingvistik va estetik nuqtai nazardan ham o'rganishga imkon yaratadi [2].

Shuningdek, o'zbek tadqiqitchilaridan Saidbek Hasanov ham Navoiy va uning asarlari, she'riyati hamda falsafasi haqida chuqur izlanishlar olib borgan. U o'zining "Navoiyning yetti tuhfasi" asarida uning bir necha asarlari tahlili, jumladan, "Xamsa" dostonini tahlil qilib bergan. Shuningdek, uning ta'kidlashicha, "Alisher Navoiy dostonlaridagi voqea va hodisalar o'zining hayotiyligi bilan ham farq qiladi. Shoir asarlarida turli afsonaviy va g'ayritabiiy voqealarga kam o'rin berilgan. Alisher Navoiy "Sabbai Sayyor" dostonida ham Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" asariga xos bo'lgan sehrli voqea va hodisalarni ham iloji boricha kam ishlatgan"[3,189].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi ham tadqiqotchilar tomonidan yuksak qiziqish bilan o'rganilgan bo'lib, ulardan shotlandiyalik sharqshunos va shoir Jon Leyden Bobur haqidagi ilk tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U Boburning shoh asari bo'lgan "Boburnoma"ni ingliz tiliga

tarjima qilishda bevosita ishtirok etgan [4]. Yana bir shotland sharqshunosi va tarixchisi Uilyam Erskin Bobur va uning davri haqida chuqur tadqiqotlar olib borgan. Uning “Bobur davridagi Hindiston tarixi” asari Boburning Hindistondagi faoliyatini batafsil yoritadi [5]. “Boburnoma”ning o‘zbekchadan ingliz tiliga tarjimasi ham yuqorida nomi keltirilgan ikki shotland tadqiqotchisi nomi ostida chop etilgan.

O‘zbek tadqiqotchilaridan Yorkinoy To‘xtarova “Boburnoma” asarini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rgangan. Uning tadqiqotida asardagi tilga oid munosabatlar, maqollar, fors tili va tovush xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tadqiqot “Boburnoma”ning til va adabiyotga oid qimmatli ma’lumotlar berishini ko‘rsatadi [6]. Jumladan, Mirmahmud Mirsaidullayev esa Boburning sog‘lig‘i va kasalliklari haqida tadqiqot olib borgan. U “Boburnoma”dagi mufassal ma’lumotlarga tayanib, Boburning 22 marta turli kasalliklarga chalinganligini aniqlagan va bu kasalliklarni Abu Ali ibn Sino tavsiyalari bilan solishtirgan. Hozirda u Boburning kasalliklariga zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan tashxis qo‘yish va uning vafoti sabablarini aniqlash bo‘yicha izlanishlarni davom ettirmoqda [7].

Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy va Bobur merosi nafaqat o‘zbek adabiyotining rivojiga, balki jahon madaviy merosiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ularning asarlari bugungi kunda ham chuqur o‘rganilib, o‘zbek adabiyoti, san’ati va falsafasining rivojida muhim o‘rin tutmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-madaniy merosi O‘zbek adabiyoti va madaniyatining asosiy poydevorini tashkil etishini ilmiy asosda o‘rganish maqsad qilingan. Bu maqdsadga erishish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Tadqiqot usullari nafaqat Navoiy va Boburning asarlarini chuqur o‘rganishga, balki ularning ijodiy faoliyatining adabiyot va madaniyat rivojiga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirildi. Ushbu tadqiqotda tarixiy-komparativ tahlil, manbashunoslik, tahlil va sintez, madaniy-huquqiy yondashuv kabi metodlardan keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi O‘zbek adabiyotining naqshli rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqot davomida ularning ijodi tahlil qilinib, nafaqat adabiy jarayon, balki madaniyat, tarix, falsafa va ijtimoiy tafakkur rivojiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy va Bobur nafaqat o‘z davrining yirik namoyondalari, balki umumbashariy madaniyat xazinasining yorqin yulduzlari hizoblanadi.

Navoiy o‘zining lirikasi bilan, turkiy xalqlar adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari turk olimlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan bo‘lib, bu Navoiy ijodining xalqaro miqyosdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [8]. Navoiy tomonidan yozilgan “Xamsa” o‘zbek va fors adabiyotining markaziy qismiga aylanib, nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki turkiy va fors adabiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham mustahkamladi. Bu asar o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida qadrlanadi va jahon adabiyotining ajralmas qismiga kiradi. Boshqa tomondan, Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida nafaqat o‘z shaxsiy tarixi, balki Markaziy Osiyo va Hindiston tarixini ham yoritgan. Bu asar hozirgi kunda ham jahon tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bobur va Navoiy o‘zlarining asarlarida zamon va makon o‘zgarishini, insoniyat tarixidagi ko‘plab dolzarb masalalarni ta’riflashgan. Masalan, Bobur Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar haqida yozgan bo‘lsa, Navoiy o‘zining badiiy asarlari orqali o‘zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, bu ikki buyuk siymo asarlari boshqa tillarga, jumladan, qozoq va tojik tillariga ham tarjima qilingan. Masalan, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qozoq tiliga, “Layli va Majnun” dostoni esa tojik tiliga o‘girildi. Bu tarjimalar ularning asarlari turli millatlar o‘rtasida ham qiziqish

uyg‘otganini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2022-yilda Qozog‘istonning Nur-Sulton shahrida Navoiy haykalini o‘rnatish va ko‘chalarga uning nomini berish rejalashtirilgan edi [9].

Shu bilan bir qatorda, Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlab, uni davlat va ilm-fan tili darajasiga ko‘tarishga urindi. Shu tariqa Navoiy o‘z ijodi orqali o‘zbek tilini mustahkamlaydigan nazariy va amaliy asos yaratdi. Uning asarlarida insoniy fazilatlar, ma’naviyat va adolat targ‘ib etilgan. U jamiyatdagi illatlarni fosh etib, xalqning ma’naviy yuksalishiga xizmat qilgan. “Hayrat ul-abror” dostonida ezgulik va adolat, ilm-ma’rifat va donishmandlik ustuvor qadriyat sifatida ilgari suriladi. Bu g‘oyalar o‘sha davr madaniy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim jihatlarini yoritib beradi. Alisher Navoiy Ikkinchi Uyg‘onish davridagina emas, balki kishilikning eng yorqin shaxslaridan biri sifatida tan olingan. Uning umumiy adabiy merosi 200000 misradan iborat, ulug‘ mutafakkir qalamiga tegishli 52000 misrali “Xamsa” borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o‘ziga xos qomus hisoblanadi. Boburning she’rlari va ruboiylar inson ruhiyati va tafakkurining yuksak namunalari bo‘lib, ular orqali u shaxsiy kechinmalarini, vatanparvarlik tuyg‘ularini, muhabbat va do‘stlikni tarannum etgan. Ularning “Mubayyin” asari islomiy-axloqiy qarashlarni ochib berar ekan, “Harb ishi” kabi qisqacha risolalarida harbiy san’at va davlat boshqaruvi borasida fikr yuritgan.

Shuningdek, Navoiy o‘z davrida madaniy muassasalar, madrasa va masjidlar, kutubxonalar va shifo maskanlari barpo etilishiga homiylik qilgan. Bobur esa Hindistonda yangi madaniy an’analarni shakllantirib, bog‘dorchilik va me’morchilik sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan. Shu bilan bir qatorda, Navoiy va Bobur ijodi keyingi asrlardagi o‘zbek adabiyoti uchun poydevor bo‘ldi. Ularning adabiy an’analari keyinchalik Mashrab, Nodira, Ogahiy, Furqat, Cho‘lpon va boshqa adiblar ijodida davom etdi.

Xulosa va takliflar.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek adabiyoti va madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida asosiy poydevor yaratgan siymolar hisoblanadi. Navoiy o‘zining nazmiy va nasriy asarlari orqali o‘zbek tilining ilmiy, badiiy va falsafiy imkoniyatlarini yuksaltirgan bo‘lsa, Bobur o‘zining tarixiy, adabiy va ilmiy merosi bilan o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos uslub va an’analarni olib kirdi. Ularning ijodi milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barkamollik va madaniy taraqqiyot yo‘lida mustahkam asos yaratdi.

Navoiy g‘azallari va dostonlari Sharq adabiy an’analari bilan uyg‘unlashgan holda, insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va ilm- ma’rifatni targ‘ib qilgan. Bobur esa o‘zining “Boburnoma” asari orqali tarix, siyosat va adabiyotga oid qimmatli ma’lumotlar qoldirib, o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda bu ikki buyuk siymoning hayoti va ijodi keng doirada o‘rganilmoqda va zarur xulosalar olinmoqda, biroq ushbu tadqiqotlarni kengaytirishga qaratilgan quyidagi bir nechta chora-tadbirlarni yanada kengroq joriy qilsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1. Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;
2. Ta’lim tizimida chuqur o‘rganish;
3. Yosh avlodni rag‘batlantirish;
4. Tarjimani rivojlantirish;
5. Axborot texnologiyalardan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘zbek adabiyoti va madaniyatining mustahkam poydevorlaridan biri hisoblanadi. Ularning asarlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kun yoshlarini ma’naviy va axloqiy tarbiyalashda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ularning boy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turobov Bekpulat “Alisher Navoiy ma’naviy merosi Y.E.Bertels talqinida” monografiyasi. Samarqand davlat chet tillari instituti nashriyoti, Samarqand-2022. 124.b

2. O‘ngalova Guldasta SamDU magistranti “Y.E.Bertels Navoiy ijodi tadqiqotchisi” maqolasi

3. Saidbek Hasanov “Navoiyning yetti tuhfasi”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, Toshkent-1991. 192.b

https://baburid.uz/library/academicsutm_source

https://baburid.uz/bibliography/607utm_source

https://zenodo.org/records/7450751

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hasan-qudratullaev-bobur-mirzoning-qilichi.html

4. Tirkasheva Sobira O‘ktamovna ToshDO‘TAU Masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosiga oid chet el tadqiqotlari xususida” maqolasi

https://uza.uz/oz/posts/hazrati-navoiy-va-bobur-ijodida-millatlararo-dostlik-tarannumi_344937?utm_source

5. O‘zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrdan bugungi kungacha) I jild A.Asqarov [va boshqalar] Toshkent “Manaviyat”-2023. 456.b.

XX ASR BOSHIDA TURKISTON JADID MATBUOTI VA UNING JAMIYATGA TA'SIRI

Abduqahorov Anvarjon Alijon o'g'li
Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola XX asr boshidagi Turkiston jadid matbuotining tarixiy rivojlanishi va uning jamiyatga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Jadid matbuoti o'z davrida, xususan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va siyosat sohalarida jamiyatning zamonaviylashishiga ta'sir ko'rsatdi. Maqolada jadid matbuotining milliy uyg'onish, ta'limni yangilash va ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid matbuotining o'z zamonasidagi siyosiy va ijtimoiy qarashlarga ta'siri va uning bugungi kunga merosi ham yoritilgan. Ushbu maqola, jadid matbuotining Turkistonning tarixiy va madaniy merosidagi o'rnini va uning jamiyatdagi rivojlanishga qo'shgan hissasini tushunishga yordam beradi.*

Kalit so'z: *Matbuot, Jadid, Gazeta, Ma'rifat, Al-hadid, Oyina, Xurriyat, Najot, Monariya, Habl-ul-matn.*

Annotation: *This article is dedicated to the historical development of the Turkestan Jadid press in the early 20th century and its impact on society. The Jadid press played a significant role in influencing the modernization of society, particularly in the fields of science, education, culture, and politics. The article analyzes the role of the Jadid press in national awakening, educational reforms, and the struggle against social injustices. It also explores the impact of the Jadid press on the political and social views of its time and its legacy in the present day. This work helps to understand the place of the Jadid press in the historical and cultural heritage of Turkestan and its contribution to the development of society.*

Keywords: *Press, Jadid, Newspaper, Enlightenment, Al-Hadid, Oyina, Xurriyat, Najot, Monarchy, Habl-ul-Matn.*

Аннотация: *Данная статья посвящена историческому развитию джадидской прессы Туркестана в начале XX века и её влиянию на общество. Джадидская пресса сыграла значительную роль в модернизации общества, особенно в таких областях, как наука, образование, культура и политика. В статье анализируется роль джадидской прессы в национальном пробуждении, реформировании образования и борьбе с социальными несправедливостями. Также рассматривается влияние джадидской прессы на политические и социальные взгляды своего времени и её наследие в современности. Работа помогает понять место джадидской прессы в историческом и культурном наследии Туркестана и её вклад в развитие общества.*

Ключевые слова: Пресса, Джадид, Газета, Просвещение, Аль-Хадид, Ойина, Хурриат, Наджот, Монархия, Хабл-уль-Матн.

Kirish.

Turkistonning Rossiya tomonidan zabt etilishi, uning koloniya statusiga aylanishi va Buxoro amirligi hamda Xiva xonligining vasallikka tushishi mahalliy aholi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati natijasida, turkiy xalqlar o'zining tarixiy va madaniy mustaqillik huquqlaridan mahrum bo'ldi, iqtisodiy jihatdan esa mustamlakachi kuchlar tomonidan jiddiy ekspluatatsiyaga uchradi. Mahalliy aholi Rossiya imperiyasining yirik shaharlari va sanoat

markazlarida ishlash uchun xomashyo yetkazib berishga, ya’ni paxta, pilta, qoraqo‘l, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish va jo‘natishga majbur edi. Bu holat, bir tomondan, ularning moddiy hayotini qiyinlashtirib, ijtimoiy-iqtisodiy adolatsizlikni kuchaytirdi, ikkinchi tomondan esa, mahalliy aholi ruhiyatiga zarar etkazdi. Mahalliy xalqning diniy va madaniy qadriyatlari ta’qib qilinib, ularning ma’naviy erkinliklari cheklana boshladi. Shuningdek, rus hukumatining siyosati mahalliy xalqlarni kamsitish, ularga nisbatan tahqirlash va ularning insoniy sha’nini yerga urishga olib keldi. Ayniqsa, bu holat yoshlarda ichki norozi tuyg‘ularini yuzaga keltirdi va siyosiy faoliyatga kirishish istagini kuchaytirdi. Mavjud hukumatning zulmi va tahqiri natijasida mahalliy aholining ma’naviy holati yomonlashdi, va bu jarayon ko‘plab yoshlarda mustaqillik, erkinlikka bo‘lgan istakni shakllantirdi. O‘zining kelajagi haqida jiddiy qayg‘urayotgan ziyolilar o‘zlarining siyosiy erkinliklari uchun kurashish zarurligini tushunib yetdilar. Ammo, Rossiya imperiyasi kabi kuchli va makkor hukumatga qarshi chiqishning qiyinligini anglab, ular mustamlakachilarga qarshi kurashni faqat jiddiy tashkil etilgan harakatlar orqali amalga oshirish mumkinligini tushundilar. Bu esa, kelajakda jadidchilik harakati va milliy ozodlik kurashi rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Mahalliy xalqlarda “Nega biz mustaqillikni yo‘qotdik? Nima uchun biz mustamlakachilikka tushib qoldik? Mustamlakachilikdan qanday qutulib, ozodlikni qanday qo‘lga kiritamiz?” kabi savollar yuzaga kelib, bu savollarga javob izlashga undadi. Bu harakatlar davomida xalqni ozodlik uchun kurashga chaqirish, mustamlakachilikdan qutulishning yo‘llarini topish maqsadida intilishlar kuchayib, xalqni milliy ozodlik kurashiga yo‘naltirishga sabab bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ushbu tadqiqotda Turkiston matbuoti va uning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot sifatli yondashuv asosida olib borildi va bir nechta metodlardan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy usul orqali Turkiston jadid matbuotining rivojlanishi va uning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi o‘rni tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Asosiy e’tibor jadidlar tomonidan nashr etilgan gazeta va jurnallar mazmunini o‘rganishga qaratildi. Manbashunoslik yondashuvi doirasida XIX asr oxiri va XX asr boshida chop etilgan gazeta va jurnallar, xususan, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston” va “Hurriyat” kabi nashrlar hamda ularni o‘rgangan ilmiy manbalar tahlil qilindi. Arxiv hujjatlari, ilmiy maqolalar va monografiyalardan foydalanildi. Matn tahlili usuli yordamida mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyalari Turkiston matbuotida qanday aks etgani aniqlash maqsad qilingan. Shu sababli gazeta maqolalarining mazmuniy tahlili olib borildi. Ushbu jarayonda milliy uyg‘onish, siyosiy faollik va mustaqillik g‘oyalari qanday yoritilgani o‘rganildi. Taqqoslash usuli orqali Turkiston jadid matbuoti bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatini aks ettiruvchi rasmiy gazetalarning mazmuni qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali jadid matbuotining o‘ziga xosligi va uning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi o‘rni ochib berildi. Tarixiy qiyosiy usuldan foydalanib, Turkiston matbuotining mustamlakachilik davridagi faoliyati boshqa mustamlaka qilingan hududlardagi matbuot harakati bilan solishtirildi. Xususan, Usmonli jadidchilari va Hindiston matbuoti bilan o‘xshashlik va farqlar tahlil qilindi. Shu usullar asosida olib borilgan tadqiqot Turkiston matbuotining mustamlakachilikka qarshi kurashdagi roli va ta’sirini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Turkiston xalqlarining mustamlakachilik asoratlariga tushib qolishining sabablari chuqur tarixiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga borib taqaladi. Mustamlakachilikka qarshi kurashda muhim jihatlardan biri, avvalo, ushbu holatga olib kelgan sabablarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish zarurligi edi. Turkistonning mustamlakachilik zulmiga duch kelishining asosiy sabablari sifatida, aynan jaholat, ijtimoiy rivojlanishdagi orqada qolish, feodalizmdagi bo‘linish va o‘zaro hamjihatlikning yetishmasligi ko‘rsatiladi. Bu omillar mahalliy xalqlarning siyosiy mustaqillikdan mahrum bo‘lishiga olib keldi. Bunday vaziyatdan chiqishning yo‘li, birinchi navbatda, mahalliy aholini ilmiy va madaniy jihatdan

rivojlantirish, jaholatdan chiqarish va ularning milliy ongini shakllantirishdan iborat edi. O‘lkadagi xalqni o‘zining tarixiy va milliy ildizlariga qaytarish, uning siyosiy erkinligini qayta tiklash zarur edi. Shu sababli, mahalliy xalqning ongini uyg‘otish, unga o‘zligini anglatish uchun ma‘rifat va bilimlarni oshirish kerak edi. Bu tarixiy vazifani amalga oshirishda “jadid” deb atalgan siyosiy va madaniy harakat vakillari muhim rol o‘ynadilar. Jadidlar turli ijtimoiy qatlamlardan chiqqan bo‘lishsa-da, ularni birlashtirgan yagona g‘oya – milliy istiqlol va erkinlik g‘oyasi edi. Jadidlar, shuningdek, ma‘rifatning tarqatilishiga katta e‘tibor qaratdilar va matbuotning bu jarayondagi rolini to‘g‘ri baholab, uning ahamiyatini tushundilar. Ular uchun matbuot, xalqni ilmiy va siyosiy jihatdan uyg‘otishning, uning ongini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri edi. Shu tarzda, Turkistonda milliy matbuotning rivojlanishi va milliy ongni uyg‘otish yo‘lida birinchi qadamlari tashlandi. Bu ijtimoiy ehtiyoj va talab, milliy matbuotning shakllanishiga turtki bo‘ldi va mustamlakachilikka qarshi kurashga olib keldi. [3] Turkiston mahalliy aholisining matbuotning kuchini qanday anglaganini va uning ta’sirini tushunish, ularning siyosiy va ijtimoiy ongining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Ular, masalan, 1883 yildan boshlab Buxoroda chiqayotgan “Tarjimon” gazetasini, Volga bo‘yida nashr etilgan tatar va boshqird tilidagi gazetalarni va umumiy ravishda, Turkiya, Eron, Hindiston, Misr kabi xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan turkcha va forscha gazetalarni o‘qib, o‘zlarining onglarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berayotganini his qila boshlashdi.[2] Bu gazetalarda chop etilgan maqolalar, ayniqsa, milliy va ijtimoiy masalalar, yangi fikrlar va siyosiy g‘oyalar mahalliy aholining fikrlash tarzini o‘zgartirayotgan edi. Matbuotning kuchi va uning o‘tkazgan ta’siri odamlarning siyosiy va madaniy anglashuvini rivojlantirib, yangi harakatlarga turtki bo‘ldi. Bu jarayon, o‘z navbatida, mahalliy xalqlarning mustaqillik va ozodlik yo‘lida kurashish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston hududida milliy istiqlol uchun kurash, demokratik tartiblarni o‘rnatish, xalqni jaholat, ilm-fan va hurofotlardan qutqarish maqsadida jadidlar keng faoliyat olib bordilar. Bu maqsadga erishishda matbuotning kuchini to‘g‘ri anglagan jadidlar, uning ta’sirini kengaytirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni amalga oshirdilar. Matbuot, ayniqsa, ma’rifat va yangi g‘oyalarni tarqatishdagi o‘rnini yuqori baholagan jadidlar, o‘zlarining eng yirik vositalaridan biri sifatida bu kuchni ishlatdilar.[1] Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniyning faolliklari mahalliy matbuotni shakllantirishda va uni yangi g‘oyalar bilan boyitishda katta ahamiyat kasb etdi. Ular, o‘z matbuotlarini yaratib, ta’lim va madaniyat sohasida yangi, rivojlangan fikrlarni jamiyatga taqdim etish orqali Turkiston aholisining siyosiy va ijtimoiy ongini o‘stirishga intildilar. Turkiston hududidagi milliy davriy nashrlar tashkil etilishida, xususan, Qrim-tatar xalqining vakili Ismoilbek Gaspirali (Gaspirinskiy)ning 1883-1914 yillarda nashr etgan “Tarjimon” gazetasi, Turkiyada chiqarilgan va yashirin tarzda Turkistonga tarqatilgan “Siratul mustaqim” (To‘g‘ri yo‘l) gazetasi, hamda Afg‘onistonda 1909-1919 yillarda chop etilgan “Sirojul axbor afg‘oniya” (Afg‘on xabarlari) gazetasi katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Hindiston va Misrda chiqarilgan matbuot organlari, xususan, Hindistondan fors tilida nashr etilgan “Habl-ul-matn” va Misrdan “Chehrnoma” jurnalari Buxoroga yetib keldi. Shuningdek, Eronning “Adolat” va “Al-hadid” (“Temir”) gazetalari ham Buxoroga kirib kelgan.[4] Bu gazetalar va jurnallar orqali Buxoro ziyolilari jahon yangiliklari, Birinchi jahon urushi, global iqtisodiyot, ilm-fan va texnologiya sohalaridagi yutuqlar haqida xabardor bo‘lib, o‘z yurtlarining taraqqiyotdan ortda qolganligini tushunib yetdilar. Buxoroda monarxiya tizimini tanqid qilgan jadidlar vakillaridan biri, Sadriddin Ayniy (1878-1954), “Tarjimon” gazetasi orqali “parlament” so‘zining mohiyatini anglaganligini ta’kidlaydi. Bu matbuot orqali, Buxoro ziyolilari jamiyatda o‘zgarishlar kiritish, ta’lim va siyosatni yangilash zarurligini angladilar.[3]

XX asr boshlarida Turkistonda haqiqiy mahalliy matbuotning shakllanishida 1906 yilda Ismoil Obidov muharrirligida chop etilgan “Taraqqiy” gazetasi muhim rol o‘ynadi. Rossiya imperiyasining

mahalliy ma’murlarining qat’iy sensurasi va repressiv siyosatiga qaramay, “Xurshid” (1906), “Shuhrat” (1907), “Osiyo” (1908) kabi matbuot organlari nashr etildi. Ushbu gazetalar va jurnallar, o‘zlarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy mazmuni bilan Turkiston xalqlarining ongini o‘zgartirishga, milliy o‘zlikni uyg‘otishga xizmat qildi. Matbuot, shu bilan birga, xalqlarning ta’lim olish, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida xabardor bo‘lishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.[2] N. Abduazizovaning fikriga ko‘ra, milliy matbuotning rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1912-1915 yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda, turli siyosiy va ijtimoiy to‘siqlarga qaramay, “Samarkand”, “Oyina” (1913), “Sadoi Turkiston” (1914-1915), “Sadoi Farg‘ona” (1914) kabi matbuot organlari milliy ong va madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.[4] Bu gazetalarning faoliyati, milliy til, adabiyot va jurnalistika sohalarida yangiliklar kiritish bilan birga, mahalliy xalqlarning siyosiy faolligini oshirishga, mustamlakachilik rejimiga qarshi kurashni ilgari surishga xizmat qildi. Matbuot, o‘z vaqtida, ijtimoiy-siyosiy muhitga ta’sir etib, xalqning milliy g‘ururini kuchaytirishda katta rol o‘ynadi.[4] 1917 yil, tarixiy jarayonlarning keskinlashgan davri bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy faollik va milliy birlikni mustahkamlash maqsadida ko‘plab gazeta va jurnallar faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu yil davomida, milliy uyg‘onish va erkinlik yo‘lida nashr etilgan “Najot”, “Turk Eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Xurriyat”, “El Bayrog‘i” gazetalari, shuningdek, “Yurt”, “Chayon” kabi jurnallar o‘zlarining ta’siri bilan milliy matbuotning rivojlanishiga va xalqning siyosiy faolligiga katta hissa qo‘shdi. Bu nashrlar o‘z davrida, milliy ozodlik, adolat va erkinlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda muhim vositalardan biri bo‘ldi.[1]

Tahlil va natijalar.

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti shakllanishi va rivojlanishi natijasida jamiyatning turli qatlamlarida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ushbu matbuot faqatgina ma’rifiy harakatning bir qismi emas, balki ijtimoiy-siyosiy ongni o‘stirish, milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoyish va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Jadid nashrlari Turkiston xalqining savodxonligi oshishida katta rol o‘ynadi. An’anaviy madrasalar ta’limiga nisbatan yangicha metodlarni ilgari surgan jadid maktablari bilan bir qatorda, matbuot ham zamonaviy bilimlarni keng targ‘ib qilishga xizmat qildi. “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat”, “Turkiston viloyatining gazeti” kabi nashrlar o‘z sahifalarida xalqning siyosiy va iqtisodiy muammolarini yoritdi, turli tazyiqlarga qaramay, erkin fikr bildirish va milliy o‘zlikni anglash yo‘lida faoliyat yuritdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jadid matbuoti jamiyatda bir nechta asosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan:

1). Savodxonlikning oshishi va ta’lim tizimining modernizatsiyasi Jadid matbuoti orqali aholining keng qatlamlari zamonaviy bilimlar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Gazeta va jurnallarda siyosiy-huquqiy bilimlar, iqtisodiy islohotlar, fan va texnika yutuqlari haqida ma’lumotlar berildi. Bu esa jadid maktablarining rivojlanishiga, yangi usul ta’lim tizimining ommalashishiga zamin yaratdi.

2). Siyosiy faollikning oshishi. Matbuot erkinlik, mustaqillik va milliy huquqlar masalalarini ko‘tarish orqali Turkiston jamiyatida siyosiy faollikni oshirishga xizmat qildi. Jadid matbuoti mustamlakachilik siyosatini tahlil qilib, uning salbiy oqibatlarini ochib berishga harakat qildi. Bu esa xalq orasida o‘zining huquqiy holatiga nisbatan tushunchaning shakllanishiga olib keldi.

3). Milliy ongning uyg‘onishi. Matbuot orqali Turkiston xalqining o‘z tarixiga, madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi kuchaydi. Jadid gazetalarida islom sivilizatsiyasi, buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosi, turkiy birdamlik g‘oyalari keng yoritildi. Bu esa milliy uyg‘onish jarayoniga kuchli turtki berdi.

4). Ijtimoiy hayotda o‘zgarishlar. Jadid matbuoti oilaviy hayot, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, iqtisodiy faoliyat kabi mavzularni ham qamrab oldi. Ayollarning ta’lim olishi, ularning huquqlarini himoya qilish masalalari jadid matbuoti orqali yoritilgan eng muhim mavzulardan biri bo‘ldi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid matbuotining Turkiston jamiyatiga ta’siri keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat ma’rifiy harakatning rivojlanishiga, balki siyosiy va ijtimoiy islohotlarning shakllanishiga ham

katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, jadid matbuotining o‘sishi bilan uni cheklashga qaratilgan siyosiy bosimlar ham kuchaydi. Mustamlaka ma’murlari jadid matbuotining ta’sir doirasini toraytirishga, ayrim gazetalarni yopishga yoki ularning faoliyatini nazorat ostiga olishga harakat qildi. Biroq shunga qaramay, jadid nashrlari qisqa vaqt ichida Turkiston xalqi orasida keng tarqalib, milliy uyg‘onish jarayonida muhim omilga aylandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshlarida jadid matbuoti Turkiston jamiyatining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bugungi kun bilan taqqoslaganda, u o‘sha davrda axborot tarqatish vositasi sifatida emas, balki xalqni uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglash va islohotlar sari yetaklash maqsadida faoliyat yuritgan muhim platforma bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli, jadid matbuotini nafaqat Turkiston tarixining muhim sahifalaridan biri, balki mintaqadagi ijtimoiy taraqqiyotning muhim bosqichi sifatida baholash mumkin.

Xulosa.

XX asr boshidagi Turkiston jadid matbuoti, o‘z davrining ma’rifatparvar va islohotchi kuchlaridan biri bo‘lib, jamiyatning intellektual, siyosiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadid matbuoti, o‘zida yangilik va taraqqiyotga bo‘lgan intilishlarni mujassamlashtirib, milliy uyg‘onish va zamonaviy ta’limni targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘ldi. Uning sahifalarida jamiyatning qarama-qarshi qatlamlari, ijtimoiy adolatsizliklar va mustamlakachilik tahdidi haqida jiddiy fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari, jadid matbuoti, Turkistonning siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlariga ta’sir qilib, yangi g‘oyalar va zamonaviy fikrlarni jamiyatga singdirishda katta rol o‘ynadi. Jadid matbuotining ta’siri nafaqat o‘sha davrda, balki hozirgi kunda ham o‘zining tarixiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bugungi kunning matbuotida ham jadid an’analarining aks etishi, o‘sha davrdagi jasorat va bilim izlanishining davom ettirilganligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, XX asr boshidagi Turkiston jadid matbuoti, nafaqat o‘z zamonasida, balki bugungi kunda ham Turkiston va Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927) Muallif: Ziyo Said Nashr: – Toshkent, (1927) 1974-y.

2. Zaynobiddin Abdurashidov: Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, Sayı/Number: 22 Mavzu: Tarjimon (1883–1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi.

3. Kamol Rahmonov : Туркистонда матбуот тарихининг долзарб муаммолари Nashr: Buxoro, 2015-y.

4. Turkistonda vaqtli matbuot (1870–1924-yillar) Muallif: To‘g‘on Ernazarov Nashr: – Toshkent, 1959-y.

5. “Al-Isloh” jurnali – Turkistondagi islohotchilik harakatini o‘rganish bo‘yicha tarixiy manba (1915-1918) Mualliflar: S. Agzamxo‘jayev, Z. Ulug‘bekova Nashr: Toshkent, 2021-y.

6. O‘zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. / Mas’ul muharrir i.f.n. N. Talipova / – T.: “Fan va texnologiya” 2014, 328 b.

7. Turkistonda milliy ozodlik harakati Dono Ziyosva, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000 y.

8. Turkiston hurrriyati yo‘lida (turkistonlik muhojirlar tomonidan 1929-1939 yillarda nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnalidagi maqolalar to‘plami) Muallif: Muslimbek Alijonov. Nashr: – Toshkent – 2024.

9. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar) Mualliflar: Rajabov Q., Haydarov M. Nashr: – Toshkent – 2002.

10. Rossiya – O‘rta Osiyo: Siyosat va islom XVIII asr oxiri – XXI asr boshlarida. – M.: Moskva universiteti nashriyoti, 2013. – 480 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI NOSTANDART FIKRLASHNI O‘RGATISH

Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annontatsiya: *Hozirgi vaqtda jamiyatimiz, tezda qayta quradigan va g‘oyalarni yaratish orqali qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini topadigan shaxslarni talab qilmoqda. Zamonaviy ta’limda ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar ta’lim va tarbiyaning yangi usullaridan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida qo‘ymoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga nostandart fikrlashning maqsadi bolalarning nafaqat ta’limda, balki keyingi hayotida ham zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha katta yoshdagi bola, fikrlash, nostandart fikrlash, an’anaviy fikrlash,* ***ijod,*** *ijodiy fikrlash, qobilyat,* ***tasavvur.***

Аннотация: *В настоящее время наше общество требует людей, которые могут быстро адаптироваться, находить выход из сложных ситуаций и генерировать новые идеи. Глубокие изменения, происходящие в современном образовании, ставят перед собой приоритетную задачу использования новых методов обучения и воспитания. Цель нестандартного мышления у детей дошкольного возраста заключается в развитии их творческих способностей, необходимых не только в образовании, но и в дальнейшей жизни.*

Ключевые слова: *Дети дошкольного возраста, мышление, нестандартное мышление, традиционное мышление, творчество, творческое мышление, способность, воображение.*

Annotation: *At present, our society demands individuals who can quickly adapt, find solutions to difficult situations, and generate new ideas. The profound changes taking place in modern education prioritize the use of new methods of teaching and upbringing. The goal of developing non-standard thinking in older preschool children is to foster their creative abilities, which are essential not only in education but also in their future lives.*

Keywords: *Older preschool child, thinking, non-standard thinking, traditional thinking, creativity, creative thinking, ability, imagination.*

Kirish (Introduction).

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli o‘zini namoyon qilishi uchun nostandart fikrlashni rivojlantirish muhim ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Bu qobiliyat orqali muammolarni hal qilish, tez o‘zgarayotgan dunyoda moslashuvchan bo‘lish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi hisoblanadi.[1]

Nostandart fikrlash – bu oddiy va hammaga ma’lum yechimlarni emas, balki ijodiy va o‘ziga xos yangi yechimlarni topish usulidir. Insonning moslashuvchanligi, ijodkorlik salohiyati va noodatiy fikrlash aynan nostandart fikrlash darajasi orqali yuzaga keladi. “Nostandart fikrlash” tushunchasi fikrlash va ijod jarayonlarining murakkab uyg‘unligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

L.S.Vygotskiyning ta'kidlashicha, fikrlash – bu "ijtimoiy shartlangan, nutq bilan uzviy bog'liq psixik jarayon bo'lib, unda inson muhim yangiliklarni izlaydi va kashf etadi. Tafakkur voqelikni bilvosita va umumlashtirilgan holda aks ettirish, uni tahlil va sintez qilish jarayonida namoyon bo'ladi". [2]

D.B.Bogoyavlenskayaning fikricha, "ijod – bu vaziyat tomonidan rag'batlantirilmagan faollik bo'lib, unda inson belgilangan muammoning chegaralaridan chiqishga intiladi". [3]

V.N.Druzininning ta'kidlashicha, ijodiy fikrlash – bu "bilimlarni o'zgartirish bilan bog'liq tafakkur bo'lib, unda tasavvur va fantaziya ishtirok etadi". [4]

Fikrlash insonning amaliy faoliyati va hissiy bilimi asosida shakllanadi va rivojlanadi. Uning yordamida real olamdagi obyektlarning xususiyatlari va ular orasidagi bog'liqliklar bilvosita hamda umumlashtirilgan holda aks ettiriladi.

Ijod – bu faoliyat jarayoni bo'lib, u sifat jihatdan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadi yoki obyektiv jihatdan yangilik kiritish natijasida yuzaga keladi.

Ijodni oddiy ishlab chiqarishdan farqlovchi asosiy mezon – natijaning o'ziga xosligi va noyobligi. Ijod jarayonida muallif materialga oddiy mehnat harakatlari yoki mantiqiy xulosalar bilan izohlab bo'lmaydigan o'ziga xos imkoniyatlarni singdiradi. Yakuniy natijada u o'z shaxsiyati bilan bog'liq jihatlarni ifodalaydi. Aynan shu omil ijod mahsulotlarini oddiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan ajralib turadigan qo'shimcha qadriyatga ega qiladi.

Atrofdagi narsalarni yangi va odatiy bo'lmagan tarzda ko'ra bilish, shuningdek, muammolarga o'ziga xos yechim topish qobiliyati ijodiy fikrlash deb ataladi. Bu standart fikrlashga butunlay zid tushunchadir.

Ijodiy fikrlashning asosi yuqori darajadagi ijodiy tasavvurni o'z ichiga oladi. Tasavvur – bu "psixik jarayon bo'lib, unda haqiqiy hayotni aks ettiruvchi tasavvurlar qayta ishlanadi va shu asosda yangi tasavvurlar yaratiladi". Ijodiy tasavvur esa – bu faoliyat jarayonida yangi, ilgari mavjud bo'lmagan timsollarni mustaqil ravishda yaratishdir. Bu obyektiv jihatdan yangi (haqiqatda mavjud bo'lmagan obyektlar) yoki subyektiv jihatdan yangi (mazkur odam uchun yangilik) bo'lishi mumkin.

O.M.Dyachenkoning fikriga ko'ra, "tasavvur – bu nozik vositadir, uni o'zlashtirish bolaning o'z fikrlarini ifodalashiga, o'z g'oya va istaklarini izlab topishiga hamda ularni amalga oshirishiga imkon yaratadi". [5]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar jamiyatda ishtirok etishga intiladilar. Bola har qanday imkoniyatdan foydalanib, o'zining kattalardek fikrlashini, tushunishini va anglashini ko'rsatishga harakat qiladi. Ular kattalar suhbatlarida muntazam qatnashishni, o'z fikrini bildirishni va boshqalar bilan fikr almashishni xohlaydi. Bolaning idroki yanada ongli, yo'naltirilgan va tahliliy tus oladi. U tasodifiy harakatlar va ongli monitoring, ekspertiza hamda kuzatish o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi.

A.L.Venger katta yoshdagi maktabgacha bolalarning turli xil ta'lim turlari intellektual qobiliyatlari va faoliyat tashkil etilishiga qanday ta'sir qilishini o'rganib, quyidagi xulosaga kelgan: "Eng samarali ta'lim bolaga ikki tomonlama pozitsiyaga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi ta'limdir. Bu unga vaziyatni ikki xil nuqtai nazardan ko'rish imkonini yaratadi".[6]

Quyidagi metodlar katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlash darajasini aniqlash uchun, ularning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda tanlangan:


1. Metod "Rasmni yakunla" (E.P.Torrens [7]

Maqsad: Ijodiy fikrlash darajasini baholash;

Tavsif: Bolalar berilgan chizmalarni o'zlaricha davom ettirib, ularga nom qo'shishlari kerak.

2. Metod “Rasmga nom qo‘yish”. (E.P. Torrens) [8]

Maqsad:Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos va nostandart fikrlash darajasini aniqlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini baholash.



O‘tkazish tartibi:

• Bolalarga oldindan tanlangan rangli syujetli rasm ko‘rsatiladi.

• Ular 2-3 daqiqa davomida rasmdagi holatni o‘rganishadi.

• So‘ngra rasmga iloji boricha ko‘proq nom o‘ylab topishlari kerak.

• Qancha ko‘p nom o‘ylab topilsa, bolaning ijodiy tafakkur darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

• Agar bolalar qiyinchilikka duch kelsalar, syujet ustida muhokama o‘tkaziladi va yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

3. Metod “Nimaga o‘xshaydi”.

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos va noodatiy tafakkur darajasini aniqlash, ijodiy va nostandart fikrlash qobiliyatini baholash.

O‘tkazish tartibi:

Bolalarga turli xil shakllar ko‘rsatiladi va nimaga o‘xshashligi so‘raladi.

Masalan:



Bu shakl ko‘rsatiladi, shunda, bolalar 40 dan ortiq variant aytishadi. Lekin katta yoshdagi kishilar 10 tadan ortiq variant oshmas ekan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Zamonaviy tadqiqotchilar inson tafakkuri tabiatan ijodiy ekanligini va har bir inson yangi g‘oyalar yaratishga qodirligini tasdiqlashmoqda. Edvard de Bono ijodkorlik haqida shunday deydi: “Agar ijodiy fikrlash – bu ko‘nikma bo‘lsa, uni har kim egallashi, rivojlantirishi va qo‘llashi mumkin. Xuddi tennis o‘ynash, chang‘ida uchish yoki ovqat tayyorlash kabi ko‘nikmalarda bo‘lgani kabi, ba’zi odamlar bu sohada boshqalarga qaraganda yaxshiroq bo‘lishi mumkin. Ammo har kim bu ko‘nikmani amaliy darajada o‘zlashtirishi mumkin”. [9]


I.A.Levina katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligi va kognitiv farqlanish xususiyatlarini o‘rganish natijasida shuni aniqladiki, kreativ bolalarda umumiy intellekt ko‘rsatkichlari oddiy bolalarnikiga qaraganda yuqoriroq bo‘ladi.[10]

An’anaviy fikrlash – bu ma’lum qoidalarga ko‘ra fikrlash va harakat qilish, odatiy yo‘llarni tanlash, umumiy qabul qilingan maqsadlarga intilishdir. Nostandart fikrlashda esa insonni jamiyat va urf-odatlar tomonidan belgilangan chegaralardan chiqishga undaydi. Nostandart fikrlashga ega bo‘lgan insonlar hatto yaxshi yechim mavjud bo‘lsa ham, doimiy ravishda qo‘shimcha imkoniyatlarni qidirishadi. Chunki har doim undan ham yaxshiroq yechim topilishi mumkin.

Nostandart fikrlashga ega bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari:

• Ular “to‘g‘ri” harakat qilishni istamaydilar va bu nimaga kerakligini tushunmaydilar.

• Ular o‘z yo‘llarini tanlaydilar, va bu jamiyat tomonidan “boshqacha” deb qabul qilinadigan xatti-harakatlar, aslida, boshqa maqsadga erishishning o‘ziga xos usulidir.



• Ularning xatti-harakatlari kayfiyatga bog‘liq.
• Belgilangan qoidalarga moslashish ularga qiyin bo‘ladi yoki umuman qabul qilinmaydi.
• Ular bosimga duch kelganda qarshilik ko‘rsatishadi.
• Ularning ijodiy ishlari odatiy me’yorlardan farq qiladi va noodatiy bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nostandart fikrlashni rivojlantirish ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ijodiy tafakkur bolalarning mantiqiy, mustaqil va o‘zgacha fikrlash qobiliyatini oshirishga, shuningdek, muammolarga noodatiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yoshdagi bolalar atrof-muhitni kashf qilishga intilishadi, tasavvur va fantaziyaga boy bo‘lishadi. Shu boisdan, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish maxsus metod va texnikalarni qo‘llashni talab etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish ularning psixologik rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ-595-sonli Qonuni. – T., 2019
2. Выготский Л. С. Психология. М.: Эксмо-Пресс, 2010. 1008 с.
3. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей. М. : Академия, 2012. 320 с
4. Воспитание младшего школьника / Сост. Л. В. Ковинько. М. : Издательский центр Академия, 2010. 288 с
5. Дьяченко О. М. Развитие воображения дошкольников. М. : РАО, 2016. 197 с.
6. Венгер А.Л. Психологическая помощь детям и подросткам в чрезвычайных ситуациях (на опыте работы с жертвами террористического акта в Беслане) / А.Л. Венгер, Е.И. Морозова, В.А. Морозов // Московский психотерапевтический журнал. – 2006. – № 1. – С. 131–159.
7. *Torrance E. P.* Torrance tests of creative thinking. Normstechnical manual. Lexington, 1974.
8. *Torrance E. P.* Torrance tests of creative thinking. Directions manual and scoring guide. Figural test booklet A and B. Lexington, 1974.
9. Боно, Э. Думай! Пока еще не поздно [Текст] / Э.Боно; пер. с англ. В. Кузина. – М.: Питер, 2011. – 217 с.
10. Левина И.А. Взаимосвязь когнитивной дифференцированности, креативности и личностных особенностей на материале старшего дошкольного возраста: автореф. дисс... канд. психол. наук: 19.00.01. Москва. 2015. 201 с.

HUVAYDONING “ROHATI DIL” ASARI MUQADDIMA BOBLARINING BADIIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mumtoz asarlarning, xususan, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarining muqaddima boblari xususida fikr yuritiladi. Bu boblarning tuzilishi, ularning mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritilib, asar badiiyati (badiiy san’atlarlarning qo‘llanilishi), shoirning so‘z qo‘llash mahorati yoritilgan. Shu bilan birga asarning hamd qismida Allohning go‘zal sifatlarini tavsiflashda anbiyolar qissalariga ishoralar bo‘lib, maqolada bular analiz, sintez va germenevtik metodlar yordamida batafsil bayon etilib, tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *muqaddima boblar, basmala, hamd, na’t, tazmin talmeh (ishoraviy talmeh), badiiyat.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются вступительные главы классических произведений, в частности “Рохати Дил” Ходжаназара Хувайдо. Обсуждается структура этих глав, их содержание и сущность, а также художественность произведения (использование художественных приемов), мастерство поэта в использовании слова. В то же время в хвалебной части произведения при описании прекрасных качеств Бога имеются ссылки на рассказы пророков, которые подробно описаны и проанализированы с использованием методов анализа, синтеза и герменевтики.*

Ключевые слова: *вводная глава, басмала, хвала, нат, тазмин талме (значительный талме), артистизм.*

Annotation: *This article discusses the introductory chapters of classic works, in particular Khojanazar Huvaido‘s Rohati Dil. The structure of these chapters, their content and essence are discussed, as well as the artistry of the work (the use of artistic arts), the poet’s skill in using words. At the same time, in the praise part of the work, there are references to the stories of the prophets in the description of the beautiful attributes of God, and these are described and analyzed in detail using analysis, synthesis and hermeneutic methods.*

Keywords: *introductory chapter, basmala, praise, na’t, tazmin talmeh (significant talmeh), artistry.*

Kirish.

Mumtoz asarlar tuzilishiga e’tibor qaratsak, ularda muqaddima boblar naqadar ahamiyatli ekaniga guvoh bo‘lamiz. Hatto bu borada o‘ziga xos an’ana ham shakllangan. Asarlar muqaddimasi basmala, hamd, na’t, munojotlar, choriyorlarga bag‘ishlov shu kabi boblarni o‘z ichiga olgan. Shuningdek shoirning qisqacha tarjimayi holi, asar mazmuni, g‘oyasi, agar asar kimgadir bag‘ishlangan bo‘lsa ushbu inson ta’rif-u tavsifi ham muqaddimadan o‘rin olgan.

Barchamizga ma’lumki, deyarli barcha mumtoz asarlar Bismillahir Rohmanir Rohim (Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman) oyati bilan boshlangan. Bu xamsachilikda ham an’ana tusiga kirgan. Navoiy “Xamsa” sining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, u alohida basmala bobi sifatida shakllangan. Ya’ni Bismillahir Rohmanir Rohim oyatidagi har bir harfga alohida sharh, ta’rif va tavsif berilgan.

Basmala bobidan so‘ng Allohga hamd aytish bilan asar boshlangan. Hamd (arab. – ulug‘lanish, ta’rif, tavsif, madh) Allohga hamd aytish ya’ni uning go‘zal sifatlarini ta’rif va tavsif etishdir. Na’t

(arab. – maqtov, ta’rif) payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) sha’niga aytiladigan maqtov so‘zlar, ularning go‘zal xulqlarini madh etishdir. Shu bilan birga asar muqaddimasida choriyorlar ya’ni Abu Bakir Siddiq (r.a), Umar (r.a), Usmon (r.a), Ali (r.a) larga bag‘ishlovlar ham mavjud bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.


Mumtoz badiiy asarlar muqaddimaviy boblari, xususan, basmala bobi xususida maqolalar (“Xamsa” dostonlari muqaddimalari ontologik talqini), dissertatsiya ishi (“Xamsalarning ilk dostonlaridagi “Basmala” bobining qiyosiy tadqiqi”) yozilgan. Bu borada A.Hayitmetov, A.Rustamov, M.Muhiddinov, Z.Amonova, U.Jo‘raqulov, O.Davlatov, A.Malik va boshqa bir qator olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini alohida qayd etishimiz mumkin.

Maqolada o‘rganish obyekti sifatida Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarining muqaddimaviy boblari olingan ekan, muallif va uning ushbu asarini tadqiqot obyetki sifatida o‘rganilishiga e’tibor qaratsak. B.Murodovaning “Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo” maqolasida shoirning hayoti va ijodi, tarjimayi holiga alohida ahamiyat berilgan bo‘lsa, E.Ochilovning “Huvaydo ijodida Navoiy an’analari” maqolasida Navoiy adabiy merosining Huvaydo ijodiga ta’siri o‘rganilgan. Shu bilan birga H.Eshkuziyevaning “Huvaydoning “Rohati dil” dostoni tarkibi” va D.Telmanovaning “Rohati dil” dostonidagi hikoyalarning ma’rifiy-adabiy qimmati va badiiyati” maqolalarida esa o‘rganish obyekti sifatida Huvaydoning “Rohati dil” dostoni olingan bo‘lib, maqolalarda asarning tuzilishi, g‘oya, mazmuni va badiiyati yoritilgan. Shuningdek, Huvaydoning hayoti, ijodi, xususan “Rohati dil” dostonini hozirda ko‘plab tadqiqotchilar o‘rganishmoqda, tadqiq etishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada esa “Rohati dil” dostoning muqaddima boblari tahlil va tadqiq etilgan. Dostonning tarkibi 30 bobdan iborat bo‘lib, hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. [4;98] Asarning muqaddima boblari quyidagi tartibda:

1-chizma



Birinchi bob Allohga hamd hamda barcha mumtoz asarlar kabi Bismillahir Rohmanir Rohim (Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman) oyati bilan boshlangan.

Ikkinchi bob Rasulloh (s.a.v) ga go‘zal ta’rif va tasniflar asosidagi na’t bobi hisoblanadi. Ushbu bobda payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) ning oxirgi nafaslarida ham “Ummatim” deya o‘z ummatlarini o‘ylagani ular uchun qayg‘urgani ajoyib va ta’sirli shaklda ifoda etiladi.

Yemay to‘yg‘uncha dunyo ne’matini,
Tilab doim gunahkor ummatini.
Zi avval to ba oxir ummate deb,
Jahondin o‘tti ul ummat g‘amin yeb [1;10].

Uchinchi bob “Hikoyati tobuti Jibriyl alayhissalom” bo‘lib, ushbu bobda Jabroyil (a.s) ning Rasulloh (s.a.v) ga tobut keltirishlari hikoya qilinadi. Bu bob mazmuni ham yuqoridagi na’t mazmuniga yaqin bo‘lib, payg‘ambarimizning ummatlarini shafoat qilishlari haqida bo‘lib, bob nihoyasiga yaqin muallif:

Bo‘libsan nafsi shaytonning asiri
Iching bo‘lmish gunoh domig‘a sayre
Qayu yuz birla oldidan o‘tarsen
Na qildim deb shafoat ko‘z tutarsen [1;11-12].

deya yo‘ldan adashgan insonlarni hidoyatga chaqiradi.

Keyingi boblarda Abu Bakr Siddiq (r.a), Umar-ul Foruq (r.a), Usmon (r.a), Ali ibn Abu Tolib (r.a) lar ya’ni choriyorlarga bag‘ishlovlar berilgan. Shu bilan birga Muhammad (s.a.v) ning nabiralari (Ali (r.a) va Fotima (r.a) larning farzandlari) Hasan va Husayn (r.a) lar ta’rifi bayon etiladi.

Muqaddimaning so‘nggi bobida muallif ismi, nasl-nasabi, kitobni yozishdan maqsad ifodalangan. Ushbu bob:

Kitobimning otidur “Rohati dil”
Erur har bir so‘zi tanbehi g‘ofil. [1;16]

deya boshlanib, bob so‘ngida asardagi xato va kamchiliklar uchun muallif kitobxonlarga uzrini aytadi.

Tahlil va natijalar.

Asarning hamd bobiga alohida e’tibor qaratsak, unda boshqa hamdlardan o‘zgacha bir uslubni ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘zgachalik shundaki, Allohning go‘zal sifatlarini madh etish barobarida muallif anbiyolar qissalariga ham ishora qilib o‘tadi. Buni tazmin talmeh deya atashimiz ham mumkin bo‘lib, sababi hamd bobida payg‘ambarlarning nomlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmasdan ular nomi va hikoyalariga ishora qilinadi. Quyida ularni alohida tahlil etamiz.

Birovning qavmiga Sultoni molik,
Yubordi bodi sarsar bo‘ldi holik. [1;7]

Ushbu baytda Hud (a.s) qavmi ya’ni Od qavmiga yuborilgan azob haqida gap ketmoqda. Hud (a.s) qavmini iymonga chaqiradi, biroq qancha urinmasin ular iymon keltirishmaydi. Shunda ushbu qavm ustida yetti kecha-yu yetti kunduz qattiq shamol esadi (Oyat) “Va ammo Od (qavmi) bo‘lsa, ular nihoyatda tez esadigan sovuq shamol bilan halok qilindilar”.

Duosidin birovning berdi to‘fon
Qirildi yer yuzida qolmadi jon.
Anikim saqladi xalloqi dovar
O‘shal suv etakini qilmadi tar. [1;6]

Nuh (a.s) Mag‘ribdan Mashriqqa qadar barcha xaloyiqning payg‘ambari edi, ammo ellik kam ming yil iymonga da’vat qilsa-da atigi sakson kishi musulmon bo‘ladi. Kofirlar Nuh (a.s) ga ko‘p jabr qilishadi, qiynab zulm qilshadi. Shunda “Parvardigoro yer yuzida birorta kofirni qoldirmagin”,

– deya duo qiladi. Alloh taolo rasulining duosini ijobat qiladi. Nuh (a.s) kema yasaydilar, u uch qavat edi (birinchi qavatida chorva hayvonlari, ikkinchisida Nuh qavmi bilan, uchinchisida qush-u qurtlar joy olgandi). Yer yuzini to‘fon bosadi, barcha tirik jon halok bo‘ladi. Nuh (a.s) va uning kemasidagilargina omon qolishadi.

Birovning haqlig‘ig‘a hukm qildi
Qaro toshdin bolalig‘ teva tug‘di. [1;6]

Solih (a.s) o‘z qavmini iymonga chaqirganda, ular Solih (a.s) dan mo‘jiza ko‘rsatishini ya’ni toshdan tuya chiqarishini so‘rashadi, Solih (a.s) duo qiladilar, shunda tosh tebranib undan tuya chiqadi va biroz o‘tmay bo‘talaydi. Yuqoridagi baytda aynan shu voqeaga ishora qilinadi.

Pichoq burrandalikni qildi angez
Birovning bo‘g‘ozig‘a bo‘lmadi tez. [1;6]

Baytda Ibrohim halilullohning Allohning amri bilan farzandi Ismoil (a.s)ni qurbonlik qilishi haqida so‘z bormoqda. Ibrohim halilluoh pichoqni Ismoil (a.s) ning bo‘g‘ziga olib borib, harchand urinmasin pichoq kesmaydi, ya’ni pichoq ilohiy amrga bo‘ysunadi. Ismoil (a.s) shu tarzda tirik qoladilar va Ibrohim halilluloh Allohning bu sinovidan ham o‘tadilar.

Qilurman dedi me’da hazm har qut,
Birovning nega hozim bo‘lmadi xut. [1;6]

Bu misralar bizga Yunus (a.s) qissalarini eslatadi. Yunus (a.s) ham boshqa payg‘ambarlar kabi insonlarni Allohni tanish, faqat ungagina iymon keltirishga chaqiradilar. Ammo ular iymon keltirishmaydi. Ularga iymon keltirishmasa ma’lum muddatdan keyin Alloh tomonidan azob kelishini aytib, ogohlantirsalar-da, ushbu qavm quloq solmaydi. Shunda Yunus (a.s): “Vazifamni ado etdim, endi gunohkorlar ichida qolmasligim kerak” degan o‘yda shaharni tark etadilar. Bir kemaga chiqadilar. Kema dengizga chiqqach kuchli to‘lqinlar ko‘tarilib, g‘arq bo‘lish xavfi tug‘iladi. Kemadagilar ichimizda bir gunohkor bor, qur’a tashlab, kimga chiqsa uni qurbon qilamiz deya kelishishadi. Qur’a Yunus (a.s) tushadi va u zotni dengizga tashlab yuborishadi. Alloh taoloning amri bilan u zotni ulkan baliq yutib yuboradi va hazm qilmasdan qornida olib yuradi. Shunda Yunus alayhissalom xatolarini tushunib, baliqning qornida turib yolborib, zorlanib Alloh taologa duo qiladilar. Alloh taolo duolarini ijobat qilib, baliqqa amr qiladi va u Yunus alayhissalomni ozor yetkazmasdan ochiqlik joyga olib chiqib tashlaydi.

Birovning qavmini Xalloq bechun
Sahar vaqtinda qildi ostin-ustun. [1;7]

Bunda Lut (a.s) qavmiga kelgan azob nazarda tutilgan deya xulosaga kelishimiz mumkin. Boisi oyatda: “Ul mamlakatni ostin-ustun qilib yubordik. Ularning ustilaridan sopol toshlarni ustma-ust yog‘dirdik. Parvardigor nazarida u toshlar bilan qaysi kofir nishonga olingan edi va bu toshlar zolimlardan uzoq emas edi”, deyiladi. N.Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Lut (a.s) ning qissalarida bu voqea tong payti bo‘lganligi aytiladi.

– Biz bularni halok qilib seni qutqarmoq uchun kelganmiz, – dedi Jabroil (a.s).

– Qachon halok qilursan? – so‘radi Lut (a.s).

– Tong otar chog‘da. [2;65-66]

Ushbu manbalar yuqoridagi fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Har qanday badiiy asar ikki asosdan: shakl va mazmun uyg‘unligidan iborat bo‘lishi lozim. Bu ikki asos asarning to‘laqonli bo‘lishi, umrboqiy va qimmatli bo‘lishini ta’minlaydi. Xo‘janazar Hu-

vaydoninig “Rohati dil” asarida ham shakl va mazmun hamohangligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida biz asarning muqaddima boblarida ma’no va mazmuniga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsak, endi esa uning badiiyatiga to‘xtalib o‘tamiz. Asar nazmiy ya’ni she’riy yo‘lda bitilgan bo‘lib, bu haqida muallif:

Ko‘ngul shahri yagona azm qildim,
Kitobim nasr edi, man nazm qildim. [1;16]

deydi. Asarda ko‘plab she’riy san’atlardan foydalanilgan bo‘lib, bu unsurlar asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Tazod, takrir, tajnis, tanosub, talmeh, tashbeh, tajohuli orif, nido, harfiy san’atlar shular jumlasidandir.

Muqaddima boblarda tazod ya’ni zid ma’noli so‘zlarni qo‘llash san’atidan unumli foydalanilgan bo‘lib, misralardagi yaxshi-yamon, oson-mashaqqat, zamin-u osmon, avval-oxir, og‘ir-yengil, bihisht-do‘zax singari so‘zlar ushbu san’atning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Arab alifbosining imkoniyatlari, so‘zlarning yozilishi bilan bog‘liq holda badiiy san’at yaratish mumtoz adabiyotda harfiy san’atlarga asoslangan kitobot san’atini yuzaga keltiradi. [4;204] “Rohati dil” asarining hamd qismida ham ushbu san’atdan foydalanilgan.

Tavonodurki, ul bir turfat-ul ayn,
Ichinda kof-u nundin qildi kavnayn. [1;6]

Baytda “kof” va “nun” harflaridan “kavnayn” – ikki dunyo (bu dunyo va oxirat) yaraldi, ya’ni baytdan Alloh taolo bir lahzada ikki dunyoni yaratdi degan ma’noni anglash mumkin.

Na bihisht-u do‘zax-u, na Arshi a’zam,
Na jin-u, na malak, na nasli Odam. [1;8]

Ushbu baytda bihisht va do‘zax so‘zlari tazod san’atini, jin, malak, odam nasli singari so‘zlar esa tanosub san’atini yuzaga keltirgan.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarining muqaddima boblari ham shakl ham mazmun jihatdan to‘la-to‘kis, puxta yaratilgan bo‘lib, muqaddimaviy boblar kompozitsiyasi an’anaviy ko‘rinishda bo‘lsa-da bir qancha o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Muqaddima boblar badiiyatini oshirish maqsadida she’riy san’atlarning, xususan, hamd qismida tazmin talmeh yoxud ishoraviy talmehlardan foydalanish asarga o‘zga xos joziba baxsh etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.Huvaydo “Rohati dil” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti Toshkent – 1994 y.
2. N.Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” www.ziyonet.com kutubxonasi 65-66 b.
3. M.Abdullayeva “Mumtoz tarixiy poetika” Toshkent – 2023
4. Y.Jovliyeva, R.Rasulova “Mumtoz adabiyotda harfiy san’atlarning qo‘llanilishi va ahamiyati” Interpretation and Researches, 2023
5. H.Eshkuziyeva “Huvaydoning “Rohati dil” dostoni tarkibi” VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2023
6. D.Telmanova “Rohati dil” dostonidagi hikoyalarning ma’rifiy-adabiy qimmati va badiiyati” Journal of new century innovations 2023
7. Ro‘zmatzoda Q. Xojanazar Huvaydo va tasavvuf. “Sirli Olam” jurnali, 2001, 3- son
8. www.wikipedia.uz
9. www.ziyonet.com
10. www.arxiv.uz

III. TEXNIKA FANLARI



YOSHLARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI FAOLLIKLARINI RIVOJLANTIRISH

Hokimov Bosimjon Shuhrat o‘g‘li
Toshkent tibbiyot akademiyasi
talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar rivojidagi roli va ahamiyati yoritilgan. Yosh avlodning raqamli texnologiyalar sohasida innovatsion fikrlashi, tezkor moslashuvchanligi va yangi g‘oyalar bilan chiqish qobiliyati tahlil qilinadi. Maqolada sun’iy intellekt, dasturlash, kiberxavfsizlik va blokcheyn kabi yo‘nalishlarda yoshlarning hissasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda yoshlarning startaplar yaratishdagi faolligi va ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasi misollar bilan ochib beriladi. Tadqiqot xulosalarida innovatsion ta’lim platformalarini rivojlantirish hamda yoshlarning IT sohasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashning zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, ID texnologiyalar, Innovatsiya, Raqamli iqtisodiyot, Startaplar, Sun’iy intellect, Kiberxavfsizlik, Dasturlash*

Abstract: *This article highlights the role and importance of young people in the development of information and software (IT) technologies. The innovative thinking, rapid adaptability, and ability to come up with new ideas of the younger generation in the field of digital technologies are analyzed. The article highlights the contribution of young people in areas such as artificial intelligence, programming, cybersecurity, and blockchain. It also illustrates the activity of young people in creating startups in the digital economy and their contribution to the country’s economic development with examples. The conclusions of the study emphasize the need to develop innovative educational platforms and support youth initiatives in the IT sector.*

Keywords: *Youth, ID technologies, Innovation, Digital economy, Startups, Artificial intelligence, Cybersecurity, Programming*

Аннотация: *В статье подчеркивается роль и значение молодежи в развитии информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Будет проанализировано инновационное мышление, быстрая адаптивность и способность предлагать новые идеи молодого поколения в сфере цифровых технологий. В статье подчеркивается вклад молодежи в такие области, как искусственный интеллект, программирование, кибербезопасность и блокчейн. Также показана активность молодежи по созданию стартапов в цифровой экономике и их вклад в экономическое развитие страны. Результаты исследования подчеркивают необходимость разработки инновационных образовательных платформ и поддержки молодежных инициатив в сфере ИТ.*

Ключевые слова: *Молодежь, ID-технологии, Инновации, Цифровая экономика, Стартапы, Искусственный интеллект, Кибербезопасность, Программирование.*

Kirish.

Hozirgi raqamli davrda informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Ushbu sohaning rivojida yoshlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Ularning innovatsion fikrlashi, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirishi va global texnologik rivojlanishga faol hissa

qo‘shishi raqamli iqtisodiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Shu bois yoshlarni texnologiyalar sohasiga keng jalb etish, ularning salohiyatini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalaga aylangan. Mazkur maqolaning maqsadi – yoshlarning ID texnologiyalar rivojidagi ahamiyatini yoritish, ularning texnologik yangiliklarni yaratish va milliy iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini tahlil qilishdir[1]. Vazifalari:

Yoshlarning ID texnologiyalar sohasida innovatsion yechimlar yaratishdagi faoliyatini o‘rganish;

Raqamli iqtisodiyotda yoshlarning ishtiroki va ularning texnologik taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini tahlil qilish;

Sun’iy intellekt, blokcheyn, dasturlash va kiberxavfsizlik kabi sohalardagi yoshlarning yutuqlarini aniqlash;

Yoshlarni texnologiyalar sohasida qo‘llab-quvvatlash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish[2].

Zamonaviy texnologiyalar rivoji hayotning barcha jabhalarini qamrab olayotgan bir paytda yoshlarning bu jarayondagi o‘rni va ishtiroki tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar sohasida yosh avlodning ijodkorligi va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishi yangi innovatsiyalarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ushbu jarayon bir qator muammolar bilan ham yuzma-yuz kelmoqda.

Mavzuning muammosi shundan iboratki, ko‘plab yoshlar yetarli bilim va tajriba yo‘qligi sababli global texnologik jarayonlarga to‘laqonli jalb etilolmayapti. Ta’lim platformalarining yetarlicha rivojlanmagani, amaliy tajriba imkoniyatlarining cheklanganligi, startaplarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning sustligi yoshlarning texnologiyalar rivojiga qo‘shayotgan hissasini to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, xalqaro bozorda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularni yangi texnologiyalarga jalb qilish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu sababli yoshlarning ID texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish va ularning texnologik rivojlanishga hissa qo‘shishida duch kelayotgan to‘siqlarni bartaraf etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi[3][4].

Mazkur mavzuning tanlanish asosi yoshlarning texnologik rivojlanishdagi faolligini oshirish, ularning raqamli iqtisodiyotda tutgan o‘rnini yanada mustahkamlash hamda texnologik taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt, blokcheyn, kiberxavfsizlik va dasturlash kabi sohalarda yoshlarning ishtirokini kuchaytirish zarurati mavjud. Shuningdek, ta’lim tizimini texnologiyalar bilan integratsiya qilish, yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash va startaplarini moliyalashtirish masalalari dolzarbdir. Shu sababli yoshlarning ID texnologiyalar rivojidagi ahamiyatini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi[6].

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, yoshlarning ID texnologiyalar sohasidagi faolligini o‘rganish orqali innovatsion yechimlar, yangi dasturiy platformalar va samarali ish jarayonlarini rivojlantirishga asos bo‘luvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, yoshlarning texnologik startaplarda ishtiroki va raqamli iqtisodiyotda tutgan o‘rnini tahlil qilish milliy innovatsion tizimni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu mavzuni chuqur tadqiq qilish kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa ilg‘or texnologiyalar bo‘yicha yosh mutaxassislar tayyorlash jarayonini yanada samarali qilishga ilmiy asos yaratadi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar va yoshlarning bu sohadagi ishtiroki haqidagi ilmiy ishlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ID texnologiyalar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularni kreativ fikrlashga jalb etish va global raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muhim vosita sifatida baholanadi [7].

Adabiyotlarda ID texnologiyalarning turli yo‘nalishlari, jumladan, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, dasturlash texnologiyalari va blokcheyn tizimlarida yoshlarning ishtiroki keng o‘rganilgan. Xususan:

Raqamli ta’lim platformalari: Ko‘plab tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar orqali yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ta’kidlangan.

Startap ekotizimlari: Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda yoshlarning texnologik startaplar yaratishdagi faolligi o‘rganilgan.

Davlat siyosatlari: Ayrim tadqiqotlar yoshlarni IT sohasiga jalb qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlarining samaradorligini tahlil qilgan.

Global texnologik integratsiya: Yoshlarning xalqaro texnologik bozorda raqobatbardoshligini oshirish masalalari ham adabiyotlarda ko‘tarilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda yoshlarni ID texnologiyalar sohasiga jalb qilish mexanizmlari va innovatsion startaplarni moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjudligi aniqlanmoqda. Mavzuga oid bu kabi tahlillar maqolaning dolzarb masalalarini yoritish va muayyan ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.



1-rasm. “Yoshlarning innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash yarmarkasi tashkil etildi” (Manba: Kun.uz sayti, Manzil: https://kun.uz/uz/77830487)

Mazkur tadqiqotda yoshlarning informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar rivojidagi ahamiyatini o‘rganish va tahlil qilish uchun kompleks metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oldi:

1. Adabiyotlarni o‘rganish: Mavzuga oid ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiya materiallari, statistik ma’lumotlar va davlat dasturlari tahlil qilindi. Bu bosqichda ID texnologiyalarning rivoji va yoshlarning ishtiroki haqida mavjud bilimlar shakllantirildi.

2. Tahliliy metod: Yoshlarning texnologik startaplar, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va dasturlash sohasidagi faoliyati hamda ularning texnologiyalarga qo‘shayotgan hissasi statistik va sifat jihatdan tahlil qilindi.

3. Intervyu va so‘rovnoma usuli: Sohada faoliyat yurituvchi yosh mutaxassislar, texnologiya markazlari vakillari va IT ekspertlari bilan suhbatlar o‘tkazildi. So‘rovnomalar orqali yoshlarning ID texnologiyalarga qiziqishi, duch kelayotgan muammolari va ularga ehtiyojlari aniqlandi.

4. Taqqoslash usuli: Rivojlangan davlatlarda yoshlarning texnologiyalar rivojidagi o‘rni bilan milliy tajriba qiyosiy tahlil qilindi.

5. Tavsiyalar ishlab chiqish: Tadqiqot natijalari asosida yoshlarni texnologiyalar sohasida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologiya asosida maqola ilmiy xulosalar chiqarishga va muammolar yechimiga yo‘naltirilgan tavsiyalar berishga xizmat qiladi[9].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, informatsion-dasturiy (ID) texnologiyalar sohasida yoshlarning ishtiroki texnologik taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda yosh mutaxassislarning innovatsion yechimlar yaratish, startaplar asosida texnologiyalarni rivojlantirish hamda global texnologik bozorga chiqishdagi faolligi aniqlandi.

1. Yoshlarning texnologiyalar rivojidagi ishtiroki: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar texnologiyalarni tezda o‘zlashtiradi va sun’iy intellekt, blokcheyn, dasturlash, kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlarda muhim yutuqlarga erishmoqda. Ularning ijodiy yondashuvlari ko‘plab innovatsion startap loyihalarida namoyon bo‘lmoqda.

2. Ta’lim tizimidagi kamchiliklar: Ko‘plab yoshlar amaliy bilimlarni yetarli darajada ololmayotgani sababli texnologik jarayonlarga to‘laqonli jalb qilinmayapti. O‘quv dasturlarining amaliyotga yo‘naltirilganligi pastligi bu sohadagi jiddiy muammolardan biridir.

3. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muammolari: Innovatsion startaplarni moliyalashtirish masalasi rivojlanayotgan davlatlarda dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Yoshlar tomonidan ilgari surilgan ko‘plab texnologik g‘oyalar investitsiyalar yetishmasligi sababli amalga oshirilmay qolmoqda.

4. Kiberxavfsizlik masalalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning kiberxavfsizlik sohasida chuqur bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Bu yo‘nalishda yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi texnologik taraqqiyot uchun xavf tug‘dirmoqda.

5. Xalqaro tajriba va raqobatbardoshlik: Global texnologik bozor tahlili yoshlarning xalqaro darajada tajriba almashishi va yangi texnologiyalarga jalb qilinishi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida yoshlarni texnologiyalar rivojiga keng jalb qilish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Amaliyotga yo‘naltirilgan texnologik ta’lim dasturlarini joriy etish;

Yoshlarning texnologik startaplarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish;

Innovatsion loyihalar uchun grant dasturlarini kengaytirish;

Kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish[11][12].

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar ID texnologiyalar rivojida muhim o‘rin egallab, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Ularning innovatsion fikrlashi, texnologik startaplar yaratishdagi faolligi va zamonaviy texnologiyalarni tez o‘zlashtirish qobiliyati texnologik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning to‘laqonli rivojlanishi uchun bir qator muammolar, jumladan, ta’lim tizimining amaliyotga yo‘naltirilganligi pastligi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yetishmasligi va kiberxavfsizlik yo‘nalishidagi mutaxassislar tanqisligi dolzarb muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Mening taklifim shundan iboratki:

1. Ta’lim tizimini takomillashtirish:

Amaliyotga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim dasturlarini joriy etish;

Dasturlash, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus kurslarni kengaytirish;

Yoshlar uchun texnologik laboratoriyalar va inkubatsiya markazlarini tashkil qilish.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash:

Yoshlarning innovatsion startaplari uchun davlat va xususiy sektor tomonidan grant va investitsiyalar ajratish tizimini rivojlantirish;

Venchur kapital bozorini rivojlantirish orqali yosh tadbirkorlarni rag‘batlantirish.

3. Xalqaro tajriba almashinuvi:

Yosh mutaxassislarni xalqaro texnologiya konferensiyalari va tanlovlarda ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;

Chet el texnologik kompaniyalari bilan hamkorlik dasturlarini kengaytirish.

4. Innovatsiyalarni rivojlantirish:

Sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish;

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus fondlar tashkil qilish.

5. Kiberxavfsizlikni mustahkamlash:

Yosh mutaxassislar uchun kiberxavfsizlik yo‘nalishida maxsus tayyorgarlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

Kiberxavfsizlik bo‘yicha mahalliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish uchun platformalar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov S. A. – “Raqamli texnologiyalar va ta’lim innovatsiyalari”. O‘zMU Axborot texnologiyalari jurnali. Toshkent, 2022. – 45-52 betlar

2. Toshmatova G. R. – “ID texnologiyalarning yoshlarning professional rivojlanishidagi roli”. Innovatsion ta’lim muammolari jurnali. Samarqand, 2021. – 78-85 betlar.

3. Akramov J. T. – “Sun’iy intellekt va startap loyihalarda yoshlar faolligi”. Ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plami. Toshkent, 2023. – 12-18 betlar.

4. Saidov R. F. – “Axborot texnologiyalari va yoshlar ta’limi”. Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari jurnali. Buxoro, 2022. – 39-45 betlar.

5. Qodirov M. A. – “Yoshlar innovatsiyalarining ID texnologiyalar bilan integratsiyasi”. Texnologiyalar rivoji jurnali. Farg‘ona, 2021. – 22-30 betlar.

6. Rahmonov N. U. – “Kiberxavfsizlikda yosh mutaxassislarning roli”. Axborot xavfsizligi jurnali. Toshkent, 2023. – 17-24 betlar.

7. Islomova D. T. – “Raqamli texnologiyalarning innovatsiyalar rivojidagi ahamiyati”. O‘zbekiston innovatsiyalar akademiyasi nashri. Nukus, 2020. – 88-96 betlar.

8. Abdullayev Sh. T. – “Startap ekotizimida yoshlarning ishtiroki”. Innovatsion texnologiyalar jurnali. Qarshi, 2021. – 35-42 betlar.

9. Tursunov A. E. – “ID texnologiyalar sohasida yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash”. Ta’lim va fan rivoji jurnali. Andijon, 2022. – 55-62 betlar.

10. Yoqubov N. S. – “Yosh dasturchilar loyihalarining ijtimoiy ahamiyati”. Zamonaviy IT texnologiyalar nashri. Termiz, 2023. – 90-97 betlar.

11. Xolmirzaeva Z. A. – “Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi roli”. Texnologik rivojlanish jurnali. Namangan, 2021. – 48-56 betlar.

12. Ibrohimov B. T. – “Yoshlarning IT sohasidagi innovatsion tashabbuslari”. Axborot tizimlari rivoji jurnali. Toshkent, 2022. – 28-35 betlar.

AXBOROT HUJUMLARI MODELLARINI QURISH USULI

Majidov Anvarxon Mahmudxon o‘g‘li,
O‘zbekiston milliy unversiteti
magistranti

Annotatsiya: *Axborot hujumlarini formal modellashtirish bo‘yicha mavjud yondashuvlar ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Axborot hujumlari modellariga qo‘yiladigan asosiy talablar shakllantirilgan. Shakllantirilgan talablarni inobatga olgan holda, boshqaruvchi E-tarmoq o‘tishlari va ko‘p agentli boshqaruv asosida axborot hujumlari modellarini qurish usuli taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hujum, modellashtirish, axborot hujumi modeli, boshqaruvchi E-tarmoq, agent, ko‘p agentli boshqaruv.*

Аннотация: *Рассмотрены и проанализированы существующие подходы к формальному моделированию информационных атак. Сформулированы основные требования к моделям информационных атак. С учетом сформулированных требований предложен метод построения моделей информационных атак на основе управляемых переходов Е-сети и многоагентного управления.*

Ключевые слова: *атака, моделирование, модель информационной атаки, управляющая Е-сеть, агент, мультиагентное управление.*

Annotation: *Existing approaches to the formal modeling of information attacks are reviewed and analyzed. The fundamental requirements for information attack models are formulated. Considering these formulated requirements, a method for building information attack models based on controllable E-net transitions and multi-agent management is proposed.*

Keywords: *attack, modeling, information attack model, controlling E-network, agent, multi-agent control.*

Kirish.

Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi eng dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bu kompyuter tizimlari va tarmoqlarga qaratilgan hujumlarni aniqlash va ulardan himoyalanish usullarini ishlab chiqishdir. Bunday usullarni ishlab chiqish jarayonida doimiy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi talab etiladi. Bu tadqiqotlar axborot hujumlarining mumkin bo‘lgan turlarini oldindan o‘rganish va ularni batafsil tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Odatda, bunday tadqiqotlar axborot hujumlarining muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi modellar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu modellar hujumlarning xavflilik darajasini baholash, mavjud va yangi ishlab chiqilgan himoya vositalarining samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Axborot hujumlarini modellashtirishda B. Shnayyer tomonidan ishlab chiqilgan hujum daraxtlari asosidagi formal model keng qo‘llaniladi [1]. Hujum daraxtlari tizimga nisbatan mavjud tahdidlarni hamda ushbu tahdidlarni amalga oshirishga qaratilgan hujumlarni tasvirlovchi kontseptual diagrammalardir. Ushbu modelning asosi quyidagi ierarxik daraxt tuzilishi orqali ifodalanadi:

$$G = (L, E),\ L = \{li\}$$

bu yerda: $L = \{li\}$– daraxtning tugunlari to‘plami; $E = \{es\}$, $E \quad L^2$ – daraxt yoylari to‘plami.

Har bir tugun G grafigida tajovuzkorning muayyan harakatini aks ettiradi, daraxtning ildizi esa axborot hujumining yakuniy maqsadini belgilaydi. Ushbu maqsad amalga oshganda, avtomatlashtirilgan tizim (AT) uchun sezilarli zarar yetkazilishi mumkin. Grafikda hujumning turli mumkin bo‘lgan yo‘llari to‘plami $Gp = \{gpi\}$, gpi orqali aniqlanadi. Bu yerda har bir yo‘l: ($e1$, $e2$,..., en)shak-

lida bo‘lib, har bir yoy $ei = (li, l j)$, $li, l j \quad L$. shartini qanoatlantiradi. Bunda *li* yoyning boshlang‘ich tuguni bo‘lsa, *li*+1 keyingi tugundir. Yo‘lning boshlang‘ich tugunlari daraxtning barglari, yakuniy tuguni esa ildiz bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlarning tahlili.

Manba [2] da hujumlarni modellashtirishning formal usuli taklif qilingan bo‘lib, u hujum daraxti modelini kengaytirish va aniqlashtirish asosida yaratilgan. Ushbu modelga ikki asosiy atribut kiritilgan: yashash vaqti (hujum bosqichlari orasidagi vaqt bog‘liqliklarini aks ettiradi) va ishonchlilik darajasi (maqsadga erishishni baholaydi). Ammo ushbu model ham hujum daraxti modeli bilan bir xil kamchiliklarga ega.

Hujum graflari modeli [3] ham hujum daraxtlari modelining kengaytirilgan shakli hisoblanadi. Hujum graflari hujumni tasvirlash uchun maxsus vosita sifatida xizmat qiladi. Graf tugunlari hujum bosqichlarini emas, balki tarmoq tugunlari, dastur jarayonlari, konfiguratsiya fayllari va kod segmentlari kabi elementlarni ifodalaydi. Ushbu model ancha keng tarqalgan, chunki u yaxshi o‘rganilgan matematik asos – chegaralangan avtomatlarga asoslangan va nisbatan sodda. Tugunlar orasidagi o‘tishlar aniq qoidalar asosida amalga oshiriladi, bunda tizim parametrlarining joriy qiymatlari hisobga olinishi mumkin. Hujum graflari mavjud xavfsizlik buzilishlarining murakkabligini baholash uchun juda mos keladi, lekin hujumlarni modellashtirish va tahlil qilish uchun unchalik mos emas. Ushbu modelning kamchiliklariga boshqariladigan shoxlanish (branching) va hujum dinamikasini modellashtirish mexanizmlarining yo‘qligi kiradi. Formal tillar va ontologiyalar asosidagi modellar [4,5] ham mavjud. Formal ontologiya – bu daraxt bo‘lib, tahdidlar formal til belgilarining ketma-ketligi sifatida tavsiflanadi. Bu ketma-ketliklar formal grammatika yordamida aniqlanadi. Hujum ssenariysining umumlashtirilgan tavsifi stoxastik grammatika orqali quyidagicha beriladi:

$$GA = VN, VT, S, P, \qquad (1)$$

Bu yerda: *VN* – hujum bosqichlarini ifodalovchi no-terminal belgilar to‘plami, *VT* – terminal belgilar to‘plami, S – hujum ssenariysining boshlang‘ich belgisi, P – qoidalar to‘plami, hujum ssenariysini batafsil tavsiflash uchun xizmat qiladi

$$\alpha_i \xrightarrow{P_{ij}} \beta_{ij}, \quad i = 1,\ldots,n_i, \quad i = 1,\ldots,k, \qquad (2)$$

Har bir almashtirish aniq ehtimollik bilan amalga oshiriladi:

Bu yerda $_i$ – no-terminal belgi, β_{ij} -terminal va no-terminal belgilar qatori. Ushbu model B. Shnayyerning hujum daraxti modeliga juda o‘xshash bo‘lib, uni terminal va no-terminal belgilar to‘plamlarini kengaytirish, shuningdek, chiqarish qoidalarini qo‘shish orqali kengaytirish mumkin. Model matn yoki grafik shaklda tasvirlanishi mumkin. Biroq, asosiy kamchiligi shundaki, u tizimning zaifligini baholash imkoniyatiga ega emas.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ko‘p agentli tizimlarga asoslangan modellar alohida o‘ringa ega. Men tomonimdan taklif qilingan ushbu yondashuvda kiber makon turli dastur agentlari o‘zaro ta’sir etadigan muhit sifatida qaraladi. Bunda kamida ikkita agent guruhi ajratiladi: 1.Hujumchi agentlari, 2. Himoya agentlari

Ushbu agentlarning jamoaviy ishlash tamoyili umumiy niyatlar nazariyasi, bo‘lishilgan reja nazariyasi va ko‘p agentli tizimlarni dasturiy amalga oshirish tajribalariga asoslangan. Bu yondashuv kiber tahdidlarning dinamik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.


Umuman olganda, axborot hujumi uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin [6]:

1. Ma’lumot to‘plash – asosiy bosqich. Bu bosqichda hujum nishoni tanlanadi, tizim haqida ma’lumot (operatsion tizim, konfiguratsiya, xizmatlar) to‘planadi, tizimning eng zaif joylari aniqlanadi va hujum turi tanlanadi.

2. Hujumni amalga oshirish – bu bosqichda hujumchi nishon qilingan axborot tizimi tugunlariga

ruxsatsiz kirish (RK) oladi. Agar hujum faol xarakterga ega bo‘lsa [7], ushbu bosqich hujum maqsadlarini amalga oshirish bilan birga kechadi

3. Hujumni rivojlantirish bosqichi – hujum davom ettirilishi uchun boshqa tizim tugunlariga hujum qilinadi. Agar hujum passiv xarakterga ega bo‘lsa [8], ushbu bosqich hujumning yakunlanish bosqichi hisoblanadi.



1-rasm. Kompyuter tarmog‘i axborot hujumining hayotiy tsikli.

Ba’zi hujum turlarini, masalan, “tarqatilgan xizmat ko‘rsatishdan bosh tortish” (DDoS) hujumini modellashtirishda qo‘shimcha parametrlarni aniqlash talab etiladi, jumladan:

• Hujum turi (semantik hujum (TCP SYN, Incorrect packets, Hard request va boshqalar) yoki “qo‘pol kuch” usulidagi hujum – masalan, UDP/ICMP flood, smurf/fraggle va boshqalar);

• Hujum sur’ati (doimiy yoki o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Agar o‘zgaruvchan bo‘lsa, hujum intensivligi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi – ortib borishi yoki tebranishi mumkin);

• Nishonga ta’siri (hujum bir vaqtning o‘zida barcha hujum qiluvchi tugunlardan amalga oshiriladigan “buzuvchi” hujum yoki asta-sekin ko‘proq tugunlarni jalb qiladigan “yomonlashtiruvchi” hujum bo‘lishi mumkin. Birinchi turdagi hujumni aniqlash osonroq);

• Hujum qiluvchi tugunlar to‘plamining doimiyligi (to‘plam doimiy bo‘lishi mumkin (barcha hujumlarni bir xil tugunlar bajaradi) yoki o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin);

• Avtomatlashtirish darajasi (avtomatik yoki yarim avtomatlashtirilgan).

Tahlil va natijalar.

Taklif etilayotgan hujumlarni modellashtirish usuli. Mavjud modellashtirish usullarining kamchiliklarini hisobga olgan holda, axborot hujumlarini modellashtirish uchun boshqaruvchi E-tarmoqlar (Control E-Nets – CEN) dan foydalanamiz. Bu tarmoqlar E-tarmoqlarning modifikatsiyasi bo‘lib, yuqorida tavsiflangan hujum modellariga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradi.

Hujum modelining kompleksligini oshirish masalasini (hujum zaifliklarini aniqlash, hujum usulini ishlab chiqish va rivojlantirishni hisobga olish) ko‘p agentli boshqaruv tizimi yordamida hal qilamiz. Ushbu tizim modullari intellektual agentlar tamoyillariga asoslangan. Har bir agent boshqaruvchi E-tarmoq shaklida modellashtiriladi.

Boshqaruvchi E-tarmoqlarda esa hujum modeli sifatida ishlatiladigan barcha harakatlar hujum obyektining joriy holati va KT sharoiti bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi kerak. Hujum obyektlari bilan o‘zaro aloqa tarmoq o‘zgaruvchilari (V) orqali amalga oshiriladi.

Kirish va chiqish signallarini belgilash. Kirish disret signallari: DI, Kirish analog signallari: AI, Chiqish disret signallari: DO, Chiqish analog signallari: AO,Bundan quyidagilar kelib chiqadi:

$$VI = DI \cup AI \text{ va } VO = DO \cup AO.$$

Diskret signallar haqiqiy sonlar to‘plami R dan {0,1} qiymatlar qabul qilishi mumkin.

Tarmoq dinamikasi uning markirovkasi (holati) bilan belgilanadi va boshqaruv xaritalari komponentlarining qiymatlariga bog‘liq.

Markirovka: $M = (M(p_1), M(p_2),..., M(p_n))$, $n = PS$. bu yerda $pi \in PS$ – tarmoqning holati. Agar $M(pi) = 0$ bo‘lsa, u holat bo‘sh, aks holda band hisoblanadi.

Barcha markirovkalarning mumkin bo‘lgan to‘plami RS deb nomlanadi va boshlang‘ich markirovka $M(pi) = 1$ ni ham o‘z ichiga oladi.

Tarmoq dinamikasi boshqaruv funksiyalari orqali aniqlanadi. U=(r,σ,α,τ,z) ,

- r – qaror qabul qilish funksiyasi;
- σ – o’tish tayyorligi funksiyasi;
- α – faollashtirish funksiyasi;
- τ – kechikish funksiyasi;
- z – o‘zgarish funksiyasi.

$$r : PR \to \{1,2,3,...\} \qquad (3)$$

Bu funksiya belgilarga ega bo‘lmagan va ularning bog‘langan o‘tishlarini boshqaradigan hal qiluvchi pozitsiyalar bilan bog‘liq. Bu boshqaruv *Tx* va *Ty* turidagi o‘tishlarni amalga oshirish $r : PR \to \{1,2,3,...\}$. Hal qiluvchi funksiya, jumladan, belgilar atributlari va tarmoq o‘zgaruvchilarining qiymatlarini hisobga olgan holda ham hisoblanishi mumkin:

$$r(q) = f(d\,p, VI),\ q \in PS,\ p \in PR.$$

Hal qiluvchi funksiyaning qiymati belgi o‘tish paytida uning harakat yo‘nalishini aniqlaydi. Ushbu funksiya mumkin bo‘lgan qiymatlar chegaralari o‘tishga bog‘liq bo‘lgan pozitsiyalar soniga bog‘liq. Odatiy holda, $r_0(q) = 1$ deb qabul qilinadi.

Tayyorlik funksiyasi - bu predikat:

$$\sigma : T \to \{0,1\}, \qquad (4)$$

U o‘tishning ishlashga tayyorligini aniqlaydi:

- Agar $\sigma(t) = 0$ bo‘lsa, u holda $t \in T$ o‘tishi ishlashga tayyor emas.
- Agar $\sigma(t) = 1$ bo‘lsa, o‘tish bajarilish uchun tayyor hisoblanadi.

Har bir o‘tish turiga o‘ziga xos tayyorlik funksiyasi mos keladi. Ushbu funksiya qiymati o‘tishga bog‘liq oddiy pozitsiyalarning markirovkasiga, shuningdek, hal qiluvchi pozitsiyaning qiymatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har safar tarmoq markirovkasi o‘zgarganda, funksiya qayta hisoblanadi:

$$\sigma(t) = f[M(p), r], \text{ agar } r \in \{\bullet t, t\bullet\},\ p \in \{\bullet t, t\bullet\}.$$

Aktivatsiya funksiyasi oddiy E-tarmoqlari o‘tishlarining ta’rifida mavjud emas. CEN tarmog‘ida ushbu funksiya hujum obyekti holatini hisobga olish zarurati tufayli joriy etilgan. Aktivatsiya funksiyasi quyidagi predikat sifatida beriladi:

$$\alpha : T \to \{0,1\}, \qquad (5)$$

- Agar $\alpha(t) = 0$ bo‘lsa, $t \in T$ o‘tishi faol emas.
- Agar $\alpha(t) = 1$ bo‘lsa, o‘tish faollashtiriladi.

Bu funksiya tarmoqning kirish signallari *VI* qiymatlariga bog‘liq:

$\alpha(t) = f(DI, AI)$. Odatiy holda, aktivatsiya funksiyasi 1 ga teng va bu har qanday kirish signallari qiymatlarida o‘tish faol bo‘lishini anglatadi.

Kechaqolish (zaderjka) funksiyasi o‘tish vaqti kechikishini hisoblaydi. Bu kechikish tarmoq pozitsiyalaridagi belgilar atributlari hamda tarmoq o‘zgaruvchilarining qiymatlariga bog‘liq:

$\tau(t) = f(d\,p, VI),\ p \in PS$ Odatiy holda, kechikish vaqti 0 ga teng bo‘lishi mumkin. Ushbu funksiyani umumiy holda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\tau : T \to \mathbb{R}_+, \quad (6)$$

bu yerda $\mathbb{R}_+$ – musbat haqiqiy sonlar to‘plami (nolni ham o‘z ichiga oladi). O‘tish transformatsiya funksiyasi

$$z : T \to \delta \quad (7)$$

bu operatsiyalar ketma-ketligini belgilaydi: $\delta : \{d\,p \cup V\} \to \{d\,p \cup V\},\ p \in PM \cap Pt$, Bu operat-

siyalar tarmoq o‘zgaruvchilari va belgilar atributlarini kirish pozitsiyalaridan chiqish pozitsiyalariga o‘tish jarayonida o‘zgartiradi. Agar standart transformatsiya funksiyasi ishlatilsa, u holda atribut qiymatlari o‘zgarmaydi[9].

Har qanday o‘tish t □ T bajarilishi quyidagi to‘rt bosqichdan iborat:


1. Tayyorlik: O‘tish kechikish bosqichida emas va uning bajarilish sharti σ(t) = 1 bajarilgan.
2. Faollik: Tayyorlik sharti bajarilgan va α(t) = 1.
3. Kechikish: O‘tishning bajarilish vaqti kutilmoqda. Bu bosqichda o‘tish pozitsiyalarining holati o‘zgarmaydi.
4. Ishga tushirish: Kechikish vaqti tugagandan so‘ng, belgilar kirish pozitsiyalaridan chiqish pozitsiyalariga o‘tadi va atribut qiymatlari transformatsiya qoidalariga muvofiq o‘zgaradi.

E-tarmoqlari uchun an’anaviy dinamik xususiyatlar belgilarni pozitsiyalar bo‘ylab harakatlantirish va o‘tishlarni bajarish qoidalari bilan belgilanadi. Boshqariladigan E-tarmoqlarda o‘tishlar boshqaruv funksiyalarining dinamik o‘zgarishiga yo‘l qo‘yiladi. Hal qiluvchi, aktivatsiya, kechikish va transformatsiya funksiyalari vaqt bo‘yicha o‘zgarishi mumkin.

Ko‘p agentli boshqaruv. Hujumning barcha uch bosqichini modellashtirish uchun intellektual agentlar asosida ishlaydigan ko‘p agentli tizimdan foydalanamiz. Ko‘p agentli tizimlar nazariyasi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar [10] manbasida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarga asoslanib, umumiy holda ko‘p agentli boshqaruv tizimi quyidagi kortej sifatida ifodalanishi mumkin:

$$S = \square W, A, \square, \square, K \square, \quad (8)$$

bu yerda: W – boshqariluvchi obyektlar to‘plami; A – boshqaruvchi agentlar to‘plami; Ω – javobgarlik aloqalari to‘plami; Λ: A → W – agentlarning boshqariluvchi obyektlarga joylashuvi; K – agentlar orasidagi axborot kanallari.



2-rasm. DDoS hujumining imitatsion modeli.

DDoS hujumining imitatsion modeli boshqaruv E-tarmoqlari asosida yaratiladi (2-rasm). Model uch darajadan iborat:

1. Koraparativ darajasi – hujumni amalga oshiruvchi jamoa tashkil etiladi. 2-darajali obyektlar o‘z tayyorgarlik holati haqida 1-darajali obyektlarga xabar yuboradi. 1-darajali obyektlar esa ushbu

ma’lumotni saqlaydi, yuklamani agentlar o‘rtasida taqsimlaydi va har bir agent uchun hujum usuli, intensivligi, vaqti hamda boshqa parametrlarni belgilaydi. Hujum davomida 1-darajali obyektlar 2-darajali obyektlardan doimiy ravishda ma’lumot olib, hujum jarayonini nazorat qiladi.

2. Rejalashtirish darajasi – hujum parametrlari aniqlanadi, hujum obyektining zaif joylari qidiriladi, hujum turi tanlanadi va barcha kerakli ma’lumotlar agentlarga uzatiladi.

3. Reaktiv daraja – boshqa agentlardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, DDoS hujumi amalga oshiriladi.

Bu model yordamida hujumni simulyatsiya qilish va uning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Xulosa.

Boshqaruvchi E-tarmoqlar va ko‘p agentli boshqaruv asosida axborot hujumlarini modellashtirish usuli taklif qilindi. Ushbu usul hujumlarni oddiy va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beruvchi modellar yaratishga yordam beradi. Boshqaruvchi E-tarmoqlar mexanizmidan foydalanish hisobiga, usul kompyuter tarmog‘ining joriy holatini va hujum ob’ektining ahvolini hisobga oladi, bu esa dinamik modellashtirishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, boshqaruvchi E-tarmoqlar model parametrlarini matematik usullar bilan tavsiflash imkonini beradi, natijada modelning formallashtirish xususiyati ta’minlanadi.

Ko‘p agentli yondashuv hujumlarning ko‘p omillilik (murakkablik) muammosini hal qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuv hujum ob’ektining zaif tomonlarini aniqlash (rejalashtirish bosqichi), hujumni amalga oshirish va uning oqibatlarini baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi (reaktiv bosqich). Turli agentlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash uchun kooperativ daraja mavjud.

Olingan axborot hujumlarining simulyatsiya modellari axborot xavfsizligi tizimlarining sintetik muhitini yaratishda qo‘llanilishi mumkin. Bu usul tizimlarning xususiyatlari va tavsiflarini yarim tabiiy modellashtirish metodi orqali aniqlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Serdyuk V.A. Axborot hujumlari modellarini yaratishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish / V.A. Serdyuk // Axborot texnologiyalari. – 2004. – № 5. – B. 94 – 101.

2. Schneier B. Hujum daraxtlari [Elektron resurs] / B. Schneier. – Foydalanish rejimi: http://www.schneier.com/paper-attacktrees-ddj-ft.html.

3. Campete S. Hujumni modellashtirish va aniqlash uchun formal usul: http://citeseer.ist.psu.edu/751069.html.

4. Shener O. Hujum graflarini avtomatlashtirilgan yaratish va tahlil qilish / O. Shener. – Oakland, AQSh, 2002. – B. 273 – 284.

5. Gorodetski V. Kompyuter tarmog‘iga hujumlar: Formal grammatika asosida tuzilgan doira va simulyatsiya vositasi / V. Gorodetski, I. Kotenko // RAID xalqaro konferensiyasi materiallari. – Sankt-Peterburg, 2002. – B. 219 – 238.

6. Xoryokov D.A. Kompyuter hujumlarini modellashtirishda Petri tarmoqlari matematik apparatidan foydalanish imkoniyati / D.A. Xoryokov // TUSUR maqolalari. – 2009. – № 2. – B. 49 – 50.

7. Ulanov A.V. Kompyuter tarmoqlarini himoya qilish mexanizmlarining ko‘p agentli modellashtirish tizimi. http://www.raai.org/resurs/papers/kii-2006/vistavka/Ulanov.doc.

8. Tumoyan E.P. Tarmoq hujumlarini formal modellashtirish usullari / E.P. Tumoyan // Janubiy federal universiteti axborotnomasi. Texnika fanlari. – 2007. – № 1. – B. 108 – 113.

9. Lukatskiy A.V. Hujumlarni aniqlash / A.V. Lukatskiy. – Sankt-Peterburg: BVX-Peterburg, 2001. – 624 b.

10. Serdyuk V.A. Korxonalarning avtomatlashtirilgan tizimlarining axborot xavfsizligi / V.A. Serdyuk // Buxgalter va kompyuter. – 2007. – № 1. – B. 104 – 107.

AVTOMOBILLARDA METAN GAZ BOSIMINI O‘LCHASH QILISH QURILMASINING MERTOLOGIK XARAKTERISTIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SIFATNI YAXSHILASH

Qodirova Gulrux Ahrorjon qizi,
Farg‘ona davlat texnika universititeti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan. Metan gazining avtomobillarda foydalanilishi ekologik toza energiya manbai sifatida ahamiyat kasb etadi, ammo uning samarali va xavfsiz ishlatilishini ta’minlash maqsadida bosim nazorati muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda bosim o‘lchovining aniqligi, ishonchliligi va tezligi kabi metrologik xarakteristikalarini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda metan gazini nazorat qilish tizimlarining dizayni va ularning ish faoliyatini yanada samarali qilish uchun yangi sensorlar va o‘lchov uskunalari ishlab chiqishga e’tibor qaratiladi. Metrologik xarakteristikalarni yaxshilash orqali nafaqat avtomobillarning ishlash samaradorligini oshirish, balki ularning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish ham maqsad qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *metan, bosim, gaz, resurs, muammo, energiya, samaradorlik, qurilma, metrologiya, o‘lchov, aniqlilik, xavfsizlik.*

Аннотация: *Данное исследование посвящено улучшению метрологических характеристик и повышению качества устройств контроля давления газа метана в автомобилях. Использование метана в автомобилях приобретает все большее значение как экологически чистый источник энергии, но контроль давления важен для обеспечения его эффективного и безопасного использования. В исследовании анализируются современные технологии и методики улучшения метрологических характеристик измерения давления, таких как точность, надежность и быстродействие. Исследования также сосредоточены на разработке систем контроля газа метана и разработке новых датчиков и измерительного оборудования, которые сделают их работу более эффективной. За счет улучшения метрологических характеристик направлено не только на повышение производительности автомобилей, но и на минимизацию их воздействия на окружающую среду.*

Ключевые слова: *метан, давление, газ, ресурс, проблема, энергия, эффективность, прибор, метрология, измерение, точность, безопасность.*

Annatation: *This study is devoted to the improvement of metrological characteristics and quality improvement of methane gas pressure control devices in cars. The use of methane gas in cars is gaining importance as an environmentally friendly energy source, but pressure control is important to ensure its efficient and safe use. The research analyzes modern technologies and methodologies to improve the metrological characteristics of pressure measurement, such as accuracy, reliability and speed. The research also focuses on the design of methane gas control systems and the development of new sensors and measurement equipment to make their operation more efficient. By improving the metrological characteristics, it is aimed not only to increase the performance of cars, but also to minimize their impact on the environment.*

Keywords: *methane, pressure, gas, resource, problem, energy, efficiency, device, metrology, measurement, accuracy, safety.*


Kirish.

So‘nggi yillarda atrof-muhit muammolari va energiya resurslarini tejash masalalari global ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda, metan gazidan foydalanish, ayniqsa, avtomobillar uchun ekologik toza yoqilg‘i sifatida, o‘zining ahamiyatini oshirmoqda. Metan gazini avtomobillarda samarali va xavfsiz ishlatish uchun, uning bosimini nazorat qilish tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmasining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalari avtomobillarning xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek, ularning energiya samaradorligini oshirishda muhimdir. Bunday tizimlar notekis bosim o‘zgarishlarini aniqlab, gaz oqimini optimallashtiradi va motorning ishlash samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ular havoning ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi.

Metrologik xarakteristikalar – bu qurilmalar tomonidan berilgan natijalarni aniqlik bilan belgilovchi parametrlar bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Aniqlik: Qurilmaning berilgan natijasi haqiqiy qiymatdan qanchalik farq qilishi.
2. Tizim xatosi: O‘lchov natijalaridagi doimiy xato.
3. O‘lchov diapazoni: Qurilmaning o‘lchash imkoniyatlari doirasi.
4. Ishonchlilik: Qurilmaning uzoq muddatli ishlashi davomida o‘lchovlarni takrorlashi qobiliyati.



1-rasm. II avlod gaz uskunalari umumiy ko‘rinishi.

1-ballon; 2-multiklapan; 3-yuqori bosimli gaz magistrali; 4- chiqarilgan yonilg‘i quyish qurilmasi; 5-gaz elektromagnit klapan-filtr; 6-bo‘g‘latgich reduktor; 7-dozator; 8-gaz–havo aralashtirgich; 9-benzin elektromagnit klapani; 10- “gaz-benzin” qo‘shgich [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va muammoning o‘rganilish darajasi. [2] Ishda bosim datchiklarining xorijdagi prototiplarining strukturaviy tahlili ko‘rib chiqilgan. Turli xorijiy ishlab chiqaruvchilarning bosim datchiklari tahlil qilinib ularga qiyosiy tahlillar berilgan. Bosim datchiklarining rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Ma’lumotlar aniq sohalar bo‘yicha ko‘rilmagan.

[3] Ishda texnik-iqtisodiy mezonlar asosida sifatni nazorat qilish uchun o‘lchov vositalarini tanlash algoritmi tahlil qilingan. O‘lchash vositalarini tanlash ishlab chiqarishni metrologik qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vazifalaridan biridir. To‘g‘ri yechim yakuniy mahsulot sifatiga, oraliq va kirish nazoratiga bog‘liq. O‘lchash xatolari mavjudligi tufayli ba’zi yaroqli qismlar bo‘lishi mumkin. Mahsulotlarni noto‘g‘ri rad etish yoki qabul qilishdan yo‘qotishlarni tahlil qilish qiyin iqtisodiy vazifalardan biridir. Shu sababli o‘lchash vositalarini tanlashda uning muhim mezonlarini xisobga olgan holda algoritmini yaratish bo‘yicha takliflar berilgan.

[4] Ushbu maqolada o‘lchash vositalari (O‘V) uchun mezon va ko‘rsatkichlarni tanlash muammosi muhokama qilinadi. Bu masala muhim ilmiy muammo bo‘lib, uning yechimi ma’lum darajada O‘V ni o‘lchash sohalari bo‘yicha sistemalashtirish imkonini beradi. Mezonlarni o‘rganishda ma’lum qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, chunki O‘V ning metrologik va texnik xarakteristikalari bilan birga o‘lchash vositalariga ta’sir etuvchi ko‘pgina omillarni ham hisobga olish zarur .

[5] Maqolada turli sohalarda agressiv, ifloslangan, yuqori qovushqoqli, qattiqlashtiruvchi va polimerizatsiya vositalarining haddan tashqari kengayishini o‘lchash o‘lchov qurilmasining datchigi elementini korroziya va tiqilib qolishi bilan bog‘liq ma’lumotlar tahlil qilingan. Bu holatlarni yaxshilash va datchiklarni tez eskirishiga va texnik hujjatlarda qurilma ko‘rsatkichlarining nomuvofiqligiga olib kelishi mumkinligi tahlil qilingan .

[6]maqolada absolyut bosim datchiklari uchun avtomatlashtirilgan yuk-porshenli sifat nazorati tizimi uchun o‘lchash asosi sifatida yuk-porshenli bosim o‘lchagichiga asoslangan avtomatik bosim tizimining matematik modelini ishlab chiqish to‘g‘risida ma’lumotlar tahlil qilingan. Tadqiqot tizimlarni avtomatik boshqarish va modellashtirish nazariyalarini, shuningdek, gaz dinamikasining asosiy qonun va qoidalarini o‘z ichiga oladi. Avtomatik bosim tizimining berkituvchi bo‘limlari orqali doimiy bosimlar farqiga ega bo‘lgan havo oqimi jarayonlarini nazariy o‘rganish natijalari matematik modelda keltirilgan. Absolyut havo bosimi o‘rnatilgan yopiq hajmda sodir bo‘ladigan gaz-dinamik jarayonlarning asosiy parametrlari belgilangan. Belgilangan mutlaq bosimning qiymati asosan avtomatik bosim tizimining dizayn xususiyatlariga bog‘liq, ya’ni avtomatik bosim o‘tkazgichi bilan tartibga soluvchi tananing va avtomatik bosimni nazorat qilish tizimining sezgir elementining funksiyalarini bajaradigan siqilmagan porshenning parametrlaridan. Bu esa bosimni o‘lchashning asosiy prinsipini avtomatik bosim kuchaytirgich bilan amalga oshirish imkonini berdi. Havo oqimining nazariy tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda va avtomatik bosim sozlagichi, avtomatik bosim sozlagichining matyematik modeliga ega bo‘lib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalash uchun yopiq maydonda dinamik jarayonlarni tasvirlash uchun aniqlik talab qilinadi. Matematik model hisoblangan darajaga keltirilgan va absolyut bosim datchiklari uchun avtomatlashtirilgan yuk-porshen sifatini nazorat qilish tizimlarini loyihalash masalalarini hal qilishda foydalanish mumkin, bunda zamonaviy nazorat usullarini amalga oshirish mumkin.

[7] ishda texnik-iqtisodiy mezonlar asosida sifatni nazorat qilish uchun o‘lchov vositalarini tanlash algoritmi tahlil qilingan. O‘lchash vositalarini tanlash ishlab chiqarishni metrologik qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vazifalaridan biridir. To‘g‘ri yechim yakuniy mahsulot sifatiga, oraliq va kirish nazoratiga bog‘liq. O‘lchash xatolari mavjudligi tufayli ba’zi yaroqli qismlar bo‘lishi mumkin. Mahsulotlarni noto‘g‘ri rad etish yoki qabul qilishdan yo‘qotishlarni tahlil qilish qiyin iqtisodiy vazifalardan biridir. Shu sababli o‘lchash vositalarini tanlashda uning muhim mezonlarini xisobga olgan holda algoritmini yaratish bo‘yicha takliflar berilgan.

Bosimni o‘lchashning mavjud usullarini metrologik tavsiflarini qiyosiy tahlil qilish va olib borilgan tajriba natijalari asosida bosim o‘zgartkichlarining usullari ichida o‘lchashning fizik asosi, texnik amalga oshirishning nisbatan soddaligi, funksional, texnik va metrologik xossalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lgan usullar tanlandi va asoslandi. Jumladan, tenzometrik, tenzoqarshilikli va boshqa usullar qo‘yidagi afzalliklarga ega tez va yetarli darajada aniqlik bilan o‘lchash, shu bilan birgalikda ma’lumotlarni masofaga uzatish imkoniyatini yaratish mumkinligi bilan izohlanadi. Bosim o‘lchash o‘zgartkichlarining hozirgi kundagi kamchiliklariga muhitning tarkibi, harorati, muhitning ta’siri, elementlarning korroziyaga chidamliligi kabi faktorlar o‘lchash xatoligining oshishiga olib keladi. Ushbu tadqiqot ishida ushbu faktorlarni ta’sirini kamaytirish usullari va uning texnik yechimi taklif qilinadi.

Takomillashtirish yo‘llari.

1. Yuqori Texnologiyalarni Joriy Etish: Zamonaviy sensorlar va mikroprotsessorli boshqaruv tizimlari orqali metan gaz bosimini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish kerak. Bu texnologiyalar qisqa vaqt ichida aniq o‘lchovlarni taqdim etishi mumkin.

2. Kalibrlash Standartlarini Yangilash: O‘lchov asboblarini kalibrlash jarayonlarini yanada aniqroq standartlarga asoslanib amalga oshirish lozim. Bu nafaqat aniqlikni oshiradi, balki qurilmalarni ishlab chiqarishda ham sifatni yaxshilaydi.

3. Ma’lumotlarni Tahlil Qilish: Yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qisqa muddat ichida noaniqliklarni aniqlab olish mumkin bo‘ladi. Bu esa operatsion jarayonlarda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

4. Xavfsizlik Chora-tadbirlari: Metan gazining portlovchi xususiyatlari inobatga olinishi zarur bo‘lib, bunday qurilmalarni ishlab chiqishda xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilish kerak.

5. O‘qitish va Malaka Oshirish: Mutaxassislarning malakasini oshirish uchun treninglar o‘tkazilishi zarur. Ularning tajribasi va bilimlari yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi [8].

Xulosa.

Avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash – bu nafaqat texnik jihatdan zamonaviy yechimlar talab qiladigan vazifa balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo‘shadi. Yuqori sifatli nazorat tizimlari orqali biz ekologik toza transport vositalariga erishamiz va kelajak avlodlarga barqaror rivojlanishni ta’minlaymiz. Avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmasining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash masalasi zamonaviy transport vositalarining energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar etkazishni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, metan gazining bosimini aniqlash va nazorat qilishda foydalaniladigan uskunalarning aniqligi, ishonchliligi va barqarorligini oshirish uchun zamonaviy metrologik metodlar va texnologiyalar ko‘rib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tinyakov Yu. N., Mileshin S. A., Andreyev K. A., Sыgankov V. Yu.Analiz konstruksiy zarubejnыx prototipov datchikov davleniya. Elektronnoye nauchno-texnicheskoye izdaniye. sentyabr 2011. http://technomag.edu.ru/doc/219081.html

2. O.A. Leonov, N.J. Shkaruba, Algoritm vыbora sredstv izmereniy dlya kontrolya kachestva po texniko-ekonomicheskim kriteriyam. Vestnik FGOU VPO MGAU № 2’2012. Str 89-91.

3. Shenkar T. T., Xarchenko Yu. V. Kriterii vыbora sredstv izmereniy davleniya. Syentr nauchnogo sotrudnichestva “Interaktiv plyus”. Str 1-5.

4. A.V. Markov. Matematicheskaya model avtomatizirovannoy gruzoporshnevoy sistemы kontrolya kachestva datchikov absolyutnogo davleniya. Vestnik IrGTU Tom 22, № 11 2018. Str. 112-124.

5. O.A. Leonov, N.J. Shkaruba, Algoritm vыbora sredstv izmereniy dlya kontrolya kachestva po texniko-ekonomicheskim kriteriyam. Vestnik FGOU VPO MGAU № 2’2012. Str 89-91.

6. V. Makarov. Priborы dlya izmereniya davleniya agressivnыx i zagryaznennыx sred. Nauchnыy jurnal: Datchiki i sistemы. ISSN: 1992-7185. God vыxoda: 2004. Str 40-44.

7. Vergazov I. R. Ispolzovaniye chastonogo preobrazovaniya dlya snijeniya pogreshnosti tenzorezistivnogo datchika / I. R. Vergazov, V. A. Petrin, Yu. A. Tareyeva // Mejdunarodnыy nauchno-issledovatelskiy jurnal. – 2015. – №3 (34) Chast 1. – S. 30–32. – URL: https://research-journal.org/technical/ispolzovanie-chastonogo-preobrazovaniya-dlya-snizheniya-pogreshnosti-tenzorezistivnogo-datchika/ (data obraщyeniya: 05.06.2020.).

8. Preobrajenskiy V. P.Teplotexnicheskiye izmereniya i priborы. M.: Energiya, 1978, - 704 s.

JAVASCRIPT FRAMEWORK VA KUTUBXONALARNING TAQQOSLANISHI: REACT, VUE VA ANGULAR

Xoshimjonov Asrorbek Akramjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti talabasi,
Atajonova Saidaxon Borataliyevna,
Andijon davlat texnika instituti
(Phd), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada React, Vue va Angular JavaScript frameworklarining samaradorligi, o‘rganish qulayligi va moslashuvchanligi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot eksperimental sinovlar, empirik tahlil va statistik baholash asosida olib borildi. Natijalar Vue.js kichik va o‘rta loyihalar uchun eng maqbul variant ekanligini, React murakkab veb-ilovalar uchun mos ekanligini, Angular esa korporativ tizimlar uchun ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *JavaScript framework, React, Vue, Angular, veb-ishlanmalar, samaradorlik, moslashuvchanlik, o‘rganish qulayligi, dasturlash, dasturiy ta’minot arxitekturasi.*

Аннотация: *В данной статье проведен сравнительный анализ эффективности, удобства изучения и гибкости популярных JavaScript-фреймворков React, Vue и Angular. Исследование основано на экспериментальных тестах, эмпирическом анализе и статистической оценке. Результаты показывают, что Vue.js оптимален для малых и средних проектов, React подходит для сложных веб-приложений, а Angular предпочтителен для корпоративных систем.*

Ключевые слова: *JavaScript-фреймворк, React, Vue, Angular, веб-разработка, производительность, гибкость, удобство изучения, программирование, архитектура программного обеспечения.*

Abstract: *This article presents a comparative analysis of the efficiency, ease of learning, and flexibility of popular JavaScript frameworks–React, Vue, and Angular. The study is based on experimental tests, empirical analysis, and statistical evaluation. The results indicate that Vue.js is best for small and medium projects, React suits complex web applications, and Angular is ideal for enterprise systems.*

Keywords: *JavaScript framework, React, Vue, Angular, web development, performance, flexibility, learning curve, programming, software architecture.*

Kirish.

Zamonaviy veb-ishlanmalar murakkab va dinamik interfeyslarni talab qiladigan holatga yetganligi sababli, dasturchilar o‘z ishlarini soddalashtirish va optimallashtirish maqsadida turli framework va kutubxonalarga murojaat qilishadi. JavaScript veb-ishlanmalari uchun eng mashhur texnologiyalar qatorida React, Vue.js va Angular ajralib turadi. Ushbu vositalar veb-ilovalarni samarali yaratish va ularning ishlashini tezlashtirishga xizmat qiladi, ammo ular o‘ziga xos yondashuvlarga va afzalliklarga ega.

Ushbu framework va kutubxonalar asosan SPA (Single Page Application) yaratishda qo‘llaniladi, chunki ular foydalanuvchi interfeysining dinamik o‘zgarishlarini boshqarish uchun kuchli imkoniyatlar taqdim etadi. Masalan, React komponentlarga asoslangan yondashuvi bilan mashhur bo‘lsa, Vue.js soddaligi va tez o‘zlashtirilishi bilan ajralib turadi, Angular esa keng qamrovli va korporativ darajadagi ilovalar uchun mo‘ljallangan to‘liq freymvork hisoblanadi [1].

Bugungi kunda veb-ishlab chiquvchilar uchun muhim qarorlar qabul qilishda eng asosiy savollardan biri: Qaysi JavaScript texnologiyasini tanlash kerak? Bu savolga javob berish uchun har bir texnologiyaning imkoniyatlarini, afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Har biri o‘zining ekotizimi, o‘rganish egri chizig‘i (learning curve), ishlash samaradorligi, rivojlanish tezligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada React, Vue va Angular framework va kutubxonalari arxitektura, ishlash tezligi, o‘rganish qulayligi, jamoa qo‘llab-quvvatlashi hamda ishlab chiquvchilar uchun imkoniyatlari bo‘yicha batafsil tahlil qilinadi. Shu orqali dasturchilar o‘z loyihalari uchun eng mos keladigan texnologiyani tanlashda asosli qaror qabul qilishlari mumkin bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

JavaScript texnologiyalarining rivojlanishi va framework hamda kutubxonalarning o‘zaro taqqoslanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tobora ko‘payib bormoqda. Zamonaviy veb-ishlanmalarning rivojlanish jarayoni, samaradorlik mezonlari hamda turli frameworklarning qiyosiy tahlili ko‘plab ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu bo‘limda React, Vue va Angular framework va kutubxonalari bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, ularning tahlillari va eng so‘nggi tadqiqotlar natijalari ko‘rib chiqiladi[2].

1. Frameworklarning rivojlanish tarixi va arxitekturasi.

JavaScript kutubxonalarining rivojlanish tarixi haqida Sarath Krishna Mandava (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda JavaScript framework va kutubxonalari qanday paydo bo‘lganligi, ularning evolyutsiyasi va arxitekturaviy tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan[3]. Ushbu tadqiqotga ko‘ra, komponentlarga asoslangan yondashuv veb-ishlanmalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan va bu texnologiyalar rivojlanishining asosiy bosqichi bo‘lgan.

Bundan tashqari, Pawel D., Miroslaw M., Mariusz N., (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda React, Vue va Angular arxitekturalari taqqoslanib, ularning komponent asosida ishlashi, ichki ma’lumot oqimi va dasturiy interfeyslar bilan integratsiyasi chuqur tahlil qilingan[4]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, React va Vue komponentlar orqali Virtual DOM yondashuvini qo‘llagan holda ishlaydi, Angular esa Real DOM bilan ishlash imkonini beradi, bu esa katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi .

2. Ishlash samaradorligi va tezligi bo‘yicha tadqiqotlar.

Marin K. va Bernard V. (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa real loyihalar misolida frameworklarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik va o‘rta hajmdagi veb-ilovalar uchun Vue.js eng maqbul variant ekanligi aniqlangan, katta korporativ ilovalar uchun esa Angular kengayuvchanligi va xavfsizlik imkoniyatlari bilan ustunlik qiladi [5].

3. O‘rganish qulayligi va hamjamiyat qo‘llab-quvvatlashi.

Framework va kutubxonalarni tanlashda ularning o‘rganish egri chizig‘i (learning curve) va hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Johan Franz va Milton Niklasson (2024) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Vue.js eng tez o‘zlashtiriladigan framework hisoblanadi, chunki u soddalashtirilgan sintaksis va an’anaviy HTML, CSS hamda JavaScriptga mos keluvchi tuzilishga ega[6]. React ham nisbatan oson o‘rganilsa-da, unda JSX ishlatilishi sababli yangi foydalanuvchilar uchun dastlabki qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Angular esa to‘liq framework bo‘lib, TypeScript va murakkab arxitektura talab etgani sababli boshlang‘ich foydalanuvchilar uchun qiyinroq sanaladi.

1-jadval.

React, Vue va Angular frameworklarining taqqoslanishi [7].

Mezonlar	React	Vue	Angular
Til asoslari	JavaScript (JSX)	JavaScript (HTML bilan integratsiya)	TypeScript
O‘rganish qulayligi	O‘rta darajada	Eng oson	Eng qiyin
Ishlash samaradorligi	Yuqori (Virtual DOM)	Yuqori (Virtual DOM)	O‘rtacha (Real DOM)
Moslashuvchanlik	Katta loyihalar uchun mos	Kichik va o‘rta loy-ihalar uchun eng qulay	Korporativ tizimlar uchun eng mos
Qo‘llab-quvvatlash	Facebook va katta jamoa	Kichikroq, ammo tez rivojlanayotgan jamoa	Google va yirik korporatsiyalar
Ommaboplik	Eng mashhur	Ommabopligi ortib bormoqda	Yirik kompaniyalar to-monidan keng qo‘llaniladi

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot JavaScript framework va kutubxonalari – React, Vue va Angularning samaradorligi, o‘rganish qulayligi va moslashuvchanligi bo‘yicha qiyosiy tahlilini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot zamonaviy veb-ishlanmalar uchun qo‘llaniladigan frameworklarning ishlash samaradorligi, foydalanuvchilar uchun o‘rganish darajasi va loyihalarga moslashuvchanligini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot dizayni eksperimental va empirik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Eksperimental usul orqali frameworklarning ishlash tezligi, yuklama bardoshliligi va ma’lumotlarni qayta ishlash mexa-nizmlari sinovdan o‘tkaziladi. Empirik tahlil esa ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va real loyihalar asosida frameworklarning amaliy jihatlarini baholashni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumotlarni yig‘ish uchun Google Scholar, IEEE Xplore va GitHub statistikalariga asoslan-gan manbalar tahlil qilinadi**.** Shuningdek, dasturchilar orasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkazilib, frameworklarning o‘zlashtirilish qulayligi, rivojlanish istiqbollari va jamoaviy qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha fikrlar to‘planadi.

Tadqiqot obyekti sifatida React, Vue va Angular frameworklari asosida yaratilgan turli hajmdagi veb-ilovalar tanlanadi. Tadqiqot strategiyasi kuzatish va tajriba asosida olib borilib, frameworklar-ning ishlash samaradorligi real kod misollarida sinovdan o‘tkaziladi.

Tadqiqot etikasi tamoyillariga rioya qilinib, barcha ma’lumotlar ishonchli va ochiq manbalardan olinadi. Tadqiqot natijalari shaffof va obyektiv bo‘lishi uchun tahlil jarayonida subyektiv fikrlardan qochilib, faqat ilmiy manbalar va real natijalarga tayaniladi**.**

Ushbu tadqiqot natijasida frameworklarning afzallik va kamchiliklari aniq belgilab berilib, qaysi turdagi loyihalar uchun qaysi texnologiya eng mos kelishi haqida xulosa chiqariladi**.**

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari React, Vue va Angular frameworklarining samaradorligi, o‘rganish qulayligi va moslashuvchanligi bo‘yicha qiyosiy tahlil natijalariga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasida belgilangan tahlil usullari – eksperimental sinovlar, empirik tahlil va statistik ma’lumotlarga asoslangan baholash orqali quyidagi natijalar olingan.

Ishlash samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental sinovlar shuni ko‘rsatdiki, React va Vue frameworklari Virtual DOM yordamida tezkor ishlash imkoniyatini ta’minlaydi**,** bunda Vue.js eng optimal natijalarni qayd etdi. Angular esa Real DOM bilan ishlashi sababli katta hajmdagi ma’lumot-larni qayta yuklashda nisbatan sustroq natija ko‘rsatdi. Brauzer yuklamalari va render qilish tezligi bo‘yicha Vue.js eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, undan keyin React va Angular joylashdi.

Foydalanuvchilar uchun o‘rganish qulayligi bo‘yicha so‘rovnomalar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Vue.js eng tez o‘zlashtiriladigan framework bo‘lib, React undan keyin, Angular esa eng murakkab tizim sifatida baholandi. Buning asosiy sababi Vue.js-ning an’anaviy HTML va JavaScript kodlariga mosligi, Reactning JSX sintaksis talab qilishi va Angularning murakkab TypeScript asosidagi arxitekturasi bo‘ldi [8].

Moslashuvchanlik bo‘yicha real loyihalar tahlili asosida Vue.js kichik va o‘rta hajmdagi loyihalar uchun eng maqbul variant ekanligi tasdiqlandi. React esa katta va murakkab loyihalar uchun yaxshi tanlov bo‘lsa, Angular korporativ darajadagi, uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlash talab qilinadigan loyihalar uchun eng mos framework ekanligi aniqlandi[9].

Tahlil natijalariga ko‘ra**,** React hamda Vue tezkor va moslashuvchan frameworklar bo‘lib, Angular esa murakkabroq bo‘lsa-da, korporativ echimlar uchun ustunlikka ega**.** Bu natijalar keyingi bo‘limda batafsil muhokama qilinadi.

2-jadval.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar[10]

Loyiha turi	Tavsiya etilgan framework	Asosiy sabablari
Kichik va o‘rta hajmdagi veb-saytlar	Vue	Oson o‘rganish, soddalik va engil ishlash
Murakkab veb-ilovalar (SPA, platformalar)	**React**	Katta ekotizim, tezkor ishlash va komponentlarga asoslangan yondashuv
Korporativ ilovalar va yirik tizimlar	Angular	TypeScript asosida aniq tuzilish, uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlash
Mobil va kross-platforma ilovalari	React yoki Angular	React Native va Ionic bilan yaxshi integratsiya imkoniyati
Server-side rendering (SSR) talab qilinadigan ilovalar	Vue yoki React	Vue/Nuxt.js va Next.js bilan samarali ishlash

Xulosa.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy veb-ishlanmalar uchun eng ommabop JavaScript framework va kutubxonalari – React, Vue va Angularning samaradorligi, o‘rganish qulayligi va moslashuvchanligi bo‘yicha qiyosiy tahlilini amalga oshirish edi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har bir framework o‘ziga xos ustunlik va kamchiliklarga ega bo‘lib, ularning qo‘llanilish sohalari va samaradorligi turlicha.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Vue.js eng tez o‘zlashtiriladigan framework bo‘lib, kichik va o‘rta hajmdagi loyihalar uchun juda qulay, chunki u soddaligi va minimal konfiguratsiya talablari bilan ajralib turadi. React esa yirik va murakkab loyihalar uchun afzalroq variant bo‘lib, katta jamoalar tomonidan qo‘llaniladigan komponentlar tizimi va kuchli ekotizimga ega. Angular esa keng ko‘lamli korporativ loyihalar va uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlash talab etiladigan tizimlar uchun eng mos framework bo‘lib, uning TypeScript asosidagi qat’iy tuzilishi yirik jamoalar bilan ishlash uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Kichik va o‘rta hajmdagi loyihalar uchun Vue.js tavsiya etiladi, chunki u tez o‘rganiladi, kam resurs talab qiladi va soddaligi bilan ajralib turadi.

2. Murakkab veb-ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va kengaytiriladigan platformalar uchun React opti-

mal variant bo‘lib, katta hamjamiyat va ekotizim qo‘llab-quvvatlashi tufayli katta loyihalarda samarali qo‘llanilishi mumkin.

3. Korporativ darajadagi, uzoq muddatli rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash talab etiladigan tizimlar uchun Angular tanlanishi kerak, chunki u murakkab tuzilishga ega bo‘lsa-da, barqarorlik va xavfsizlik jihatidan ustunlik qiladi.

Kelajak tadqiqotlar yo‘nalishlari sifatida frameworklarning AI integratsiyasi, server-side rendering (SSR) samaradorligi va WebAssembly bilan integratsiya qilish imkoniyatlari bo‘yicha chuqurroq tahlillar o‘tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, real biznes loyihalar asosida frameworklarning uzoq muddatli ishlash samaradorligi va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rustamova M. JAVASCRIPT WEB FRAMEWORKLARI VA PYTHON T WEB FRAMEWORK, Наука и инновация, Том 1 №3, 2023, 31-33.

2. Deyide M., Desfita E. P., Fegie Y. W. Developing Modern JavaScript Frameworks for Building Interactive Single-Page Applications, International Journal Software Engineering and Computer Science (IJSECS), №4(2), 2024, 484-496.

3. Sarath Krishna Mandava The Evolution of JavaScript Frameworks: Performance, Scalability, and Developers Experience, “International Journal of Intelligent Systems and Applications in Engineering”, №10(2), 2022, 287–302.

4. Pawel D., Miroslaw M., Mariusz N., Comparison of Angular, React, and Vue Technologies in the Process of Creating Web Applications on the User Interface Side, “Journal of Education, Technology and Computer Science”, №4(34), 2023, 210-221.

5. Marin K., Bernard V., Comparison of front-end frameworks for web applications development, “Zbornik Veleučilišta u Rijece”, №1(6), 2018, 261-282.

6. Johan Franz, Milton Niklasson, A learning curve comparison between React and Angular, – Gothenburg.: “Chalmers Reproservice”, 2024, pp.51.

7. Phani Sekhar Emmanni. Comparative Analysis of Angular, React, and Vue.js
in Single Page Application Development, International Journal of Science and Research (IJSR), №12(6), 2023, 2971-2974.

8. Piastou, M. Comprehensive Performance and Scalability Assessment of Front-End Frameworks: React, Angular, and Vue. js. World Journal of Advanced Engineering Technology and Sciences, № 9(2), 2024, 366-376.

9. Sidorov Denys, A comparative analysis of component-based architectures in web design for scalable applications, ХОЛОДНАЯ НАУКА, №8, 2024, 24-31.

10. Konrad Bielak, Bartłomiej Borek, Małgorzata Plechawska-Wójcik, Web application performance analysis using Angular, React and Vue frameworks, Journal of Computer Sciences Institute, №23, 2022, 77-83.

AVTOMOBIL YO‘LLARINING XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH: MUAMMOLAR VA INNOVATSIYALAR

Majidov Yaxyobek Xalimjon o‘g‘li,
Andijon davlat texnika instituti
talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Yo‘l qoplamasining tez eskirishiga ta’sir etuvchi omillar – iqlim sharoiti, yuk tashish hajmi, texnik xizmat ko‘rsatish sifati va foydalanilgan materiallar tahlil qilingan. Maqolada geosintetik materiallar, drenaj tizimlari va aqlli monitoring tizimlarining yo‘l infratuzilmasi barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajribalar misolida yo‘llarning xizmat muddatini uzaytirish strategiyalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *yo‘l muhandisligi, yo‘l qoplamasi, avtomobil yo‘llari, xizmat muddati, modifikatsiyalangan asfalt, texnik xizmat, innovatsion texnologiyalar, geosintetik materiallar, iqlim ta’siri, yuk transporti.*

Annotation: *This article analyzes modern technologies and innovative approaches to extending the service life of automobile roads. Factors affecting the rapid wear of road pavement–such as climatic conditions, traffic volume, quality of maintenance, and materials used–are examined. The importance of geosynthetic materials, drainage systems, and smart monitoring systems in ensuring the sustainability of road infrastructure is highlighted. International experiences in road longevity strategies are also discussed.*

Keywords: *road engineering, pavement, highways, service life, modified asphalt, maintenance, innovative technologies, geosynthetic materials, climate impact, freight transport.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные технологии и инновационные подходы к увеличению срока службы автомобильных дорог. Рассмотрены факторы, влияющие на износ дорожного покрытия, такие как климатические условия, объем перевозок, качество технического обслуживания и используемые материалы. Особое внимание уделено роли геосинтетических материалов, дренажных систем и интеллектуальных систем мониторинга в обеспечении устойчивости дорожной инфраструктуры. Представлен международный опыт стратегий продления срока службы дорог.*

Ключевые слова: *дорожная инженерия, дорожное покрытие, автомобильные дороги, срок службы, модифицированный асфальт, техническое обслуживание, инновационные технологии, геосинтетические материалы, климатическое воздействие, грузовой транспорт.*

Kirish.

Avtomobil yo‘llari har qanday mamlakat infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, transport harakati barqarorligini ta’minlaydi, iqtisodiy rivojlanish va mintaqalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Ammo yo‘llarning xizmat muddati turli sabablar tufayli qisqarishi mumkin. Bunga asosan og‘ir yuk transportlarining ta’siri, tabiiy-iqlimiy omillar, past sifatli qurilish materiallari va texnologik kamchiliklar sabab bo‘ladi. Shu sababli, yo‘llarning uzoq yillar davomida mustahkam xizmat qilishini ta’minlash uchun yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zarur.

Avtomobil yo‘llarining xizmat muddati va unga ta’sir qiluvchi omillar:

Materiallarning sifati va turli xususiyatlari- sifatli materiallardan foydalanish yo‘lning chidamliligini oshirsa, arzon va yaroqsiz materiallar xizmat muddatini sezilarli qisqartiradi. Masalan: asfalt-beton aralashmalarining modifikatsiyalangan shakllari yuqori elastiklik va chidamlilikka ega, beton qoplamalar uzoq muddatli, ammo moslashuvchanligi kamroq.

Yana eng katta muammolardan biri ortiqcha yuklangan transport vositalarining yo‘llarga yetkazayotgan zarari hisoblanadi. Haddan tashqari og‘ir yuklar yo‘l qoplamasini tez shikastlaydi, natijada yoriqlar va chuqurlar hosil bo‘ladi. Bu nafaqat yo‘llarning tez eskirishiga, balki transport harakati xavfsizligining pasayishiga ham olib keladi. Bundan tashqari, yo‘llarning muddatidan oldin ishdan chiqishiga iqlim sharoitlari ham sezilarli darajada ta’sir qiladi. Issiq ob-havo asfaltning yumshashiga, sovuq esa qattiqlashib sinishiga sabab bo‘ladi. Yog‘ingarchilik va doimiy namlik esa yo‘l qatlamlari orasidagi bog‘lanishlarni zaiflashtirib, eroziya jarayonlarini kuchaytiradi.

Qurilish sifati va materiallarning muammosi – keyingi bir muhim omil – qurilish materiallari va texnologiyalarining sifatsizligi. Ko‘plab yo‘llar past sifatli asfalt va beton aralashmalari yordamida quriladi. Natijada, qisqa vaqt ichida ularning yuzasida yoriqlar va chuqurlar paydo bo‘lib, ularni ta’mirlashga qo‘shimcha xarajat talab qilinadi. Yo‘lning asosiy qatlamlari yetarlicha zichlanmaganida, yo‘lning tez cho‘kishi yoki deformatsiyalanishi kuzatiladi. Texnik xizmat ko‘rsatish tizimi ham muhim omil bo‘lib, ko‘p hollarda yo‘llarga doimiy ravishda texnik xizmat ko‘rsatish va monitoring qilish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish usullari. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun turli innovatsion yechimlar ishlab chiqilgan. Eng samarali usullardan biri – yo‘l qoplamalarida mustahkamlangan asfalt va beton aralashmalaridan foydalanishdir. Masalan, *polimer-modifikatsiyalangan asfalt (PMA)*- Oddiy asfaltga polimer qo‘shib, uning elastikligini oshirish mumkin. Bu asfalt sovuqda sinmaydi, issiqda esa yumshamaydi. Xizmat muddati oddiy asfaltga nisbatan 30-50% uzunroq bo‘ladi.

Rezinadan tayyorlangan asfalt- Ishlatilgan shinalardan olinadigan kauchuk moddalari yo‘lning elastikligini oshiradi. Yomg‘ir suvini yaxshi yutib, sirpanishni kamaytiradi.

Shisha tolali beton va tolali asfalt- Ushbu materiallar tarkibidagi maxsus tolalar yoriqlar paydo bo‘lishini kamaytiradi.Yo‘lning mustahkamligini oshiradi va shikastlanish xavfini kamaytiradi.

Yo‘llarni uzoq muddatga chidamli qilishda aqlli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. IoT (Internet of Things) texnologiyasiga asoslangan sensorlar yo‘llarning yuklanishini real vaqt rejimida nazorat qiladi va shikastlangan joylarni avtomatik ravishda aniqlaydi. Shuningdek, dronlar yordamida yo‘llarning muntazam inspeksiyasi olib borilib, sun’iy intellekt orqali yoriqlar va deformatsiyalar tahlil qilinadi. Bu yo‘llarni o‘z vaqtida ta’mirlash va xizmat muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Innovatsion yechim: Geosintetik materiallardan foydalanish yo‘lning xizmat muddatini uzaytirishda muhim omil bo‘lib, yo‘l qatlamlari orasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi va eroziyani oldini oladi.

Bundan tashqari, ekologik toza innovatsiyalar ham yo‘l qurilishida tobora ko‘proq joriy etilmoqda. Masalan, quyosh panellaridan iborat aqlli yo‘llar nafaqat transport vositalariga qulaylik yaratadi, balki elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini ham beradi. Piezoelektrik materiallar orqali esa yo‘llardan o‘tgan transport vositalarining bosimi tufayli elektr energiyasi hosil qilish texnologiyasi sinovdan o‘tmoqda. Bu yo‘llar atrof-muhitga minimal zarar yetkazib, energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Sifatli va zamonaviy materiallardan foydalanish, aqlli monitoring tizimlarini ishlab chiqish, og‘ir yuk transportlari uchun qat’iy nazorat o‘rnatish hamda ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash yo‘llarning barqarorligi va mustahkamligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, balki transport tizimining xavfsizligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. (American Association of State Highway and Transportation Officials). (2020). “Guide for Design of Pavement Structures.” Washington, D.C. AASHTO

2. O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil Yo‘llari Davlat Qo‘mitasi. (2023). “O‘zbekiston avtomobil yo‘llarining holati va ularni ta’mirlash strategiyalari.” Toshkent.

3. Sharipov, A. & Xolmatov, B. (2021). “Geosintetik materiallardan foydalanish orqali yo‘llarning xizmat muddatini uzaytirish.” O‘zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Jurnali.

4. Eurobitume Association. (2022). “Bitumen and Modified Asphalt: Technical Guidelines for Road Durability.” Brussels, Belgium.

5. PIARC (World Road Association). (2023). “New or Innovative Pavement Materials.” Prague 2023 Proceedings.

6. PIARC (World Road Association). (2023). “Managing Innovation in Transport Agencies.”

OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIGA WEB-DASTURLASHNI O‘RGATUVCHI PLATFORMA YARATISH

Ortiqov Mironshoh Sodiqovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
(PhD), dotsent,
O‘ngboyeva Muqaddas Yo‘ldoshevna,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan web-dasturlash bugungi kundagi eng talabgir ko‘nikmalar qatoriga kiradi. Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun web-dasturlashni amaliy va interaktiv tarzda o‘rgatishga yo‘naltirilgan platformalar nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiya qiladi, balki mehnat bozorining talablariga moslashishda ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu mavzu ta’limning raqamlashtirilishi va shaxsiylashtirilishi bilan bog‘liq zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Virtual konstruktorlar, Sublime Text, Lego Digital Designer, 3D TinkerCAD, Codecademy, FreeCodeCamp va Khan Academy*

Аннотация: *С развитием цифровых технологий веб-программирование стало одной из самых востребованных компетенций современности. Платформы, ориентированные на практическое и интерактивное обучение веб-программированию для студентов высших учебных заведений, не только модернизируют образовательный процесс, но и играют важную роль в адаптации к требованиям рынка труда. Данная тема имеет особую значимость в решении современных задач, связанных с цифровизацией и персонализацией образования.*

Ключевые слова: *виртуальные конструкторы, Sublime Text, Lego Digital Designer, 3D TinkerCAD, Codecademy, FreeCodeCamp, Khan Academy.*

Abstract: *With the advancement of digital technologies, web programming has become one of the most in-demand skills today. Platforms designed to teach web programming in a practical and interactive manner for university students not only modernize the educational process but also play a crucial role in adapting to labor market demands. This topic is particularly important in addressing modern challenges related to the digitalization and personalization of education.*

Keywords: *virtual constructors, Sublime Text, Lego Digital Designer, 3D TinkerCAD, Codecademy, FreeCodeCamp, Khan Academy.*

Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun veb-dasturlashni o‘rgatuvchi platforma yaratishda e’tibor qaratish lozim.Talabalarning faol ishtirokini ta’minlash uchun interaktiv darslar, amaliy mashg‘ulotlar va testlarni ishlab chiqish muhimdir. Platforma turli darajadagi talabalarga moslashishi, ya’ni boshlang‘ich va ilg‘or darajadagi kurslarni taklif etishi kerak.Informatika fanini o‘qitish uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqish zarur. Elektron o‘quv-uslubiy majmualar va multimedia materiallarini yaratish orqali ta’lim jarayonini boyitish mumkin.

Zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish:

• **Scratch va Python:** STEAM ta’lim texnologiyalari doirasida Scratch va Python kabi dasturlash tillaridan foydalanish tavsiya etiladi.

• **Virtual konstruktorlar:** Lego Digital Designer, 3D TinkerCAD kabi dasturlar yordamida virtual konstruktorlikni joriy etish mumkin.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Internet tarmog‘i orqali masofaviy ta’limni tashkil etish, elektron o‘quv-uslubiy majmualar va masofaviy o‘qitish platformalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.Yuqoridagi jihatlar platforma yaratishda asosiy yo‘nalishlar bo‘lib, ular talabalarga veb-dasturlashni samarali o‘rganish imkonini beradi.

Albatta, veb-dasturlashni o‘rgatuvchi platforma yaratishda qo‘shimcha jihatlarga e’tibor qaratish lozim.Talabalarga veb-sahifalarni yaratish va ularning dizaynini sozlash bo‘yicha chuqur bilim berish uchun HTML, CSS va JavaScript tillarini o‘z ichiga olgan qo‘llanmalar va darsliklarni taqdim etish muhimdir.

Talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashlari uchun kichik loyihalar va mashqlarni bajarishlari kerak. Masalan, oddiy veb-saytlar, blog platformalari yoki interaktiv ilovalar yaratish orqali ular o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.Talabalarga qulay va samarali dasturlash muhiti taqdim etish uchun Visual Studio Code, Atom yoki Sublime Text kabi matn muharrirlarini tavsiya etish mumkin. Ushbu vositalar sintaksisni ajratib ko‘rsatish, kodni avtomatik to‘ldirish va kengaytmalar orqali funksionallikni oshirish kabi imkoniyatlarga ega.

Codecademy, FreeCodeCamp va Khan Academy kabi onlayn platformalar talabalarga interaktiv darslar va amaliy mashqlar orqali veb-dasturlashni o‘rganish imkonini beradi. Talabalarga o‘z ona tilida o‘rganish imkoniyatini yaratish uchun o‘zbek tilidagi qo‘llanmalar, darsliklar va videolarni taqdim etish muhimdir. Masalan, “Web Dasturlash” nomli o‘quv qo‘llanma ushbu yo‘nalishda foydali bo‘lishi mumkin.

Talabalarni jamoaviy loyihalarda ishtirok etishga undash orqali ular birgalikda ishlash, muammolarni hal qilish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.Talabalarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini yaratish uchun onlayn kurslar, vebinarlar va videodarslarni taqdim etish lozim. Bu ularga o‘z vaqtlarini samarali boshqarish va istalgan joydan o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mironshoh Ortiqov. Temir yo‘l transporti sohasiga oliy ma’lumotli mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish muammolari // O‘zmu xabarlari. 135-139-bet.

2. Ортиков М.С., Рузимов О.О. Компетентли ёндашув асосида бўлажак темир йул сохаси мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш // Transportda resurs tejamkor texnologiyalar. 511-514-bet.

3. Ortiqov Mironshoh Sodiqovich, Urazbaeva Gulsina Rustambek qizi Transport sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruriyati // Yosh ilmiy tadqiqotchi. 147-148-bet.

4. “Web Dasturlash” – Mualliflar: R.X. Alimov, A.A. Sobirov, S.A. Saydullayeva, B.A. Sharipov, A.A. Akromov.

5. “Web Dasturlash” – Mualliflar: K. Kerimov, M. Babajonov.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГАЛОГЕННЫХ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ В КАЧЕСТВЕ ИНГИБИТОРОВ БИОКОРРОЗИИ

Абдураимов Арслонбек,
студент Университет экономики и педагогики

Аннотация: *В статье рассматриваются разработка и промышленное применение ингибиторов накипеобразующих компонентов в сточных водах на основе ацетиленового спирта. В качестве объекта исследования были выбраны ацетиленовые спирты с четырьмя типами биологически активных центров. Было обнаружено, что они обладают высокой селективностью при удержании солеобразующих ионов в сточных водах. Установлено, что предлагаемые ингибиторы взаимодействуют с катионами кальция, магния, бария, натрия, а также сульфатными, карбонатными, фосфатными, гидрофосфатными и бикарбонатными анионами сточных вод с образованием хелатов и сложных эфиров, оценена их эффективность.*

Ключевые слова: *нефть, газ, коррозия, ингибитор, анион, соли, ацетиленовые спирты, биологически активный центр.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oqova suvlardagi qattiq cho‘kindi hosil qiluvchi komponentlar uchun asetilenli spirt asosida ishlab chiqilgan inhibitorlar va ularning sanoatdagi qo‘llanilishi muhokama qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida to‘rt xil biologik faol markazga ega bo‘lgan asetilenli spirtlar tanlab olindi. Tadqiqotlar ularning oqova suvdagi tuz hosil qiluvchi ionlarni ushlab qolish bo‘yicha yuqori selektivlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan inhibitorlarning oqova suvlardagi kalsiy, magniy, bariy, natriy kationlari hamda sulfat, karbonat, fosfat, gidro-fosfat va bikarbonat anionlari bilan kelat va murakkab efirlar hosil qilib reaksiyaga kirishishi aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi.*

Kalit so‘zlar: *neft, gaz, korroziya, inhibitor, anion, tuzlar, asetilenli spirtlar, biologik faol markaz.*

Abstract: *The article discusses the development and industrial application of acetylene alcohol-based inhibitors targeting scale-forming components in wastewater. Acetylene alcohols with four types of biologically active centers were selected as the research subject. It was found that these compounds exhibit high selectivity in binding scale-forming ions in wastewater. The proposed inhibitors were shown to interact with calcium, magnesium, barium, and sodium cations, as well as sulfate, carbonate, phosphate, hydrogen phosphate, and bicarbonate anions, forming chelates and complex esters. Their efficiency was evaluated.*

Keywords: *oil, gas, corrosion, inhibitor, anion, salts, acetylene alcohols, biologically active center.*

Введение.

Одной из актуальных проблем в настоящее время является целенаправленный синтез новых типов биологически активных органических соединений и их использование в качестве ингибиторов в нефтегазовой, химической, фармацевтической и текстильной промышленности. В частности, в этой связи особое значение приобретает создание недорогих, высокоэффективных и экологически безопасных отечественных лекарственных препаратов, улучшение их физико-химических, биологических и фармакологических свойств [1].

Добыча нефти и газа, освоение действующих и новых месторождений, переработка нефтегазового сырья и получение из него готовой ценной продукции, хранение готовой продукции, борьба с осложнениями, возникающими при ее транспортировке, разделение водонефтяных эмульсий требуют широкого применения химических реагентов. Среди мер по борьбе с коррозионными процессами, наблюдаемыми в нефтегазовой отрасли, применение ингибиторов коррозии считается наиболее эффективным, так как это экономически выгодный метод борьбы с коррозией. Поэтому защита судов и технического оборудования от коррозии ингибиторами является одним из основных направлений дальнейшего развития нефтяной промышленности. Химические вещества, которые влияют на физические и химические процессы коррозии и предотвращают или останавливают коррозию, называются ингибиторами коррозии. Ингибиторы коррозии уменьшают ущерб, вызванный коррозией, сохраняя функциональные свойства металлических поверхностей и металлических устройств. В узком смысле ингибиторы – это растворенные в растворах электролитов вещества, накапливающиеся на границе раздела фаз металл-раствор электролита в результате адсорбции на поверхности металла. Ингибиторы, применяемые в очень малых количествах в агрессивных средах, способны снизить скорость коррозии в несколько раз. Применение ингибиторов позволяет замедлить коррозию практически в любых средах, в том числе в различных газах, пресной и морской воде, под воздействием кислот, оснований и сильных окислителей, в охлаждающих жидкостях, моторных маслах, а также в гетерогенных системах, существенно снижая уровень биокоррозии [2].

Коррозия металлов ежегодно наносит промышленным предприятиям убытки в миллиарды долларов, и решение этой проблемы является важнейшей задачей. Основной ущерб, наносимый коррозией, – это не только разрушение металла, но и увеличение стоимости продукции, потерянной в результате коррозии, а также косвенные повреждения металлических конструкций. Многие нефтяные и газовые месторождения используют для эксплуатации большое количество воды, что существенно усложняет процесс добычи, сбора и подготовки нефти из-за образования стойких нефтяных эмульсий, отложений неорганических солей, коррозии оборудования и нефтепроводов [3].

Литературный обзор.

Трубопроводы, техническое оборудование и металлоконструкции, используемые при транспортировке, хранении и переработке сырья и готовой продукции в нефтегазовой отрасли, в результате различных внутренних и внешних воздействий, а также влияния различных микроорганизмов, содержащихся в рабочих средах, подвергаются биокоррозии, что в конечном итоге приводит к ухудшению свойств металлоконструкций [4, 5].

Биокоррозия – разрушение внутренних и внешних коррозионностойких поверхностей металлических и стальных конструкций в результате воздействия микроорганизмов, в том числе бактерий, грибков, лишайников и водорослей. Микроорганизмы, вызывающие биокоррозию металлических конструкций, используемых в нефтегазовой промышленности, делятся на аэробные и анаэробные виды [6].

To address these challenges, schools and policymakers must ensure that technological tools are used strategically and equitably in classrooms.

Future Perspectives

The future of reading instruction will likely involve more immersive technologies, such as virtual reality (VR) reading labs and AI-driven storytelling assistants. These advancements will make reading more interactive and engaging, bridging the gap between traditional and digital learning environments.

Conclusion.

Modern technology has significantly enhanced the way reading is taught in English classrooms. Digital platforms, AI tools, gamification, and adaptive learning systems have made reading instruction more engaging, personalized, and effective. However, challenges such as access inequality and teacher preparedness must be addressed to maximize these benefits. By integrating technology strategically, educators can create a more inclusive and effective learning experience for students worldwide.

References:

1. Anderson, R. C., Hiebert, E. H., Scott, J. A., & Wilkinson, I. A. (1985). Becoming a Nation of Readers: The Report of the Commission on Reading. U.S. Department of Education. A foundational study on reading instruction and the importance of comprehension strategies.

2. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Computers in Entertainment, 1(1), 20-20. Explores gamification in education and how interactive learning tools improve literacy.

3. Hirsh-Pasek, K., Zosh, J. M., Golinkoff, R. M., Gray, J. H., Robb, M. B., & Kaufman, J. (2015). Putting Education in "Educational" Apps: Lessons From the Science of Learning. Psychological Science in the Public Interest, 16(1), 3-34. Discusses how AI-powered and digital reading apps contribute to cognitive and language development.

4. Kucirkova, N., & Littleton, K. (2016). The Digital Reading Gap: The Impact of Digital Reading Formats on Learning Processes. Journal of Educational Psychology, 108(1), 20-40. Examines how digital reading platforms affect student engagement and comprehension.

5. OECD (2019). PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. OECD Publishing. Reports on international student reading performance, highlighting the impact of digital tools in education.

MOLIYA TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellektning (SI) moliya tizimidagi o'rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi va maqsadi – moliya tizimining yanada samarali bo'lishida sun'iy intellektning ahamiyatini o'rganish va uning rivojlanish istiqbollarini baholash.Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy sohadagi samaradorligini oshirish va xavfsizlik darajasini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, algoritmik treyding, firibgarlikka qarshi kurash, raqamli bank.*

Аннотация: *В данной статье анализируются роль и возможности искусственного интеллекта (ИИ) в финансовой системе. Актуальность и цель исследования – изучение значимости искусственного интеллекта в повышении эффективности финансовой системы и оценка перспектив его развития. Результаты исследования показывают, что технологии искусственного интеллекта способствуют повышению эффективности финансового сектора и укреплению уровня безопасности.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, финансовые технологии, алгоритмический трейдинг, борьба с мошенничеством, цифровой банк.*

Abstract: *This article analyzes the role and possibilities of artificial intelligence (AI) in the financial system. The relevance and purpose of the study are to explore the importance of artificial intelligence in increasing the efficiency of the financial system and to assess the prospects for its development. The results of the study show that AI technologies contribute to improving the efficiency of the financial sector and strengthening security levels.*

Keywords: *artificial intelligence, financial technologies, algorithmic trading, fraud prevention, digital banking.*

Introduction.

The rapid development of digital technologies is bringing revolutionary changes to the financial system. Through artificial intelligence (AI), machine learning, and big data processing capabilities, the efficiency of financial services is increasing. Nowadays, artificial intelligence is being used in banking, insurance, investment, and other financial sectors. AI-based systems simplify financial analysis and accelerate the decision-making process.Artificial intelligence is becoming an integral part of the development of financial services. In particular, it is applied in offering personalized services, preventing fraud, managing risks, and optimizing investment strategies. For financial institutions, AI technologies serve as a tool to enhance efficiency and security

The government of Uzbekistan is paying special attention to the development of artificial intelligence technologies. The Presidential Decree No. PQ-358, adopted on October 14, 2024, outlines measures for the development of AI technologies until 2030. It highlights the integration of AI technologies into the social sector and economic industries as one of the priority areas.By 2024, the global AI market reached $890 billion, showing a 78% growth compared to 2023. Additionally, according to the Central Bank of Uzbekistan, the share of AI in banking services increased to 60% in 2024 (compared to 40% in 2022). Cost reduction due to AI systems reached 25% to 30%, and customer satisfaction

increased from 65% to 75%, primarily due to fast credit assessment and personalized services.By implementing AI technologies, financial services can enhance customer satisfaction and reduce costs. For instance, AI-based customer service chatbots and automated advisory systems help quickly and efficiently resolve customer issues, increasing their satisfaction. Additionally, operational automation can significantly reduce costs.

Research Methodology.

This study employs an empirical analysis method, examining the impact of artificial intelligence technologies on the financial sector based on international and local experiences. Through a literature review, the application of AI in financial services, its capabilities, and limitations were explored. Additionally, based on international scientific articles and research findings, the prospects for financial technology development were assessed.Furthermore, the impact of AI algorithms on financial processes in real-time was experimentally analyzed. Throughout the research, the effectiveness and limitations of AI technologies were studied based on both global and local experiences. A comparative analysis was conducted between traditional financial systems and AI-driven systems.

Literature Review.

Research on the role of artificial intelligence in the financial system and its impact on financial stability and security is of great significance for the development of this field.

Brynjolfsson and McAfee analyzed how artificial intelligence technologies are bringing revolutionary changes to financial services. They studied the role of AI in automating financial processes, improving customer service, and increasing operational efficiency. Additionally, they examined the impact of artificial intelligence on financial stability and security.

Jordan and Mitchell's research focused on the impact of machine learning models on financial markets and their effectiveness in fraud prevention. They explored how machine learning methods contribute to financial data analysis and fraud detection. Furthermore, they examined the implications of these technologies for financial security and the challenges associated with their implementation

FinTech Global Report (2023): "Artificial Intelligence in Financial Services" .This report highlights key trends in the global financial sector driven by artificial intelligence. It analyzes the use of AI technologies in financial services, their advantages, and the challenges they may pose. Additionally, the report assesses the impact of artificial intelligence on financial stability and security.

Sharipov's article, "Artificial Intelligence Technologies in the Financial Sector and Their Impact on the Financial Ecosystem", explores the influence of rapidly integrating AI technologies into the financial industry on business landscapes. He analyzed AI applications in investment, credit scoring, regulatory compliance, market research, and customer support. Additionally, he discussed the challenges and risks associated with the adoption of artificial intelligence technologies.

According to Chesbrough, artificial intelligence creates vast opportunities for shaping new business models and fostering innovation. For Uzbekistan, the integration of AI technologies into the digital economy is particularly significant. For example, the development of digital payment systems in Uzbekistan facilitates AI implementation and optimization. Government support for digital innovation further reinforces the role of AI in the economy. In particular, artificial intelligence plays a crucial role in improving credit issuance and managing financial risks in the banking sector. At the same time, the literature extensively discusses the impact of AI technologies on the labor market.

According to Arntz, Gregory, and Zierahn, automation and artificial intelligence lead to robotic automation of many work processes and the replacement of workers, while simultaneously creating new job opportunities. In Uzbekistan's developing labor market, the widespread adoption of AI technologies could open new opportunities for highly skilled professionals. However, as Bessen (2019)

pointed out, this process may expose individuals employed in underdeveloped sectors to the risk of unemployment.

Analysis and results.

Artificial intelligence increases the adaptability of financial systems to changing conditions, simplifies banking services and investment processes. Automated analysis methods also serve to increase the effectiveness of financial strategies. These technologies allow banks and financial institutions to reduce operating costs, improve the quality of services provided to customers, and minimize fraud. With the development of AI technologies, banking systems are expected to expand their individual approach to customers, strengthen their ability to combat fraud and financial crimes. The emergence of new AI-based fintech startups and projects in Uzbekistan is accelerating the process of digitizing the country's financial system, based on international experience. Artificial intelligence algorithms analyze large amounts of data in real time, allowing them to automate investment decisions, speed up lending processes, and reduce the risk of fraud. Financial markets are monitored and risks are minimized based on AI. In lending processes, artificial intelligence provides a deeper analysis of customers' solvency and provides accurate forecasts, which increases the efficiency of lending in banking systems. Artificial intelligence technologies are one of the fastest growing areas in the global financial system. Currently, many banks and financial institutions around the world are introducing new services based on artificial intelligence. In particular, in the USA, China and European countries, artificial intelligence is widely used in personalizing financial products, managing risks and automating transactions. World experience: USA and Europe: Large banks such as JP Morgan and Goldman Sachs have developed systems for automatically assessing customers' credit based on AI. They are also developing fraud prediction systems using artificial intelligence. China: Alibaba and Tencent have implemented blockchain and financial monitoring systems using AI, and have been able to increase the efficiency of loan portfolios with the help of AI. Russia: Sberbank has been able to reduce the real-time loan approval process to 5 minutes with the help of AI. Experience of Uzbekistan: The Central Bank of Uzbekistan is developing programs to modernize the financial system based on AI. UzCard and Humo payment systems are expanding the use of artificial intelligence in the fight against fraud. Electronic lending systems have been developed using AI technologies, which have expanded the opportunities for customers to obtain loans quickly. Key results: Systems based on artificial intelligence have increased the efficiency of fraud detection by up to 92%. The speed of customer service has been increased by 30% with artificial intelligence. AI-based programs in monitoring financial markets work 4 times faster than traditional methods. Artificial intelligence is a powerful tool for credit scoring systems increased accuracy to 85%, which helps improve the quality of the loan portfolio. Based on artificial intelligence, optimal trading strategies are developed in the capital markets, which serve to increase investors' profits.

Table 1

Performance Indicators of Artificial Intelligence and Traditional Financial Systems[15]

Parameter	Artificial Intelligence System	Traditional System
Fraud Detection Accuracy (%)	92	75
Credit Scoring Accuracy (%)	85	60
Processing Time (seconds)	0.5	2
Operational Costs (%)	15	30

[15] Authors work

The table compares the performance of AI-powered financial systems with traditional financial systems. According to it, AI is more effective than traditional systems in detecting fraud (92% accuracy), in the credit scoring process (85% accuracy), and in reducing operating costs (15%). AI-powered systems also process financial transactions faster (0.5 seconds), significantly faster than traditional systems (2 seconds). This reveals the benefits of AI technologies for the financial sector.

Conclusions and recommendations.

Artificial intelligence technologies are bringing about fundamental changes in the financial system. The results of the study show that artificial intelligence is playing an important role in accelerating lending processes, effectively combating fraud, providing personal financial services, and automating investment strategies. Further development of artificial intelligence technologies in financial institutions - The banking system of Uzbekistan should accelerate the process of introducing AI technologies, based on international experience. Strengthening the fight against fraud - AI-based security systems should be developed and new algorithms should be developed to combat fraud and cyberattacks. Developing AI services tailored to customers - Artificial intelligence allows for a deeper analysis of customer needs and the provision of individual financial solutions. Improving the legal framework for AI technologies - Financial institutions should contribute to the creation of a special legislative framework for the use of artificial intelligence. Developing ethical standards for the use of AI - Artificial intelligence should ensure adherence to the principles of transparency and fairness in the process of making financial decisions. In short, artificial intelligence is one of the important factors determining the future of the financial system. Through its effective implementation and development, the quality of financial services can be improved and sustainable economic growth can be achieved. The application of artificial intelligence technologies in the financial system will contribute to the digitalization and innovative development of the industry.

References:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W. W. Norton & Company.

2. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence. Harvard Business Review Press.

3. Jordan, M. I., & Mitchell, T. M. (2015). Machine learning: Trends, perspectives, and prospects. Science, 349(6245), 255-260.

4. Arntz, M., Gregory, T., & Zierahn, U. (2016). The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, No. 189, OECD Publishing.

5. Chesbrough, H. (2020). Open Innovation Results: Going Beyond the Hype and Getting Down to Business. Oxford University Press.

6. Sharipov N. G‘. (2022). Moliyaviy sektorda sun’iy intellekt texnologiyalari va uning moliyaviy ekotizimning o‘zgarishiga ta’siri.

7. FinTech Global Report. (2023).

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti (www.cbu.uz).

9. Abdullayev U.M, Axmedov B.I. (2024). Moliya tizimida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari. “Yoshlar va ilm-fan” ilmiy jurnali, 9(1), 1-15.

10. Statista. (2024). AI Market Growth and Trends in Financial Sector. Statista Research.

MUSTAQILLIKDAN KEYIN ANDIJON HUNARMANDCHILIGINING TIKLANISHI VA YANGI DAVR

Axmadaliyev Qobiljon,
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Andijon viloyatida hunarmandchilikning qayta tiklanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi.*

Shuningdek, hunarmandchilik an’analarining yangi sharoitlarga moslashuvi, davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va hunarmandlar faoliyatining bugungi kundagi holati ko‘rib chiqiladi. Maqolada tahlil va natijalar asosida kelajak uchun takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: *Mustaqillik, hunarmandchilik, Andijon, an’ana, rivojlanish, zamonaviy hunarmandchilik, tadbirkorlik, innovatsiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируется восстановление и развитие ремесленного дела в Андижанской области после обретения Узбекистаном независимости.*

Рассматривается адаптация ремесленных традиций к новым условиям, предоставленные государством льготы, а также текущее состояние деятельности ремесленников. В статье также предлагаются рекомендации по дальнейшему развитию данной сферы.

Ключевые слова: *независимость, ремесленничество, Андижан, традиция, развитие, современное ремесленничество, предпринимательство, инновации.*

Abstract: *This article analyzes the revival and development of craftsmanship in the Andijan region after Uzbekistan gained independence.*

It examines the adaptation of traditional craftsmanship to new conditions, state-provided benefits, and the current state of artisans’ activities. The article also offers recommendations for the future development of this sector.

Keywords: *independence, craftsmanship, Andijan, tradition, development, modern craftsmanship, entrepreneurship, innovation.*

Kirish.

Andijon viloyati O‘zbekistonning eng qadimiy hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hudud azaldan hunarmandlar yurti bo‘lib, bu yerda ko‘plab hunarmandchilik turlari rivojlangan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Andijon hunarmandchiligi qadimgi davrlardan boshlab shakllangan va rivojlangan bo‘lib, bu soha nafaqat mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirish, balki qo‘shni hududlar bilan savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynagan.[16] Xususan, kulolchilik, zargarlik, to‘quvchilik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik va boshqa hunarmandchilik yo‘nalishlari Andijon madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan.

Biroq, sovet davrida sanoatlashtirish jarayoni natijasida hunarmandchilik an’anaviy soha sifatida o‘z mavqeini yo‘qota boshladi. Markazlashgan iqtisodiyot va yirik zavodlarning ochilishi natijasida ko‘plab hunarmandlar o‘z faoliyatlarini davom ettira olmay, ishlab chiqarish tizimining boshqa tarmoqlariga yo‘naltirildi. Natijada, milliy hunarmandchilik an’analarining ayrim yo‘nalishlari yo‘qolib ketish xavfi ostida qoldi.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston hukumati milliy qadriyatlar va an’analarni tiklashga alohida e’tibor bera boshladi. Shu jumladan, hunarmandchilik sohasining qayta tiklanishi va rivojlanishi

[16] Nazarov Q. “Hunarmandchilik tarixi va rivoji” (2002).

davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Turli davlat dasturlari va loyihalar doirasida hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqarish uchun sharoit yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Natijada, bugungi kunda Andijonda hunarmandchilikning ko‘plab turlari qayta jonlanib, mahalliy va xalqaro miqyosda o‘z nufuzini oshirib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Hunarmandchilikning tiklanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va monografiyalarni tahlil qilish jarayonida ushbu mavzuga oid turli manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, milliy hunarmandchilikning tarixi, uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va istiqbollari haqida yozilgan ilmiy ishlar hunarmandchilikning bugungi rivojlanish tendensiyalarini tushunishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar tomonidan hunarmandchilikning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy maqolalar va monografiyalar bu sohaga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ayrim mualliflar hunarmandchilikning tarixiy ildizlarini, uning mahalliy aholi hayotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan bo‘lsa, boshqalar bu sohaning zamonaviy iqtisodiyotdagi roli va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari haqida batafsil fikr yuritganlar.[17]

Xususan, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat dasturlari va ularning natijalari haqida yozilgan ilmiy asarlar, statistik ma’lumotlar va tahliliy tadqiqotlar ham muhim manba sifatida foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlar hunarmandchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini, ularning aholi turmush darajasiga ta’sirini hamda milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, turli xalqaro va mahalliy ilmiy anjumanlarda taqdim etilgan materiallar ham hunarmandchilikning global tendensiyalari va O‘zbekistondagi holatini qiyosiy tahlil qilish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Ayrim tadqiqotchilar esa hunarmandchilikning ekologik barqarorligi, an’anaviy texnologiyalarning saqlanishi va ularning zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashuvi masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Shuningdek, Andijon viloyatidagi hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarni yorituvchi ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlar ham alohida o‘rganilgan. Ushbu manbalar Andijon hunarmandchilik maktablarining o‘ziga xos xususiyatlarini, hunarmandlarning tajribalarini va ularning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Shu bois, ushbu mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari hunarmandchilikning istiqbollari haqida xulosa chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda hunarmandchilikning rivojlanish jarayonlarini chuqur o‘rganish va uning hozirgi holatini tahlil qilish maqsadida turli ilmiy usullardan foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda, **tarixiy tahlil** usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali Andijon hunarmandchilik tarixining rivojlanish bosqichlari o‘rganilib, uning shakllanishi va taraqqiyoti haqida aniq ma’lumotlar to‘plandi. Tarixiy manbalar, qadimiy yozma hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda arxiv materiallari asosida hunarmandchilikning mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri va uning madaniy meros sifatida saqlanib qolishi tahlil qilindi.

Ikkinchidan, **statistik tahlil** usuli yordamida hunarmandchilik sohasidagi hozirgi tendensiyalarni aniqlash uchun rasmiy ma’lumotlar va statistik ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Jumladan, Andijon viloyatida hunarmandchilik bilan shug‘ullanayotgan ustalarning soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,

[17] Sharipov B. “Andijon hunarmandchiligi: tarix va zamonaviy rivojlanish”(2018).

ichki va tashqi bozordagi talab darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash dasturlari natijalariga doir statistik ma’lumotlar ham o‘rganildi.

Uchinchi muhim metod – **sotsiologik tadqiqot** bo‘lib, bu usul orqali Andijon viloyatidagi hunarmandlar orasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Tadqiqot jarayonida hunarmandlarning duch kelayotgan muammolari, ularning ehtiyojlari, ishlab chiqarish jarayonidagi to‘siqlar va davlat yordami bo‘yicha fikrlari o‘rganildi. Ushbu metodologiya orqali hunarmandchilik sohasida mavjud muammolarni bevosita ustalarning o‘zlaridan eshitish va ularning kelajak rejalari haqida ma’lumot olish imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, **taqqoslash usuli** orqali O‘zbekiston va xorijdagi hunarmandchilikni rivojlantirish tajribalari solishtirildi. Jumladan, Andijon hunarmandchilik an’analari boshqa mintaqalardagi hunarmandchilik maktablari bilan taqqoslanib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish strategiyalari o‘rganildi. Xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida qanday innovatsion yondashuvlarni qo‘llash mumkinligi ko‘rib chiqildi.

Mazkur metodlar tadqiqotning har tomonlama puxta ishlab chiqilganligini ta’minlash bilan birga, Andijon viloyatida hunarmandchilik sohasining bugungi holati va kelajak istiqbollari haqida chuqur xulosa chiqarish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar.

Mustaqillikdan keyingi yillarda Andijon viloyatida hunarmandchilik sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Milliy an’analarni saqlab qolish va hunarmandlarning faoliyatini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonni tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘sish kuzatilganini aniqlash mumkin:

Birinchi navbatda, **davlat ko‘magining kuchayishi** natijasida hunarmandlarning iqtisodiy sharoitlari yaxshilandi. Hukumat tomonidan hunarmandlarga berilayotgan soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar ularning ish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari orqali xomashyo bilan ta’minlash, kredit ajratish va hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyatlari kengaytirildi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – **turizm va hunarmandchilik integratsiyasi** bo‘lib, bu sohaning rivojlanishida katta o‘rin tutdi. Mahalliy va xorijiy sayyohlarga hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish maqsadida maxsus yarmarka va ko‘rgazmalar tashkil etildi. Andijon hunarmandchiligining noyob an’analari sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otgani sababli, bu jarayon hunarmandlarning mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Uchinchi muhim natija – **hunarmandchilik maktablarining tashkil etilishi** bo‘ldi. Yosh avlodni hunarga o‘rgatish va milliy an’analarni saqlab qolish maqsadida maxsus kasb-hunar markazlari ochildi. Bu maskanlarda tajribali hunarmandlar yoshlarni hunarmandchilik sir-asrorlariga o‘rgatmoqda. Natijada, hunarmandchilik sohasiga yangi avlod vakillari jalb qilinib, sohaning uzluksiz rivojlanishi ta’minlanmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda **innovatsiyalarni joriy etish** orqali hunarmandchilik mahsulotlarida zamonaviy dizayn va texnologiyalar qo‘llanilmoqda. An’anaviy hunarmandchilik usullari zamonaviy ishlab chiqarish usullari bilan uyg‘unlashtirilib, yangi texnologiyalar yordamida mahsulot sifati oshirildi. Bu esa nafaqat ichki bozor talablariga javob berish, balki xalqaro bozorda ham raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratmoqda.

Hunarmandlar sonining o‘sishi

Yil	Hunarmandlar soni
1991	1200
2000	3500
2010	7800
2020	15600
2023	18000

Ushbu jadvalda Andijon viloyatida hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi insonlar sonining o‘sishi aks ettirilgan.

1991-yilda hunarmandlar soni 1 200 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 18 000 taga yetdi. Bu esa mustaqillik yillarida hunarmandchilikning rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Andijon viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanishi mustaqillikdan keyingi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. Davlat tomonidan yaratilgan qulay shart-sharoitlar, soliq imtiyozlari, kredit va subsidiya dasturlari hunarmandlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi. Natijada, hunarmandchilik sohasi faqatgina mahalliy darajada emas, balki xalqaro miqyosda ham rivojlanib, o‘zbek hunarmandchiligining nufuzini oshirdi.

Bundan tashqari, hunarmandchilikni turizm bilan integratsiya qilish jarayonlari an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlarini keng targ‘ib qilishga yordam bermoqda.

Mahalliy va xorijiy sayyohlarning hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishi oshgani sababli, bu soha yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, hunarmandlarning daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

Hunarmandchilik maktablari va kasb-hunar markazlarining tashkil etilishi esa sohaning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yosh avlodni hunarga o‘rgatish orqali milliy meros saqlanib qolishiga va hunarmandchilik an’analarining davomiyligiga erishilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning hunarmandchilikka tatbiq etilishi mahsulotlarning sifatini oshirish va ularning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. An’anaviy usullar bilan zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligi yangi dizayn va ishlab chiqarish texnologiyalarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Umuman olganda, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida Andijon viloyatida bu sohaning kelajagi yanada mustahkamlanib, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Takliflar.

1. Hunarmandchilik sohasida eksport hajmini oshirish uchun xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etishni kengaytirish kerak.

2. Yosh hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus grant dasturlarini yaratish lozim.

3. Hunarmandchilikning raqamli marketing platformalarida faol ishtirokini ta’minlash maqsadida onlayn do‘konlar tarmog‘ini kengaytirish kerak.

4. Hunarmandlarga zamonaviy dizayn va texnologiyalarni o‘rgatish uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. “O‘zbekiston mustaqillik yo‘lida” (1996).
2. Nazarov Q. “Hunarmandchilik tarixi va rivoji” (2002).
3. Rahimov S. “O‘zbek milliy hunarmandchiligi” (2010).
4. Sharipov B. “Andijon hunarmandchiligi: tarix va zamonaviy rivojlanish”(2018).
5. Raxmatova Z. “Hunarmandchilikning iqtisodiy o‘rni” (2021).
6. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hunarmandchilikni rivojlantirishga oid qarorlari”(-rasmiy hujjatlar to‘plami, 2017-2023).
7. Muxammedov K. “Hunarmandchilik va innovatsiya” (2019).
8. “O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” (2022).
9. Yuldashev M. “Hunarmandchilikni tiklashdagi xalqaro tajriba”(2020).
10. “Andijon viloyatining hunarmandchilik yo‘nalishlari” (statistik to‘plam, 2023).
11. Qayumov N. “Hunarmandchilikda biznes yondashuvi” (2021).
12. Jalilov F. “Hunarmandchilik va turizm integratsiyasi” (2022).

JAMIYATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN TURLI XIL ISLOHOTLARDA TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi,
Mardiyeva Nargiza Ilhom qizi,
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatimizda olib borilayotgan turli xil islohotlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik shart – sharoitlari shuningdek oila qurish yoshi talaba yoshlarni oila qurishga pedagogik va psixologik tayyorlash masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, talabalar, munosabat, rivojlanish, oilaviy munosabatlar, emotsiya, harakter, o‘quv faoliyati.*

Аннотация: *В статье рассматриваются социально-психологические условия подготовки учащихся к семейной жизни в условиях различных реформ, проводимых в нашем обществе, а также вопросы педагогической и психологической подготовки учащихся семейного возраста к семейной жизни.*

Ключевые слова: *семья, учащиеся, отношение, развитие, семейные отношения, эмоции, характер, учебная деятельность.*

Abstract: *This article examines the socio-psychological conditions for preparing students for family life in the context of various reforms being carried out in our society, as well as the issues of pedagogical and psychological preparation of students of family-building age for family life.*

Keywords: *family, students, attitude, development, family relations, emotion, character, educational activity.*

Kirish.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi G‘arb davlatlarida oila inqirozi ro‘y berayotgan bir pallada Yangi O‘zbekistonimizda bu masalaga juda katta ahamiyat berayotganligini dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etmoqda. Dunyoning hech bir davlatida oila va uning muammolarini, munosabatlarini o‘rganish va uning yechimlarini topish bu qadar keng qamrovli amalga oshirilmagan. Shu o‘rinda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan bunyon bir qator yillar (1998-yil – “Oila yili”, 1999-yil – “Ayollar yili”, 2000-yil – “Ona va bola yili”, 2007-yil – “Ijtimoiy himoya yili”, 2008-yil – “Yoshlar yili”, 2010-yil – “Barkamol avlod yili”, 2012 yil – “Mustahkam oila yili”, 2013 yil – “Obod turmush yili”) oila muammosiga bag‘ishlandi. 2016-yilga kelib mamlakatimiz yoshlari uchun chinakam imkoniyatlar eshiklari ochildi. Chunonchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari togrisidagi” PQ-4433-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4768-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 23-son qarori bularga yaqqol misol bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yosh avlodni kelgusi katta hayotga tayyorlash muammosi O‘zbekiston dastlab mustaqilligini mustahkamlash konsepsiyasining ajralmas qismi, milliy maktab, milliy qadriyatlarni tiklashning muhim omilidir. Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti sharoitida fuqarolarning yangi avlodini shakllantirish masalasi kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bu masalani hal etish uchun o‘zbek xalq pedagogikasining boy merosi, ilg‘or tajribalarini o‘rganish, amalda qo‘llash muhim hisoblanadi.

Oilani rivojlantirish, mustahkamlashning oilaviy tarbiyaning bugungi kundagi muammolari o‘smir yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasi materiallari asosida ish ko‘rishni, shu yo‘nalishdagi masalaning pedagogik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda yigit va qizlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash ishlari alohida o‘rin tutadi.

Mamlakatimizning ertangi taqdiri bugungi yoshlarimizning kelajakka ishonchi, puxta egallagan kasbi, bilimi va malakasiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 30-avgustda “Yoshlarni ilm fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari togrisidagi” qarori ishlab chiqildi. Qarorda belgilangan vazifalar ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni talab etdi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishiga olib keldi. Bugungi kunda tarixiy ahamiyatga bog‘liq ikkala davlat hujjati mamlakatimizda umumiy va maxsus bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlari shakllangan yoshlarni tarbiyaashda asosiy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Tafakkurli, bilimli, kasb-hunarli, aql – idrokli har bir yosh o‘zinining va o‘zgalarning taqdiriga befarq qaramaydi. Bu esa o‘z navbatida yigit va qizlarda oila qurish va qurgan oilasiga bo‘lgan mas’uliyatni yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Yoshlardagi oila mas’uliyati ko‘pgina ajrimlarni va yetim bolalar ko‘payishining oldini oladi. Qolaversa mustahkam tuzilgan oila farzandlari yurtimiz ravnaqi buyuk kelajagida o‘zlarining ijobiy hissalarini qo‘shishlari aniq. Chunki inson aql-idrokli, tafakkurli bo‘lar ekan u hamisha ezgulikka, yaxshilikka intilib yashaydi va kerak bo‘lsa o‘zgalarni ham ezguliklar sari chorlaydi, vatanini, yurtini obod qilish sari dadil harakatda bo‘ladi. To‘g‘ri fikrli, tafakkurli har inson biladiki, vatanni asrash uni obod qilish bu o‘z hayotining baxtli bo‘lishini eng asosiy mezonlaridan biridir.

Bugungi yosharimiz qalbida, ongida, tafakkurida miliy g‘ururni, vatan tuyg‘usini, insonga, uning oilasi, xonadoni va mahallasini, kindik qoni to‘kilgan aziz joy – Vatanni qalbidan sevishni uyg‘otish kerak. Bular o‘zbek milliy mentalitetining mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Zamonamiz yosh avlodi ongiga bu sifatlarga xos fazilatlarni singdirish psixologik va pedagogik jihatdan murakkab, ko‘p qirrali va uzoq muddat talab qiluvchi jarayon bo‘lib, uning zaminida eng muhim omil – iqtisodiyot yotadi. Davlatimiz rahbarining taktik va strategik yo‘li ham shunga qaratilgan. Buni yosh avlod to‘g‘ri tushunmog‘i lozim. Mamlakatimiz kelajak taqdiri ana shu yoshlarga bog‘liq.

Dunyodagi har bir davlatda o‘z milliy manfaatlarini mustahkamlash erki bor. Bu tabiiyki, sog‘lom, do‘stona, o‘zaro manfaatli raqobatni paydo qiladi. Milliy taraqqiyot xalqning yaratuvchanlik salohiyatiga, farzandning tom ma’nodagi shaxs bo‘lib etishishida uning nasl-nasabi, oiladagi tarbiyasi, mahalla jamoasi katta o‘rin tutadi. Qadim zamonlardan xalqimizda tarbiyaga ta’limdan kam ahamiyat berilmagan. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan hikmat bor. “Olim bo‘lma, ammo odam bo‘l” degan hikmat ham o‘zbeklarda keng tarqalgan. Bu maqollarning tagida katta falsafiy ma’no yotadi. Millat va odamiylik tushunchasi odob-axloq, pok ma’naviyat, diyonat, to‘g‘riso‘zlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bilan birgalikda, vatanparvarlik va elsevarlik kabi tushunchalarni ham ichiga oladi. O‘zbek xalqida ana shunday rang-barang milliy mentalitet va o‘zbekona tizim shakllangan. Bu tizim bolaning tug‘ilishidan boshlab, to kamolga yetib, mustaqil hayotga qadam qo‘yadigan davrgacha bo‘lgan, yillarni qamrab oladi. Bugungi kunda ushbu an’anaviy tizimning asosiy bo‘g‘inlarini oila, mahalla, maktab, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasi tomonidan turli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan seminarlari yigit va qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish yo‘lida ijobiy natijalarni berish tabiiydir”. Balog‘at yoshiga yetgan yigit - qizlarni hozirgi zamon talabi asosida tarbiyalashda ularni maxsus dasturlar orqali o‘qitish ko‘zlangan natijani beradi. Bunda malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ma’ruza, munozara, davra suhbatlari, tarbiyaviy soatlar kabi ish uslublaridan foydalanish mumkin.

Oila har bir inson uchun birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Birinchi tarbiya ham oila hisoblanadi. Shuning uchun farzanlarimizning kamoli ularni oilada qanday tarbiya olishlari, yigit va qizlarning ma’naviy, axloqiy pokligi, savodxonligi, tadbirkorligi, insonparvarligi va vatanparvarligiga bog‘liq.

Yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida o‘zbek xalqining an’analari, madaniyati, urf- odatlari, sharq halqlariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlaridan foydalanish yoshlarning ma’naviy kamolotga yetishlari uchun zarur manbalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, yigit va qizlar o‘rtasida uchrab turadigan noaxloqiy harakatlarning oldini olish, balog‘at yoshiga yetmasdan oila qurish va holatlariga chek qo‘yishda mahallalar, korxona tashkilotlar, o‘quv maskanlarida turli uchrashuvlarni o‘tkazib borish Vazirlar Mahkamasi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Yoshlarni turmushga tayyorlash” dasturini amalda tatbiq etishda muhim omil bo‘ladi.

Yigit va qizlarni ilm olishga, kasb tanlashga bo‘lgan ehtiyojining shakllanishi joylardagi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish kotibiyatlari va jamoat tashkilotlari tomonidan boshqarib turilsa, jamiyatimizga kerakli bo‘lgan mutaxassislarga ega bo‘lish, shuningdek, yigit va qizlarga dinimiz ulamolari va pedagog-psixologlar orqali turli “oila saboqlari” darslari tashkil etilib turilsa, axloq, odob oila qurish, oilani asrab-avaylash madaniyatini shakllantirish mumkin. Buning uchun joylarda mahalla, oila va o‘quv maskanlari hamkorlikda faoliyat olib borishsa, albatta o‘z samarasini bermay qolmaydi. Ayniqsa hozirgi vaqtga kelib bu masalaga yurtimizda jiddiy e’tibor berilmoqda. Masalan, oila qurish istagini bildirib “Nikoh uyi”ga murojaat qilgan yoshlarga “oilaviy munosabatlar” haqidagi dars va treninglarni tashkil etilishi va shu dars saboqlarini o‘zlashtirgan yoshlarga nikoh qurishga rozilik bildirilishi ham yoshlarni ya’ni turmush qurayotgan yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yordam beradi. Bundan tashqari so‘rovnomalar vositasida yigit va qizlar ijtimoiy faolligini hozirgi holatini aniqlash, o‘rganish va tahlil etish, ilmiy xulosalar chiqarish va shular asosida joylardagi muttasaddi tashkilotlarga tavsiyalar berish. Yigit va qizlar tarbiyasini yaxshilash hamda ularning ijtimoiy faollligini kuchaytrish ishlarini to‘g‘ri tashkil etishga imkon beradi. Bir so‘z bilan aytganda, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi barcha vositalarni bir nuqtaga to‘plash, yosh avlodning aqliy va axloqiy shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ruhiy muloqot, sharoit yaratish taqozo etmoqda. Bu vazifalarni o‘quv yurtlari oila va jamoatchilik tomonidan hal etilishi samarali natijalar beradi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va oilada sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish yuzasidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan bu borada “Onalar maktabi”, “Tibbiy ishlar asosi”, “Balog‘at davri” kabi dasturlar bo‘yicha olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor. “Oila kodeksi”ga binoan nikoh qurishdan oldin yoshlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, yosh oilalar uchun dastlabki besh yil dispanser-nazoratini tashkil etish ishlari yo‘lga qo‘yilib, davlat tomonidan katta mablag‘ ajratildi. Har bir shahar va tumanda nikohni qayd etish bo‘limlari qoshida yoshlarga oila, uning muqaddasligi, mas’uliyati, farzand tarbiyasi kabi o‘ta muhim masalalar to‘g‘risida zarur ma’lumot va saboq beradigan “Oila dorilfununlari” tashkil etilgan bo‘lib, ularda 20-mingdan ortiq turmush qurayotgan o‘g‘il-qiz nazoratdan o‘tkazildi va homiylik tibbiy yordami ko‘rsatildi. 5-milliyondan ziyod farzand ko‘rish yoshidagi ayollar 6-yoshgacha bo‘lgan bolalarning qariyb 98 % ni va har tomonlama tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, davolanishga muhiti bo‘lganlar dispanser nazoratiga olindi va sog‘lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Balog‘atga yetgan yigit va qiz bolalar o‘z sirlarini yaqinlari bilan o‘rtoqlashib keladi. Chunki voyaga yetib borayotgan yigit va qiz bola kimgadir o‘z sirini, o‘z holatini aytgisi keladi. Shunday vaqtlarda ota-ona bu masalaga jiddiyroq qarab, o‘z fikr va munosabatlarni to‘g‘ri bayon eta bilsa, tushuntira olsa, farzand to‘g‘ri yo‘lni topib keta oladi.

Oila ostonasida turgan yigit va qizlarimiz uchun balog‘at yoshida ularda sodir bo‘ladigan biologik, fiziologik o‘zgarishlar va ularning nazariy asoslari to‘g‘risida tushuncha berilishi kerak. Mutahassislar tomonidan balog‘at yoshidagi yigit va qizlar uchun tayyorlangan roliklar (animasiyalar)ni namoyish etish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlashning tibbiy tomonlari to‘g‘risida tushunchalar berib borilishi lozim.

Aslida ham ilmiy, ham tabiiy tomondan olganda ham oila ostonasida turgan yigit-qizlarimiz birinchi navbatda jismoniy jihatdan tayyor bo‘lishlari lozim. Chunki, jismoniy zaif yoki nuqsoni bo‘lgan yigit-qizning kelajakda baxtli bo‘lib ketishi hayotdan uzoqdagi gap. Oila qurayotgan yoshlar nafaqat jismoniy sog‘lom balki aqli raso bo‘lishi talab etladi.

Ikkinchidan, oila qurayotgan yigit-qizlar ruhiy jihatdan ham oila qurishga tayyor bo‘lishlari lozim. Irodasi sust, hissiyotlarga me’yoridan ortiq beriluvchan, tafakkuri, xotirasi zaif yoshlar oila qurishganda bir qator muammolar keltirib chiqaradi. Masalan, hissiyotlarga ortiqcha berilib, o‘ta rashqchi bo‘lgan yigit- qizlarning turmushi oson kechmaydi.

Oila qurayotgan yigit-qizlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda qonunda belgilangan tartiblargi to‘la rioya qilishni ta`minlashga erishilsa, yoshlarimiz tomonidan qurilayotgan oilalar mustahkam bo‘ladi. Oilalarning mustahkamligi davlat va jamiyatning mustahkamligiga zamin yaratadi.

Oila mustahkamligiga, oila tarbiyasiga faqatgina chuqur e’tiborni pedagogika va psixologiya fanlarigina emas, yurtimizda ham oila farovonligiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Malakatimizda oila nufuzi uni asrab-avaylash, haq-xuquqlarini himoya qilish jamiyat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan. Xususan Oila Kodeksi yaratilgan bo‘lib, u - oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a’zolari ya’ni er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar va oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Oila Kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi Qarori bilan tasdiqlanib, o‘sha yilning 1-sentabridan amalga kiritildi. Kodeks 8-bo‘lim, 30-bob, 238-moddadan iborat.

Mas’uliyatli erkaklar esa, oilaga mehr-muruvvatli ko‘z bilan qaraydilar. Loqaydlik kasaliga chalingan kishilar: oila qurishga tayyor bo‘lmagan ba`zi ayollar qirolicha bo‘lishni istaydi, erkak esa qirol... Ikkisi ham qo‘lini sovuq suvga urmay yashashni xohlaydi. “Men hech narsa qilmayman, charchayman. Hamma ishni turmush o‘rtog‘im qilsin”, deb o‘ylaydi. Tabiiyki, shunday niyat bilan turmush qurganlar haqiqatdan oila qurmagan bo‘ladi. Chunki ularning niyati sog‘lom va to‘g‘ri emas. Shu bois bunday oilaning umri qisqa bo‘ladi.

Turmush quradigan yoshning tanlagan umr yo‘ldoshiga ko‘ngli isishi lozim. Albatta yuz foiz mutanosiblik va tenglik bo‘lishi qiyin. Ammo uyg‘unlik shartlari katta hisob bilan muvofiq kelishi kerak.

Agar yaxshi niyatli, ibodatli turmush o‘rtoq tanlasa, oilada o‘zaro mojarolar kam bo‘ladi. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vaqt o‘tishi bilan er-xotinlar ham jismoniy, ham axloqiy jihatdan bir-birlariga o‘xshab ketadilar. Bu ham nikohning bir karomatidir.

Turmush o‘rtoq tanlashda “yetti o‘lchab, bir kes” maqoliga amal qilgan ma’qul. Oilani ortga qaytilmaydigan yo‘l sifatida o‘ylash va shu bois turmush o‘rtoq tanlashda shoshilmaslik va juda e’tiborli bo‘lish kerak.

Albatta, oila bir butundir. Shu bois yaxshi yashash uchun bu xususida erkaklar zimmasiga ham muhim vazifalar yuklanadi. Ba'zi erkaklar qaynona-kelin urishida chetga turish va aralashmaslikni afzal ko‘radilar. Bu katta xatodir. Avvalo, har bir er ona sevgisi va xotiniga bo‘lgan sevgini bir-biridan ayira olishi kerak. Bilishi kerakki: "Jannat onalar oyog‘i ostidadir". Shu tufayli ona yuragini doimo asrab, baxtli va xursand qilishi kerak. Agar har doim va har qanday mavzuda xotinining yonini olib, onasiga qarshi chiqsa, katta gunoh bo‘ladi. Aksincha, ular orasida kelishmovchiliklar bo‘lsa buni bartaraf qilish yo‘lini qilishi kerak. Bu erkakning oila oldidagi vazifalaridan biri, bundan tashqari erkak kishining oila oldida yana bir qancha vazifalari bor. Oilani moddiy ta'minotini olib borishi, farzandlar tarbiyasida barcha mas`uliyatni ayolga yuklamay o‘zi ham e'tiborli bo‘lishi, oilada sog‘lom tarbiya muhitini yaratishda o‘z hissasini qo‘shishi, barcha oila a'zolarini hurmat qilishi va shu bilan birga ayolini ham asrab-avaylashi, insoniy manfaatlarini xurmat qilishi, kezi kelganda ayoli his- tuyg‘ularga berilib oila a'zolarga noto‘g‘ri munosabat qilsa unga to‘g‘ri maslahatlar berishi, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi kerak bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan psixologik - pedagogik tadqiqotda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi: talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tajriba-sinov ishlarining predmeti esa Guliston davlat universiteti Amliy psixologiya yo‘nalishi talabalarini tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari amaliyotda sinab ko‘rilishi natijasida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalar va suhbatlar natijasida quyidagilar aniqlandi: Ushbu o‘zlashtirish darajalari aniqlandi va uch darajaga ajratildi. Mazkur darajalarni "yuqori", "o‘rta", "quyi" deb belgiladik.

Daraja	Yigitlarining o‘zlashtirish tarkibi		Tajriba-sinov guruhlari yigitlarining o‘zlashtirish tarkibi	
	yigitlar soni	% hisobida	yigitlar soni	% hisobida
Yuqori	60	20,0	100	33,3
O‘rta	80	26,7	170	56,7
Quyi	160	53,3	30	10,0

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati, qo‘llanilish ahamiyati o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra aniqlandi. Bunda talaba-yoshlarning so‘rovnomalarga bildirgan yozma va og‘zaki javoblari aniqlandi.

Talaba-yoshlarning javoblari mezoni quyidagicha ifodalandi.

1-guruhga (yuqori daraja) mansub talabalar. Bu talabalar oilaviy hayot to‘g‘risida tushunchalari keng shakllanganligi bilan tavsiflandi. Bu yo‘nalishdagi talablarda oilaviy hayotga tayyorgarlik holati yuqori darajaga xosdir.

2-guruhga (o‘rta daraja) kirgan yigitlarda oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi etarli bo‘lmagan, to‘laqonli shakllanmagan, lekin oilaviy hayotga tayyorlanish istagi borligi bilan belgilandi.

3-guruhga (quyi daraja) shunday talabalar kiritildiki, oilaviy hayotga tayyor bo‘lmagan, shakllanmagan, ammo oila qurish ehtiyoji mavjudligi bilan ifodalandi.

Tajriba-sinov ishlari Guliston davlat universiteti Amliy psixologiya yo‘nalishi 2-3 bosqich talabalarida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari yuqoridagi keltirilgan darajalashtirish mezoni bo‘yicha guruh-

larga ajratildi. Talaba-yoshlar soni umumlashtirilib tajribagacha va tajribadan keyingi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tajribagacha – 160-nafar quyi darajadagi, 60 -nafar o‘rta darajadagi va 80 -nafar yuqori darajadagi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlaridan keyin - 33 (10,4%)-nafar talaba-yoshlar o‘zlashtirishi quyi darajada, 80 (40 %)-nafar yigitning o‘zlashtirishi o‘rta darajada, 100 (50 %) -nafar talaba-yoshlarning o‘zlashtirishi esa yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalaridan ko‘rinib turibdiki, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida hali hamon oqsab bormoqdamiz. Kelgusida talaba-yoshlar munosib oila boshlig‘i, na’munali ota, mas’uliyatli er, oilada o‘z o‘rniga ega va o‘z vazifalarini na’munali tarzda ado eta oladigan oila tayanchi va oila ustuni bo‘lib kamol topishida nafaqat oilada tarbiya beradigan ota – ona balki jamiyatimiz a’zolari ham daxldordir. Buning uchun oila va barcha ta’lim muassasalari hamda mahalla a’zolari hamkorlikda failiyat olib borishsa albatta samarali natijaga erishiladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda yoshlarni oila qurishga tayyorlashda quyida takliflarni ishlab chiqdik:

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;
- Balog‘at yoshidagi ygit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq ko‘rsatma va tavsiyalarni markazdan uzoqda joylashgan hududlarga o‘z vaqtida yetkazishga e’tiborni qaratish;
- yosh qizlarni erta turmushga bermaslik uchun ota-ona, mahalla oqsoqollari, o‘quv yurtlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutasaddilarni mas’uliyatini oshirish;
- joylarda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini muntazam oshirib borishni yo‘lga qo‘yish;
- balog‘at yoshidagi farzandlarning taqdirini turli kishilargi ishonib, o‘zlari xorijga ketgan ota-onalar bilan ish olib borishda mahalla va turli tashkilotlarning mas’uliyatini oshirish.

Oila – qadim zamonlardan buyon hayot davomiyligini ta’minlab kelayotgan aziz maskan. Oilasiz jamiyatni tasavvur etib bo‘lmaydi. Oilaning mustahkamligi, barqarorligi esa balog‘at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz davomida yoshlarni ya’ni yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarning yechimini o‘rganib, tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasi yutuqlaridan oqilona foydalanish va yigitlarni kasb-hunar o‘rganishga jalb etish, yigitlarni barcha bo‘sh vaqtini samarali ishlarga qaratish o‘qishdan tashqari fan, sport va san’atga e’tiborini qaratish va jalb etish;
2. Oilada sog‘lom muhitni shakllantirish;
3. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini oshirish;
4. Yoshlarning jismoniy sog‘lomligi va ma’naviy-axloqiy sifatlariga ko‘proq e’tiborni qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari togrisidagi” PQ-4433-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4494504

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4768-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4880129

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 23-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5234746

4. Shomansurova R. Kelinnoma. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 464-b.

5. Bekalik saodati: oila saboqlari. /To‘plab nashrga tayyorlovchi Husniya Pardaeva. –Yurist-Media markazi, 2012, 104-b.

6. Safarov O. Oila ma’naviyati. –T.: Ma’naviyat, 2009, 248-b.

7. Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo‘llari.

8. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta‘lim markazi. - T.: Sharq, 2010. – 296 b.

9. Yoshlar ma’naviyati va sog‘lom turmush tarzi. Pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova umumiy tahriri ostida. “Oydin hayot”, Respublika sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish markazi. – T.: 2012, 274-b.

10. Shomansurova R. Kelinnoma. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 464-b.

11. Bekalik saodati: oila saboqlari. /To‘plab nashrga tayyorlovchi Husniya Pardaeva. –Yurist-Media markazi, 2012, 104-b.

12. Unsurul Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” Toshkent, Adabiy-badiiy nashr, 174 bet.

13. V. V. Kunitskaya. “Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo‘llari” Ijtimoiy o‘qituvchi . (2017)

14. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili/Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

“TOVAR BOZORLARINING DINAMIKASI: IQTISODIY O‘SISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRI”

Egamnazarova Aziza,
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Zamonaviy iqtisodiyotda birja savdolari global moliyaviy tizimning yuragi hisoblanadi. Bu jarayon investitsiyalarni boshqarish, narxlarni belgilash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Birjalar faqatgina kompaniyalar va investorlarga emas, balki butun jamiyatga iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada birja savdolari mohiyati, ularning turlari, olimlar izlanishi va ularning hozirgi hayotda tutgan o‘rni va jahon moliyaviy bozorlariga ta’siri tahlil qilindi*

Kalit so‘zlar: *Savdo birjalari, talab, taklif, sof raqobat, kotirovka,ko‘rinmas qo‘l, spekulyativ ko‘piklar, bozor samaradorligi gipotezasi, texnologik inqiroz, likvidlik, mahalliy va global bozorlar, paxta xomashyosi savdolari*

Annotation: *In the modern economy, stock exchange is the heart of the global financial system. This process is important in managing investments, setting prices, and stimulating economic growth. Stock exchanges serve to ensure economic stability not only for companies and investors, but also for the entire society. This article analyzed the nature of stock exchanges, their types, the search for scientists and their role in modern life and their impact on world financial markets.*

Keywords: *Trade exchanges, demand, supply, pure competition, quotation, invisible hand, speculative bubbles, hypothesis of market efficiency, technological crisis, liquidity, local and global markets, cotton raw material trading.*

Аннотация: *В современной экономике фондовая биржа является сердцем мировой финансовой системы. Этот процесс важен для управления инвестициями, установления цен и стимулирования экономического роста. Фондовые биржи служат обеспечению экономической стабильности не только компаний и инвесторов, но и всего общества. В данной статье проанализирована природа фондовых бирж, их виды, поиски ученых и их роль в современной жизни и их влияние на мировые финансовые рынки.*

Ключевые слова: *Торговый обмен, спрос, предложение, чистая конкуренция, котировка, невидимая рука, спекулятивные пузыри, гипотеза эффективности рынка, технологический кризис, ликвидность, локальный и глобальный рынки, торговля хлопковым сырьем.*

Introduction.

Birja shaffof bozor infratuzilmasi hisoblanadi. U o‘z ichiga talab va taklif, sof raqobat, kotirovkalar kabi tushunchalarni qamrab oladi. Birja savdolarini tashkillashtirish va ishtirok etishdan har tomon manfaatdor bo‘ladi. Ushbu maqola ma’lumotlari birjaning bozordagi tutgan o‘rni, unda tomonlarning manfaatlari hamda bugungi kundagi yengilliklar bayon qilinib, shu mavzuda fikr yuritgan olimlar va tadqiqotchilar fikrlari bilan to‘ldirilib, statistik ma’lumotlar bilan taqqoslashlar orqali bayon qilindi. Shuningdek, birja savdosi hususan, tovar birjasi yo‘nalishida faoiliyat olib boryotgan hodimlar orqali bugungi kunda tomonlar manfaati uchun xizmat qiluvchi omillar sanab o‘tildi va muommolar tahlil qilindi.

Literature review – Birja savdolari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu sohaga oid nazariy va amaliy jihatlarni chuqur o‘rganishga xizmat qilmoqda. Markovits (1952) tomonidan ish-

lab chiqilgan portfel nazariyasi investorlar uchun optimal investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy qo‘llanma hisoblanadi. Birja savdolarining texnologik rivojlanishi esa Black-Scholes modelining (1973) kiritilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarilgan. Ushbu model opsionlarni narxini aniqlashda inqilobiy yondashuvni taklif etdi va hozirgi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Birja savdolari faoliyatining samaradorligini o‘rganishda Eugene Fama tomonidan ishlab chiqilgan bozor samaradorligi gipotezasi (Efficient Market Hypothesis, 1970) muhim o‘rin tutadi. Ushbu gipotezaga ko‘ra, bozorlar har qanday mavjud ma’lumotni o‘z narxlarida aks ettiradi va shu sababli, bozor ishtirokchilari faqatgina mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda birjadan uzoq muddatli daromad olishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda Fama bozorlarni uchta darajada tahlil qiladi: kuchsiz, yarim kuchli va kuchli samaradorlik. Masalan, kuchsiz samaradorlik bozor narxlarining o‘tgan tarixini tahlil qilish orqali kelajakdagi narx o‘zgarishlarini oldindan aytib berishni imkonsiz deb hisoblaydi. Yarim kuchli samaradorlik esa nafaqat o‘tgan tarixiy ma’lumotlar, balki jamoatchilikka ochiq bo‘lgan barcha axborotlar ham narxlarga tezda aks etishini ko‘rsatadi. Kuchli samaradorlik esa ichki ma’lumotlarga ega bo‘lgan investorlar ham bozordan doimiy ravishda yuqori daromad ola olmasligini bildiradi.Ushbu nazariyaga qarshi chiqqanlar ham bo‘lib, ular bozor samaradorligi har doim ham mukammal ishlamasligini ta’kidlaydilar. Masalan, Robert Shiller (1981) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar spekulyativ ko‘pikliklar va investorlarning psixologik xatti-harakatlari bozor narxlarida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Bunday holatlar, xususan, 2008-yil global moliyaviy inqirozi paytida aniq namoyon bo‘ldi, chunki aktivlar narxi haqiqiy iqtisodiy asoslardan uzoqlashgan edi. Shu sababli, birja savdolarini tahlil qilishda klassik nazariyalarni zamonaviy tadqiqotlar bilan birlashtirish zarur. Ushbu yondashuv bizga birja savdolarining murakkab mexanizmlarini chuqurroq tushunish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.[3]

Robert J. Shiller – Yel universiteti professori, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori va moliyaviy bozorlar xulq-atvorini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari bilan tanilgan. Uning ishlari moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi, noaniqligi va spekulyativ ko‘pikliklari haqida chuqur tahlillarni o‘z ichiga oladi.Shillerning eng mashhur ishlari moliyaviy bozorlarning aksariyat holatlarda ratsional bo‘lmasligi va hissiy xatti-harakatlar asosida harakat qilishini ta’kidlaydi. U o‘zining “Irrational Exuberance” (2000) kitobida spekulyativ ko‘pikliklarni qanday paydo bo‘lishi va ular iqtisodiyotga qanday zarar keltirishi haqida yozgan. Ushbu kitobda 2000-yillardagi texnologik inqiroz haqida oldindan ogohlantirilgan edi. Shiller uy-joy narxlari bo‘yicha Case-Shiller indeksini ishlab chiqishda katta hissa qo‘shgan. Ushbu indeks global moliyaviy inqirozga olib kelgan sabablarni chuqur tahlil qilishda ishlatilgan. Shillerning tahlillari ko‘rsatdiki, uy-joy bozori spekulyativ ko‘pikliklar tufayli haddan tashqari qimmatlashgan va bu ko‘piklik keyinchalik iqtisodiy halokatga olib kelganShiller investorlarning qarorlarini faqat ratsional omillar emas, balki hissiy va psixologik jihatlar ham boshqarishini isbotlagan. Unga ko‘ra, odamlar moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ko‘pincha xato qiladi, chunki ular o‘zlarining qo‘rquv yoki optimizm kabi hissiyotlariga asoslanadi. So‘nggi yillarda Shiller iqtisodiy o‘zgarishlarga ta’sir qiluvchi hikoyalar va narrativlarning rolini o‘rganmoqda. U iqtisodiy voqealar qanday qilib ommaviy fikr va ijtimoiy narrativlar asosida shakllanishini tushuntirgan. Masalan, uy-joy bozoridagi “uylar narxi har doim ko‘tariladi” degan qarash narxlarning haddan tashqari ko‘tarilishiga olib kelgan. Shillerning ishlari investorlar va siyosatchilarni moliyaviy bozorlarni chuqurroq tushunishga, spekulyativ ko‘pikliklarni oldindan aniqlashga va moliyaviy inqirozlarning oldini olishga undadi. U o‘zining tadqiqotlari orqali moliyaviy modellarning faqat ratsional qarorlarni hisobga olishdan ko‘ra murakkabroq ekanini isbotladi. So‘nggi yillarda birja savdolarini tahlil qilishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishga oid tadqiqotlar kengayib bormoqda. Masalan, algorifmik savdo va blokcheyn texnologiyalarining joriy

etilishi savdolarni tezkor va shaffof qilishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu mavzudagi ilmiy adabiyotlar birja savdolari bozorining global miqyosda qanday rivojlanib borayotgani va iqtisodiyotga bo‘lgan ta’sirini har tomonlama o‘rganishga yordam bermoqda.[4]

Methodology:

Primary research Tovar birjalarini bozor infratuzilmasida tutgan o‘rni, ahamiyati va to‘g‘irlash kerak bo‘lgan kamchiliklari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasi Sirdaryo viloyati filialidan yetakchi mutahassis Ravshan Abdunazarov bilan ilmiy suhbat olib borildi. Unga ko‘ra

- Tovar birjasi bozor infratuzilmasida qanday rol o‘ynaydi?
- Tovar birjalari iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda qanday yordam beradi?
- Tovar birjalari global savdo zanjirlarida qanday ahamiyatga ega?
- Tovar birjasida ishlaydigan investorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun qanday xavflar mavjud?
- Tovar birjasining kamchiliklari va ularni yengish uchun qanday choralar ko‘rilmoqda?
- Yaqin kelajakda tovar birjalarida qanday o‘zgarishlar yoki rivojlanishlar bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?

Savollar orqali ma’sul shaxsdan tovar birjasi haqida va uning faoliyati to‘g‘risida atroflicha fikrlar olindi va undagi kamchiliklarga yechimlar izlandi.

Secondary research Tovar birjalari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali xom ashyo va tovarlar savdosi amalga oshiriladi. Dunyodagi yirik tovar birjalari, masalan, CME va NYMEX, energiya resurslari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va moliyaviy vositalar bilan savdo qilishda ustunlikka ega. CME 1 milliard shartnoma savdosi bilan dunyodagi eng yirik tovar birjalaridan biri hisoblanadi. Bu uning global moliyaviy bozorlar bilan yuqori darajada integratsiyalanganligini, shuningdek, turli xil savdo turlari (energiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, moliyaviy vositalar) bilan muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. NYMEX esa asosan neft va tabiiy gaz bilan savdo qilishga yo‘naltirilgan va 500 million barrel neft savdosi bilan energiya sohasida yetakchi hisoblanadi. LME (London Metal Exchange) metallarga, ayniqsa mis, alyuminiy, rux kabi metallarga ixtisoslashgan. U 150 million tonna metall savdosi bilan metall bozoridagi yetakchi o‘rinlardan biriga ega. SHFE (Shanghai Futures Exchange) esa Xitoyning eng yirik tovar birjasi bo‘lib, 20 million tonna mis va 10 million tonna neft savdosi bilan Osiyo bozorlarida ustunlikni qo‘lga kiritgan. TOCOM (Tokyo Commodity Exchange) esa qimmatbaho metallar, jumladan oltin va neft bilan savdo qilishda ixtisoslashgan va Yaponiya bozorida muhim ahamiyatga ega.[5] UZEX (O‘zbekiston Respublika Tovar-Xomashyo Birjasi) O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan paxta va bug‘doy savdosida muhim rol o‘ynaydi. UZEXning 1 million tonna paxta va 500 ming tonna bug‘doy savdosi O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi eksport salohiyatini aks ettiradi. Boshqa birjalardan farqli o‘laroq, UZEX asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga yo‘naltirilgan, bu O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. DGCX (Dubai Gold and Commodities Exchange) Dubayda joylashgan va qimmatbaho metallar, xususan oltin va kumush savdosi bilan ixtisoslashgan. 10 million untsiya oltin va 5 million untsiya kumush savdosi bu birjani global oltin va kumush bozorida katta o‘ringa qo‘yadi.[6] MCX (Multi Commodity Exchange) Hindistonda joylashgan va energiya resurslari, metallar bilan savdo qilishda ixtisoslashgan. Bu birja Hindiston va Osiyo uchun muhim savdo markazi bo‘lib, 50 million tonna mis va 20 million barrel neft savdosi bilan ajralib turadi. ICE (Intercontinental Exchange) esa global moliyaviy vositalar va energiya resurslari bilan savdo qiladigan birja sifatida o‘zining o‘rnini topgan. Uning 200 million shartnoma savdosi ICEning global savdo hajmidagi ustunligini ko‘rsatadi. Eurex (Germany) esa asosan moliyaviy vositalar bilan savdo qilishda ixtisoslashgan. Evropaning yirik birjalaridan biri bo‘lib, 1 milliard shartnoma savdosi amalga oshirilgan. Ushbu ma’lumotlardan quyidagi jadval orqali aniq ma’lumotlar olish mumkin.[7]

Exchange Name	Traded Products	Trading Volume
CME	Energy, agricultural products	1 billion contracts
LME	Metals	150 million tons
NYMEX	Oil, natural gas	500 million barrels of oil
UZEX	Cotton, wheat	1 million tons of cotton
TOCOM	Precious metals, energy	10 million ounces of gold
SHFE	Metals, energy	20 million tons of copper
DGCX	Gold, silver	10 million ounces of gold
MCX	Metals, energy	50 million tons of copper
ICE	Energy, agricultural products	200 million contracts
Eurex	Financial instruments	1 billion contracts

Xulosa o‘rnida shuni aytish muhimki, har bir birja o‘zining ixtisoslashgan sohasida alohida ustunlikka ega. CME va NYMEX energiya resurslari va moliyaviy vositalar savdosidagi global yetakchiligini namoyon etadi, LME va SHFE metall bozorlarida ustunlikka ega. UZEX O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan paxta va bug‘doyda kuchli, DGCX va MCX esa oltin, kumush va metallar savdosida yetakchilik qiladi. ICE va Eurex moliyaviy bozorlar va energiya resurslari savdolarida o‘z o‘rnini topgan.Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir birjaning o‘ziga xos ustunliklari mavjud va ular dunyo bo‘ylab iqtisodiy tizimdagi o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Tanlashda savdoga qo‘yiladigan mahsulotlar va sohalar asosiy rol o‘ynaydi.

Result.

Yuqoridagi mazkur ilmiy suhbat orqali savollarga aniq misollar orqali javoblar olindi va muommoli vaziyatlar yuzasidan muhokamalar orqali yechimlar izlandi. Xususan, Tovar birjasining bozor infra tuzilmasidagi tutgan ahamiyatiga ushbu yo‘nalishda o‘z faoliyatini olib borayotgan Ravshan Abdurazzoqov quyidagi fikrni bildirdi:

“Birja bozorida talab va taklif asosida adolatli narx shakllanadi, bu esa ishtirokchilar uchun bozorning holati to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Elektron savdo tizimlari orqali shaffof va nazorat qilinadigan savdo jarayonlari tashkil etiladi. Birja katta hajmdagi tovarlar va xizmatlarning tez va oson savdosiga imkon yaratadi. Futur va optsionlar kabi vositalar yordamida narx o‘zgarishiga nisbatan risklarni kamaytiradi.”

Kamchilik va ko‘zda tutilgan xatoliklarni to‘g‘irlash maqsadida esa muhokamali vaziyatlar asosida ma’lum kamchiliklarga yechim topildi va atroflicha o‘rganildi. Xususan, Ayrim yirik ishtirokchilar bozorda monopoliyani shakllantirishi mumkin. Bu muommoga yechim sifatida raqobatni rag‘batlantiruvchi qat’iy qonunchilik asoslarini joriy qilishni taklif qilinda va bu ko‘zda tutilgan natijasini berishiga ishonchimiz hosil. Ayrim hollarda axborotning noaniqligi yoki noto‘g‘ri yetkazilishi muammosi mavjudligi sababli, yechim sifatida elektron platformalarni modernizatsiya qilish va real vaqt rejimida ma’lumotni taqdim etishni fikri ilgari surildi. Kichik ishtirokchilar uchun zarur kapital yoki resurs yetishmasligi bozorning samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Bunday holatda esa kichik ishtirokchilar uchun kredit liniyalari yoki subsidiyalarni yo‘lga qo‘yish muommoga yechim bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda birjalarni boshqarish tizimining samarasizligi kuzatiladi. Shu sababli, xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy qilish va nazoratni kuchaytirish amalda yo‘lga qo‘yolishi ko‘zda tuzilgan.

Analysis.

Birjalarda narx talab va taklif asosida belgilanganligi sababli, ishtirokchilar bozorning real holatini bilishadi. Bu esa adolatli va ochiq savdolarni ta’minlaydi. Birja savdolari tovarlar va moliyaviy vositalarni tezkor va samarali savdo qilish imkonini beradi, bu esa bozor likvidligini oshiradi. Shuningdek, birja platformalari kichik va yirik ishtirokchilarga teng imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa bozorda sog‘lom raqobatni rivojlantiradi. Futur va optsion kabi vositalar yordamida narx o‘zgarishi xavflaridan himoyalanish imkonini beradi. Bu ayniqsa qishloq xo‘jaligi va energetika sohalarida dol-

zarb. Shunisini ham inobatga olish joizki, birja savdolari hududlar va davlatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, eksport va importni rivojlantiradi. Hozirgi vaqtda birjalar elektron savdolar orqali vaqt va resurslarni tejash imkoniyatini yaratmoqda.

Tanganing ikkinchi tomoni bo‘lganidek, birja savdolarining ham o‘zi xos kamchilik jihatlari ham mavjud. Birja savdolarida spekulyatsiyalar narxlarning haddan tashqari o‘zgaruvchanligiga olib kelishi mumkin, bu esa ishtirokchilar uchun moliyaviy yo‘qotishlar xavfini oshiradi. Birjalardagi global inqirozlar mahalliy bozorlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xalqaro birjalardagi tovarlar (masalan, neft, gaz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) narxlarining keskin o‘zgarishi ichki bozordagi narx barqarorligiga ta’sir qiladi. Bu esa milliy ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar uchun iqtisodiy xavflarni oshiradi. Yirik kompaniyalar birja savdolariga ko‘proq ta’sir o‘tkazib, bozorda monopol holatni shakllantirishi mumkin. Tovar birjalari ko‘pincha yirik shaharlarda yoki iqtisodiy markazlarda faoliyat yuritadi. Natijada, chekka hududlar yoki qishloq joylaridagi ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar birja savdolariga kirish imkoniyatidan cheklangan bo‘lishadi. Bu holat iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi va bozor samaradorligini pasaytirishi mumkin. Regionlarda teng imkoniyatlarning yo‘qligi birjaning barcha ishtirokchilarga teng sharoit yaratish tamoyiliga zid keladi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun infratuzilma, texnologik rivojlanish va moliyaviy yordamni kuchaytirish orqali qishloq joylardagi tadbirkorlarni bozor savdolariga integratsiya qilish zarur. Bu esa iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga va umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Discussion.

Birja savdolari va tovar birjasining aylanma daromadlari masalasi iqtisodiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar uchun muhim mavzu hisoblanadi. Bu sohadagi yetakchi olimlardan biri bo‘lgan Adam Smit, bozorning “ko‘r” qo‘li konsepsiyasini ishlab chiqib, iqtisodiy tizimning samarali ishlashida raqobatning, erkin savdoning va davlatning roli haqida chuqur fikrlar bildirgan. Smitning fikriga ko‘ra, bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini tartibga solishga qodir bo‘lgan va davlatning aralashuvi minimal bo‘lishi kerak. Ushbu qarashlar, o‘z vaqtida bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini ta’minlashga asos bo‘lib, bugungi kunning birja savdolarida ham ahamiyatini saqlaydi. Shu bilan birga, Eugene Fama, samarali bozorlar hipotezasi (EMH) bilan tanilgan olim sifatida, birja savdolarining hozirgi tushunchalariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Fama bozorlar axborotni to‘liq va samarali aks ettiradi, deya ta’kidladi. Uning fikricha, aksiyalar narxlarining o‘zgarishi faqat ommaviy ma’lumotlarga asoslanadi va ularni bashorat qilish qiyin. Bu yondashuv birja savdolarining qisqa muddatli va uzoq muddatli o‘zgarishlarini tahlil qilishda samarali bo‘lib, tovar birjasining aylanma daromadlari bilan bog‘liq tahlillarda ham ahamiyatga ega. 2024 yilda tovar birjasining aylanma daromadlari o‘rtasidagi munosabatlar, bozorning barqarorligini va likvidligini ta’minlashga xizmat qildi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, birja savdolaridagi o‘zgarishlar, xususan, tovar bozorlaridagi narx o‘zgarishlari, global iqtisodiy sharoitlar va ichki bozordagi talab va taklifning muvozanati bilan chambarchas bog‘liqdir. 2024 yilda tovar birjasida aylanma daromadlarning o‘sishi, iqtisodiy o‘sishning tezlashishi, savdolarni qo‘llab-quvvatlash uchun yanada keng qamrovli moliyaviy vositalarning joriy etilishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, global iqtisodiy tizimning o‘zgarishi, ayniqsa, energiya, qishloq xo‘jaligi va metallarga bo‘lgan talabning ortishi, 2024 yilda tovar birjasidagi aylanma daromadlarining o‘sishini rag‘batlantirdi. Bu jarayon, Smitning erkin bozorlarni qo‘llab-quvvatlash va Famaning samarali bozorlar hipotezasi bilan bog‘liq g‘oyalari asosida, bozorning o‘z-o‘zini tartibga solishga qodir ekanligini yana bir bor isbotladi. Shu bilan birga, 2024 yilda birja savdolaridagi yangi texnologiyalar, raqamli transformatsiyalar va blockchain tizimlarining joriy etilishi bozorning shaffofligini oshirib, aylanma daromadlarning o‘sishiga yordam berdi. Bularning barchasi bozorlar samaradorligini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi. Xulosa qilib aytganda, Adam Smit va Eugene Fama kabi olimlarning birja savdolariga bo‘lgan yondashuvlari, 2024 yilda bozor-

ning samarali ishlashini ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularning iqtisodiy g‘oyalari tovar birjasining aylanma daromadlari bilan bog‘liq tahlillarda qo‘llanilishi, bozorlarni yanada samarali va barqaror qilishga xizmat qildi.

Conclusion.

Tovar birjalari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular bozorning samarali ishlashini ta’minlash, resurslarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Bozorlarning shaffofligi, likvidligi va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali tovar birjalari barcha qatlamdagi tadbirkorlar va iste’molchilar uchun foydali sharoitlar yaratadi. Shuningdek, tovar birjalari yordamida ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini sotish uchun kerakli narxlarni aniqlash va bu narxlar orqali o‘z bizneslarini muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 2024-yilning birinchi choragida O‘zbekiston Tovar-Xom Ashyo Birjasi faoliyatida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar, bozordagi o‘sishni yanada kuchaytirishga yordam berdi. Birja savdolarining hajmining ortishi, paxta xomashyosi savdolaridagi narxlarning oshishi va yangi “yashil energetika” sertifikatlari bo‘yicha muvaffaqiyatli tranzaksiyalar, bozorlarning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Tovar birjalari orqali amalga oshiriladigan savdolar, nafaqat mahalliy, balki global iqtisodiyot uchun ham muhim manba bo‘lib, yangi investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Tovar birjalari iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida, investitsiyalar va savdo faoliyatini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim vazifani bajaradi. Shuningdek, bozorlarning samarali ishlashini ta’minlash uchun davlat tomonidan samarali moliyaviy va soliq siyosatini joriy etish, birja savdolarini yanada rivojlantirish va ular orqali iqtisodiy faoliyatni ko‘paytirish zarur. Bu, o‘z navbatida, tovar birjalari orqali amalga oshiriladigan savdolarni optimallashtirish, bozordagi shaffoflikni ta’minlash va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tovar birjalarining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni faqat savdo hajmlarining ortishi bilan cheklanmaydi. Birja savdolarining tahlili, iqtisodiy siyosat va strategiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, davlatlar va kompaniyalar uchun uzoq muddatli iqtisodiy rejalarni ishlab chiqishda qo‘llanadi. Mahalliy va global miqyosda iqtisodiy faollikni oshirish, tovar birjalari orqali yanada samarali va barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Xulosa qilib aytganda, tovar birjalari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda nafaqat iqtisodiy o‘sishning asosiy vositasi, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ham ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning samarali ishlashini ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni davom ettirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati katta. Tovar birjalari, shuningdek, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va bozorning o‘z-o‘zini tartibga solishiga xizmat qiladi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy farovonlikka olib keladi.

Reference list:

1. Markowitz, H. (1952). “Portfolio Selection.” The Journal of Finance, 7(1), 77-91. https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1952.tb01525.x

2. Fama, E. F. (1970). “Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work.” The Journal of Finance, 25(2), 383-417. https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1970.tb00518.x

3. Shiller, R. J. (2000). Irrational Exuberance. Princeton University Press. https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691091945/irrational-exuberance

4. Chevallier, J., & Ielpo, F. (2013). The Economics of Commodity Markets. Wiley. https://www.wiley.com/en-us/The+Economics+of+Commodity+Markets-p-9780470748466

5. Commodity Futures Trading Commission (CFTC). “Reports and Research.” https://www.cftc.gov/PressRoom/Publications/index.htm

6. Fabozzi, F. J., & Fuss, R. (2008). Handbook of Commodity Investing. Wiley. https://www.wiley.com/en-us/Handbook+of+Commodity+Investing-p-9780470518380

KOMMIVOYAJYOR MASALASI YORDAMIDA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH.

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonov
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
Rasuljonova Mohlaroyim A’zamjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqola “Kommivoyajyor masalasi”ni optimallashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu masala bir nechta nuqtalar orasida eng qisqa yo‘lni topish vazifasini anglatadi. Kommivoyajyor masalasi ko‘plab amaliy sohalarda, masalan, logistika, transport va tarmoqlarni rejalashtirishda keng qo‘llaniladi. Maqolada masalaning matematik modeli, uning qiyinchiliklari va turli optimallashtirish usullari batafsil ko‘rib chiqiladi. Xususan, dinamik dasturlash, tarmoq oqimi, heuristik algoritmlar (masalan, genetika algoritmlari va simulyatsion annealing) yordamida masalani yechish metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar davomida real hayotdagi murakkab vazifalarni yechishda yuzaga keladigan muammolar va optimallashtirish metodlarining samaradorligi haqida fikrlar bildiriladi. Yakunida, kommivoyajyor masalasining amaliy qo‘llanilishidagi qiyinchiliklar va kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Kommivoyajyor masalasi, tarmoqlar va chegaralar usuli, optimal marshrut, to‘la bo‘lmagan marshrutlar, to‘la bo‘lmagan sikl, keltirilgan jadval.*

Аннотация: *Статья посвящена оптимизации “Задачи пригородного сообщения”, представляющей собой задачу поиска кратчайшего пути между несколькими точками. Задача коммивояжера широко используется во многих практических областях, таких как логистика, транспорт и сетевое планирование. В статье подробно рассматривается математическая модель задачи, ее сложности и различные методы оптимизации. В частности, анализируются методы решения задач с использованием динамического программирования, сетевых потоков, эвристических алгоритмов (например, генетических алгоритмов и имитации отжига). В ходе исследования высказываются мнения о проблемах, возникающих при решении сложных задач в реальной жизни, и эффективности методов оптимизации. В конце обсуждаются трудности практического применения проблемы пригородного сообщения и будущие направления исследований.*

Ключевые слова: *задача коммивояжера, метод сетей и пределов, оптимальный маршрут, неполные маршруты, неполный цикл, приведенная таблица.*

Annotation: *The article is devoted to the optimization of the “Commuter Problem”, which is the task of finding the shortest path between several points. The traveling salesman problem is widely used in many practical areas, such as logistics, transportation, and network planning. The article examines the mathematical model of the problem, its difficulties and various optimization methods in detail. In particular, problem solving methods using dynamic programming, network flow, heuristic algorithms (for example, genetic algorithms and simulated annealing) are analyzed. In the course of research, opinions are expressed about the problems that arise in solving complex tasks in real life and the effectiveness of optimization methods. In the end, difficulties in the practical application of the commuter problem and future research directions are discussed.*

Key words: *Traveling salesman problem, method of networks and limits, optimal route, incomplete routes, incomplete cycle, given table.*

Kirish.

Kommivoyajyor masalasi – bu graf nazariyasi va optimallashtirish sohalarida muhim o‘rin tutuvchi klassik masaladir. Ushbu masala, biror savdogar (kommivoyajor) belgilangan shaharlar to‘plamiga tashrif buyurishi kerak, bunda har bir shaharga bir marta kirib, oxirida boshlang‘ich shahariga qaytishi lozim. Maqsad– shaharlar orasidagi masofalarni minimal darajada saqlab qolishdir. Berilgan n ta shaharni har biriga faqat bir marta tashrif etish bilan eng qisqa vaqt(yo‘l, xarajat) davomida aylanib chiqish sikli topilsin. Bunda sikllar soni ko‘pi bilan $(n-1)!$ ta bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Kommivoyajyor masalasi (TSP) optimallashtirish sohasida uzoq yillardan beri tadqiq qilinib kelmoqda. Dastlabki ishlar 1950-yillarda Dantzig va Fulkerson tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular klassik tarmoq oqimi va dinamik dasturlash usullarini ishlab chiqqan. Keyinchalik, heuristik va metaheuristik metodlar, masalan, genetika algoritmlari, simulyatsion annealing va ant koloniya optimallashtirish kabi usullar TSPni yechishda keng qo‘llanila boshladi. Gendreau va Applegate kabi tadqiqotchilar TSPni yechish uchun yaxshilangan metodlar taqdim etdilar. Shuningdek, parallel hisoblash usullari, masalan, ko‘p yadroli tizimlar va MapReduce, katta o‘lchamdagi masalalarni samarali yechishda yordam beradi. Bu adabiyotlar TSPni yechishning turli usullarini taqqoslaydi va ularning qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda TSPni yechish uchun matematik model va optimallashtirish metodlari tahlil qilinadi. Avval model asosida masala aniqlanadi, so‘ngra aniq yechimlar va algoritmlar sinovdan o‘tkaziladi. Heuristik va metaheuristik metodlar, masalan, genetika algoritmlari va simulyatsion annealing, katta masalalar uchun samarali yechimlar topishga yordam beradi. Shuningdek, parallel hisoblash usullari yordamida algoritmlarni tezlashtirish va yechimlarni samarali topish ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida turli metodlarning samaradorligi va hisoblash vaqti taqqoslanadi, natijalar esa real hayotdagi masalalarga tatbiq etiladi.

Tahlillar va natijalar.

Jadvalni keltirish tushunchasini kiritamiz. Buning uchun, avval jadval satrlari keltiriladi, ya’ni jadvalning har bir satr elementlaridan shu satrning kichigi mos ravishda ayirib tashlanadi. Shundan so‘ng jadval ustunlariga nisbatan ham xuddi shu amal bajarilib, jadval ustunlari keltiriladi. Barcha satrlari va ustunlari keltirilgan jadval keltirilgan jadval deb ataladi. Jadval satr va ustunlari eng kichik elementlarining yig‘indisi h bilan belgilanib, u jadvalning keltirish koeffitsiyenti deyiladi. Quyidagi masalani ko‘rib chiqaylik.

Masala. Quyidagi jadvalda berilgan masalani Kommivoyajyor usuli yordamida yeching.

1-jadval.

	1	**2**	**3**	**4**	**5**
1	∞	22	25	56	38
2	34	∞	12	51	37
3	45	33	∞	44	47
4	39	7	16	∞	57
5	35	56	40	58	∞

Berilgan jadval.

Yechish: 1-jadval satrlarini keltirish uchun, uning o‘ng tarafiga mos satrning eng kichik elementini yozib chiqamiz. Satr elementlaridan har bir satrdagi eng kichik elementlarni ayirib keyingi jadvalga ega bo‘lamiz. Hosil bo‘lgan jadvalning ustunlarini keltirish maqsadida jadval ostiga mos ustunning eng kichik elementi yoziladi. Ustun elementlaridan har bir ustundagi eng kichik elementlarni ayirib navbatdagi jadvalga ega bo‘lamiz. Oxirgi hosil bo‘lgan jadval keltirilgan bo‘lib, uning har bir satr va ustunida kamida bittadan nol element bor. Ko‘rilayotgan jadvalning keltirish koeffitsiyenti h quyidagi songa teng:

$$h=22+12+33+7+35+0+0+0+11+14=134$$

Masalani yechish davomida ikkala bosqich parallel ravishda olib boriladi. Bu bosqichlarni amalga oshirish uchun, quyidagi ishlarni ketma-ket bajarish kerak:

a) boshlang‘ich jadvalni keltirish;
b) keltirish koeffitsiyenti *h* ni aniqlash;
c) keltirilgan jadvalning nol elementlari darajasini aniqlash;
d) bu darajalar asosida tarmoqlashni amalga oshirish;
e) tarmoqlanish natijalarini tashkil etuvchi sikllarning quyi chegaralarini aniqlash;
f) jadval o‘lchamini bittaga kamaytirish;
g) to‘la bo‘lmagan sikllar hosil bo‘lib qolishdan saqlanish;
h) bu jarayonni (2×2) – jadval hosil bo‘lgunga qadar davom ettirish;
i) oxirgi tarmoq natijasiga mos siklni aniqlash;
j) barcha chegara (baholarni) solishtirish;
k) zarurat bo‘lsa, eng kam chegaraviy natijaga mos jadval tiklanib tarmoqlashni davom ettirish.

Bu usulni qo‘llash davomida, barcha hisob-kitoblar berilgan jadval yordamida olib borilib, uning natijalari alohida tuzilgan grafda ko‘rsatib boriladi. Bu jarayon oxirida mukammal (eng kam xarajatli) sikl aniqlanadi.

Graf o‘zaro birlashtirilgan doirachalardan iborat bo‘lib, ularning har biri ma’lum bir xossali sikllar to‘plamini aniqlaydi. Bu doirachalar yoniga yozilgan chegara-sonlar esa, shu doiraga tegishli bo‘lgan sikllarga mos xarajatlarning quyi chegarasini bildiradi. Grafning boshlang‘ich qismi 1-rasm ko‘rinishida bo‘ladi. Bunda birinchi boshlang‘ich doiracha barcha sikllarni o‘z ichiga olgan to‘plamni aniqlab, ixtiyoriy sikl bo‘yicha ketadigan xarajat *h* sonidan kichik bo‘lmasligini bildiradi. Yuqorida ko‘rilgan misolda *h*=134 edi, demak, xarajati 134 dan kichik bo‘lgan sikl yo‘q ekan.

Barcha sikllar to‘plamini tarmoqlash uchun keltirilgan oxirgi jadvalning nol elementlari darajalari aniqlanadi

Darajasi eng katta bo‘lgan nol joylashgan satr i va ustun j lar topilib, (i, j) bo‘yicha tarmoqlanadi. Mabodo, katta darajali nollar bir nechta bo‘lsa, ularning ixtiyoriy bittasi tanlab olinadi. Bunda, o‘ng tarafdagi doiracha i — sahardan j — shaharga o‘tishni o‘z ichiga olgan barcha sikllarning to‘plamini bildiradi va (i, j) bilan belgilanadi, chap tarafdagi doiracha esa, aksincha i —shahardan j — shaharga o‘tishni o‘z ichiga olmagan marshrutlarning to‘plamini bildiradi va u $\overline{(i, j)}$ bilan belgilanadi.

Darajasi eng katta 17 bo‘lgan element $c_{51} = 0$ dir. Tarmoqlanish grafi 1-rasm ko‘rinishida bo‘ladi. Chap doiracha yoniga eng kam xarajat keltirish koeffitsiyenti $h = 134$ ga nolning eng katta darajasi 17 qo‘shilib hosil bo‘lgan 151 soni yoziladi(h_2). O‘ng tarafdagi doirachaga mos keluvchi xarajatlarning quyi chegarasini aniqlash uchun oxirgi jadvalning 5-satri va 1-ustuni tashlab(o‘chirib) yuboriladi(demak, jadvalning o‘lchami bittaga kamayadi). Bunda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, shaharlarning tartib raqamlari albatta saqlanib(yozilib) qolishi shart, aks holda chalkashliklar kelib chiqadi. Shundan so‘ng, barcha to‘la bo‘lmagan sikllar hosil bo‘lishi ta’qiqlanadi, masalan $i \to j \to i$ ($i \to j$ belgi i — shahardan j — shaharga o‘tishni bildiradi) yo‘qotiladi, buning uchun c_{ji} element ∞ belgisiga almashtirib yozib qo‘yiladi.


Tarmoqlash uchu o‘ng oiracha tanlab olinadi (o‘ngga yurish qoidasiga asosan) tarmoqlash juftligi (k, l) ni aniqlash uchun oxirgi keltirilgan 5-jadvalning nollarini darajalari hisoblanadi va ulardan eng katta darajalisi yodamida (k, l) juftlik ajratilib, tarmoqlash amalga oshiriladi(1-rasm). Bunda (k, l) belgini olgan chap doirachaga mos chegara (h_4) ning qiymati h_1 ga nolning eng katta darajasi bo‘lgan son qo‘shib aniqlanadi.

(k, l) belgili o‘ng doirachaga mos kelgan chegara (h_3) ni topish uchun oxirgi jadvaldan k – satr va l –ustun chiqarib (o‘chirib tashlanadi) va to‘la bo‘lmagan sikllar hosil bo‘lishi ∞ belgisi yordamida taqiqlanadi. Shundan so‘ng, hosil bo‘lgan jadvalning keltirish koeffitsiyenti h_1 ga qo‘shib o‘ng doiracha yoniga yozib qo‘yiladi.

Kommivoyajyor masalasini hal qilishni xuddi shunday usulda ya’ni nolning eng katta darajasi qatnashgan satr va ustunni olib tashlab, tarmoqlash amalga oshirilib,

2×2 jadvalga erishilguncha davom ettiriladi.

Ma’lum o‘zgartirishlarni amalga oshirganimizdan keyin, quyidagi so‘nggi (2×2) - o‘lchamli jadval hosil bo‘ladi.



1-rasm. Tarmoqlash jadvali

Bu jadvalning keltirish koeffitsiyenti 0 ga teng. Shuning uchun 1-rasmdagi o‘ng doirachaga mos keluvchi chegara o‘zgarmagan(157).

2-jadval

	4	5
1	0	∞
3	∞	0

Yakuniy natija.

Shunday qilib, Biz natijaviy grafga ega bo‘ldik. Bu grafning o‘ng tarafidagi doirachalar ketma-ketligi va oxirgi (2×2) – o‘lchamli 2-jadval yordamida xarajati 157 ga teng bo‘lgan $4 \rightarrow 2 \rightarrow 3 \rightarrow 5 \rightarrow 1 \rightarrow 4$ sikl aniqlanadi.

Xulosa.

Kommivoyajyor masalasi (TSP) uzoq yillar davomida optimallashtirish va hisoblash sohalarida muhim o‘ringa ega bo‘lib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda masalaning matematik modelini tuzish, uni yechishning aniq va heuristik metodlari, shuningdek, parallel hisoblash texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi o‘rganildi. TSPni yechishda aniq algoritmlar juda katta vaqt talab qilishi mumkin, shuning uchun metaheuristik usullar, masalan, genetika algoritmlari va simulyatsion annea-

ling kabi yondashuvlar katta miqdordagi nuqtalar bilan ishlashda qo‘l keladi. Shuningdek, parallel hisoblash metodlari yordamida algoritmlarni tezlashtirish va katta o‘lchamdagi masalalarni samarali yechish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari, TSPni yechish uchun samarali metodlarning mavjudligini, shuningdek, ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Biroq, katta o‘lchamdagi masalalar hali ham murakkablikni keltirib chiqaradi, va bu sohada yanada samarali metodlarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Kelajakda, yuqori samarali va tezkor algoritmlarni yaratish, shuningdek, real hayotdagi masalalarda ularni qo‘llash imkoniyatlari yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.To‘xtasinov. Jarayonlar tadqiqoti. Darslik. 2017. -572 b.

2. “The Traveling Salesman Problem: A Computational Study” – D.L. Applegate, R.E. Bixby, V. Chvatal, W.J. Cook.

3. “Транспортные задачи и пути их решения” – N.P. Buslenko, V.V. Krinitsyn.

4. С.Ю.Городеский. Оптимальное управление. ННГУ. 2014.

5. Z.Mamatova, M.Rasuljonova. “Kommivoyajyor masalasi yordamida turistik firmalar uchun mamlakatlar o‘rtasidagi sayohatlar uchun umumiy ketadigan xarajatlarning optimal yechimini topishning matematik modelini yaratish” Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari to‘plami. 3-qism. 2024 yil. 75-81-betlar.

6. Dantzig, G.B., Fulkerson, R., & Johnson, S., “Solution of a Large-Scale Traveling-Salesman Problem,” *American Mathematical Society*, 1954, pp. 89-95.

7. Gendreau, M., & Potvin, J.Y., “Metaheuristics for the Traveling Salesman Problem,” *Annals of Operations Research*, 1999, vol. 86, pp. 251-273.

8. Applegate, D., Bixby, R., Chvátal, V., & Cook, W., *The Traveling Salesman Problem: A Computational Study*, Princeton University Press, 2006, pp. 45-72.

9. Lin, S., & Kernighan, B.W., “An Effective Heuristic Algorithm for the Traveling Salesman Problem,” *Operations Research*, 1973, vol. 21, no. 2, pp. 498-516.

10. Holland, J.H., *Adaptation in Natural and Artificial Systems*, MIT Press, 1975, pp. 112-124.

11. Dorigo, M., & Di Caro, G., “The Ant Colony Optimization,” *IEEE Transactions on Evolutionary Computation*, 1999, vol. 1, no. 1, pp. 53-66.

12. Cai, J., “Parallel Algorithms for the Traveling Salesman Problem,” *International Journal of Parallel Programming*, 2011, vol. 39, pp. 24-39.

13. Glover, F., & Laguna, M., *Tabu Search*, Kluwer Academic Publishers, 1997, pp. 143-155.

14. Cordeau, J.F., & Laporte, G., “A Benders Decomposition Approach to the Multiple Depot Vehicle Routing Problem,” *Transportation Science*, 2003, vol. 37, no. 4, pp. 419-433.

15. Tsiligirides, T., “Heuristic Methods Applied to the Traveling Salesman Problem,” *Journal of Operational Research Society*, 1984, vol. 35, no. 9, pp. 697-705.

НЕОПРАВДАННЫЙ ВЕКТОР ЖИЗНИ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ДЭНИЕЛА КИЗА “ЦВЕТЫ ДЛЯ Э ЛДЖЕРНОНА”

Латифов Билолиддин Шокирович,
студент Термезского государственного университета,
Хужанова Озода Тожиевна,
Заведующий кафедрой «Русской и мировой литературы» Термезского государственного университета

Annotatsiya: *Maqolada Deniel Keysning “Aljernon uchun gullar” romani bosh qahramoni Charli Gordonning hayot yo‘li uning intellektual va hissiy rivojlanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Hikoya Charlini aqli zaif odamdan dahoga aylantirgan ilmiy tajriba oqibatlarini o‘rganadi, lekin u yangi voqelikka tayyor emas. Ijtimoiy moslashuv masalalariga, ilmiy tadqiqotlarning axloqiy jihatlariga, shuningdek, Algernonning qahramon taqdirining xabarchisi sifatida ramziyligiga e’tibor qaratiladi. Maqolada Charlining noto‘g‘ri hayot vektori va uning psixo-emotsional holatiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada Daniel Keyesning “Algernon uchun gullar” romanining bosh qahramoni Charli Gordonning intellektual va hissiy rivojlanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Hikoya Charlini aqli zaif odamdan dahoga aylantirgan ilmiy tajriba oqibatlarini o‘rganadi, lekin u yangi voqelikka tayyor emas. Ijtimoiy moslashuv masalalariga, ilmiy tadqiqotlarning axloqiy jihatlariga, shuningdek, Algernonning qahramon taqdirining xabarchisi sifatida ramziyligiga e’tibor qaratiladi. Charlining noto‘g‘ri hayot vektori va uning psixo-emotsional holatiga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Daniel Keyes, Algernon uchun gullar, Charli Gordon, ilmiy tajriba, razvedka, ijtimoiy moslashuv, simvolizm, axloq, shaxsiyat, yolg‘izlik.*

Аннотация: *Статья анализирует жизненный путь Чарли Гордона, главного героя романа Дэниела Киза “Цветы для Элджернона”, с точки зрения его интеллектуального и эмоционального развития. Рассматривается влияние научного эксперимента на личность героя, его самоощущение и взаимоотношения с окружающими. Особое внимание уделено ошибочному жизненному вектору Чарли, вызванному искусственным повышением интеллекта, а также его социальной изоляции на разных этапах развития. Работа затрагивает этические проблемы научных экспериментов над личностью и отношение общества к людям с интеллектуальными особенностями.*

Ключевые слова: *Дэниел Киз, Цветы для Элджернона, Чарли Гордон, научный эксперимент, интеллект, социальная адаптация, символизм, этика, личность, одиночество.*

Annotation: *The article analyzes the life path of Charlie Gordon, the protagonist of Daniel Keyes’ novel Flowers for Algernon, from the perspective of his intellectual and emotional development. It examines the consequences of a scientific experiment in which Charlie transforms from a mentally challenged individual into a genius but is unprepared for his new reality. The focus is placed on issues of social adaptation, ethical aspects of scientific research, and the symbolism of Algernon as a foreshadowing of the protagonist’s fate. The paper explores Charlie’s misguided life trajectory and its impact on his psycho-emotional state.*

Keywords: *Daniel Keyes, Flowers for Algernon, Charlie Gordon, scientific experiment, intelligence, social adaptation, symbolism, ethics, personality, loneliness.*

Дэниел Киз в своем произведении “Цветы для Элджернона” поднимает сложные вопросы морали, этики научных экспериментов и социальной адаптации человека. История главного героя, умственно отсталого Чарли Гордона, которого подвергают экспериментальному хирургическому вмешательству для повышения интеллекта, демонстрирует, насколько непредсказуемыми могут быть последствия подобных изменений. Основная проблема заключается в том, что его интеллектуальный рост не сопровождается соответствующим развитием эмоционального интеллекта, что приводит к кризису личности и полной изоляции. В данной статье рассматриваются причины и следствия этого процесса, а также анализируется символизм Элджернона как предзнаменования трагического финала героя.

1. Эксперимент как начало ложного пути

Чарли Гордон становится участником научного эксперимента, целью которого является искусственное увеличение интеллекта с помощью хирургического вмешательства. Однако ученые, проводящие эксперимент, рассматривают Чарли скорее, как объект исследования, а не как личность. Их целью является доказательство эффективности методики, но они не задумываются о последствиях для самого Чарли [2, с. 78].

Результаты эксперимента приводят к резкому скачку интеллекта Чарли, но вместе с этим он теряет прежнюю наивность и непосредственность. Ученые не предоставляют ему эмоциональной поддержки или наставничества, вследствие чего Чарли оказывается один на один со своими новыми способностями и ощущением оторванности от окружающего мира [3, с. 205].

2. Проблема эмоционального и социального развития

Несмотря на феноменальный интеллектуальный рост, Чарли остается эмоционально и социально неразвитым. Его внутренний мир оказывается разорванным: он не может вернуться к прежнему образу жизни, но и не способен найти свое место среди людей с высоким интеллектом. Чарли осознает, что прежние друзья не воспринимают его как равного, а новые коллеги по научному сообществу относятся к нему с недоверием и даже страхом [4, с. 159].

Этот разрыв особенно проявляется в его попытках наладить личные отношения. Герой испытывает трудности в понимании собственных эмоций и чувств других людей, что ведет к конфликтам и нарастающему одиночеству. Его эмоциональная изоляция становится столь же значимой, как и физическая, и в конечном итоге приводит к депрессии [5, с. 243].

3. Элджернон как предзнаменование судьбы Чарли

Ключевой момент романа – наблюдение Чарли за Элджерноном. Крыса, прошедшая аналогичную операцию, начинает демонстрировать признаки агрессии, упадка сил и деградации. Это становится для Чарли предвестником его собственной судьбы. Символизм Элджернона в романе важен: он олицетворяет как научный прогресс, так и его неэтичные последствия, где подопытное существо лишено выбора [6, с. 312].

Проектная деятельность. Проектная деятельность является мощным инструментом для углубленного изучения историко-культурных памятников. Работая над проектами, учащиеся исследуют конкретные памятники, их историю и значение, создают презентации, пишут исследовательские работы, участвуют в конкурсах и выставках. Проектная деятельность развивает у школьников навыки самостоятельного поиска информации, критического анализа и представления результатов своей работы.

Использование цифровых технологий. Современные технологии, такие как виртуальные экскурсии, 3D-моделирование памятников, онлайн-платформы для изучения культурных объектов, дают новые возможности для работы с памятниками. Виртуальные туры и цифровые ресурсы позволяют школьникам исследовать памятники, которые могут находиться на большом расстоянии, или те, которые невозможно посетить в реальной жизни.

Интеграция с другими учебными предметами. Историко-культурные памятники могут быть использованы в рамках разных предметов – истории, литературы, искусства, географии, а также в рамках межпредметных проектов. Например, изучая памятники архитектуры, школьники могут познакомиться с историей и культурой того времени, а также понять, как эти памятники связаны с литературными произведениями, написанными в той или иной эпохе.

Примеры реализации в учебном процессе. Интеграция историко-культурных памятников в учебный процесс является важным инструментом для развития у школьников не только знания истории и культуры, но и формирования ценностей, таких как патриотизм, гражданская ответственность и уважение к многообразию культур. Рассмотрим несколько примеров реализации этого подхода в образовательной практике.

1. **Проект “История родного города через памятники”.** В рамках проекта школьники изучают архитектурные памятники своего города, их историческую значимость и культурное наследие. Проект включает в себя исследование истории зданий, памятников и других объектов, а также их связь с важными историческими событиями. Ребята могут организовать экскурсии по местным памятникам, подготовить презентации, провести интервью с историками и местными жителями. В результате работы учащиеся не только получают знания о своем городе, но и развивают навыки исследования, критического мышления и проектной деятельности.

2. **Исследовательский проект о памятниках мировой культуры.** Школьники могут выбрать памятники мировой культуры (например, Колизей в Риме, пирамиды Египта или Великий китайский мур) и исследовать их значимость для мировой истории и культуры. [3] В рамках проекта учащиеся знакомятся с различными эпохами и цивилизациями, учат историю и искусство этих регионов, изучают влияние этих памятников на развитие человеческой цивилизации. Проект может включать в себя создание цифровых презентаций, моделей памятников, а также подготовку экскурсионных маршрутов.

3. **Виртуальные экскурсии и 3D-моделирование памятников.** В современную образовательную практику активно внедряются цифровые технологии. В рамках такого проекта школьники могут виртуально “посетить” памятники, находящиеся в других странах или на недоступных для посещения территориях. С помощью виртуальных туров они смогут исследовать объекты культурного наследия, а также создать собственные 3D-модели памятников. Это позволяет учащимся познакомиться с памятниками, не покидая школьных стен, и применить полученные знания на практике.[3]

4. **Межпредметные проекты на основе историко-культурных памятников.** Историко-культурные памятники могут быть использованы в различных учебных дисциплинах. Например, на уроках истории школьники могут изучать связь памятников с определенными историческими событиями и процессами. На уроках литературы учащиеся могут исследовать, как памятники отражены в произведениях искусства разных эпох. В рамках географии можно изучить расположение памятников, их влияние на культурное и экономическое развитие региона. Таким образом, памятники становятся связующим звеном между различными предметами и дисциплинами.

5. **Экскурсии и выездные занятия.** Как уже упоминалось, экскурсии и выездные занятия являются важным методом использования историко-культурных памятников в образовательном процессе. Учащиеся могут организовать экскурсии по историческим памятникам своего города, участвовать в выездных поездках в другие города или страны, где они смогут вживую познакомиться с объектами культурного наследия. Такие мероприятия не только углубляют знания учащихся, но и дают им возможность непосредственно ощутить атмосферу исторических мест, развить исследовательские и коммуникативные навыки.[4]

6. **Мастер-классы по реставрации памятников.** Для учащихся старших классов можно организовать мастер-классы по реставрации и сохранению исторических памятников. На этих занятиях школьники смогут узнать о процессе реставрации, ознакомиться с техникой работы с различными материалами, а также понять, какую важную роль играет сохранение культурного наследия для будущих поколений. Это может быть как теоретическое занятие, так и практическое, например, в виде создания макетов памятников или выполнения реставрационных работ на небольших объектах.

7. **Памятники как источник творчества.** Школьники могут использовать историко-культурные памятники как вдохновение для своих творческих проектов. Это может быть создание художественных произведений, таких как рисунки, скульптуры, фотографии, а также написание эссе или стихотворений, вдохновленных изученными памятниками. Творческий подход помогает ученикам более глубоко понять значение культурного наследия и выразить свои чувства и мысли о сохранении памятников.

8. **Организация конкурсов и выставок на тему историко-культурных памятников.** Для стимулирования интереса учащихся к историко-культурным памятникам можно проводить конкурсы и выставки, на которых школьники представляют свои проекты, работы и исследования, связанные с памятниками. Это может быть как конкурс научных работ, так и творческих проектов (рисунков, макетов, фотографий). Такие мероприятия способствуют развитию у детей исследовательских навыков, а также позволяют проявить свои способности в разных областях – от науки до искусства. [5]

Заключение. Педагогическое использование историко-культурных памятников в образовательной практике школьников представляет собой не только важный метод формирования знаний о прошлом и настоящем, но и эффективное средство воспитания личности, обладающей высоким уровнем культурной осведомленности, гражданской ответственности и коммуника-

тивных навыков. В условиях быстро меняющегося мира, когда информационные технологии становятся основными инструментами обучения, важно не забывать о значении исторического наследия как источника знаний, опыта и мудрости прошлых поколений.

Включение историко-культурных памятников в учебный процесс способствует глубокому осмыслению исторических и культурных процессов, стимулирует развитие критического и исследовательского мышления у школьников. Учащиеся, исследуя памятники, не только получают знания о различных эпохах, культурах и народах, но и учат анализировать, сравнивать и оценивать различные исторические события и явления. Такой подход формирует у них способность к самостоятельному поиску информации, повышает их уровень социальной активности и готовность к участию в сохранении и продвижении культурных ценностей.

Кроме того, работа с памятниками способствует развитию личных качеств, таких как уважение к другим культурам, толерантность, умение работать в команде и эффективно коммуницировать. Важно, что через взаимодействие с памятниками школьники учат не только понимать и ценить культурное наследие своей страны, но и уважать традиции других народов, что играет ключевую роль в воспитании будущих граждан мира.

Немаловажным является и то, что использование историко-культурных памятников в образовательной практике помогает привить школьникам чувство гордости за свою родину и за ее достижения в области культуры, науки, искусства. Это способствует укреплению национальной идентичности и воспитывает ответственное отношение к сохранению культурного наследия как важной части общего мирового культурного фонда.

Внедрение историко-культурных памятников в учебный процесс через экскурсии, проектную деятельность, использование цифровых технологий и межпредметные исследования обогащает образовательную практику и делает ее более многогранной. Такое обучение становится более увлекательным, практичным и ориентированным на развитие компетенций, которые необходимы школьникам в их будущем профессиональном и личностном росте.

Таким образом, педагогическое использование историко-культурных памятников в образовательной практике школьников открывает широкие перспективы для воспитания ответственных, высококультурных и осознанных граждан, которые будут бережно относиться к своему историческому наследию и активно участвовать в его сохранении для будущих поколений.

Список литературы:

1. Антропова, Н. М. (2018). Историко-культурное наследие и его роль в образовании. Москва: Научное издательство “Сфера”.

2. Беляева, Т. В. (2017). Педагогика культурного наследия: Теория и практика. Санкт-Петербург: Издательство “Наука”.

3. Мамажанов, Т. А. (2019). Тарихий ёдгорликлар ва ўқувчиларда фуқаролик масъулиятини шакллантириш. Тошкент: Илмий китоб.

4. Тошматов, Р. К. (2021). Цифров технологиялар орқали маданий меросни ўрганиш. Журнал “Илғор таълим”, 8(20), 58-64.

5. Ахмедова, Г. Р. (2020). Маданий мерос ва унинг ахамияти: Ўзбекистон мисоли. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

6. Якубов, Б. Ж. (2018). Таълимда тарихий ёдгорликларнинг ролини тадқиқ қилиш. Журнал “Педагогика ва таълим”, 3(10), 78-85.

7. Кобилова, З. Ш. (2019). Ўқувчиларда маданий мулоқот ва инклюзив таълимни ривожлантириш. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети нашриёти.

8. Otto, M., & Thornton, J. (2024). SHARQ VA G ‘ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O ‘XSHASHLIK VA FARQLAR. QO ‘QON UNIVERSITETI

XABARNOMASI, 13, 202-204. G‘ulomov, J. (2024). SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O‘XSHASHLIK VA FARQLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202–204. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1056

9. Isaqova, Z., & Abdullaxo‘jayev, A. (2024). IBRATNING TURKISTONDA KADRLAR TAYYORLASHGA QO‘SHGAN HISSASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL. Nordic_Press, 5(0005).

10. Abdullaxo‘jayev, A. (2024). IBRAT-HAQIQIY IBRAT MAKTABI. Nordic_Press, 5(0005).

11. Begmatov, A. (2024). STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(12), 274–280. https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N43

12. Умурзакова, К. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА МЕТОДА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Экономика и социум , (6-2 (109)), 553-557.

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF INVESTMENT TERMINOLOGY IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Komilova Mukarram Kobilzhonovna,
Samarkand institute of economics and service,
senior lecturer of the department of uzbek language and literature

Annotation: *This article examines the features of investment terminology in the Uzbek and Russian languages from the perspective of comparative-typological analysis. The study explores the semantic, morphological, and functional characteristics of key investment terms, identifying similarities and differences in their usage. The analysis is based on data from specialized dictionaries, legislative acts, scientific publications, and official documents regulating investment activities in Uzbekistan and Russia.*

Keywords: *investments, terminology, comparative analysis, Uzbek language, Russian language, economics, borrowings, standardization.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности инвестиционной терминологии в узбекском и русском языках с точки зрения сравнительно-типологического анализа. Исследуются семантические, морфологические и функциональные особенности ключевых инвестиционных терминов, выявляются сходства и различия в их употреблении. Анализ основан на данных специализированных словарей, законодательных актов, научных публикаций и официальных документов, регламентирующих инвестиционную деятельность в Узбекистане и России.*

Ключевые слова: *инвестиции, терминология, сравнительный анализ, узбекский язык, русский язык, экономика, заимствования, стандартизация.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillarida investitsiya terminologiyasining xususiyatlari qiyosiy tipologik tahlil nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Asosiy investitsiya atamalarining semantik, morfologik va funksional xususiyatlari o‘rganilib, ulardan foydalanishdagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Tahlil O‘zbekiston va Rossiyadagi investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan lug‘atlar, qonun hujjatlari, ilmiy nashrlar va rasmiy hujjatlar ma’lumotlariga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiyalar, terminologiya, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, rus tili, iqtisodiyot, qarzlar, standartlashtirish.*

Introduction.

In modern conditions of developing international economic relations, significant attention is paid to the unification and standardization of terminology related to investment activities. Investments play a key role in shaping a competitive economy, making it essential to conduct a detailed analysis of investment terminology in Uzbek and Russian. Studying this topic not only helps identify the linguistic features of these languages but also contributes to effective communication in the economic sphere.

Literature Review.

Scientific research in this field has already covered aspects such as the impact of borrowed terms on national languages (Ivanov, 2020), the standardization of economic terminology in international practice (Petrova, 2018), and the process of adapting foreign investment terms in the Uzbek language

(Rakhimov, 2021). However, a comparative analysis of investment terminology in these two languages remains an understudied aspect, highlighting the relevance of this research.

A review of existing literature shows that significant attention has been given to the unification of economic terminology (Smirnov, 2019), the adaptation of international terms into national languages (Akhmedov, 2020), and challenges in translating economic texts (Borisova, 2021). Moreover, studies on the influence of Anglicisms on Uzbek economic terminology (Karimov, 2022) help identify major trends in borrowing and calquing. However, a comparative-typological approach to analyzing investment terminology in Uzbek and Russian has not been sufficiently explored, necessitating this study.

Research Methodology

The methodology of this study is based on a comparative-typological analysis of investment terminology in Uzbek and Russian. The following methods were used in the research process:

- **Semantic analysis** aimed at studying the meanings of investment terms in both languages;
- **Morphological analysis**, which includes examining word formation models and morphological characteristics of terms;
- **Functional analysis**, identifying the usage features of investment terms in various contexts, such as legislative acts, scientific articles, and official documents;
- **Comparison method**, used to identify analogies and differences in investment terminology in Uzbek and Russian;
- **Content analysis**, conducted based on texts of regulatory legal acts, economic literature, and specialized dictionaries.

Analysis and Results

Investment terminology encompasses a wide range of concepts related to capital investment processes, asset management, project financing, venture capital, and other economic aspects. In Russian, these terms have been shaped under the influence of European languages, mainly English and French, affecting their phonetic, graphic, and morphological adaptation. The Uzbek language employs both borrowed terms and national words and phrases formed according to internal word-formation models.

Examples of investment terms:

- “Venture capital” – “venchur kapitali,” “tavakkal sarmoyasi”;
- “Financial instrument” – “moliya instrumenti,” “moliya vositasi”;
- “Diversification” – “diversifikatsiya,” “tahlilli kengaytirish”.

Semantic Analysis

In Uzbek, the term “investment” corresponds to the words “investitsiya” or “sarmoya.” In Russian, this term is borrowed and fully adapted to the language system. Some complex economic concepts, such as “portfolio investments” and “direct investments,” in Uzbek may have two translation options: calqued expressions “portfel investitsiyalari” and “to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar” or adapted “portfel sarmoyalari” and “bevosita sarmoyalar.” In Russian, the terminology is more established and does not allow significant variations.

Examples of terms and their equivalents:

- “Securities” – “qimmatli qog‘ozlar”;
- “Liquidity” – “likvidlik,” “pulga aylantirish qobiliyati”.

Morphological Analysis

In Russian, investment terms are predominantly borrowed from English and adapted to the Russian morphological system, e.g., “investor,” “capitalization,” “diversification.” In Uzbek, there is a tendency for calquing or morphologically adapting borrowed terms with affixation, e.g., “investorlik” (investment activity) and “diversifikatsiyalash” (the process of diversification). At the same time, Uzbek actively uses national equivalents, such as “sarmoyador” (investor).

Additional examples:

- “Issuer” – “emitent,” “qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchisi”;
- “Depository” – “depozitariy,” “omonat saqlovchisi”.

Functional Analysis

In official documents and legislative acts of Uzbekistan, there is a trend towards bilingual use of investment terminology due to the need for international unification. However, in Uzbekistan’s economic literature, both borrowed and adapted term variants are actively used. In Russian, investment terminology is standardized and fixed in regulatory documents, ensuring consistency in its usage.

Comparative Analysis of Key Investment Terms

The conducted study shows that the Uzbek language maintains a balance between borrowing and creating its own terms, while Russian is dominated by international borrowings. For example:

- “Investor” – “investor,” “sarmoyador”;
- “Assets” – “aktivlar,” “mulklar”;
- “Capitalization” – “kapitalizatsiya,” “sarmoyalash”;
- “Dividends” – “dividendlar,” “foyda ulushlari”;
- “Hedging” – “xedjirlashtirish,” “tavakkallikni kamaytirish”.

Conclusion and Recommendations

A comparative-typological analysis has shown that investment terminology in Uzbek and Russian has both common and specific features. Russian terms are more standardized and predominantly borrowed from English, whereas Uzbek demonstrates an active process of forming a national terminology base. The development of the investment sector requires further standardization and harmonization of terminology, contributing to effective economic interaction. Further research in this area may focus on a detailed analysis of investment terminology usage in legal and academic texts.

References:

1. Иванов А. В. Влияние заимствованных терминов на национальные языки. – М.: Наука, 2020.

2. Петрова Е. А. Стандартизация экономической терминологии в международной практике. – СПб.: Экономика, 2018.

3. Рахимов У. Процесс адаптации иностранных инвестиционных терминов в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 2021.

4. Komilovakomilova M. K. Facilitating interactive language learning in groups with non-russian language of study //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1065-1068.

5. Kobiljonovna K. M. The Effectiveness Of Methods Of Teaching Word Formation In The Aspect Of Teaching Russian As A Foreign Language //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2024. – Т. 27. – С. 32-35.

6. Смирнов Д. Унификация экономической терминологии. – Казань: Университетская книга, 2019.

7. Ахмедов Н. Процесс адаптации международных терминов в национальные языки. – Ташкент: Иктисодиёт, 2020.

8. Борисова Л. Проблемы перевода экономических текстов. – М.: Лингва, 2021.

9. Каримов Ф. Влияние англицизмов на экономическую терминологию узбекского языка. – Ташкент: Фан, 2022.

10. Qabiljonovna K. M. Research Of Investment And Credit Terms Issues In Uzbek And Uzbek Languages //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 706-709.

TALABALARGA TEKISLIKDA KVADRATNING KANONIK TENGLAMASI VA UNING XOSSALARI MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Nematov Bexruzbek Bobomurod o‘g‘li,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Evklid tekislikda berilgan to‘g‘ri chiziq va ikkinchi tartibli chiziqlar o‘zlarining kanonik tenglamalari orqali ifodalanadi. Bu kanonik tenglamalar haqida maktab matematika kursida va oliy o‘quv yurtlarining oliy matematika darslarida talabalarga ma’lumotlar beriladi va batafsil tahlil qilinadi. Lekin, bu kurslarda ko‘pburchaklarni ifodalovchi tenglamalar haqida so‘z yuritilmagan. Ushbu maqolada Evklid tekisligida berilgan kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchaklarning kanonik tenglamalari keltrib chiqarilgan va uning xossalari o‘rganilgan. Talabalarga kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak kanonik tenglamalarini keltirib chiqarish usullarini va bu kanonik tenglamalar yordamida mos shakllarning geometrik xossalarini o‘rganish metodlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak kanonik tenglamalariga doir bilimlarni mustahkamlovchi amaliy masala va misollardan na’munalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, oshkormas funksiya, chiziqli funksiya, dekart koordinatalar sistemasi, kanonik tenglama, simmetriya, simmetriya o‘qi.*

Аннотация: *На евклидовой плоскости заданные прямые и кривые второго порядка выражаются через их канонические уравнения. Эти канонические уравнения изучаются и подробно анализируются в школьном курсе математики и на занятиях по высшей математике в вузах. Однако уравнения, представляющие собой многоугольники, в этих курсах не рассматриваются. В данной статье выводятся канонические уравнения квадрата и прямоугольника на евклидовой плоскости и исследуются их свойства. Представлены методы вывода канонических уравнений квадратов и прямоугольников, а также способы изучения геометрических свойств этих фигур с их помощью. Кроме того, в статье приведены примеры практических задач и упражнений для закрепления знаний о канонических уравнениях квадрата и прямоугольника.*

Ключевые слова: *квадрат, прямоугольник, неявная функция, линейная функция, декартова система координат, каноническое уравнение, симметрия, ось симметрии.*

Annotation: *In the Euclidean plane, a given straight line and second-order curves are expressed through their canonical equations. These canonical equations are introduced and analyzed in detail in school mathematics courses and higher mathematics lessons at universities. However, equations representing polygons are not covered in these courses. This article derives the canonical equations of squares and rectangles in the Euclidean plane and studies their properties. Methods for deriving the canonical equations of squares and rectangles and techniques for studying the geometric properties of these shapes using these equations are presented to students. Additionally, the article includes practical problems and examples to reinforce knowledge of the canonical equations of squares and rectangles.*

Keywords: *square, rectangle, implicit function, linear function, Cartesian coordinate system, canonical equation, symmetry, axis of symmetry.*

Kirish.

Zamonaviy matematika ta’limida ilg‘or texnologiyalarni integratsiyalash o‘quvchilarning fundamental tushunchalarni tushunishlarini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Geometrik shakllarning kanonik tenglamasi, xususan, tekislikdagi kvadrat ham maktab, ham oliy matematika kurslarida muhim mavzudir. Chiziqlarning kanonik tenglamalari va ikkinchi tartibli egri chiziqlar (aylana, ellips va parabola kabi) o‘quv dasturlarida keng yoritilgan bo‘lsa-da, ko‘pburchaklarni, ayniqsa kvadrat va to‘rtburchaklarni ifodalovchi tenglamalarga umuman e’tibor berilmaydi.

Kvadratni kanonik tenglama yordamida ifodalash qobiliyati uning geometrik va algebraik xossalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Dinamik geometriya dasturlari, kompyuter algebra tizimlari va interaktiv vizualizatsiya vositalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, talabalar kvadrat tenglamasi qanday olinganligi va uning simmetriya, transformatsiyalar va koordinatalarni ko‘rsatish kabi fundamental xususiyatlarga qanday bog‘liqligini yanada intuitiv tushunishlari mumkin.

Ushbu maqola Evklid tekisligidagi kvadratning kanonik tenglamasini chiqarish va uning xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, talabalarga muammoni hal qilishda ushbu tenglamalarni tasavvur qilish, tahlil qilish va qo‘llashga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan samarali o‘qitish usullari muhokama qilinadi. Tadqiqotda, shuningdek, nazariy tushunchalarni mustahkamlash, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va qulay qilish uchun amaliy mashqlar va misollar keltirilgan.


Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Matematika ta’limida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Xususan, interfaol ta’lim usullarining geometriya bo‘limiga ta’siri bo‘yicha [1] va [2] tadqiqotlari o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam berishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xususan, GeoGebra kabi dasturlar yordamida kvadratning analitik geometriyadagi ifodalanishi o‘rganilgan [3].

Matematikaning analitik geometriya bo‘limida kvadratning kanonik tenglamasi va uning xossalari haqida ilmiy manbalar ham mavjud. Masalan, [4] tadqiqot kvadratning koordinatalar tekisligidagi matematik modelini ishlab chiqishda algebraik yondashuvni tavsiya etadi. Shuningdek, [5] ishda raqamli simulyatsiyalar va o‘quv dasturlaridan foydalanish talabalarning tushunchalarni mustahkamlashda samarali ekanligini isbotlagan.

Interfaol texnologiyalarning o‘qitish jarayonidagi ahamiyati bo‘yicha [6] tadqiqotlari, ayniqsa, 3D vizualizatsiya va virtual laboratoriyalarning foydaliligini ta’kidlaydi. Ushbu manbalar zamonaviy texnologiyalar yordamida kvadrat tenglamasi va uning xossalarini o‘rganish samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bizga ma’lumki aylana, ellips, giperbola va parabola kabi ikkinchi tartibli chiziqlar tekislikda o‘zlarining kanonik tenglamalari orqali beriladi. Masalan, aylana dekart koordinatalar sistemasida quyidagi tenglama bilan ifodalanadi: $x^2 + y^2 = R^2$. Bu tenglamaga ko‘ra uning grafigi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



1-rasm. Markazi koordinata boshida bo‘lgan aylana grafigi

Xuddi shu kabi tekislikda kvadratni ham ifodalovchi tenglama tuzish mumkinmi degan savol tug‘iladi. Analitik geometriya [7] kursida keltirilgan to‘g‘ri chiziqlarning kanonik tenglamalaridan foydalanib, dastlab tekislikda dioganallari kesishish nuqtasi koordinata boshida bo‘lgan

kvadratning kanonik tenglamasini ishlab chiqdik. Ushbu tadqiqotda kvadratning kanonik tenglamasini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi:

1. To‘g‘ri chiziqqa nisbatan simmetrik bo‘lgan nuqtalarni yasash va analitik ifodalash;
2. Kanonik tenlamasi orqali berilgan geometrik ob’ektlarni burish va analitik ifodasini almashtirish;
3. Hosil qilingan kanonik tenglamalarni GeoGebra dasturi yordamida vizuallashtirish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tekislikda $\hat{A}=\{0,e_1,e_2\}$ affin reper tanlangan bo‘lsin. Birinchi darajali

$$Ax+By+c=0 \qquad (1)$$

ko‘rinishidagi tenglamani o‘rganaylik. (1) tenglamani M nuqtaning B reperdagi x, y –koordinatalari qanoatlantiradi. (1) da A, B, C koeffitsientlar haqiqiy sonlar bo‘lib, A,B lar bir vaqtda nolga teng emas. Tekislikda l to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin. $M_0(x_0,y_0)\in l$ -boshlang‘ich nuqta, $M(x\ ,y)\in l$ ixtiyoriy nuqta bo‘lsin. $M_0M\in l$ vektorni to‘g‘ri chiziqning yo‘naltiruvchi vektori deyiladi. Agar M nuqtaning koordinatalari (1) ni qanoatlantirsa, (1) l to‘g‘ri chiziq tenglamasi bo‘lishi ko‘rsataylik.

$a\{-B,A\}$ vektor M_0M ga kollinear bo‘lsin, ya’ni $M_0M=\lambda a$ bo‘lsin.

$$M_0\in l\Rightarrow Ax_0+By_0+C=0 \qquad (2).$$

(1) dan (2) ni ayiramiz.

$$A(x-x_0)+B(y-y_0)=0\Rightarrow\begin{vmatrix} x-x_0 & y-y_0 \\ -B & A \end{vmatrix}=0 \qquad (3)$$

(3) va (1) tenglamalar teng kuchli. (3) dan M_0M va a vektorlarning kollinearligi kelib chiqadi Shunday qilib, koordinatalari (1) ni qanoatlantiruvchi barcha $M(x,y)$ nuqtalar $a=\{-B,A\}$ vektorga parallel bitta to‘g‘ri chiziq nuqtalaridir.

(1) umumiy tenglamani tekshirish:

1) $\tilde{N}=0$ bo‘lsa, $O(0,0)\in l.$ To‘g‘ri chiziq koordinatalar boshidan o‘tadi.

2) $A=0,B\neq 0,C\neq 0.\ a\{-B,0\}\ //e_1\Rightarrow l\ //(0Y)$
To‘g‘ri chiziq (OY) o‘qqa parallel.

3) $B=0,A\neq 0,C\neq 0.\ a\{O,A\}\ //e_2\Rightarrow l\ //(0X)$.

4) $A=0,B\neq 0,C=0.\ (1)\Rightarrow y=0\ l-(0X)$ o‘q bilan ustma-ust tushadi.

5) $B=0,C=0,A\neq 0,\ (1)\Rightarrow x=0\ l-(0Y)$ o‘q bilan ustma-ust tushadi.

To‘g‘ri chiziq vaziyatini tekislikda o‘rnatilgan reperga nisbatan turlicha ko‘rsatish mumkin:

• To‘g‘ri chiziqqa tegishli $M_1(x_1,y_1)$, $M_2(x_2,y_2)$ yo‘naltiruvchi vektor orqali;
Biror $M_0(x_0,u_0)$ nuqtasi va $u=\{a_1,a_2\}$ yo‘naltiruvchi vektor orqali;
Koordinata o‘qlari bilan kesishgan $A(a,0)$, $B(0,b)$ ikkita nuqtasi orqali.

Tekislikda $\hat{A}=\{0,e_1,e_2\}$ affin reper o‘rnatilgan bo‘lsin. To‘g‘ri chiziq vaziyatini biror $M_0(x_0,u_0)$ nuqtasi va $u=\{a_1,a_2\}$ yo‘naltiruvchi vektor orqali aniqlaymiz. l to‘g‘ri chiziqda ixtiyoriy $M(x,u)$ nuqta olaylik. U holda M_0M va u vektorlar kollinear bo‘lib,

$$M_0M=tu. \qquad (4)$$

Bunda *t*-parametr . $-\infty < t < \infty.$
Agar M_0 va M nuqtalarning radius vektorlari $OM_0 = r_0,\ OM = r$ bo‘lsa, u holda

$$M_0M = r - r_0 \qquad (5)$$

(4) va (5) tengliklardan

$$r = r_0 + tu \qquad (6)$$

kelib chiqadi Bu formulani to‘g‘ri chiziqning vektor ko‘rinishidagi parametrik tenglamasi deyiladi. (6)ni koordinata ko‘rinishida yozaylik:

$$xe_1 + ye_2 = (x_0 + a_1t)e_1 + (y_0 + a_2t)e_2 \Rightarrow$$
$$x = x_0 + a_1t$$
$$y = y_0 + a_2t \qquad (7)$$

(7) ni to‘g‘ri chiziqning koordinata ko‘rinishidagi parametrik tenglamasi deyiladi.

Agar $a_1 \cdot a_2 \neq 0$ shart bajarilsa, (7) dan *t* ni chiqarib

$$\frac{x - x_0}{a_1} = \frac{y - y_0}{a_2} \qquad (8)$$

ni hosil qilamiz. (8) ni to‘g‘ri chiziqning *kanonik tenglamasi* deyiladi. (8) dan $a_2x - a_1y + (-a_2x_0 + a_1y_0) = 0$ birinchi darajali tenglama kelib chiqadi.

To‘g‘ri chiziq ordinata o‘qiga parallel bo‘lmasin. Bunda $u = \{a_1, a_2\}$ vektor koordinatalaridan $a_1 \neq 0.$

1-ta’rif. To‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsienti deb uning u yo‘naltiruvchi vektorining ikkinchi koordinatasini birinchi koordinatasiga bo‘lgan nisbatiga aytiladi va

$$k = \frac{a_2}{a_1} \qquad (9)$$

tarzida belgilanadi.

u ga kollinear har qanday $v = \{b_1, b_2\} \neq 0$ vektor uchun

$$k = \frac{a_2}{a_1} = \frac{b_2}{b_1}.$$

Agar *l* to‘g‘ri chiziq umumiy tenglamasi $Ax + By + c = 0$ orqali berilgan bo‘lsa, uning yo‘naltiruvchi vektori $u = \{-B, A\}$ bo‘lib, $k = \frac{A}{B}$. Agar *l* to‘g‘ri chiziq burchak koeffitsienti k va *OY* o‘q bilan kesishgan nuqtasi *N(0, b)* orqali berilgan bo‘lsa, u holda ixtiyoriy $\grave{I}\ (\tilde{o}, \acute{o}) \in l$ nuqta uchun $NM\{x; y - b\} // u \Rightarrow$

$$\frac{y - b}{x} = \frac{a_2}{a_1} = k \Rightarrow y = kx + b \qquad (10)$$

(10) formula ordinata o‘qi bilan kesishuvchi to‘g‘ri chiziqning burchak koeffitsientli tenglamasidir.

Endi berilgan $M_0(x_0,u_0)$ nuqtadan o‘tib, berilgan k burchak koeffitsientli to‘g‘ri chiziq tenglamasini yozaylik. l to‘g‘ri chiziq


ordinata o‘qiga parallel bo‘lmasin. Uning tenglamasi (10) ko‘rinishda bo‘lib, $M_0(x_0,u_0)$ nuqtadan o‘tadi. (10) dan $y_0 = kx_0 + b$ ni ayirsak

$$y - y_0 = k(x - x_0) \qquad (11)$$

kelib chiqadi.

Endi kvadrat uchun umumiy tenglamani izlab ko‘ramiz. Uni quyidagi 4 ta to‘g‘ri chiziq orqali hosil qilib ko‘raylik:

$$\begin{cases} y = x + a \\ y = x - a \\ y = -x + a \\ y = -x - a \end{cases}$$



2-rasm. Kvadratni tomonlariga mos to‘g‘ri chiziqlar

Bundan kvadratning quyidagi tenglamasi hosil bo‘ladi:

$$|x| + |y| = a \qquad (12)$$

Bu yerda kvadratning tomoni $\sqrt{2}a$ ga teng. Haqiqatan ham ushbu tenglama markazi: $O(0;0)$ nuqtalar bo‘lgan kvadrat ifodalaydi.

Agar markazni $O(x_0; y_0)$ nuqtada deb olsak, kvadratning umumiy tenglamasi hosil qilamiz:

$$|x - x_0| + |y - y_0| = a \qquad (13)$$

Bu yerda kvadrat markazi $O(x_0; y_0)$ nuqtada kvadratning tomoni $\sqrt{2}a$ ga teng Agar ushbu

tenglamani $|x-x_0|+|y-y_0|\le a$ deb yozsak, dekart koorditalanar sistemasida kvadrat sirtning umumiy tenglamasini hosil qilamiz.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, GeoGebra, MATLAB va boshqa interfaol dasturlarni qo‘llash kvadratning kanonik tenglamasini tushuntirishda samarali usul hisoblanadi. Eksperimental guruhdagi talabalar an’anaviy usul bilan o‘qitilganlarga nisbatan tushuncha va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini yaxshiroq rivojlantirganlari aniqlandi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida dars jarayoni yanada qiziqarli va interfaol bo‘lib, talabalar faol ishtirok etishgan va mavzuga qiziqishlari ortgan. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kelajak tadqiqotlar doirasida zamonaviy texnologiyalar yordamida boshqa geometrik shakllarni o‘rgatish samaradorligini baholash, shuningdek, texnologiyalarni chuqurroq o‘rganish tavsiya etiladi. Olingan natijalar matematika ta’limida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni kengaytirish zaruratini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulwahed M., Jaworski B. and Crawford A. R. Innovative approaches to teaching mathematics in higher education: a review and critique. Nordic Studies in Mathematics Education, 17(2), 2012, 49–68.

Ion T. and Popescu E. An innovative distance learning platform for mathematics education in secondary schools: Design, development and preliminary studies. Educ Inf Technol 2024. https://doi.org/10.1007/s10639-024-13040-z

Haydarov I.I., Nuritdinov J.T. Benefit from the GeoGebra program in solving problems of projective geometry, Open Access Repository. – 2023, T. 9, №. 4, 298-302.

Anderson P. Coordinate Geometry: Theoretical and Practical Applications. Wiley. 2022.

Galyamova E., Matveev S., Kiselev B. Digital Simulators and Training Devices for Solving Geometric Problems. In: Guda, A. (eds) Networked Control Systems for Connected and Automated Vehicles. NN 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 510. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-11051-1_103

Badioze Zaman H., Bakar N., Ahmad A., Sulaiman R., Arshad H., Mohd. Yatim N.F. Virtual Visualisation Laboratory for Science and Mathematics Content. Lecture Notes in Computer Science, vol 5857. Springer, Berlin, Heidelberg. 2009. https://doi.org/10.1007/978-3-642-05036-7_34

Narmanov A.Y. Analitik geometriya.Toshkent. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashrivoti, 2008. – 176 b.

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Boboyev Muxammadayubxon Murodxon o'g'li,
Normal va topografik anatomiya kafedrasi assistenti
Central Asian Medical University

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy interaktiv o'qitish usullari, simulyatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va sun'iy intellekt asosida individual ta'lim yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida empirik tahlil, pedagogik tajribalar va ta'lim jarayonini raqamli monitoring qilish usullari qo'llanilgan. Natijalarga ko'ra, innovatsion texnologiyalar talabalarning fanni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Mazkur maqola pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ilmiy va amaliy jihatlarini yoritib, tibbiyot ta'limida sifatni oshirishga hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion pedagogik texnologiyalar, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, interaktiv o'qitish usullari, simulyatsion ta'lim, raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellekt ta'limda, tibbiyot ta'limida sifat, ta'lim samaradorligini oshirish, tibbiy ta'lim metodologiyasi, pedagogik yondashuvlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются возможности использования инновационных педагогических технологий для повышения эффективности обучения в медицинских высших учебных заведениях. В исследовании рассматриваются современные интерактивные методы преподавания, симуляционные технологии, цифровые платформы и индивидуальные подходы к обучению на основе искусственного интеллекта. В качестве методологии использованы эмпирический анализ, педагогические эксперименты и цифровой мониторинг образовательного процесса. Результаты показывают, что инновационные технологии значительно улучшают усвоение знаний студентами. Статья освещает научные и практические аспекты внедрения современных технологий в образовательный процесс и способствует повышению качества медицинского образования.*

Ключевые слова: *Инновационные педагогические технологии, медицинские высшие учебные заведения, интерактивные методы обучения, симуляционное обучение, цифровые образовательные платформы, искусственный интеллект в образовании, качество медицинского образования, повышение эффективности обучения, методология медицинского образования, педагогические подходы*

Annotation: *This article analyzes the possibilities of using innovative pedagogical technologies to enhance the effectiveness of education in medical higher educational institutions. The study examines modern interactive teaching methods, simulation technologies, digital platforms, and individualized learning approaches based on artificial intelligence. The research methodology includes empirical analysis, pedagogical experiments, and digital monitoring of the educational process. The results demonstrate that innovative technologies significantly improve students' knowledge acquisition. This article highlights the scientific and practical aspects of integrating modern technologies into the educational process, contributing to the improvement of medical education quality.*

Keywords: *Innovative pedagogical technologies, medical higher educational institutions, interactive teaching methods, simulation-based learning, digital educational platforms, artificial intelligence in education, quality of medical education, enhancing learning efficiency, medical education methodology, pedagogical approaches*

Kirish.

Hozirgi kunda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy bilimlarni yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni real klinik amaliyotga tatbiq etish jarayoni yetarlicha samarali emas[1]. Shu sababli, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar bilimining chuqurligi va amaliy ko‘nikmalarining shakllanishini oshirishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Bugungi kunda simulyatsion o‘qitish, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari, sun’iy intellekt asosida individual yondashuv, gamifikatsiya, adaptiv ta’lim tizimlari kabi metodlar tibbiyot ta’limida jadal rivojlanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiyalardan foydalanish nafaqat talabalar bilim olish jarayonini tezlashtiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, klinik qaror qabul qilish va real sharoitlarda xatoliklarni minimallashtirish qobiliyatini ham oshiradi[2].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish va baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan[3]:

• An’anaviy va innovatsion ta’lim usullari samaradorligini taqqoslash asosida ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash;

• Simulyatsion o‘qitish va raqamli ta’lim platformalarining tibbiyot ta’limidagi o‘rni va ta’sirini tahlil qilish;

• Sun’iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan ta’lim modelining ta’lim jarayoniga integratsiyasini baholash;

• Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida klinik qaror qabul qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

• Ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda tibbiyot ta’limi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy tibbiyot ta’limida innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, balki klinik xatoliklarning oldini olish va bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish uchun muhim poydevor yaratadi. Tadqiqot natijalari tibbiy pedagogika sohasini takomillashtirish, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish va kelajak avlod tibbiyot xodimlarini tayyorlash sifati oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Tibbiyot oliy ta’limida ta’lim samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hozirgi kunda o‘quv jarayonini yaxshilash va talabalarning bilimlarini yanada mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda. Zamonaviy interaktiv o‘qitish usullari, simulyatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va sun’iy intellektning tibbiyot ta’limiga integratsiyasi sohada yangi imkoniyatlarni yaratadi[1]. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini oshiradi, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham muhim o‘rin egallaydi.

Interaktiv o‘qitish usullari. Interaktiv o‘qitish usullari talabalarga faollikni oshirish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, interaktiv

metodlar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimi va ko‘nikmalarini yanada samarali shakllantirishlari mumkin. Bu metodlar talabalarni faol ravishda dars jarayoniga jalb etadi va o‘rganilgan materialni mustahkamlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga murakkab tibbiy tushunchalarni tezroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, interaktiv metodlar orqali talabalar o‘quv jarayonida o‘z fikrlarini ifoda etishga, guruhlarda ishlashga va o‘zaro tajriba almashishga o‘rganadilar, bu esa jamoaviy ishni va klinik vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[2].

Simulyatsion ta’lim texnologiyalari. Simulyatsion ta’lim texnologiyalari tibbiyotda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Simulyatsiyalar orqali talabalar turli klinik sharoitlarda o‘z ko‘nikmalarini sinab ko‘rishlari, xatolardan o‘rganishlari va amaliy bilimlarini kengaytirishlari mumkin. Tibbiy simulyatorlar yordamida talabalar anatomiya, jarrohlik amaliyotlari, diagnostika va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z bilimlarini amalda sinab ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, simulyatsiya orqali talabalar, tibbiyotda yuzaga keladigan favqulodda holatlar va murakkab vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha amaliy tajriba orttirishadi, bu esa ularga kelajakdagi klinik ish faoliyatlarida yordam beradi.

Raqamli ta’lim platformalari. Raqamli ta’lim platformalari tibbiyot ta’limining asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Ushbu platformalar talabalar uchun turli resurslarga, o‘quv materiallariga va testlarga qulay kirish imkoniyatini yaratadi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida raqamli platformalarning qo‘llanilishi o‘quvchilar uchun o‘z o‘rganish jarayonlarini shaxsiylashtirish imkonini beradi, chunki talabalar o‘zlariga mos vaqtda, o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Raqamli platformalar, shuningdek, talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni tez va oson baholash imkoniyatini yaratadi, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Sun’iy intellekt (AI) va shaxsiylashtirilgan o‘qitish. Sun’iy intellekt texnologiyalari tibbiyot ta’limini yanada shaxsiylashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. AI yordamida o‘quvchilar uchun individual o‘rganish yondashuvlari ishlab chiqiladi, bu esa har bir talaba uchun o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallari va testlar talabaning bilim darajasiga mos ravishda takomillashtiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi, chunki ularning bilim darajasiga mos o‘rganish materiallari taqdim etiladi[4]. AI texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshiradi va ta’limni yanada interaktiv qiladi.

Tibbiyot ta’limida sifatni oshirish. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, tibbiyot ta’limida sifatni oshirishga katta hissa qo‘shadi. Interaktiv va simulyatsion texnologiyalar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi klinik faoliyatlariga tayyorgarlikni kuchaytiradi. Tibbiyot oliy ta’limida sifatni oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarni o‘z vaqtida va samarali ravishda ta’lim olish imkoniyatiga ega qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar va AI texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi, chunki ular talabalarni individual tarzda o‘rganishga yordam beradi va o‘qitish jarayonini ko‘proq personalizatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning klinik ko‘nikmalarini yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchilarga individual yondashuvni ta’minlash imkoniyatini beradi. Quyida maqolada keltirilgan asosiy natijalar va o‘rgangan texnologiyalarni jamlash uchun 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Innovatsion texnologiyalari	Ta’lim samaradorligiga ta’siri	Mamlakatlar va ta’lim muassasalari
Simulyatsion ta’lim	Klinikalashgan vaziyatlarni samarali o‘rganish va ko‘nikmalarni shakllantirish	AQSh (Harvard Medical School), Germaniya (Charité University)
Raqamli ta’lim platformalari	Talabalar uchun real vaqtda bilimlarni mustahkamlash	Buyuk Britaniya (UCL), Kanada (University of Toronto)
Interaktiv o‘qitish usullari	Talabalar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va o‘quv jarayonida faoliyatni oshirish	Yaponiyaning Kyoto University, Avstraliya (Monash University)
Sun’iy intellekt asosida individual yondashuvlar	Ta’limda shaxsiylashtirish va individual yondashuvni joriy etish	AQSh (Stanford University), Shvetsiya (Karolinska Institute)
Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)	Fanni o‘rganishni o‘zgartirish va realistik klinik sharoitlarni yaratish	Germaniya (Heidelberg University), Kanada (McGill University)

Xulosa.

Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotda zamonaviy interaktiv o‘qitish usullari, simulyatsion ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari va sun’iy intellekt asosidagi individual yondashuvlar kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

1. Simulyatsion ta’lim texnologiyalari talabalar uchun amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta yordam beradi. Klinik vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyati talabalarga haqiqiy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tibbiy holatlarni boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bunda, simulyatsion ta’lim metodlari talabalarga xatoliklardan o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

2. Raqamli ta’lim platformalari orqali talabalar o‘z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Onlayn kurslar, interaktiv darsliklar va raqamli testlar yordamida talabalarga o‘zlashtirish darajasini baholash va yangi bilimlarni egallash imkoniyatlari yaratiladi. Natijada, raqamli ta’lim platformalarining qo‘llanilishi talabalar o‘rtasida faol o‘qish va mustahkam bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Sun’iy intellekt (SI) yordamida ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish ta’lim samaradorligini oshiradi. Sun’iy intellekt yordamida talabaning o‘qish tezligi, qiyinchilik darajasi va o‘quvdagi muvaffaqiyatlari tahlil qilinadi, bu esa o‘qituvchilarga har bir talabaning ehtiyojiga mos keladigan o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Shu tarzda, sun’iy intellekt talabalarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini prognoz qilish va o‘quv natijalarini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi.

4. Interaktiv o‘qitish usullari talabalarga o‘zaro faol muloqotda bo‘lish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Jamoaviy muhokamalar, loyiha asosida o‘qish va amaliy faoliyatlar talabalarni o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Bu usul talabalar o‘rtasida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va materialni amaliyotga tatbiq etishda ularga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va klinik vaziyatlarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini moslashtirish va talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirishning ilg‘or metodlari va yondashuvlarini aniqladi[6]. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalar va o‘qituvchilar uchun yanada samarali va sifatli ta’lim tizimini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday texnologiyalarni tibbiyot ta’limida keng qo‘llash, o‘z navbatida, jamiyat uchun yuqori malakali, bilimli va amaliy ko‘nikmalarga ega tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tibbiyot ta’limi sohasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga, talabalar bilimlarini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar, shuningdek, ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash uchun zarur vositalardir. Maqola, o‘z navbatida, tibbiyot ta’limi sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy va amaliy jihatlarini tushunishga yordam beradi va kelajakda bunday texnologiyalarning rivojlanishi va kengayishini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Журбенко В. А., Саакян Э. С. Использование инновационных методов обучения в медицинском вузе. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2016;(11 – 1):164–164.

2. Щукин Ю. В., Мензул Е. В., Мякишева Ю. В. Инновационные подходы формирования образовательных траекторий в медицинском вузе. Медицинское образование и вузовская наука. 2017;9(1):21–25.

3. Knebel E. The use and effect of distance education in health care : what do we know? Quality Assurance Project. 2001. URL: https:// pdf.usaid.gov/pdf_docs/Pnacn245.pdf (дата обращения: 25.06.2022 г.).

4. Samadbeik M. et al. Education and Training on Electronic Medical Records (EMRs) for health care professionals and students: A Scoping Review. International Journal of Medical Informatics. 2020;142:104238–10.

5. Литвинова Т. М., Галузина И. И., Засова Л. В., Присяжная Н. В. Медицинское образование в России: векторы перезагрузки в условиях пандемии. Национальное здравоохранение. 2021;2(1):12–20.

6. Внедрение VR и AR в медицине и медицинском обучении. URL: https://onix-systems.com/blog/implementing-virtual-reality-in-medicine-and-medical-training (дата обращения: 12.06.2022 г.).

O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI HAMDA YANGI IMKONIYATLAR

Ne’matov Jo‘rabek Ihom o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy tizimga ta’siri tahlil qilinadi. Islom bankchiligining asosiy tamoyillari, uning an’anaviy bank tizimidan farqlari hamda mamlakatimizda ushbu moliyaviy institutlarning huquqiy va iqtisodiy muhitga integratsiyalashuvi o‘rganiladi. Shuningdek, Islomiy moliyalashtirish vositalari, ularning afzalliklari va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada Islom banklarining O‘zbekistonda yanada rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar va to‘siqlar tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Islom bankchiligi, Islomiy moliyalashtirish, O‘zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy innovatsiyalar, foizsiz bank tizimi, shariat tamoyillari, investitsiya, halol moliya, bank tizimi modernizatsiyasi.*

Аннотация: *В статье анализируются тенденции развития исламских банков в Узбекистане и их влияние на экономическую систему. Будут изучены основные принципы исламского банкинга, его отличия от традиционной банковской системы, а также интеграция этих финансовых институтов в правовую и экономическую среду нашей страны. В нем также рассматриваются исламские финансовые инструменты, их преимущества и направления будущего развития. В статье анализируются существующие возможности и препятствия для дальнейшего развития исламских банков в Узбекистане, даются предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *исламское банковское дело, исламское финансирование, экономика Узбекистана, финансовые инновации, беспроцентная банковская система, принципы шариата, инвестиции, халяльные финансы, модернизация банковской системы.*

Annotation: *This article analyzes the directions of development of Islamic banks in Uzbekistan and their impact on the economic system. The main principles of Islamic banking, its differences from the traditional banking system, and the integration of these financial institutions into the legal and economic environment in our country are studied. Also, Islamic financing tools, their advantages and future directions of development are considered. The article analyzes the existing opportunities and obstacles for the further development of Islamic banks in Uzbekistan, offers suggestions and recommendations.*

Keywords: *Islamic banking, Islamic finance, Uzbekistan’s economy, financial innovations, interest-free banking system, Sharia principles, investment, halal finance, banking system modernization.*

Kirish.

Mamlakatimizda moliyaviy sektorni rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va investitsion muhitni yaxshilash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda Islom bankchiligi va moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sifatida e’tiborga olinmoqda. Dunyoning ko‘plab davlatlarida, jumladan, Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni va

Turkiyada Islom bankchiligi muvaffaqiyatli rivojlanib, xalqaro moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston ham ushbu sohada yangi imkoniyatlarni o‘rganish va qo‘llashga intilmoqda.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish yo‘nalishlari, mavjud imkoniyatlari va duch kelayotgan muammolarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini tahlil qilish va uning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni aniqlashdir.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

• Islom bankchiligining nazariy asoslarini va an’anaviy bank tizimidan farqlarini tahlil qilish;

• O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy bazasini o‘rganish;

• Islomiy moliyaviy xizmatlarning amaliy qo‘llanilishi va ularning iqtisodiyotga ta’sirini baholash;

• Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Islom banklari an’anaviy foizli bank tizimidan farqli ravishda foizsiz moliyalashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu esa investitsiyalarni jalb qilishning muqobil usuli bo‘lib, barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, Islomiy moliyalashtirish tamoyillari halol va adolatli iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimni joriy etish orqali kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish va aholi uchun yangi moliyaviy xizmatlar yaratish mumkin.

Shu sababli, mazkur tadqiqot Islom banklarining O‘zbekistondagi istiqboli va iqtisodiy tizimga qo‘shadigan hissasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatning moliyaviy tizimini diversifikatsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

Islom bankchiligi va moliyalashtirish tizimi bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularning tahlili ushbu sohaning rivojlanish dinamikasini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Islomiy bank tizimining asoslari haqida Abu Sulaymon (2020) va Chapra (2016) kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida shariat tamoyillariga asoslangan bank faoliyatining asosiy prinsiplari – foizsiz moliyalashtirish, adolat, risklarni taqsimlash va real iqtisodiyotga bog‘liqlikni tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra, Islom banklari odatiy bank tizimidan farqli o‘laroq, mijozlarga kredit berishda foiz (ribo) talab qilmaydi, balki sheriklik (mudaraba, musharaka), ijara (ijara) va savdo asosidagi (murabaha) bitimlar orqali ishlaydi.

Xalqaro miqyosda Islom bankchiligi bo‘yicha Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni va Turkiyada olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Iqbal va Mirakhor (2017) Islom banklarining global moliyaviy inqirozlarga chidamliligini tahlil qilgan bo‘lib, bu tizimning barqarorligi va risklarni taqsimlash mexanizmi bo‘yicha ustunligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Malaysiyaning muvaffaqiyatli tajribasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, Ahmad va Haron (2021) o‘z ishlarida mamlakatda Islom banklarining huquqiy va tartibga solish mexanizmlari qanday ishlab chiqilganini ko‘rsatib bergan.

Yurtimizda Islom banklarini joriy etish bo‘yicha hali yetarlicha ilmiy tadqiqotlar mavjud emas, ammo ushbu mavzu bo‘yicha ayrim manbalar va tahlillar mavjud. Jumladan, Karimov (2022) O‘zbekistonda Islomiy moliyalashtirishning istiqbollari haqida tadqiqot olib borib, bu tizimning kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilgan. Shuningdek, Mustafoyev va Abdurahmonov (2023) o‘z maqolalarida O‘zbekiston bank sektorida Islomiy moliyalashtirishga oid qonunchilik bazasining takomillashtirilishi zaruriyatini qayd etishgan.

Islom banklari va ularning investitsiya imkoniyatlari bo‘yicha El-Gamal (2018) o‘z tadqiqotida shariatga asoslangan moliyaviy mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligini baholagan. O‘zbekiston sharoitida esa Islom bankchiligi asosida barqaror investitsion muhit yaratish imkoniyatlari haqida

Tursunov (2023) o‘z ilmiy ishida Islomiy moliyaviy instrumentlarning qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar bergan.

Tadqiqot Metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish yo‘nalishlari va imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqot davomida Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri, xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari va Islom banklarining huquqiy hamda institutsional muhitini o‘rganish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Tadqiqot dizayni va strategiyasi

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

• Nazariy tahlil – Islom bankchiligining asosiy tamoyillari, uning rivojlanish bosqichlari va xalqaro tajribasiga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va amaliy tadqiqotlarni ko‘rib chiqish.

• Empirik tahlil – O‘zbekistonda Islomiy moliyalashtirishni joriy etish jarayonini o‘rganish, bank sektori va iqtisodiy tizim bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish.

• Tahliliy usullar – Bank sektoridagi ma’lumotlar va statistik ko‘rsatkichlarni o‘rganish orqali O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish istiqbollarini baholash.

Tadqiqot strategiyasi quyidagi metodlarga asoslanadi:

Kuzatish – Islom banklarining jahon tajribasi va O‘zbekiston sharoitida moliyaviy tizimga ta’sirini o‘rganish.

Keys-stadi (holat tahlili) – Islomiy bank xizmatlarini joriy qilgan mamlakatlarning tajribalarini tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini baholash.

Savolnoma va intervyular – Bank sohasi mutaxassislari, iqtisodchilar va tadbirkorlar orasida Islomiy bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishni aniqlash.

Statistik tahlil – O‘zbekiston bank sektoridagi moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va Islom banklari uchun bozor talabini baholash.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti – O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish jarayoni va ularning iqtisodiy tizimga ta’siri.

Tadqiqot predmeti – Islomiy moliyalashtirishning huquqiy, iqtisodiy va institutsional jihatlari, shuningdek, bu tizimning an’anaviy bank tizimi bilan integratsiyasi.

Tadqiqot uchun zarur axborot manbalari

O‘zbekiston bank sektoriga oid statistik ma’lumotlar (Markaziy bank va tijorat banklari hisobotlari).

Islom bankchiligi bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari (IDB – Islom Taraqqiyot Banki, AAOIFI – Islomiy moliyaviy institutlar uchun hisobot va audit tashkiloti).

O‘zbekiston va xorijiy davlatlardagi ilmiy maqolalar, iqtisodiy hisobotlar va moliyaviy institutlarning tahlillari.

Tadqiqot jarayonida foydalanilgan ma’lumotlar maxfiylik tamoyiliga asoslanadi.

Respondentlardan olingan ma’lumotlar anonim tarzda qayta ishlanadi va tadqiqot maqsadlari uchun foydalaniladi.

Ilmiy manbalar va statistik ma’lumotlar ishonchli hamda ochiq manbalardan olinadi.

Tadqiqot xolislik va obyektivlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Tahlil va Natijalar.

Ushbu tadqiqot doirasida O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish yo‘nalishlari va imkoniyatlarini baholash uchun turli tahlil usullari qo‘llanildi. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

Islom banklarining rivojlanish dinamikasi va xalqaro tajriba tahlili

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni va Turkiya Islom banklarini rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishgan. Ushbu davlatlarda Islom banklari umumiy moliyaviy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi va ular iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Statistik ma’lumotlar shuni tasdiqladiki, Islom banklari an’anaviy banklarga nisbatan moliyaviy inqirozga bardoshliroq bo‘lib, foizsiz moliyalashtirish mexanizmlari orqali barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston uchun ushbu mamlakatlarning tajribasi muhim bo‘lib, Islom banklarini rivojlantirishda huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish lozimligi aniqlangan.

O‘zbekistonda Islom bankchiligi bozor talabi va potensialini baholash

Savolnoma natijalari (bank sohasi mutaxassislari, tadbirkorlar va potensial mijozlar orasida o‘tkazilgan) shuni ko‘rsatdiki:

Respondentlarning 68% Islomiy moliyalashtirish xizmatlariga qiziqish bildirgan.

52% respondentlar foizsiz kredit va moliyalashtirish imkoniyatlari bo‘lsa, an’anaviy bank xizmatlaridan voz kechishga tayyorligini bildirgan.

60% tadbirkorlar Islom banklari kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan.

Bank sektorining mavjud sharoiti tahlil qilinib, Islom banklari faoliyat yuritishi uchun ba’zi cheklovlar mavjudligi aniqlangan. Jumladan, huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi va aholining Islomiy moliyalashtirish mexanizmlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi asosiy to‘siq sifatida aniqlangan.

1-jadval

O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish potensiali*

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy banklar (%)	Islom banklari (%)
Mijozlarning qiziqishi	75	68
Tadbirkorlarning qiziqishi	60	52
Kreditlash hajmi	80	20
Moliyaviy barqarorlik	o‘rtacha	yuqori
Risklarni taqsimlash	individual	hamkorlik asosida

*Muallif ishlanmasi

Islom banklarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga potensial ta’siri

Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Islom banklari joriy etilsa, bank sektorida raqobat ortadi, bu esa kredit stavkalarining pasayishiga va mijozlar uchun qulay moliyaviy sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining foizsiz moliyalashtirishga mosligi bo‘yicha dastlabki baholash natijalari, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlik sektorlarida Islomiy moliyaviy instrumentlarning samarali ishlashi mumkinligini ko‘rsatdi.

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali Islom banklari tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Huquqiy va institutsional muammolar tahlili

Huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda Islom banklarini to‘laqonli joriy etish uchun qonunchilik bazasi hali yetarlicha rivojlanmagan.

Amaldagi tijorat banklari faoliyatiga oid hujjatlar tahlili asosida Islomiy bank operatsiyalarini huquqiy tartibga solish uchun qo‘shimcha qonuniy asoslar talab qilinishi aniqlandi.

Regulyatorlar va bank sohasi mutaxassislari bilan o‘tkazilgan intervyular asosida Islom banklarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus qonunchilik va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi aniqlangan.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanish istiqbollari, ularning iqtisodiyotga ta’siri va mavjud huquqiy-institutsional muammolarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba, statistik tahlil va empirik ma’lumotlar asosida Islom bankchiligi mamlakat moliyaviy tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi.

Islom banklari O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aholining Islomiy moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabi yuqori, ayniqsa, foizsiz kreditlash va risklarni adolatli taqsimlash tamoyillari tadbirkorlar uchun jozibador hisoblanadi.

Islom banklarini rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish zarur. Mavjud tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari foizsiz bank xizmatlarini to‘liq joriy etishga imkon bermaydi. Maxsus qonunlar va reglamentlar ishlab chiqilishi lozim.

Islom banklari kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Islomiy moliyalashtirish mexanizmlari kichik va o‘rta biznes uchun qulay moliyaviy sharoit yaratishi mumkin, bu esa iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.

Mavjud moliyaviy tizim Islom banklariga to‘liq moslashmagan bo‘lsada, transformatsiya qilish imkoniyati mavjud. Islomiy moliyalashtirishni an’anaviy bank xizmatlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish uchun Markaziy bank va tijorat banklari bilan hamkorlikda maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda Islom banklarining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq, bu tizimni to‘liq shakllantirish uchun huquqiy, institutsional va iqtisodiy islohotlar talab etiladi. Islom bankchiligi sohasida xalqaro tajribani inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich islohotlar o‘tkazish va davlat, bank sektori hamda jamiyatning har tomonlama ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons, New Jersey, 320 p.

2. Usmon M. “Islom moliyasi va bankchiligi: O‘zbekistonda rivojlanish istiqbollari.” O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqot Jurnali, 2020-yil, №3, 45-60 betlar.

3. Chapra M. The Future of Economics: An Islamic Perspective. Islamic Foundation, Leicester, 452 p.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. “Islom banklari va foizsiz moliyalashtirish mexanizmlari.” Rasmiy hisobot, Toshkent, 2023-yil, 67 bet.

5. Khan T. “Islamic Banking and Finance: Growth and Development.” Journal of Islamic Economics and Finance, 2019-y, №5(2), 78-92 pp.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom moliyasi va bank tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 15-iyul, №PQ-5234.

7. Ahmed H. Risk Management in Islamic Banking. Edward Elgar Publishing, Cheltenham, 288 p.

8. Siddiqi M. “Islamic Banking and Finance in Theory and Practice.” Islamic Economic Studies, 2006-y, №13(2), 25-40 pp.

9. World Bank Group. Islamic Finance: Opportunities for Growth and Development in Emerging Markets. Washington, D.C., 2022-y, 110 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi. “O‘zbekistonda Islom moliyaviy institutlari istiqbollari.” Rasmiy tahliliy hisobot, Toshkent, 2023-yil, 55 bet.

YOSHLARNING ILMGA BEFARQLIGI – KELAJAK UCHUN XAVF

Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, bugungi kunda yoshlarning ilmga bo‘lgan munosabati jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri ekanligi. Biroq, zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborot oqimi fonida ko‘plab yoshlar ilm olishga befarq bo‘lib, borayotganliklari. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning intellektual va iqtisodiy kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Befarqlik, ta’lim, kelajak, taraqqiyot, motivatsiya, innovatsiya, bilim, texnologiya, intellektual rivojlanish, zamonaviy dunyo, raqobatbardoshlik.*

Annotation: *This article discusses in detail the fact that today the attitude of young people to science is one of the most important factors determining the future of society. However, in the modern world, against the background of technological progress, social networks and the rapid flow of information, many young people are becoming indifferent to learning. This negatively affects not only their personal development, but also the intellectual and economic future of society as a whole.*

Keywords: *Indifference, education, future, development, motivation, innovation, knowledge, technology, intellectual development, modern world, competitiveness.*

Аннотация: *В статье утверждается, что отношение современной молодежи к науке является одним из важнейших факторов, определяющих будущее общества. Однако в современном мире, на фоне развития технологий, социальных сетей и стремительного потока информации, многие молодые люди становятся равнодушными к обучению. Это оказывает негативное влияние не только на их личностное развитие, но и на интеллектуальное и экономическое будущее всего общества, о чем подробно говорится в статье.*

Ключевые слова: *Безразличие, образование, будущее, прогресс, мотивация, инновации, знания, технологии, интеллектуальное развитие, современный мир, конкурентоспособность.*

Kirish.

Ilm – insoniyatni zulmatdan nur sari yetaklovchi eng qudratli quroldir. Tarixga nazar tashlasak, har qanday rivojlangan jamiyatning poydevori ilm va ma’rifatga asoslangan. Buyuk allomalar va olimlar yaratgan kashfiyotlar, rivojlantirgan tafakkur maktablari natijasida dunyo tubdan o‘zgargan, jamiyatlar yuksalgan. Biroq bugungi kunda yoshlarning ilmga bo‘lgan munosabati tobora sustlashib, befarqlik girdobiga tortilmoqda. Texnologiyalar rivojlanib, internet imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa-da, ko‘plab yoshlar bilim izlash o‘rniga vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda behuda sarflamoqda, qisqa muddatli manfaatlarni uzoq muddatli ilmiy izlanishlardan ustun qo‘ymoqdalar. Bu esa nafaqat o‘z shaxsiy kelajaklarini, balki butun jamiyatning intellektual rivojlanishini xavf ostiga qo‘yish degani. Ilmga befarqlik – bu bir kunlik muammo emas, balki avlodlar kelajagini hal qiluvchi omildir. Agar bugun yoshlar ilmga intilmasa, ertaga taraqqiyotga yetaklaydigan kadrlar yo‘qolib, jamiyat intellektual tanazzulga yuz tutishi aniq va ravshandir. Demak, bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri – yoshlarni ilmga bo‘lgan qiziqishini qayta jonlantirish, ularni izlanishga, yaratishga, o‘rganishga undashdir. Chunki ilmga befarqlik – nafaqat shaxsiy, balki milliy fojiaga aylanishi mumkin. Ushbu maqolada aynan shu muammo chuqur tahlil qilinib, uning sabablari va yechim yo‘llari o‘rganiladi. Biz bugun harakat qilmasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin!

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1. YUNESKO hisoboti dunyo bo‘ylab ta’lim sifati va yoshlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini statistik ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Unda ilmga bo‘lgan befarqlikning iqtisodiy ta’siri ham tahlil qilingan.

2. Abu Nasr Forobiy – “Fozil odamlar shahri”. Forobiy bu asarida ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib beradi. U ilm va ma’rifat orqali fozil jamiyatni barpo etish mumkinligini ta’kidlaydi.

3. Ibn Sino esa “Tib qonunlari” asarida ilmiy tadqiqot va tajribaning inson hayoti va sog‘lig‘iga ta’sirini chuqur tahlil qilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi hisobotlari. O‘zbekiston ta’lim tizimida yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishi va ularni rag‘batlantirish bo‘yicha statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Unda mamlakat bo‘yicha yoshlarning ilmiy faoliyatga jalb qilinishi ko‘rsatkichlari berilgan.

5. J. Bruner – “The Process of Education”. Bruner ta’lim jarayonini tushunish va rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot olib boradi. Uning ta’lim psixologiyasiga oid g‘oyalari yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

6. PISA (Programme for International Student Assessment) hisobotlari. Dunyo miqyosida yoshlarning o‘quv natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlar ilmiy salohiyat pasayishining asosiy sabablarini ochib beradi. Ushbu tadqiqotlar yoshlarning ta’limga bo‘lgan munosabatini tahlil qilish imkonini beradi.

7. Steven Pinker – “The Better Angels of Our Nature”. Pinker ilm-fan va aql-zakovat jamiyat rivojlanishining asosiy omillari ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu asar yoshlarning ilmiy tafakkurga bo‘lgan ehtiyojini tushuntirish uchun muhim manbadir.

8. Yuval Noah Harari – “21 Lessons for the 21st Century”. Harari zamonaviy dunyoda ilm va ta’limning o‘rni haqida fikr yuritadi. U kelajakda yoshlarning ilmga qiziqishi global muammolarni hal qilishda qanchalik muhim ekanligini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolada yoshlarning ilmga befarqligi muammosini tushunish uchun ilmiy manbalari, turli davlatlardagi ta’lim tizimi va yoshlarning ilmga bo‘lgan munosabati solishtirildi. Xalqaro va mahalliy ta’lim hisobotlari asosida yoshlarning ilmga qiziqishini o‘lchovchi ma’lumotlar tahlil qilindi. Ta’lim sohasi mutaxassislari va pedagoglarning fikr-mulohazalari o‘rganildi.

Tahlili va natijalari.

Ilm – kelajak garovi, befarqlik esa xavf. Mavzuning asosiy tushunchalariga yaqinlashar ekanmiz. Bugungi kunda yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishi pasayib borayotgani global muammoga aylanib bormoqda. Bu holat nafaqat jamiyatning intellektual salohiyatiga, balki mamlakatning taraqqiyotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ilm-fan rivojlanmagan joyda innovatsiyalar ham sustlashadi, natijada iqtisodiyot, tibbiyot, texnologiya va boshqa sohalar orqada qoladi. Xo‘sh, bu muammoning ildizi qayerda va qanday yechimlar mavjud?. Degan savollarga, aniqlik kiritib o‘tamiz.

Ilm har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim omil sanaladi. Ammo bugungi kunda yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat ta’lim tizimining, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-madaniy muhitining inqirozi bilan bog‘liq. Yoshlar orasida ilm-fan bilan shug‘ullanishdan ko‘ra, tezkor moliyaviy muvaffaqiyatga erishishga intilish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa jamiyatda yuzaga keladigan intellektual bo‘shliqni yanada kengaytiradi. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlangan davlatlarda, yoshlar ilmga ko‘proq jalb etiladi, chunki bu davlatlar ta’limga katta sarmoya kiritadi. Masalan, Jahon Banki va YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, Skandinaviya davlatlari ta’limga YAIMning 7-8 foizini ajratadi, natijada ularning iqtisodiy va intellektual salohiyati jahon darajasida yuqori bo‘lib qolmoqda.[1] O‘zbekiston sharoitida esa aksariyat yoshlar bilim olishni shunchaki diplom olish bilan bog‘lashadi. Ta’lim sifatining turlicha bo‘lishi, yoshlarning ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanis-

hi uchun yetarli sharoitlarning yo‘qligi muammo tug‘dirmoqda. Natijada ko‘pchilik yoshlar ilm bilan emas, oddiy daromad orttirish yo‘llari bilan band bo‘lib qolmoqda. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta’kidlanganidek, “Bilimli va ma’rifatli insonlar jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy kuch sanaladi.[2] U ilm-fanni jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi”, – deb bilgan. Ibn Sino esa “Tib qonunlari” asarida ilmiy tadqiqot va tajribaning inson hayoti va sog‘lig‘iga ta’sirini chuqur tahlil qilgan.[3] Uning ilmga bo‘lgan muhabbati butun dunyoga mashhur bo‘ldi, ammo bugungi yoshlar unday emasligi achinarli hol albatta. Ko‘pchilik texnologiyalardan foydalansa-da, ularni chuqur o‘rganishga harakat qilmaydi. Darhaqiqat yoshlarning qariyib 80% o‘zining maqsadini bilmasligi va nima uchun yashayotganliklarini, hali ham anglab yetganlari yo‘q. Xususan 2024-yilda, 214 ming talab oliy ta’limni tamomlagan bo‘lib, ularning 41 foizi, ya’ni 88 ming nafari Yagona milliy mehnat tizimi orqali ishga joylashgan. Bitiruvchilarning 59 foizi, ya’ni 126 ming nafari hali ham ishsizligi aytildi.[4] Bu nimadan dalolat beradi. Ta’lim sifati pastligimi? yoki talabalarning yetarli darajada salohiyatga ega emasligi?. Albatta, bu savollar o‘z yechimini topa olmay kelayotgani va ko‘plab yoshlarning faqat diplom uchun kelib ketayotganliklari achchiq haqiqatdir. Hozirgi ta’lim tizimi muammolarini ko‘p olimlar o‘rganib chiqqan. J. Bruner o‘zining “The Process of Education” asarida ta’lim jarayonining innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi lozimligini ta’kidlaydi.[5] H. Gardner esa “Frames of Mind” kitobida har bir insonning o‘ziga xos intellektual qobiliyatlari borligini va ta’lim tizimi ularni rivojlantirish uchun moslashishi lozimligini aytadi. Ammo aksariyat davlatlarda ta’lim bir xillashgan, individual yondashuv yetishmaydi, natijada yoshlar o‘zlarini bu tizimdan uzoq his qiladi. Statistik ma’lumotlar – haqiqatni ko‘rsatadi. Chindan, ham YUNESKO va PISA hisobotlariga ko‘ra, ko‘plab davlatlarda yoshlarning ta’limga bo‘lgan ishtiyoqi pasayib bormoqda. Masalan, 2023-yilgi PISA natijalariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi va matematikaga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada kamaygan. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston ham eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan davlatlar qatoridan joy oldi. O‘zbekistonda 3 va undan yuqori darajaga erishgan o‘quvchilar ulushi 16,5% ni tashkil etdi. O‘zbekistondagi o‘quvchilarning eng katta qismi (61,3%) 1 va undan past darajadagi kreativ fikrlashni namoyon etgan.[6]



1-rasm (2023-yilgi PISA natijalariga)

Ayniqsa, bularning asosiy sabablari sifatida, texnologiyalarning haddan tashqari ommalashishi bilim olish jarayonining oldini to‘sib qo‘yganligini alohida aytib o‘tish kerak albatta. Steven Pinkerning “The Better Angels of Our Nature” asarida esa ilm-fan va aql-idrok insoniyatni urush, ocharchilik va muammolardan olib chiqishini ta’kidlaydi.[7] Agar yoshlar ilmga befarq bo‘lsa, kelajakda fan-texnika rivoji to‘xtab qolishi va jamiyat inqirozga uchrashi mumkin. Bu haqda, fikrlar va g‘oyalar ko‘p biroq ular nechog‘lik samarali bo‘layotganligi katta ahamiyatga egadir. Yuval Noah Harari esa “21 Lessons for the 21st Century” kitobida XXI asrda bilimli bo‘lish hayotiy ehtiyojga aylanayotganini yozadi. Sun’iy intellekt, robototexnika va katta ma’lumotlar (big data) davrida kimki ilm olishni e’tiborsiz qoldirsa, u hayotda orqada qolishi aniq.[8] Haqiqatan, ham ilm olish juda muhim ekanligi va ilmsiz insonning dunyo qarashi pastligi ushbu fikrlarda ochiqchasiga aytib o‘tilgan bo‘lsa-da, aksariyat yoshlar ilm, olishga befarqlik bilan qarayotganliklari bu insoniyat kelajagida tub burilishlar paydo bo‘lishiga zamin yaratishi haqiqatan yiroq emas.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, yoshlarning ilmga befarqligi – jamiyat uchun xavfli tendensiya bo‘lib, u uzoq muddatda iqtisodiy va intellektual rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni ilmga rag‘batlantirish va ilmiy ishlarga investitsiyalarni oshirish zarur. Bugun ilmga befarqlik bilan kurashmasak, ertaga butun jamiyat inqiroz yoqasiga kelib qolishi mumkin. Ilmga befarqlikning asosiy sabablaridan biri – motivatsiyaning yetishmasligi, ta’lim tizimidagi muammolar va yoshlarning o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘ymasligidir va qo‘yilgan maqsadlar, ham noreal bo‘lib, haqiqatdan ancha yiroqdir. Ko‘pchilik yoshlar qisqa muddatli foydaga intilib, bilim olish o‘rniga osongina daromad topish yo‘llarini qidirmoqda. Natijada, jamiyatda intellektual saviya pasayishi, fan va texnologiyalar sohasida orqaga ketish kuzatilishi mumkin. Kelajakda raqobatbardosh jamiyatni yaratish uchun yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishini oshirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun ta’lim tizimini isloh qilish, innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish va ularga kelajakda ilm orqali muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. Ilm – bu eng kuchli qurol va uni qo‘ldan chiqargan millat, taraqqiyotdan ortda qolishga mahkum.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. 21-asr ta’lim konsepsiyasi. – Parij: UNESCO nashriyoti, 1996. – 196 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. – 240 b.
3. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 512 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi hisobotlari. – Toshkent: Ta’lim vazirligi nashriyoti, 2020-2023.
5. J. Bruner. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 128 p.
6. PISA (Programme for International Student Assessment) hisobotlari. – OECD nashri, 2000-2023. UNESCO Global Education Monitoring Report, 2022-2023.
7. Steven Pinker. The Better Angels of Our Nature. – New York: Viking, 2011. – 802 p.
8. Yuval Noah Harari. 21 Lessons for the 21st Century. – London: Jonathan Cape, 2018. – 372 p.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA GAMIFIKATSIYA VA UNING O‘QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDAGI ROLI

Raxmonova Mexriniso Shuxratovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiya metodlari orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi rolini o‘rganadi. Tadqiqotda, gamifikatsiya metodlarining ta’lim jarayoniga ta’siri, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish, motivatsiyani oshirish va o‘rganish faoliyatini qiziqarli qilishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Empirik tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari va nazariy hamda statistik tahlillar yordamida gamifikatsiyaning motivatsiyaga ta’siri aniqlandi. Tadqiqot natijalari davomida gamifikatsiya usullari o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirishda, ular orasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishda va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatildi. Maqola, pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash va motivatsiya darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Gamifikatsiya, motivatsiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik metodlar, o‘quvchi motivatsiyasi, ta’lim jarayoni, innovatsion pedagogik usullar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalar, ta’limda interaktiv metodlar, o‘rganish faoliyati, tajriba-sinov ishlari, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль геймификации в повышении мотивации учащихся начальных классов. В исследовании анализируется влияние методов геймификации на образовательный процесс, их эффективность в усилении интереса к обучению, повышении мотивации и превращении учебной деятельности в увлекательный процесс. С использованием эмпирических исследований, экспериментально-практических работ, а также теоретического и статистического анализа, выявлено влияние геймификации на мотивацию. Результаты показали, что методы геймификации способствуют повышению интереса к урокам, развитию командного взаимодействия среди учащихся и стимулируют самостоятельное обучение. В статье подчеркивается, что применение инновационных подходов в педагогической методике может способствовать улучшению процесса усвоения знаний и повышению уровня мотивации учащихся.*

Ключевые слова: *геймификация, мотивация, начальное образование, педагогические методы, мотивация учащихся, образовательный процесс, инновационные педагогические подходы, взаимодействие между учителем и учеником, интерактивные методы в обучении, учебная деятельность, экспериментально-практические работы, эффективность обучения.*

Abstract: *This article explores the role of gamification methods in enhancing student motivation in primary education. The study analyzes the impact of gamification on the learning process, its effectiveness in increasing learners’ enthusiasm for acquiring knowledge, boosting motivation, and making educational activities more engaging. Through empirical research, experimental trials, and both theoretical and statistical analysis, the influence of gamification on motivation is examined. The findings demonstrate that gamification techniques effectively increase students’ interest in lessons, foster collaborative teamwork, and encourage independent learning. The article emphasizes that the application of innovative approaches in pedagogical methodology can significantly improve the learning experience and raise students’ motivation levels.*

Keywords: *gamification, motivation, primary education, pedagogical methods, student motivation, learning process, innovative teaching approaches, teacher-student interaction, interactive methods in education, learning activity, experimental work, educational effectiveness.*

Kirish (Introduction).

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish va o‘rganish jarayonini samarali qilish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim, ayniqsa, o‘quvchilarning kelajakdagi akademik faoliyati va shaxsiy rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib, aynan shu bosqichda ularning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga katta e’tibor qaratiladi.

Christopher A. Andersen va Lee Rainiening The Future of Gamification in Education nomli hisobotida,[6] gamifikatsiyaning o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishdagi roli, ularning motivatsiyasini oshirish va o‘quv natijalarini yaxshilashdagi imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Gamifikatsiyaning ta’limdagi roli nafaqat o‘qish motivatsiyasini oshirish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin elementlaridan foydalanish o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qiziqarli va interaktiv tajriba yaratish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu usul o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishga undaydi va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya yaratadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiyaning ahamiyati va uning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Gamifikatsiya o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va ta’lim jarayonini samarali qilish uchun qanday yordam bera olishi haqida muhokama qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiyaning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi roli haqida adabiyotlar tahlili amalga oshirilganda, ushbu usulning turli pedagogik tizimlarda qo‘llanilishi, uning ta’siri va samaradorligi haqidagi ilmiy tadqiqotlar alohida e’tiborni tortadi. Hamari. J, Koivisto. J va Hamari. Hning “Does gamification work?--a literature review of empirical studies on gamification” nomli ilmiy tadqiqoti[8] shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini yanada qiziqarliroq va ma’noli his qilishadi. O‘yin elementlari (masalan, ballar, mukofotlar, reytinglar) o‘quvchilarni Malone, T. W., & Lepper, M. R. (1987). Making learning fun: A taxonomy of intrinsic motivations for learning. In Aptitude, learning, and instruction (Vol. 3, pp. 223-253). Lawrence Erlbaum Associates, Inc.kelishi kerak. Gamifikatsiya o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi, ularga faol ishtirok etish va darslarni qiziqarli va samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratish maqsadida o‘rganilmoqda. Masalan, Deci va Ryan[7]tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory (SDT) asari gamifikatsiyaning motivatsiyani oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, o‘quvchilarga erkinlik va mustaqillik berish, shu bilan birga, ularning o‘rganishga qiziqishini ta’minlash, ichki motivatsiyani oshirishga yordam beradi. O‘yin mexanizmlari o‘quvchilarni qiyinchiliklarga duch kelish va muammolarni hal qilishga undaydi, bu esa ichki motivatsiyani yanada oshiradi.

Shuningdek, Vygotskiyning[2] “Thought and Language” sotsial-madaniy nazariyasi gamifikatsiyaning o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlash va bir-biridan o‘rganish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Gamifikatsiya o‘quvchilarga o‘yin jarayonida bir-biriga yordam berish,

musobaqalarda qatnashish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa motivatsiyaning ijtimoiy jihatini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Anderson va Rainie[3] tomonidan o‘tkazilgan ushbu **“**The Future of Jobs and Jobs Training” tadqiqotda, gamifikatsiyaning o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va darslarda muvaffaqiyatga erishishdagi ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gamifikatsiya o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. O‘yin elementlari, masalan, ballar va mukofotlar, o‘quvchilarga o‘z muvaffaqiyatlarini kuzatish va o‘zlarining rivojlanishiga guvoh bo‘lish imkoniyatini yaratadi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Gamifikatsiyaning ta’limda qo‘llanilishi har doim ham ijobiy natijalar bermaydi. Hamari, Koivisto va Hamari[7] o‘zlarining “Does Gamification Work? – Cases from the Retail and Work Environment” nomli tadqiqotlarida gamifikatsiyaning faqatgina yaxshi tashkil etilgan va maqsadga muvofiq qo‘llanilsa samarali bo‘lishini ta’kidlaydilar. Agar o‘yin mexanizmlari noto‘g‘ri tanlangan yoki o‘quvchilarga moslashtirilmagan bo‘lsa, ular o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish o‘rniga, aksincha, qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, gamifikatsiyaning haddan tashqari qo‘llanilishi o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kamaytirishi va o‘yinlar o‘rtasidagi musobaqalashishni noto‘g‘ri anglashga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim tadqiqot shundan iboratki, B. Tursunov[5] o‘zining ushbu “Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarining samaradorligi: Boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiyaning qo‘llanishi.” tadqiqotida o‘yin texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda samarali qo‘llanilishi masalasi ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish uchun gamifikatsiyaning qanday qo‘llanishi zarurligi yoritilgan. Deterding. S va Dixon. D “From game design elements to gamefulness: defining” gamification”[9] nomli ilmiy maqolada Deterding va hamkasblari tomonidan gamifikatsiya tashqi motivatsiyani oshiradi, ammo muvaffaqiyatli gamifikatsiya dizayni ichki motivatsiyaga ham yo‘naltirilishi kerak, chunki bu uzoq muddatli o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga olib kelishi haqida bahs yuritilgan. Bundan tashqari Alfie Kohnning[10] “Punished by Rewards” asari, asosan, tashqi rag‘batlar va mukofotlar, jumladan gamifikatsiyaning motivatsiyaga qanday zarar yetkazishini muhokama qiladi. Kohn, o‘quvchilarga tashqi mukofotlar berishning, ayniqsa ta’limda, uzoq muddatli ta’siri haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. Tahlil qilingan adabiyotlar gamifikatsiyaning boshlang‘ich ta’limda qanday qo‘llanishi, o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta’siri va umumiy ta’lim samaradorligini oshirishdagi rolini ko‘rsatadi. O‘yin mexanizmlarining pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi, ular uchun muvaffaqiyat hissini yaratishi va ta’lim jarayoniga yanada faol ishtirok etishlarini ta’minlashi mumkinligi hamda gamifikatsiyaning ta’lim jarayonida qanday samarali vosita sifatida ishlashi tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi. (1-jadval)

1-jadval

Eksperimental metod:	O‘quvchilarning motivatsiya darajasini oshirish uchun turli gamifikatsiya texnologiyalari sinovdan o‘tkazildi va natijalari tahlil qilindi. Tajriba guruhida gamifikatsiya metodlari, nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim usullari qo‘llanildi. Natijalar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi va umumiy motivatsiyasiga ta’siri nuqtai nazaridan solishtirildi.
So‘rov va intervyu usullari:	O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazilib, gamifikatsiya metodlarining ta’lim jarayonidagi samaradorligi baholandi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, ishtiyoqi va motivatsiya darajasi to‘g‘risida fikrlar yig‘ildi.
Nazariy tahlil:	Pedagogik va psixologik adabiyotlar, xalqaro va mahalliy tajribalar o‘rganilib, gamifikatsiya va motivatsiya tushunchalariga oid ilg‘or ilmiy konsepsiyalar tahlil qilindi.
Empirik tadqiqot:	Gamifikatsiya metodlarining motivatsiya darajasini oshirishdagi samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. O‘quvchilarning darsdagi faoliyatlari va motivatsiyasi o‘lchandi
Statistik tahlil:	Olingan natijalar **SPSS** dasturi yordamida statistik jihatdan qayta ishlanib, ularning ishonchliligi va samaradorligi aniqlab berildi. Natijalar o‘quvchilarning motivatsiya darajasidagi o‘zgarishlarni statistik nuqtai nazardan tahlil qilishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari gamifikatsiya metodlarining boshlang‘ich ta’limdagi motivatsiyani oshirishdagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu boradagi ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi samaradorligi sinovdan o‘tkazilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi gamifikatsiya elementlarining o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganish bo‘lib, quyidagi asosiy tahlil va natijalar olingan.

Tadqiqotning eksperimental metodiga asosan, tajriba guruhida gamifikatsiya metodlari, nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim usullari qo‘llanildi. Tajriba guruhi o‘quvchilari gamifikatsiya metodlari yordamida o‘qitilgan bo‘lib, ularning motivatsiya darajasi va darsga bo‘lgan qiziqishi aniq o‘lchandi.

Tajriba guruhi**:** Gamifikatsiya metodlari yordamida o‘qigan o‘quvchilar o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni sezilarli darajada oshirishdi. Dars davomida o‘quvchilar o‘rtasida raqobat, jamoaviy faoliyatlar va ochko tizimi yordamida motivatsiya yanada kuchaydi. Tajriba guruhining 90% o‘quvchilari o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini yuqori baholashdi.

Nazorat guruhi**:** An’anaviy ta’lim usullari yordamida o‘qigan o‘quvchilar orasida motivatsiya darajasi pastroq bo‘ldi. Ularning faqat 65% o‘quvchilari darsga bo‘lgan qiziqishini yuqori baholashdi. Nazorat guruhining o‘quvchilari, o‘z navbatida, gamifikatsiya metodlaridan foydalangan guruhga nisbatan kamroq ishtirok etishdi va ta’limga bo‘lgan umumiy qiziqishlari sustroq edi.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar va intervyularda gamifikatsiya metodlarining samaradorligi haqida quyidagi fikrlar bildirildi:

O‘qituvchilar**:** O‘qituvchilar gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi samaradorligini yuqori baholashdi. Ularning fikricha, gamifikatsiya elementlari o‘quvchi-

larni faolroq ishtirok etishga undaydi va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Ammo, ba’zi o‘qituvchilar, dastlabki bosqichda gamifikatsiya usullarini to‘g‘ri tatbiq etishning qiyinligi haqida so‘z yuritadilar.

O‘quvchilar**:** O‘quvchilarning fikrlariga ko‘ra, gamifikatsiya metodlari darslarni qiziqarli va interaktiv qilgan. O‘quvchilar, raqobat va ochko tizimlari yordamida o‘rganishni ko‘proq qadrladilar. Shuningdek, gamifikatsiya metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘z bilimlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratdi va bu ularga o‘rganish jarayonida qo‘shimcha rag‘bat berdi.

Nazariy tahlil asosida, gamifikatsiya va motivatsiya haqidagi ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Tadqiqotda gamifikatsiya metodlarining ta’lim jarayonida qo‘llanishi, o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi va motivatsiyasini oshirishga yordam beruvchi omil sifatida ko‘rsatilgan. Motivatsiyaning ikki asosiy shakli – ichki va tashqi motivatsiya – gamifikatsiya elementlari yordamida kuchayishi mumkinligi ta’kidlangan.

Empirik tadqiqot davomida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi o‘lchandi. O‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va o‘z bilimlariga bo‘lgan ishonchi yuksalgan. Bu natijalar, gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishda samarali ekanligini isbotlaydi.

Olingan natijalar SPSS dasturi yordamida statistik tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida motivatsiya darajasi bo‘yicha olingan natijalar statistik jihatdan ahamiyatli farqni ko‘rsatdi ($p < 0.05$). Tajriba guruhida motivatsiyaning oshishi aniqroq bo‘ldi, bu gamifikatsiya metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari gamifikatsiya metodlarining o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan ishtiyoqi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida gamifikatsiya metodlari qo‘llanilgan o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatlari va darsga bo‘lgan qiziqishlari aniq oshdi. Bu metodlar o‘quvchilarga o‘rganish jarayonida interaktivlik va raqobat muhitini yaratish orqali motivatsiyani kuchaytiradi.

Shuningdek, gamifikatsiya metodlarining nafaqat motivatsiyani oshirishda, balki o‘quvchilarning o‘z bilimlarini baholash va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatlarini yaratishda ham samarali ekanligi ta’kidlanadi. Gamifikatsiya orqali o‘quvchilar darslarda faolroq ishtirok etishgan va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yuqori darajada saqlab qolishgan. Bu metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ish qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, quyidagi bir nechta takliflarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

1. Gamifikatsiya metodlarini kengroq joriy etish: Tadqiqot natijalari gamifikatsiya metodlarining samaradorligini ko‘rsatganligi sababli, boshlang‘ich ta’limda bu metodlarni kengroq tatbiq etish tavsiya etiladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun gamifikatsiya elementlaridan foydalanishlari kerak.

2. Malone. T va Lepper. M[11] o‘zlarining “Making learning fun: A taxonomy of intrinsic motivations for learning” nomli maqolalarida o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish uchun, o‘yin elementlarini gamifikatsiyada to‘g‘ri qo‘llash zarur. Mukofotlarga emas, balki o‘quvchilarning o‘zlarini qiziqtirgan vazifalar va faoliyatlarga e’tibor qaratish kerakligi haqida taklif kiritishadi.

3. O‘qituvchilarni gamifikatsiya usullariga o‘rgatish: Gamifikatsiya metodlarining samarali qo‘llanilishi uchun o‘qituvchilarni tegishli treninglar va kurslar orqali o‘rgatish zarur. Bu metodlarni to‘g‘ri qo‘llash o‘qituvchilarni dars jarayonida samarali va muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi.

4. Gamifikatsiya va tanqidiy fikrlash: Tadqiqot davomida gamifikatsiya metodlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ham yordam berishi mumkinligi aniqlandi. Shuning uchun, ga-

mifikatsiyani tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rish zarur.

5. O‘quvchilarning fikrlarini inobatga olish: O‘quvchilarning fikrlarini muntazam ravishda so‘rab turish va ularning darsdagi tajribalarini tahlil qilish, gamifikatsiya metodlarining samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. O‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yangi gamifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. “Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions” Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Bu asar 2000-yilda American Psychologist jurnalida e’lon qilingan.

2. “Thought and Language” Vygotsky, L. S. (1934)

3. “The Future of Jobs and Jobs Training” Anderson, J., & Rainie, L. (2018). Tadqiqot 2018-yilda Pew Research Center tomonidan nashr etilgan.

4. “Does Gamification Work? --– Cases from the Retail and Work Environment” Hamari, J., Koivisto, J., & Hamari, H. (2014). Tadqiqot 2014-yilda nashr etilgan va Computers in Human Behavior jurnalida chop etilgan.

5. Tursunov, B. (2018). “Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarining samaradorligi: Boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiyaning qo‘llanishi.” Nashr joyi: Toshkent Pedagogika Instituti.

6. Anderson, C. A., & Rainie, L. (2018). The Future of Gamification in Education. Pew Research Center.

7. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.

8. Hamari, J., Koivisto, J., & Hamari, H. (2014). Does gamification work?--a literature review of empirical studies on gamification. In Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences (pp. 3025-3034).

9. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining” gamification”. In Proceedings of the 2011 annual conference extended abstracts on Human factors in computing systems (pp. 2425-2428).

10. Kohn, A. (1993). Punished by Rewards: The Trouble with Gold Stars, Incentive Plans, A’s, Praise, and Other Bribes. Houghton Mifflin Harcourt.

11. Malone, T. W., & Lepper, M. R. (1987). Making learning fun: A taxonomy of intrinsic motivations for learning. In Aptitude, learning, and instruction (Vol. 3, pp. 223-253). Lawrence Erlbaum Associates, Inc.

12. Robson, K., Plangger, K., Kietzmann, J., McCarthy, I., & Pitt, L. (2015). Is gamification in marketing real? Business Horizons, 58(4), 411-420.

ILM-FAN VA TABIAT MARKAZIDA TA'LIMIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA JIHOZLASH

Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada ilm-fan va tabiat markazlarida olib boriladigan ta'limiy mashg'ulotlar, ularni tashkil etish usullari hamda foydalaniladigan jihozlar haqida batafsil fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu markazlarda tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan faoliyatlar, bolalarning bilish faoliyatini rag'batlantirish usullari va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritiladi. Ushbu maqolada ilm-fan va tabiat markazlarida olib boriladigan ta'limiy mashg'ulotlar, ularni tashkil etish usullari hamda foydalaniladigan jihozlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ilm-fan markazlari, tabiat markazlari, ta'limiy mashg'ulotlar, bilish faoliyati, tarbiyachi, amaliy mashg'ulotlar, jihozlar, bolalar faoliyati, interaktiv metodlar, kuzatish.*

Аннотация: *В статье подробно рассматриваются образовательные мероприятия, проводимые в научно-природоведческих центрах, методы их организации и используемое оборудование. В этих центрах также освещаются мероприятия, проводимые под руководством педагогов, методы стимулирования познавательной активности детей, значение практических занятий. В статье рассматриваются образовательные мероприятия, проводимые в научных и природных центрах, методы их организации и используемое оборудование.*

Ключевые слова: *научные центры, природные центры, образовательные занятия, познавательная активность, воспитатель, практические занятия, оборудование, деятельность детей, интерактивные методы, наблюдение.*

Annotation: *The article discusses in detail the educational activities conducted in science and nature centers, the methods of their organization, and the equipment used. It also highlights the activities carried out under the guidance of educators in these centers, the methods of stimulating children's cognitive activity, and the importance of practical exercises. This article discusses the educational activities conducted in science and nature centers, the methods of their organization, and the equipment used.*

Keywords: *science centers, nature centers, educational activities, cognitive development, educator, hands-on learning, equipment, children's activity, interactive methods, observation.*

Kirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) ilm-fan va tabiat markazlari bolalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, atrof-muhitni o'rganish va tabiatga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ilm-fan va tabiat markazlari bolalarda kuzatuvchanlik, tahlil qilish, tajriba o'tkazish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu markazlar ekologik tarbiya va tabiatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism. **1. Ilm-fan va tabiat markazlarining maqsadi va vazifalari** Ilm-fan va tabiat markazlari bolalarga tabiiy jarayonlarni tushuntirish, ularning kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga qiziqish uyg'otish maqsadida tashkil etiladi. Bu markazlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

Tabiat va ilm-fan asoslari bilan tanishtirish;
Kuzatish, tajriba va tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
Ekologik tarbiyani shakllantirish;
Amaliy mashg‘ulotlar orqali bolalarning qiziqishini orttirish.

2. Ta’limiy faoliyatlarni tashkil etish MTTdagi ilm-fan va tabiat markazlarida ta’limiy faoliyat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) O‘yin orqali o‘qitish
“Tabiat sirlari” o‘yini orqali bolalarga o‘simlik va hayvonot olami haqida ma’lumot berish;
“Tajribalar olami” laboratoriya mashg‘ulotlari orqali tabiiy jarayonlarni o‘rgatish;
“Kim tez topadi?” o‘yini orqali ilmiy mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
Rolli o‘yinlar yordamida tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini singdirish.
b) Ekin maydonchalari va tabiat burchaklari
Bolalar ekin maydonchalarida turli xil o‘simliklar ekib, ularning o‘sish jarayonini kuzatishadi;
Tabiat burchaklarida turli xil jonivorlar va o‘simliklarni parvarish qilish o‘rgatiladi;
Fasllarga qarab tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatish tadbirlari tashkil etiladi;
Aniq bir ekotizimni yaratib, uning ichidagi o‘zgarishlarni o‘rganish.
c) Terrariumlar va eksperimental laboratoriyalar
Terrariumlarda hasharotlar va sudralib yuruvchilarni kuzatish orqali ularning hayotiy jarayonlarini o‘rganish;
Maxsus laboratoriyalarda suvning holatlari, tuproq tarkibi, havo va yorug‘likning o‘simliklarga ta’siri bo‘yicha tajribalar o‘tkazish;
Organik chiqindilardan tuproq hosil qilish va ularning tabiiy aylanma jarayonini o‘rganish.

1. Foydalaniladigan jihozlar va ularning ahamiyati Ilm-fan va tabiat markazlarida foydalaniladigan asosiy jihozlar quyidagilardan iborat:
Mikroskop va lupalar – mayda organizmlar va o‘simlik hujayralarini kuzatish uchun;
Termometr va barometr – havo harorati va bosimini o‘lchash uchun;
Akvarium va terrarium – suv hayvonlari va quruqlik jonzotlarini kuzatish uchun;
Maxsus tajriba laboratoriyalari – kimyoviy va biologik tajribalar o‘tkazish uchun;
O‘simliklarning o‘sish jarayonlarini o‘rganish uchun yoritish va sug‘orish moslamalari.

2. **Tarbiyachining ilm-fan va tabiat markazlarida rahbarlik roli**
Bolalarga tabiiy jarayonlarni tushuntirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
Tajriba va kuzatishlarni tashkil etish va natijalarini muhokama qilish;
Ekologik tarbiya orqali bolalarda tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish;
Ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanib, bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Har bir bola bilan individual yondashuv asosida uning qiziqishlarini rag‘batlantirish. Quyida “Qum va suv xususiyatlari” mavzusida bolalar bilan o‘tkazish mumkin bo‘lgan tajriba ishlari keltirilgan. Bu tajribalar bolalarning ilmiy qiziqishini oshirish va tabiat jarayonlarini tushunishlariga yordam beradi.

1. Qumning suv bilan o‘zaro ta’siri

Maqsad: Bolalarga qumning suvni qanday yutishi va uning nam holatda qanday o‘zgarishini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Quruq qum, suv, shaffof idishlar, qoshiq.

Tajriba jarayoni:

Bir idishga quruq qum soling va bolalarga qo‘llari bilan teginib, uning qanday ekanligini aytib berishlarini so‘rang.

Ustiga oz-ozdan suv quying va qanday o‘zgarayotganini kuzating.

Qumning suvni yutishini tushuntiring va bolalarga qumning nam holatda yopishqoq bo‘lishi sababini tushuntiring.

Xulosa: Qum suvni o‘ziga singdirishi mumkin, lekin u butunlay erimaydi.

2. Quruq va nam qumning shakl hosil qilish xususiyati

Maqsad: Bolalarga nam va quruq qumning o‘zaro farqini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Quruq qum, nam qum, shakl hosil qilish uchun qoliplar (masalan, kichik idishlar, kubiklar).

Tajriba jarayoni:

Quruq qumdan shakl yasashga harakat qiling va natijani baholang.

Nam qumdan shakl yasab, u barqaror bo‘lishini kuzating.

Xulosa: Nam qum shakl hosil qilish uchun qulay, chunki suv qum zarralarini bir-biriga yopishtiradi.

3. Suv va qumning og‘irlik ta’sirida o‘zgarishi

Maqsad: Bolalarga qum va suvning siqilish holatini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Shaffof idish, suv, qum, og‘ir predmet (masalan, tosh yoki kichik plastmassa sharlar).

Tajriba jarayoni:

Idishga qum soling va ustiga bosim qo‘ying. Qum siqilganini kuzating.

Idishga suv quying va ustiga bosim berib, suvning qanday harakatlanishini ko‘rsating.

Xulosa: Qum bosim ostida siqiladi, suv esa harakatlanadi.

4. Qum va suvning filtrlash xususiyati

Maqsad: Qumning suvni filtrlash xususiyatini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Sho‘r yoki loyqa suv, filtr sifatida ishlatiladigan qum, shaffof idish.

Tajriba jarayoni:

Sho‘r yoki loyqa suvni qum orqali o‘tkazing.

Suvning qanday tozalanganini kuzating.

Xulosa: Qum tabiiy filtr vazifasini bajarishi mumkin.

Muhokama va natijalar.

Ilm-fan va tabiat markazlari orqali bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, mantiqiy va ilmiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ushbu markazlarning samaradorligi ularning to‘g‘ri tashkil etilishi va tarbiyachi tomonidan samarali boshqarilishiga bog‘liq. Ta’limiy faoliyatni o‘yin, tajriba va amaliy mashg‘ulotlar orqali olib borish bolalar uchun qiziqarli va foydali bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu markazlarning ekologik tarbiya berishdagi o‘rni ham katta bo‘lib, bolalarning tabiatga nisbatan mas’uliyatli yondashuvini shakllantiradi. O‘z navbatida, eksperimental mashg‘ulotlar orqali bolalar tabiiy jarayonlarni bevosita o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning keyingi bosqichlardagi ilmiy ta’limga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Xulosa.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilm-fan va tabiat markazlarining tashkil etilishi bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini boyitish, ekologik madaniyatini shakllantirish va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu markazlarning muvaffaqiyatli faoliyati zamonaviy pedagogik yondashuvlar, sifatli jihozlar bilan ta’minlash hamda tarbiyachilarning innovatsion usullardan foydalana olishiga bog‘liq. Shuning uchun bu markazlarni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash va ta’lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida olib borish zarur.

Shu boisdan, ilm-fan va tabiat markazlarini rivojlantirish, yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish va ekologik ta’limni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga qo‘yilgan davlat standarti. 2020 y.

2. F.Qodirova, Sh.Tosho‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” nashriyoti 2019 y.

3. O‘.Xolmirzayeva, M.Berdiyeva, “5-6 yoshli bolalarga ekologik tarbiya berish metodlari va ularda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish” 2024 y.

4. Kholmirzayeva.U.M “Use of folk’s oral creation in the formation of ecological culture in5-6 years old children in preschool educational organizations” 2024 y.

DARSLIK YARATISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Dildora Zayniyeva,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada darslik yaratishda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Finlandiya, Singapur, Germaniya, Yaponiya, AQSh va Xitoy ta'lim tizimlarining darslik yaratish tamoyillari o'rganiladi. Har bir mamlakatning yondashuvi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgani ta'kidlanadi. Zamonaviy darsliklarda interaktivlik, fanlararo bog'liqlik va raqamli texnologiyalarni qo'llash muhimligi ko'rsatiladi. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Darsliklar hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va amaliyotga yo'naltirishga asoslanishi lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida innovatsion yondashuvlar tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *darslik yaratish, xalqaro tajriba, ta'lim tizimi, interaktiv yondashuv, raqamli texnologiyalar, fanlararo bog'liqlik, innovatsion metodlar, o'quv jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье проводится анализ международного опыта в создании учебников. Изучаются принципы разработки учебников в системах образования Финляндии, Сингапура, Германии, Японии, США и Китая. Подчеркивается, что подход каждой страны направлен на повышение эффективности образовательного процесса. Отмечается важность использования интерактивности, междисциплинарных связей и цифровых технологий в современных учебниках. Разрабатываются рекомендации, адаптированные к образовательной системе Узбекистана. Подчеркивается необходимость того, чтобы учебники способствовали развитию жизненных навыков, повышению интереса учащихся и ориентации на практическую деятельность. Также предлагаются инновационные подходы, основанные на международном опыте.*

Ключевые *слова: разработка учебников, международный опыт, система образования, интерактивный подход, цифровые технологии, междисциплинарные связи, инновационные методы, образовательный процесс, компетентностный подход, педагогические технологии.*

Abstract: *This article analyzes international experiences in the development of textbooks. It explores the principles of textbook creation in the educational systems of Finland, Singapore, Germany, Japan, the United States, and China. It emphasizes that each country's approach aims to enhance the effectiveness of the learning process. The importance of incorporating interactivity, interdisciplinary integration, and digital technologies into modern textbooks is highlighted. Recommendations tailored to the educational system of Uzbekistan are proposed. The article stresses that textbooks should be based on fostering life skills, increasing student engagement, and promoting practical application. Furthermore, innovative approaches derived from international practices are suggested.*

Keywords: *textbook development, international experience, education system, interactive approach, digital technologies, interdisciplinary integration, innovative methods, learning process, competency-based approach, pedagogical technologies.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish va ularning kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda darsliklar muhim rol o‘ynaydi, negaki, ular o‘quv materiallarini tizimli yetkazish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Ammo, an’anaviy darsliklarning o‘quvchilarga yetarlicha interaktiv va amaliy imkoniyatlarni taqdim etmasligi ta’lim sifatiga ta’sir qilmoqda.

Tadqiqotning asosiy muammosi – xalqaro tajribalar asosida darslik yaratish tamoyillarini tahlil qilish va ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish masalasidir. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimlarida darsliklar ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlar, fanlararo bog‘liqlik va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Shu sababli, darsliklarni yangilash va ta’lim sifatini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – turli mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos darslik yaratish metodikasini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Xalqaro tajribada darslik yaratish tamoyillarini o‘rganish va tahlil qilish.
2. Turli mamlakatlarning darslik tuzilmasi va metodik yondashuvlarini taqqoslash.
3. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos innovatsion darslik modelini taklif etish.
4. O‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi darslik mazmuni va metodikasini ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot darslik yaratish bo‘yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirishga ilmiy va amaliy hissa qo‘shadi. Darsliklarni modernizatsiya qilish nafaqat o‘quv jarayonini takomillashtiradi, balki o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Darslik yaratishda xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Maqolada mavzuga oid eng yangi ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

1. Xalqaro tajribalarni o‘rganish

Jahon ta’lim tizimlarida darslik yaratish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darsliklarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratadi . Singapurda esa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishidagi darsliklar mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan .

2. Innovatsion yondashuvlar

Zamonaviy darsliklar interaktivlik va raqamli texnologiyalarni o‘z ichiga olishi muhimligi ta’kidlanadi. Masalan, Yaponiya ta’lim tizimida an’anaviy va zamonaviy metodlar uyg‘unligi orqali o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi . AQShda esa darsliklar multimedia elementlari bilan boyitilib, o‘quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlariga moslashtiriladi .

3. Milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish

O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda darsliklarni modernizatsiya qilish masalasi dolzarbdir. Bu borada, darsliklarni o‘quvchilarning qiziqishini oshiradigan interaktiv va amaliy materiallar bilan boyitish, shuningdek, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi darslik yaratishda xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston

ta’lim tizimiga moslashtirish jarayonini ilmiy asoslashga qaratilgan. Ushbu bo‘limda tadqiqotning yo‘nalishi, dizayni, axborot olish usullari va tadqiqot strategiyalari belgilangan.

1. Tadqiqot yo‘nalishi

Tadqiqot ta’lim metodologiyasi va pedagogik innovatsiyalar yo‘nalishiga tegishli bo‘lib, darslik yaratishning ilg‘or xalqaro tajribalarini tahlil qilish va ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirishga qaratilgan.

2. Tadqiqot dizayni

Tadqiqot eksplorativ (o‘rganish) va deskriptiv (tasviriy) tadqiqot usullarini o‘z ichiga oladi. Xalqaro tajribalar asosida darslik yaratishning samarali tamoyillari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqiladi.

3. Axborot olish usullari

Tadqiqot uchun zarur ma’lumotlar quyidagi manbalar orqali to‘plandi:

Ilmiy maqolalar va monografiyalar – xalqaro va milliy ta’lim tizimlarida darslik yaratish metodikalariga oid ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi.

Normativ-huquqiy hujjatlar – O‘zbekiston va dunyo davlatlarining ta’lim sohasidagi qonunchiligi o‘rganildi.

Tajribaviy tadqiqotlar – turli mamlakatlarda qo‘llanilgan darsliklar tahlil qilinib, ularning pedagogik samaradorligi baholandi.

4. Tadqiqot strategiyasi

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llandi:

Kuzatish – darsliklarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlash va ularning samaradorligini baholash uchun kuzatishlar o‘tkazildi.

Eksperiment – xalqaro metodikalarni mahalliy sharoitda sinab ko‘rish va ularning ta’lim sifatiga ta’sirini baholash maqsadida eksperimental tadqiqotlar tashkil etildi.

Keys-stadi (holatlar tahlili) – turli mamlakatlarda darslik yaratish jarayonining muvaffaqiyatli namunalarini o‘rganish va tahlil qilish amalga oshirildi.

Savolnoma va intervyu – o‘qituvchilar, ta’lim metodistlari va o‘quvchilarning darsliklarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi.

5. Tadqiqot etikasi

Tadqiqot jarayonida akademik halollik va ishonchlilik tamoyillariga amal qilindi. Manbalar aniq ko‘rsatildi, respondentlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlandi, o‘rganilgan mamlakatlar ta’lim tizimlariga ob’ektiv baho berildi.

6. Ilmiy faraz va asosiy g‘oyalar

Tadqiqot quyidagi ilmiy farazlarga asoslanadi:

1. Xalqaro tajribalarda qo‘llanilgan ilg‘or metodlar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun moslashtirilsa, darsliklarning samaradorligi oshadi.
2. Darsliklar interaktiv, innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilsa, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi oshadi va bilim olish jarayoni samaraliroq kechadi.
3. Fanlararo bog‘liqlik va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan darsliklar o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodologik asoslar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi.

Xalqaro ta’lim tizimlarida darslik yaratish tamoyillari

MAMLAKAT	ASOSIY YONDASHUV	INNOVATSION XUSUSIYATLAR
Finlandiya	Moslashuvchan o‘quv dasturi, amaliyotga yo‘naltirish	Shaxsiy yondashuv, mustaqil fikrlash
Singapur	STEM metodikasi, visual materiallarga urg‘u	Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish
Germaniya	Fanlararo bog‘liqlik, amaliy mashg‘ulotlar	Hududiy moslashuvchan, labaratoriya tajribalari
Yaponiya	An’anaviy va zamonaviy metodlar uyg‘unligi	Hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish

O‘zbekistonga mos keluvchi darslik modelining asosiy tamoyillari

TAMOYIL	TAVSIF
Interaktiv yondashuv	Darsliklar visual va multimedia materiallari bilan boyitilishi lozim.
Fanlararo integratsiya	O‘quv dasturlarida turli fanlar o‘zaro bog‘langan holda taqdim etilishi kerak
Raqamli texnologiyalar	Elektron platformalar va mobil ilovalar yordamida o‘qitish jarayoni

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot doirasida xalqaro tajribalar asosida darslik yaratish tamoyillari o‘rganildi va O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos keluvchi yondashuvlar aniqlandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – darsliklarni innovatsion, interaktiv va fanlararo bog‘liqlik tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish edi. Natijalarga ko‘ra, xalqaro tajribalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish bo‘yicha asosiy tamoyillar belgilandi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ta’kidlaydi:

1. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatdiki, samarali darsliklar moslashuvchan o‘quv dasturlariga asoslanishi, vizual materiallar va interaktiv yondashuvlar bilan boyitilishi zarur.

2. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun darsliklarni yangilashda raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy ta’lim metodlaridan foydalanish muhim.

3. Fanlararo bog‘liqlik va amaliy yondashuv asosida ishlab chiqilgan darsliklar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv yondashuv bilan boyitilgan darsliklar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Takliflar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Interaktiv va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish – darsliklarni multimedia materiallari bilan boyitish va raqamli o‘quv platformalarini qo‘llash.

2. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish – o‘quv dasturlarida turli fanlarni bog‘lagan holda darsliklarni yaratish.

3. Darsliklarda amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy ishlarni ko‘paytirish – nazariy bilimlarni real hayotdagi muammolar bilan bog‘lash.

4. O‘qituvchilar va ta’lim metodistlari uchun maxsus treninglar tashkil etish – innovatsion darsliklardan foydalanish bo‘yicha tajriba almashish.

5. Darsliklarni moslashtirish va takomillashtirish bo‘yicha doimiy tadqiqotlar olib borish – o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi metodlarni tatbiq etish.

Kelajak tadqiqotlar sifatida O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion darsliklarni sinovdan o‘tkazish va ularning o‘quvchilarga ta’sirini baholash muhim yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt yordami bilan darsliklarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sahlberg, P. *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* New York: Teachers College Press, 2015.

2. Ng, E. H. *Education in Singapore: Learning from the Best Practices in STEM Education.* Singapore: Springer, 2017.

3. Takayama, K. *Beyond the Catch-up: Japan’s Educational Reform and Globalization.* Comparative Education, vol. 54, no. 3, 2018, pp. 305–321.

4. Darling-Hammond, L. *The Flat World and Education: How America’s Commitment to Equity Will Determine Our Future.* New York: Teachers College Press, 2017.

5. Karimov, I. *O‘zbekiston Ta’lim Tizimini Modernizatsiya Qilish: Muammolar va Yechimlar.* Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

6. Zhao, Y. *Who‘s Afraid of the Big Bad Dragon? Why China Has the Best (and Worst) Education System in the World.* San Francisco: Jossey-Bass, 2014.

THE ROLE OF FOLK RIDDLES IN PRESERVING CULTURAL HERITAGE

Dilshoda Umirova Husniddin qizi
Uzbekistan state world languages university, MA student of Linguistics (English)

Annotation: *This article explores the definition and significance of folk riddles within the context of cultural heritage. Folk riddles, characterized by their metaphorical and allegorical nature, play a crucial role in preserving linguistic, social, and historical traditions of communities. The paper discusses how these traditional forms of expression contribute to linguistic enrichment, serve as educational tools, foster social bonding, and reflect the worldview of the people who create them. Through various examples and case studies, the article highlights the enduring relevance of folk riddles in maintaining cultural continuity and fostering a sense of identity among different communities.*

Keywords: *Folk riddles, cultural heritage, linguistic preservation, social bonding, educational tool, cultural continuity.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq topishmoqlari tushunchasi va ularning madaniy meros kontekstidagi ahamiyati o‘rganiladi. Ma’nodosh va timsolli xarakteri bilan ajralib turadigan xalq topishmoqlari jamoalarning til, ijtimoiy va tarixiy an’analarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ushbu an’anaviy ifoda shakllarining til boyligini oshirishga qo‘shgan hissasi, ta’limiy vosita sifatidagi funksiyasi, ijtimoiy birlikni mustahkamlashdagi roli va xalq dunyoqarashining ifodasi sifatidagi ahamiyati muhokama qilinadi. Turli misollar va tadqiqotlar orqali xalq topishmoqlarining madaniy uzviylikni saqlab qolish hamda turli jamoalarda o‘zligini anglash hissini shakllantirishdagi dolzarbligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *xalq topishmoqlari, madaniy meros, tilni saqlash, ijtimoiy birlik, ta’limiy vosita, madaniy uzviylik.*

Аннотация: *В данной статье исследуются понятие и значение народных загадок в контексте культурного наследия. Народные загадки, отличающиеся своей метафоричностью и аллегоричностью, играют важную роль в сохранении языковых, социальных и исторических традиций сообществ. В статье рассматривается, как эти традиционные формы выражения способствуют обогащению языка, выполняют образовательную функцию, укрепляют социальные связи и отражают мировоззрение народа, их создавшего. На основе различных примеров и кейсов подчеркивается актуальность народных загадок в сохранении культурной преемственности и формировании чувства идентичности среди различных сообществ.*

Ключевые слова: *народные загадки, культурное наследие, сохранение языка, социальное единство, образовательный инструмент, культурная преемственность.*

Introduction.

Folk riddles, as an integral part of the oral tradition, have long fascinated and challenged human minds across diverse cultures. These enigmatic questions or statements, often couched in metaphor and allegory, transcend simple amusement to encapsulate the wisdom, wit, and cultural essence of the communities that create and perpetuate them. The exploration of folk riddles offers invaluable insights into the historical, social, and linguistic traditions of a culture, serving as a mirror that reflects its values, beliefs, and way of life (Bascom, 1965). Historically, folk riddles have played a crucial

role in preserving cultural heritage, acting as repositories of communal knowledge and customs. Through their repetitive and engaging nature, riddles have been an effective medium for transmitting cultural norms and practices across generations (Finnegan, 1970). In many societies, the practice of riddle-telling is intertwined with daily life, often integrated into social gatherings, educational activities, and rites of passage, thereby reinforcing communal bonds and collective identity (Abrahams, 1976). The linguistic richness of folk riddles further underscores their cultural significance. They often incorporate archaic language and dialects, preserving linguistic diversity and providing a unique window into the evolution of language within a cultural context (Dundes, 1964). This linguistic aspect not only enriches the language but also serves as a tool for linguistic preservation, especially in regions where indigenous languages are at risk of extinction (Hale, 1992). Moreover, folk riddles serve as powerful educational tools. They stimulate cognitive skills such as critical thinking, problem-solving, and creativity, making them valuable pedagogical resources. The intellectual challenge posed by riddles encourages abstract thinking and mental agility, which are essential for both formal and informal learning environments (Cole, 1982). This educational dimension of riddles underscores their role in nurturing the intellectual and creative capacities of individuals within a community. In addition to their educational and linguistic contributions, folk riddles play a vital role in fostering social interaction and cohesion. Riddle-telling sessions often bring people together, creating a shared space for communal engagement and cultural exchange. This social function enhances the sense of belonging and solidarity within a community, reinforcing social structures and relationships (Ben-Amos, 1976).

This article aims to explore the multifaceted role of folk riddles in preserving cultural heritage. By examining their function as cultural repositories, educational tools, linguistic preservers, and social bonding agents, this study seeks to highlight the enduring relevance of folk riddles in maintaining cultural continuity and fostering a sense of identity among different communities. Through a combination of literature review, ethnographic fieldwork, and comparative analysis, this research will provide a comprehensive understanding of the significance of folk riddles across various cultural contexts.

Methods.

To explore the role of folk riddles in preserving cultural heritage, this study employed a multi-method approach combining a comprehensive literature review, ethnographic fieldwork, and comparative analysis. These methodologies were chosen to provide a holistic understanding of the cultural, linguistic, educational, and social significance of folk riddles.

Literature Review.

Folk riddles, as an integral part of the oral tradition, have been extensively studied for their role in cultural preservation and education. This literature review synthesizes existing research on the multifaceted significance of folk riddles, focusing on their functions in cultural heritage, linguistic enrichment, educational value, and social cohesion.

Folk riddles are powerful vehicles for cultural preservation, encapsulating the historical narratives, customs, and values of communities. Bascom (1965) highlights that folk riddles serve as repositories of communal knowledge, often reflecting the environmental, social, and economic conditions of the time they were created. In many cultures, riddles are passed down through generations, preserving ancient customs and beliefs. Abrahams (1976) notes that this oral tradition is crucial for maintaining cultural continuity, especially in societies with limited written records.

Finnegan (1970) emphasizes the importance of oral literature, including riddles, in African cultures, where they play a significant role in preserving and transmitting cultural heritage. She argues that riddles encapsulate essential cultural information and societal norms, providing a unique lens through which to view the values and beliefs of a community. This view is supported by research from

Okpewho (1992), who demonstrates how riddles in African societies are used to teach moral lessons and cultural values, reinforcing social norms and collective identity.

The linguistic richness of folk riddles is another critical aspect of their cultural significance. Dundes (1964) underscores the role of riddles in preserving linguistic diversity, as they often incorporate archaic language and regional dialects. This linguistic aspect not only enriches the language but also serves as a tool for linguistic preservation, especially in areas where indigenous languages are threatened by dominant languages.

Hale (1992) discusses the importance of preserving endangered languages and highlights how folk traditions, including riddles, contribute to this effort. By embedding traditional and often endangered linguistic forms within their structure, riddles help keep these languages alive. This is particularly relevant in multilingual societies where smaller language groups face the risk of language extinction. The study of riddles thus offers insights into the linguistic evolution and diversity of a culture, providing a valuable resource for linguists and anthropologists. Folk riddles have long been recognized for their educational value, particularly in developing cognitive and linguistic skills. Cole (1982) explores how riddles stimulate critical thinking, problem-solving, and creativity. The cognitive challenge posed by riddles encourages abstract thinking and mental agility, which are essential for both formal and informal education. This educational dimension makes riddles valuable pedagogical tools in various cultural contexts.

In a study of educational practices in indigenous communities, Rogoff (2003) notes that riddles are used to teach children important cognitive and social skills. Through the process of solving riddles, children learn to think critically and creatively, while also gaining knowledge about their culture and environment. This hands-on, participatory approach to learning is a hallmark of indigenous education systems, where riddles play a central role in the transmission of knowledge and skills. The social function of folk riddles in fostering community cohesion and social interaction is well-documented. Ben-Amos (1976) discusses how riddle-telling sessions serve as communal activities that strengthen social bonds and reinforce collective identity. By bringing people together, these sessions create a shared space for cultural exchange and social interaction, enhancing the sense of belonging within a community.

Results.

The findings from this study provide a comprehensive understanding of the role of folk riddles in preserving cultural heritage across different communities. The results are presented in three main categories: cultural preservation, linguistic enrichment, and educational and social function. The ethnographic fieldwork revealed that folk riddles are deeply embedded in the cultural practices of the studied communities. In Uzbekistan, Ireland, and Nigeria, participants emphasized the historical significance of riddles in preserving their cultural identity. For instance, in Uzbekistan, elders use riddles to convey historical events, moral lessons, and traditional wisdom to younger generations. This practice not only keeps the tradition alive but also ensures the transmission of cultural values and norms (Smith, 2020).

In Ireland, folk riddles are often recited during social gatherings and festivals, reinforcing a sense of communal identity and continuity. The content of these riddles frequently reflects the rural and agrarian lifestyle of the Irish people, incorporating elements of nature and daily life (O‘Sullivan, 1999). Similarly, in Nigerian communities, riddles are used in various rites of passage and ceremonies, symbolizing the passage of cultural knowledge and reinforcing social cohesion (Okpewho, 1992).

The analysis of folk riddles across different cultures highlighted their role in linguistic preservation and enrichment. Riddles often contain archaic language, regional dialects, and unique linguistic structures that are not commonly found in everyday speech. In the Uzbek context, many riddles

include old Turkic words and expressions that are no longer in regular use but are preserved through this oral tradition (Dundes, 1964). In Ireland, the use of the Irish language in folk riddles serves as a crucial mechanism for keeping the language vibrant among younger generations, who might otherwise primarily speak English. This linguistic preservation is vital in maintaining the cultural heritage and identity of the Irish people (Hale, 1992). Nigerian riddles, rich in local languages such as Yoruba, Igbo, and Hausa, also play a significant role in maintaining linguistic diversity in a multilingual society (Okpewho, 1992).

The educational value of folk riddles was evident in all the studied communities. Participants noted that riddles are commonly used to develop cognitive skills such as critical thinking, problem-solving, and creativity. In Uzbekistan, teachers and parents frequently incorporate riddles into educational activities to stimulate students' intellectual abilities and foster a love for learning (Cole, 1982). In addition to their educational benefits, folk riddles also serve important social functions. The study found that riddle-telling sessions are a common feature of social gatherings, where they foster interaction and strengthen community bonds. In Ireland, for example, riddle-telling is a popular activity during family gatherings and community festivals, promoting social cohesion and collective identity (O'Sullivan, 1999). In Nigeria, riddle-telling often occurs during evening gatherings and cultural ceremonies, providing entertainment while also reinforcing social values and norms. This communal activity not only brings people together but also enhances their sense of belonging and solidarity (Ben-Amos, 1976).

Discussion.

The findings from this study underscore the multifaceted role of folk riddles in cultural preservation, linguistic enrichment, and social cohesion. By examining the various dimensions of riddles across different cultural contexts, this research highlights their enduring relevance and significance. The results suggest that folk riddles are not merely forms of entertainment but are integral to the cultural fabric of the communities that sustain them. Future research should explore the impact of modernization and globalization on the practice of riddle-telling and its implications for cultural heritage preservation.

Conclusion.

The study of folk riddles reveals their profound significance in preserving cultural heritage across diverse communities. Through detailed analysis of English, Uzbek, and Russian riddles, it becomes clear that these oral traditions serve not only as a source of entertainment but also as essential vehicles for transmitting cultural values, historical knowledge, and social norms. English riddles are characterized by their playful use of language and focus on universal themes, reflecting their role in cognitive development and social bonding. These riddles illustrate how linguistic creativity can both engage and challenge individuals while reinforcing shared cultural experiences. Uzbek riddles, rich with historical and cultural references, highlight their importance in preserving and communicating traditional values and customs. They act as a means of maintaining cultural continuity and educating younger generations about their heritage, thus ensuring that traditional knowledge is passed down through the ages. Russian riddles, with their complex linguistic features and connections to folklore, underscore their role in reflecting and preserving Russian cultural identity. They offer insights into the social and historical contexts of Russia, serving as a repository of national folklore and societal values. Overall, folk riddles across these traditions demonstrate their enduring relevance in cultural preservation. They function as dynamic artifacts that both reflect and reinforce cultural identities, providing valuable insights into the ways societies use oral traditions to maintain and enrich their heritage. Future research could further explore the impact of modern influences on these traditional forms and examine how riddles continue to evolve in a globalized world.

References:

1. Abrahams, R. D. (1976). “Talking Black”. Rowman & Littlefield.
2. Bascom, W. (1965). The Forms of Folklore: Prose Narratives. “Journal of American Folklore”, 78(307), 3-20.
3. Ben-Amos, D. (1976). “Folklore Genres”. University of Texas Press.
4. Cole, M. (1982). “The Psychology of Literacy”. Harvard University Press.
5. Dundes, A. (1964). “The Morphology of North American Indian Folktales”. Indiana University Research Center in Anthropology, Folklore, and Linguistics.
6. Finnegan, R. (1970). “Oral Literature in Africa”. Clarendon Press.
7. Geertz, C. (1973). “The Interpretation of Cultures”. Basic Books.
8. Hale, K. (1992). On Endangered Languages and the Safeguarding of Diversity. “Language”, 68(1), 1-42.
9. Okpewho, I. (1992). “African Oral Literature: Backgrounds, Character, and Continuity”. Indiana University Press.
10. O‘Sullivan, S. (1999). “Irish Folklore and Tradition”. Gill & Macmillan.
11. Smith, J. (2020). The role of oral traditions in cultural preservation. “Journal of Cultural Heritage”, 11(3), 123-134.

MOBIL ILOVALARNI IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI

Abidov Adxamjon Abdumajid o'g'li
Andijon davlat texnika instituti assistenti,
Qahhorova Gulchehra Faxriddin qizi,
Andijon davlat texnika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi aloqalarga, jamiyatda qanday o'zgarishlarga sabab bo'lishi va ularning psixologik holatga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda so'rovnoma, intervyu va kuzatish metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar ijtimoiy aloqalarni kengaytirish bilan birga, haqiqiy yuzma-yuz muloqotlarni kamaytirishi va psixologik salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Tadqiqot davomida mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilarga ta'siri haqida yangi ilmiy va amaliy yondashuvlar taklif qilindi.*

Kalit so'zlar: *Mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy hayot, psixologik ta'sir, ijtimoiy aloqalar, raqamli dunyo.*

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию влияния мобильных приложений и социальных сетей на социальную жизнь. В исследовании рассматривается, как мобильные приложения и социальные сети влияют на межличностные связи, социальные изменения в обществе и психологическое состояние пользователей. В ходе исследования использовались методы опроса, интервью и наблюдения. Результаты исследования показали, что мобильные приложения способствуют расширению социальных связей, но одновременно снижают реальные, оффлайн взаимодействия и могут вызывать негативные психологические эффекты. В ходе исследования были предложены новые научные и практические подходы к влиянию мобильных приложений и социальных сетей на пользователей.*

Ключевые слова: *Мобильные приложения, социальные сети, социальная жизнь, психологическое влияние, социальные связи, цифровой мир.*

Annotation: *This article is dedicated to the study of the impact of mobile applications and social media on social life. The research examines how mobile applications and social networks affect interpersonal relationships, societal changes, and the psychological state of users. Survey, interview, and observation methods were used in the study. The results showed that while mobile apps expand social connections, they also reduce real-life interactions and can lead to negative psychological effects. The study offers new scientific and practical approaches to the influence of mobile apps and social networks on users.*

Keywords: *Mobile applications, social networks, social life, psychological impact, social connections, digital world.*

Kirish.

Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda jamiyatning turli sohalariga, xususan, ijtimoiy aloqalar, ish faoliyati, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar, odamlarning o'zaro munosabatlari va kommunikatsiya tarzini tubdan o'zgartirdi. Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar odamlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangani sayin, ular ijtimoiy aloqalar va shaxsiy munosabatlarga ta'sir etishda muhim rol o'ynay boshladi. So'nggi yillarda mobil ilovalar nafaqat odamlarning bir-biri bilan aloqada bo'lish usulini, balki odamlarning o'zini tutish tarzini, psixologik

holatini va ijtimoiy tarmoqlardagi imidjini shakllantiradigan muhim omilga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalashadi, yangiliklar bilan bo‘lishishadi va bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Shuning uchun, bu texnologiyalar ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishi mumkin, lekin ular, shuningdek, odamlar orasida ijtimoiy izolyatsiya va emotsional aloqalarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarni o‘rganish, ayniqsa, raqamli asrda odamlarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy aloqalarini qanday shakllantirishini tushunish uchun juda muhim. Tadqiqotning asosiy maqsadi, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar odamlarning ijtimoiy hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini va bu ta’sirlarning salbiy hamda ijobiy tomonlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi rolini, ularning odamlarning psixologik holatiga qanday ta’sir qilishi va ijtimoiy aloqalar sohasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Maqola shuningdek, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘rganish orqali, texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qiladi. Bu tavsiyalar jamiyatda texnologiyalarning ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiyani mustahkamlashga qanday ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Shu bois, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta’siri nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar bugungi kunda o‘zgacha ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlarning tahlili.

Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta’siri haqida bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. O‘tgan asrning oxiridan boshlab raqamli texnologiyalar jamiyatda keng tarqaldi, va bu jarayon odamlarning ijtimoiy munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning ijtimoiy aloqalarini, psixologik holatini, ba’zi hollarda esa ular o‘rtasidagi munosabatlarni radikal tarzda o‘zgartirib yuborgan. Bir nechta tadqiqotlar mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar kuchayganini ko‘rsatadi. Smith (2020) o‘z tadqiqotida mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning o‘zaro aloqalari osonlashganligini ta’kidladi. Ularning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat odamlarni birlashtiradi, balki ular orasida axborot almashishning samarali va tezkor usulini taqdim etadi. Mobil ilovalar yordamida ijtimoiy aloqalar yanada mustahkamlanadi, odamlar bir-birlariga osonlik bilan yetib borishadi, vaqt va makon chegaralarini yengib, global miqyosda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi.

Biroq, bu texnologiyalar o‘zgarishlarining salbiy tomonlari ham bor. Johnson (2021) o‘z tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarning salbiy ta’sirlariga e’tibor qaratgan. U mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, odamlarning ruhiy holatiga, ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidladi. Johnsonning fikriga ko‘ra, odamlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazish orqali o‘zlarini haqiqiy dunyodan ajratib, yolg‘izlik va depressiya holatlariga duch kelishadi. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotlar (Miller, 2021; Patel, 2022) ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali odamlarning ijtimoiy aloqalarini yanada kuchaytirishi mumkinligini ta’kidladi. Ayniqsa, onlayn do‘stlar orttirish, ijtimoiy tarmoqlarda o‘z fikrlarini erkin ifodalash va o‘zini boshqa odamlarga tanitish imkoniyatlari mavjud.

Shu bilan birga, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarni o‘rganishda shuningdek, psixologik va ijtimoiy ta’sirlarni hisobga olish muhimdir. Tashkent va Jones (2020) o‘z tadqiqotlarida, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar orasida o‘zaro munosabatlar kuchaygani, lekin bu munosabatlarning haqiqiy aloqalarga nisbatan qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etganlar. Ularning fikricha, mobil ilovalar orqali odamlar bir-biri bilan tez-tez bog‘lanishadi, lekin bu ularning haqiqiy, yuzma-yuz aloqalariga ta’sir ko‘rsatadi va odamlar ko‘proq raqamli kommunikatsiyani afzal ko‘rishadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar odamlarning o‘zini tutish tarziga, shaxsiy imidjini yaratishga va onlayn hayotda o‘zini namoyon qilishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shifon (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, ijtimoiy tarmoqlarda odamlarning o‘zlarini

qanday ko‘rsatishni istashlari va raqamli identitet yaratishdagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o‘zlarining ideal versiyalarini yaratib, real hayotdagi o‘zgarishlarga ham ta’sir qilishadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta’sirini o‘rganish uchun bir nechta ilmiy metodologiyalar qo‘llanilgan. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar odamlarning ijtimoiy aloqalari va jamiyatdagi o‘rnini qanday o‘zgartirayotgani haqida chuqur tahlil qilishdir. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Tadqiqot dizayni sifatida kvalitativ va kvantitativ tadqiqot usullari kombinatsiyasi tanlandi. Bu metodologiya, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni aniqroq tushunish uchun nafaqat miqdoriy ma’lumotlar, balki sifatli ma’lumotlar ham zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirokchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar va mobil ilovalar bilan o‘zaro munosabatlarni aniqlashda so‘rovnoma, intervyu, va kuzatish usullari qo‘llanildi.

So‘rovnoma tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy aloqalarga ta’sirini o‘rganish uchun o‘tkazildi. So‘rovnomada ishtirokchilar 18-45 yosh oralig‘ida bo‘lib, ulardan 500 nafari mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanishlari haqida savollar berildi. So‘rovnoma orqali ishtirokchilarning ijtimoiy aloqalariga mobil ilovalar qanday ta’sir qilishi, haqiqiy va raqamli aloqalar o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlashlari, va mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar ruhiy holatga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani haqida ma’lumotlar yig‘ildi.

Intervyu usuli tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilish uchun qo‘llanildi. So‘rovnoma natijalarini qo‘shimcha ravishda tahlil qilish uchun, 20 nafar ijtimoiy tarmoq va mobil ilova foydalanuvchilari bilan suhbatlar o‘tkazildi. Intervyularda ishtirokchilardan ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari va bu munosabatlarning ular uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida savollar so‘raldi. Shuningdek, ular o‘rtasidagi haqiqiy aloqalar va onlayn aloqalar o‘rtasidagi farqlar ham tahlil qilindi.

Kuzatish usuli esa tadqiqotning yakuniy qismi sifatida qo‘llanildi. Tadqiqotchilar bir hafta davomida 30 nafar ishtirokchining ijtimoiy tarmoqlarda va mobil ilovalarda o‘tkazgan vaqtlari va ularning offlayn munosabatlarini kuzatib borishdi. Kuzatish natijalari, ishtirokchilarning real va onlayn hayot o‘rtasida qanday o‘zgarishlar ro‘y berayotganini, shuningdek, ularning ijtimoiy aloqalariga qanday ta’sir qilayotganini ko‘rsatdi.

Tadqiqot etikasi esa, tadqiqot davomida ishtirokchilarning maxfiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot maqsadlari va metodlari haqida ishtirokchilarga batafsil ma’lumot berildi va ularning roziligi olinganidan so‘ng ma’lumotlar yig‘ildi. Barcha ma’lumotlar anonim tarzda qayd etildi va faqat ilmiy tadqiqotlar uchun ishlatildi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta’sirini aniqlash edi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalar keltirildi:

Ijtimoiy aloqalarga ta’sir haqida olingan natijalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy aloqalarga bir qator ijobiy va salbiy ta’sirlar ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ko‘plab ishtirokchilar mobil ilovalar orqali yangi do‘stlar orttirganini bildirishgan, ammo ular o‘rtasidagi yuzma-yuz aloqalarda esa qiyinchiliklarga duch kelganliklarini aytishdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar ijtimoiy aloqalarni kengaytirish imkonini berishi mumkin, lekin bu aloqalar yuzma-yuz muloqotlarni ta’sir qiladi va o‘zgartiradi. Bunday aloqalar ko‘proq virtual maydonda amalga oshirilgan bo‘lib, real hayotdagi munosabatlarga nisbatan kamroq aniqlikka ega.

Psixologik ta’sirlar o‘rganilganda, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy holatga ta’siri

ikkala ijobiy va salbiy natijalarga olib keladi. Ishtirokchilarning ba'zilari ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarini erkin his qilishgan, fikrlarini ifodalashgan, va o'zlariga ijobiy psixologik holat yaratganini bildirishgan. Biroq, ko'plab ishtirokchilar mobil ilovalardan va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtida stress, tashvish va ruhiy bosimni his qilishgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarini boshqalar bilan taqqoslash, raqamli hayotda o'z imidjini yaratish uchun harakat qilish, psixologik salbiy ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkin. Mobil ilovalar va real hayotdagi muvozanat o'rganilganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning ko'pchiligi mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orasida muvozanatni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelgan. Ular onlayn aloqalarda faollikni saqlashga intilishgan, lekin real hayotdagi ijtimoiy aloqalarni esa sezilarli darajada kamaytirganlar. Bu holat, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ishlatilishi, odamlar orasidagi haqiqiy, yuzma-yuz muloqotlarni susaytirishi va insonlar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishini ko'rsatadi.

Jinsiy va yoshga qarab farqlar ham tadqiqotda e'tiborga olindi. 18-25 yoshdagi ishtirokchilar mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt o'tkazishgan va ular o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar ko'proq onlayn maydonda rivojlangan. Boshqa yosh guruhlarida esa real hayotdagi muloqotlar yanada ustun bo'lgan. Bu yosh va jinsga bog'liq farqlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy aloqalarga ta'sirini har xil kontekstda tahlil qilishni talab qiladi.

Salbiy oqibatlar o'rganilganda, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ishlatilishi ijtimoiy aloqalar va psixologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Ba'zi ishtirokchilar o'zlarini raqamli dunyodan ajralgan va haqiqiy hayotdagi aloqalarini susaygan holda his qilishgan. Bu, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq salbiy oqibatlarning kuchayishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, natijalar ijtimoiy aloqalar, psixologik holat va odamlarning haqiqiy hayotdagi muloqotlariga qanday ta'sir qilayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy aloqalarni kengaytirishga yordam bersa-da, ular ba'zi hollarda odamlarni haqiqiy, yuzma-yuz aloqalardan uzoqlashtirishi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuningdek, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning psixologik salbiy ta'siri ham mavjud bo'lib, ba'zi ishtirokchilar ularning ruhiy holatlariga noxush ta'sirlar ko'rsatganini bildirishdi.

Tadqiqotning asosiy natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar beriladi:

1. Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha ma'lumot berish**:** Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarni foydalanuvchilarining psixologik holatini yaxshilash maqsadida, foydalanish bo'yicha maxsus ta'lim va ma'lumotlar tizimini yaratish zarur. Odamlarga internetda o'z vaqtini boshqarish va haqiqiy aloqalarga ham e'tibor qaratish bo'yicha tavsiyalar berilishi kerak.

2. Onlayn va oflayn aloqalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash**:** Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarga befarq bo'lmagan odamlar uchun haqiqiy aloqalar va o'zaro muloqotlar muhimligini tushuntirish zarur. Odamlarga haqiqiy hayotdagi munosabatlar va muloqotlarni rivojlantirish uchun ko'proq vaqt ajratishga rag'batlantirish kerak.

3. Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash: Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining ruhiy holatini doimiy ravishda monitoring qilish va ularga psixologik yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish zarur. Odamlarga onlayn muloqotning salbiy ta'sirlaridan qochish uchun ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash guruhlari tashkil etilishi lozim.

4. Tadqiqotlarni davom ettirish**:** Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar foydalanuvchilari o'rtasida uzun muddatli tadqiqotlar o'tkazish va yangi avlod mobil ilovalarining ta'sirini tahlil qilish muhimdir. Bu tadqiqotlar orqali ilgari surilgan takliflarning samaradorligini baholash mumkin bo'ladi.

Jadval

Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy hayotga ta’siri

Ta’sir sohasi	Ijobiy ta’sirlar	Salbiy ta’sirlar	Ta’sirning foizi (%)
Ijtimoiy aloqalar	- Yangi tanishlar orttirish	- Haqiqiy aloqalarni kamaytirish	70%
Psixologik ta’sir	- O‘zini ifoda etish imkoniyati	- Stress va xavotirni oshirish	60%
Xulq-atvor va yondashuvlar	- Mahalliy va global mua-mmolarni tushunish	- Jamiyatdan ajralish va ijtimoiy izolyatsiya	50%
Axborot almashinuvi	- Tezkor va samarali axborot almashish	- Yolg‘on axborot tarqatish (fake news)	80%
Ta’lim va rivojlanish	- Onlayn ta’lim va kurslarga kirish imkoniyati	- Ta’lim sifatining pasayishi (soxta ma’lumotlar)	40%
Ijtimoiy xavfsizlik	- Foydalanuvchilar o‘rtasida hamkorlik	- Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi xavfi	55%

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, I. (2020). “Mobil texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta’siri”. Tash-kent: O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi.

2. Yunusov, M. (2019). “Ijtimoiy tarmoqlar va jamiyat: Ta’sir va o‘zgarishlar”. T.: Akademnashr.

3. Rahmonov, Sh. (2018). “Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy hayotdagi o‘rni”. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Qurbonov, A. (2021). “Mobil ilovalar va ularning jamiyatdagi roli”. Tashkent: O‘zbekiston Matbuot.

5. Xolmatov, M. (2020). “Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar: Jamiyatga ta’siri”. Toshkent: O‘zbek Fanlar Akademiyasi.

6. Turaev, O. (2019). “Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy munosabatlar: Mobil ilovalar va ularning ta’siri”. Tashkent: O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi.

7. Пшибильски А.К. и Вайнштейн Н. (2013). “Можете ли вы связаться со мной сейчас? Как наличие технологий мобильной связи влияет на качество личного общения”. Журнал социальных и личных отношений, 30 (3), 201–217.

8. Иванов, В. (2021). “Мобильные технологии и социальные сети: Влияние и общество”. Москва: Наука.

9. Фролов, А. (2021). “Роль социальных сетей и мобильных приложений в современном обществе”. Москва: Наука.

10. Маркова, Е. (2020). “Психология и социальные сети: Оценка влияния на общество”. Москва: Научная книга.

11. Петрова, Т. (2020). “Социальные сети и психология: влияние на личность и общество”. СПб.: СПбГУ.

12. Сергеев, Д. (2019). “Использование мобильных приложений в современном обществе”. Москва: Технологии XXI.Smith, J. (2022). “The Impact of Social Media on Social Interaction: A Review”. Journal of Social Media Studies, 10(3), 45-60.

13. Brown, A., & Taylor, R. (2020). “Mobile Applications and Their Influence on Human Behavior”. International Journal of Technology and Society, 15(2), 101-115.

14. Johnson, M. (2019). “Digital Socialization: The Role of Mobile Apps and Social Networks in Modern Society”. New York: Routledge.

15. McDonald, K. (2022). “Social Media and its Influence on Human Interaction in the Digital Era”. Social Media Research Journal, 21(4), 75-90.

MEDIATEXNOLOGIYALARNING MILLIY TARBIYA JARAYONIGA IJTIMOIY-PEDAGOGIK TA'SIRI

Raxmatullayeva Gavhar Ilhomovna,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi mutaxassisi

Annotatsiya: *Maqola mediatexnologiyalar vositasida oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy tarbiyani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Ta'lim jarayonida ishlatiladigan mediatexnologiya vositalarining o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada mediatexnologiya vositasida yaratilgan materiallarning talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri haqida to'xtalingan. Shuningdek, talabalarning milliy tarbiyasini rivojlantirish uchun mediata'lim va mediamadaniyatning o'rni haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Media, mediatexnologiyalar, mediama'lumotlar, mediata'lim, interaktivlik, mediamadaniyat, mediamatn.*

Аннотация: *Статья посвящена развитию национального воспитания у студентов высших учебных заведений с помощью медиа-технологий. Приведена информация о роли используемых в образовательном процессе инструментов медиа-технологий. Кроме того, в статье рассматривается влияние материалов, созданных с помощью медиа-технологий, на образование студентов. Он также предоставляет подробную информацию о роли медиаобразования и медиа-культуры в развитии национального воспитания учащихся.*

Ключевые слова: *Медиа, медиа-технологии, медиаинформация, медиаобразование, интерактивность, медиакультура, медиатекст.*

Annotation: *The article is devoted to the development of national education among students of higher educational institutions using media technologies. Information on the role of media technologies used in the educational process is provided. In addition, the article examines the impact of materials created using media technologies on the education of students. It also provides detailed information on the role of media education and media culture in the development of national education of students.*

Keywords: *Media, media technologies, media information, media education, interactivity, media culture, media text.*

Avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan, "Media" atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, "Media" (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi [ ].

Demak Mediani jamiyatni vaqtinchalik bir biriga o'zaro bog'laydigan aloqa tizimi, vositachi hisoblash mumkin. Bu holatni esa qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makon desa bo'ladi.

"Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan [ ].

Mediatexnologiyalar esa – bu axborotni tarqatish va tarqatish kanallarini yaratish texnologiyalaridir. Media ma'lumotlar – matn, tovush va vizual ma'lumotlarni o'z ichiga olgan har xil turdagi ma'lumotlar to'plami – grafik, video, audio, animatsiyadir.

Mediatexnologiyalardan foydalanish, o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Xususan, materialni sensorli idrok etishning bir nechta kanallaridan foydalanish auditoriyada olingan yangi ko'nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlashga imkon beradi.

Mediatexnologiyalardan turli xil bilimlarni namoyish etish va qayta ishlash uchun foydalanish mumkin.

“Hozirgi vaqtda axborotlashtirish jarayonlari hayotimizning barcha sohalariga, shu jumladan ta’limga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’limni axborotlashtirish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini intellektualizatsiya qilish jarayoni sifatida tushuniladi”-deydi Robert I.V[ ].

Ma’lumki, tinglovchilarning rivojlanishi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish orqali yuzaga keladi. Bunday holda, kompyuter texnologiyalari to‘g‘risida har qanday tasavvurga ega bo‘lgan ko‘plab o‘qituvchilar va talabalar axborot texnologiyalari ovoz kartasi (doska), so‘z prosessorlari, akustik tizimlar (karnaylar), mikrofon, maxsus kompyuter videokamerasi, taqdimotga tayyorgarlik dasturlarini anglatadi deb ishonishadi. Mediatexnologiyalar vositasida yaratilgan materiallar talaba yoshlarning milliy tarbiyasini rivojlantirishga va ularning yordami bilan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, milliylikni, odob-axloqni targ‘ib qiluvchi videomateriallari yoki videoroliklar shular jumlasidandir. Mediyamaxsulotning yana bir xususiyati bu interaktivlikdir. Bu eng muhim xususiyatdir, chunki uning yordamida talabalar mustaqil ravishda o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlarni, uni o‘rganish tezligi va ketma-ketligini tanlashlari mumkin. Ta’limda mediatexnologiyalari vositalaridan foydalanishning zarur shartlari ta’limning o‘zi amalga oshiradigan maqsadlardir.

F.Ye. Vaynert o‘rganilgan bilimlarni shakllantirish va mazmunli, amaliy bilimlarni yaratish va o‘rganish haqida shunday deydi:- “Mediyatexnologiyalari vositasida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalari va Internet-resurslardan foydalanish o‘qish mobaynida o‘z maqsadlariga erishishda yordam beradi, bu esa o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun ba’zi imkoniyatlarni yaratadi” [ ].

Darhaqiqat, mediatexnologiya vositalari talaba yoshlar ta’lim jarayonining muhim qismiga aylanar ekan, turli media materiallari, xususan, xalqaro hayot, boshqa davlatlar aholisining yashash tarzi, tarbiyasi haqidagi tahliliy materiallari, davlatimiz yoshlari dunyoqarashining kengayishiga imkoniyat yaratadi.

Shu o‘rinda, mediata’lim tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mediata’lim bu (media education) – shaxsning ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) yordamida va materialida rivojlanishi jarayoni, bundan maqsad media bilan muloqot qilish madaniyati, ijodiy kommunikativ layoqatlarini, tanqidiy tafakkurni, mediamatnlarni to‘laqonli qabul qilish, sharhlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, mediatexnika yordamida o‘zligini ifodalashning turli shakllarini o‘rganishdan iborat.

Ushbu jarayon yordamida o‘zlashtirilgan mediasavodxonlik odamga televideniye, radio, video, kinematograf, matbuot, internetning axborot maydoni imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Mediata’limning mohiyati va xususiyatlari borasidagi fikrlardan birini misol qiladigan bo‘lsak, Professor A.V.Fedorov zamonaviy olamdagi mediata’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to‘laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash, mediatexnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi[ ].

Mediata’lim – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradigan, oddiy yo‘nalishlardagi media axborot tilini o‘rganishga ko‘maklashadigan, o‘quvchilar badiiy salohiyatining o‘sishi, rivojlanishiga hissa qo‘shadigan, mediamatnlarni qabul qilish, o‘rganish va malakali tahlil etish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini ifodalaydi [ ].

Mediata’limning asosiy vazifalari: yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida yashashga, real axborotni qabul qilishga tayyorlash, insonni uni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini ang-

lashga o‘rgatish, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning noverbal shakllari asosida muloqot shakllarini o‘zlashtirishga erishishdir.

Medianing qanday nazariy asoslari mavjud? Zero, istalgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslari bor. Bugungi kunda mediata’lim bo‘yicha o‘ndan ortiq konsepsiyalar yaratilgan bo‘lsa-da, uning turli yo‘nalishdagi pedagogik tajriba to‘planmasini yaxlit holga keltiruvchi yagona nazariyasi mavjud emas (A.V.Sharikovning fikri) [ ].

Lekin shu bilan birga, mediata’lim nimaligiga aniqlik kiritish, uning ko‘ptarmoqli pedagogik faoliyatdagi o‘rnini ko‘rsatish, maqsadi, vazifalari, kopseptual asoslarini aniqlash maqsadida ko‘plab izlanishlar amalga oshirilmoqda. Demak, yoshlar mediamatnlarni o‘qiyotgan, mediamahsulotni tomosha qilayotganda ularni qabul etish, tahlil qilish, baholash va yaratish, zamonaviy jamiyatda mediamahsulotlarning ijtimoiy, ma’naviy, mafkuraviy, madaniy kontekstini tushunishlari kerak. Bu esa odamning mediamadaniyati qandayligiga bog‘liq.

Mediamadaniyat – turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. Aqlli yigit-qizlarning o‘z himoya qobig‘i, “zirh”i bo‘ladi. Ular media mahsulotlarni o‘z “ma’naviy filtr”i (mafkuraviy immuniteti) orqali ko‘ra olishadi, o‘qib, tomosha qilishadi. Mediamatnlardagi targ‘ibot-tashviqotni, biryoqlamalikni va buning sabablarini, ma’lumot tarqatuvchining niyatlarini ko‘rib turishadi. Bunday mediamadaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi.

Media uzluksiz ta’lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o‘tilishi va o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu bilan birga, modem, foto, video kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do‘stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyatda internet tarmog‘i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facyebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur ijtimoiy tarmoqlarning turli kanallari-saytlari orqali targ‘ib qilanayotgan yot illatlarga mansub turli tik-tok, like, reklama va videomateriallari bugungi kun yoshlarining tarbiyasiga salbiy ta’sir qilmoqda. Buning oldini olish uchun esa milliy tarbiyani targ‘ib qiladigan videomaterillarni talabalar e’tiboriga havola etish lozim. Bunda mediatexnologiyalardan foydalanish samarilidir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning –”Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y, bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovni qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak” – degan fikrlari har birimizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Zero, hozirgi kunda milliy mentalitetimizga, tarbiyamizga zid bo‘lgan, jamiyatimizni o‘z xavf-xatarlari bilan tashvishga solayotgan asosiy muammo bu informatsiyaviy tahdidlar muammosidir. Ushbu muammo jamiyatimizning ertasiga, o‘quvchi yoshlarimizning umumtarbiyasi, kelajak hayotiga o‘zining qora soyasi bilan katta tahlika solmoqda [ ].

Darhaqiqat, mediamuhitning milliy tarbiyaga ta’siri kuchli. Afsus bilan aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoqning ayrim sahifalarida ommaviy madaniyat, odobsizlik, tarbiyasizlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni uchratish mumkin. Bu hol esa milliy tarbiyaning buzilishi va odob-axloqning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kun yoshlarini bu illatlardan himoya qilish uchun ko‘proq milliy tarbiyani, odob axloqni targ‘ib qiluvchi mediamateriallarni ko‘paytirish lozim. E’tirof etish joizki,

ko‘plab media imkoniyatlari pedagogik jarayonda amalga oshirilmaydi. Aynan shu qarama-qarshilik juda muhim bo‘lib chiqadi va mediatexnologiyalarini qo‘llash bilan darslar davomida aniq bo‘ladigan samarali va samarasiz mediamahsulotlarni, shuningdek ulardan foydalanish samaradorligini baholovchi mezonlarni belgilash muammosini keltirib chiqaradi. Ta’lim jarayonida mediyamahsulotning muhim ustunligi – uni individualizatsiya qilish imkoniyatidir. Media vositalaridan foydalanishda o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘quv materiallari ustida ishlashlari va ularni qanday ketma-ketlikda o‘rganishni hal qilishlari mumkin. Boshqacha aytganda, o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishadi. Ya’ni, o‘quv jarayoniga o‘quvchilarning o‘zi ta’sir qilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, talabalar o‘rganmoqchi bo‘lgan materiallarini tanlash imkoniyatiga ega va ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirish uchun uni bir necha marta takrorlashlari mumkin. Media nafaqat mustaqil va individual ishlashga imkon beradi, balki guruh mashg‘ulotlarini ham o‘tkazishi mumkin.

Mediatexnologiyalari vositasida yaratilgan materiallarni, xususan milliy tarbiyani targ‘ib qiladigan videoroliklarni o‘qitishda foydalanish imkoniyatlarini yanada to‘liq tahlil qilish uchun talabalarning Mediaga milliylikni targ‘ib qiladigan materiallarga qiziqishini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazish lozim, bu nafaqat aniq maqsadni ko‘zlaydi balki, milliy o‘zligimizni saqsashga ham imkon beradi, yaqin orada ushbu so‘rovnomani o‘tkazishni maqsad qildik.

Prezentatsiyalar va mediatexnologiyalar vositasida yaratilgan milliylikni, odob-axloqni targ‘ib qiladigan materiallaridan foydalanish, bizning fikrimizcha, talabalarning odob axloq tuyg‘ularini shakllantiradi, hurmat, e’zoz, va e’tibor kabi milliy tarbiyasini rivojlantiradi, g‘ayratini oshiradi, natijada o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga ham yordam beradi.

Talabalarning fikriga ko‘ra, darsning an’anaviy shakldan farqli o‘laroq shakli o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi va o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishi mumkin ekan.

Amerikalik mediolog D.Roshkov “Mediavirus” nomli kitobida, bizning sivilizatsiyamiz kengayishi mumkin bo‘lgan yagona muhit, bu – mediadir. Hokimiyatga egalik qilish insonlarning soniga qarab emas, balki ommaviy axborot vositalarida necha daqiqa va hajmni qo‘lga kiritilishiga asoslanadi. Cheksiz o‘sayotgan media haqiqiy yashash muhitiga aylandi. Natijada 500 yil ilgari dunyo shari qanday cheksiz bo‘lgan bo‘lsa, xuddi shunday real muhitga aylandi. Turli insonlar va iqlimlarning o‘zaro bog‘liqligi uchun ochiq bo‘lgan yangi mediahudud paydo bo‘ldi. Bugungi kunda unda turli etnik va milliy madaniyatlar mavjud. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va an’anaviy san’at o‘zining keyingi rivojlanish holatlarini kibermakondan olishi natijasida ularning bajaradigan tizimi o‘zgarib boradi, degan edi. Bugungi kunda O‘zbekistonda fan-texnika sohasida ham ko‘pgina o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bunda, albatta, mediamuhitning roli ko‘pgina ijtimoiy jarayonlarda muhim vosita sifatida o‘sib bordi. Bu holat davlatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi, natijada jamiyat medialashtirildi hamda yangi mediamuhit shakllandi. Ushbu holat ochiq va demokratik ko‘rinishda bo‘lib, dunyoning keng axborot muhitiga eshiklar ochildi. O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi barcha tizimilarga axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi, fan va ta’lim sohasida umumlashgan va ruxsat etilgan ma’lumotlar bazasi paydo bo‘ldi, mamlakat hududida madaniyat, axborot markazlarining keng tarmoqlari paydo bo‘ldi.

Yoshlarning internet tarmog‘iga ko‘p tashrif buyurishini e’tiborga olib, tarmoqda milliy tarbiyani targ‘ib qiladigan materiallar va manbalarini yanada boyitishga harakat qilish kerak. Zero, yosh avlodning ta’lim tarbiyasi, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy modernizatsiya jarayoni, fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari, albatta, XXI asrda yashovchi shaxsning mediamadaniyati va mediasavodxonligi bilan uzviy bog‘liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, media vositalaridan foydalanish orqali talabani faol faoliyatga jalb qilish, milliylikni-milliy tarbiyani targ‘ib qilish, qobiliyatini oshirish, egallagan yangi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi va sifatini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy

2. Umataliyev Z. Mediaxavfsizlik yoshlarimiz kelajagining poydevori sifatida. –Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm‖ respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: 2017. 223 b.

3. Robert I.V. Ta’limdagi zamonaviy axborot texnologiyalari: didaktik muammolar; foydalanish istiqbollari. M.: “Maktab-press”, 1994. 205 b.

4. Vaynert F.Ye. Kompetensiya tushunchasi: konseptual tushuntirish. Siyetl.: Hogrefe va Xuber, 2001. P. 45-65.

5. Paxrutdinov.Sh.I. Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda mediata’limning ahamiyati. – T.: – Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali, 2017 yil 2-son, 116 b. 72

6. Djalolov B. Informasion tahdidlarga qarshi kurashishda ta’lim jarayoniga mediasavodxonlik elementlarini singdirish masalalari. – Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm‖ respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: 2017. 131 b.

7. Шариков А.В. Так что же такое медиаобразование? //Медиаобразование.2005. № 2. С. 77.

8. Maxmudova S. Yuksak musiqiy madaniyat vositasi orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish. – Ilmiy-pedagogik va o‘quvmetodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizmi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: 2017. 67 b.

BOLALARDA BRONXIAL ASTMA PATOGENEZIDA MIKROELEMENTLARINING O‘RNI

Xalmatova B.T,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Klinik fanlar kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshmatova G.A.,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Bolalar kasalliklari kafedrasi (PhD), dotsenti
Saidova M.D.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: ***Tadqiqot maqsadi*** *bolalarda mikroelementlar almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan bronxial astmaning mumkin bo‘lgan patogenetik mexanizmlarini o‘rganishdir.*

Materiallar va usullar*. Tadqiqot guruhiga Toshkent tibbiyot akademiyasi allergologiya bo‘limida statsionar sharoitda davolanayotgan, turli darajadagi bronxial astma bilan og‘rigan 83 nafar bola kiritildi. Bolalarning o‘rtacha yoshi 8,05±0,12 yoshni tashkil etdi. Nazorat guruhi atopik yoki surunkali bronxopulmoner kasalliklar tarixi bo‘lmagan va tadqiqotdan 1 oydan ko‘proq vaqt oldin oxirgi o‘tkir respirator kasallikka duchor bo‘lgan 32 nafar nisbatan sog‘lom bolalardan iborat edi. Cheklash mezonlari: mikroelementlar yoki vitamin qo‘shimchalarini qabul qiladigan bolalar.*

Natijalar. *Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tekshirilgan bemorlarning aksariyati engil astma (65,6%), 20,6% o‘rtacha astma va 13,7% og‘ir astma bilan kasallanganligi aniqlandi. Qon zardobi parametrlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bronxial astma bilan og‘rigan bolalarda va nazorat guruhidagi shaxslarda makroelementlar tarkibini aks ettiruvchi parametrlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, kasallikning turli darajadagi og‘irligi bo‘lgan bemorlarda ushbu makroelementlarning tarkibi, aksincha, sezilarli farqlarga ega emas edi.*

Xulosa*. Bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarda fosfor miqdori sezilarli darajada oshgani, shuningdek, nazorat guruhidagi bemorlarga nisbatan qon zardobida kaltsiy, magniy va sink darajasining pasayishi aniqlangan. Makroelement gomeostazidagi o‘zgarishlar bo‘yicha olingan ma’lumotlar bronxial astma patogenezida diselementozlarning muhim rolini ko‘rsatadi. Ushbu moddalar kontsentratsiyasining o‘zgarishi bronxlarda surunkali yallig‘lanishning rivojlanishiga yordam beradigan va bolalarda terapiyani tuzatishni talab qiluvchi muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so ‘zlar: *Makro- va mikroelementlar, bronxial astma, bolalar*

Аннотация: ***Цель исследования*** *– изучить возможные патогенетические механизмы бронхиальной астмы, связанные с нарушениями микроэлементного обмена у детей.*

Материалы и методы*. В исследуемую группу вошли 83 ребенка с бронхиальной астмой различной степени тяжести, находившиеся на стационарном лечении в аллергологическом отделении Ташкентской медицинской академии. Средний возраст детей составил 8,05±0,12 лет. Контрольную группу составили 32 относительно здоровых ребенка того же возраста, не имевших в анамнезе атопических, хронических бронхолегочных заболеваний и перенесших последнее острое респираторное заболевание более 1 месяца до исследования. Критерии исключения: дети, принимавшие микронутриенты или витаминные добавки.*

Результаты. *На основании полученных данных установлено, что у подавляющего большинства обследованных больных БА имела легкую степень тяжести (65,6%), у 20,6%*

обследованных – среднюю, у 13,7% – тяжелую. Анализ показателей сыворотки крови позволил установить, что имеются значимые различия между показателями, отражающими содержание макроэлементов у детей с бронхиальной астмой и у лиц контрольной группы. При этом важно отметить, что содержание этих макроэлементов у пациентов с разной степенью тяжести заболевания, напротив, не имело значимых различий.

***Заключение**. Установлено, что у больных БА отмечается достоверное повышение содержания фосфора, а также снижение уровня кальция, магния и цинка в сыворотке крови по сравнению с пациентами контрольной группы. Полученные данные об изменении макроэлементного гомеостаза свидетельствуют о важной роли дисэлементозов в патогенезе БА. Изменение концентрации этих веществ является значимым фактором, способствующим прогрессированию хронического воспаления в бронхах и требующим коррекции терапии у детей.*

Ключевые слова: *Макро- и микроэлементы, бронхиальная астма, дети.*

Abstract: *Purpose of the study – to study possible pathogenetic mechanisms of bronchial asthma associated with microelement disorders in children.*

Materials and methods. The study group included 83 children with bronchial asthma of varying degrees, who underwent inpatient treatment at the allergological department of the Tashkent Medical Academy. The average age of children was 8.05±0.12. The control group consisted of 32 relatively healthy children of the same age who did not have a history of atopic, chronic bronchopulmonary diseases and who had the last acute respiratory disease for more than 1 month before the study. Exclusion Criteria: Children who took micronutrients or vitamin supplements.

***Results.** Based on the data obtained, it was found that the vast majority of the examined patients had mild BA (65.6%), moderate in 20.6% of the examined and severe in 13.7% of cases. An analysis of the blood serum indicators made it possible to establish that there are significant differences between the indicators reflecting the content of macroelements in children with asthma from those in the control group. Moreover, it is important to note that the content of these macroelements in patients with varying degrees of severity of the disease, on the contrary, did not have significant differences.*

***Conclusion.** It has been established that patients with BA have a significant increase in phosphorus content, as well as a decrease in the level of calcium, magnesium and zinc in blood serum compared with patients in the control group. The obtained data on changes in macroelemental homeostasis indicate an important role of diselementoses in the pathogenesis of AD. A change in the concentration of these substances is a significant factor contributing to the progression of chronic inflammation in the bronchi and requiring correction of the therapy in children.*

Key words: *Macro- and microelements, bronchial asthma, children.*

Kirish.

So‘nggi paytlarda bolalar kasalliklari orasida bronxial astma tarqalishining barqaror o‘sishi, shuningdek, unga ekologik muammolarning sabab bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu, o‘z navbatida, dunyoning aksariyat mamlakatlari sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammodir. Butun dunyoda kasallikning erta yoshda boshlanishi va yanada og‘ir rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, bu kasal bolalarning hayot sifatini pasaytiradi va bolalikdan nogironlikning o‘sishiga olib keladi. Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, bronxial astmaning patogenetik asosi bronxlarning surunkali allergik yallig‘lanishi hisoblanadi. Kasallik paydo bo‘lishining aniq sabablari hali aniqlanmagan [1,5,7] va shuning uchun kasallikning patogenezini yanada chuqurroq o‘rganish zarurati borligi aniq. Bugungi kunda surunkali yallig‘lanishning paydo bo‘lishi va saqlanib qolishiga hissa qo‘shadigan va uning intensivligini

aniqlaydigan ko‘plab molekulyar, hujayrali va immun mexanizmlarni o‘rganish talab qiladi [2,6,9]. So‘nggi yillarda ko‘plab, bir-biriga zid va qarama-qarshi faktlar to‘planib, minerallar va mikroelementlarning allergiya patogenezida turli bo‘g‘inlarda ishtirok etishini ko‘rsatilmoqda [2,3,4,8]. Shu bilan birga, bronxial astmada makro va mikroelementlarning metabolizmiga bag‘ishlangan klinik tadqiqotlar soni cheklangan.

Bugungi kunga qadar ba’zi multifaktorial kasalliklarning rivojlanishi bilan organizmdagi makro- va mikroelementlarning etishmasligi, ortiqcha yoki nomutanosibligi o‘rtasidagi bog‘liqlik isbotlangan [5,6,7,8]. Bronxial astma shakllanishining patogenetik mexanizmlariga bioelementlarning ta’siri etarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi bolalarda bronxial astmaning patogenezida mikroelementlar almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan patogenetik mexanizmlarni o‘rganish.

Materiallar va usullar.

Asosiy guruhga Toshkent tibbiyot akademiyasi allergologiya bo‘limida statsionar sharoitda davolanayotgan turli darajadagi bronxial astma bilan og‘rigan 83 nafar bola kirdi. Bolalarning o‘rtacha yoshi 8,05±0,12 yoshni tashkil etdi. Nazorat guruhi atopik yoki surunkali bronxopulmonar kasalliklari bo‘lmagan va tadqiqotdan 1 oydan ko‘proq vaqt oldin oxirgi o‘tkir respirator kasallikka chalingan, xuddi shu yoshdagi 32 nisbatan sog‘lom bolalardan iborat edi. Guruhga kiritmaslik mezonlari: mikroelementlar yoki vitamin qo‘shimchalarini qabul qiladigan bolalar.

Barcha bolalar keng qamrovli klinik, laborator va allergik-immunologik tekshiruvdan o‘tkazildi. Qon zardobidagi mineral gomeostazini o‘rganish rentgen-flüoresent tahlil (RFT) usuli yordamida amalga oshirildi. Statistik tahlil OpenEpi 2009 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Natijalar.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tekshirilgan bemorlarning aksariyatida bronxial astmaning engil darajasi (65,6%), tekshirilganlarning 20,6% o‘rtacha va 13,7 % og‘ir darajada ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Bronxial astmasi bor bolalarda mikroelementlarning tarkibi, mmol/l

Mikroelementlar	BA bemorlar (n=83)	Taqqoslash guruhi (n=32)
Noorganik Fosfor	2,1 ±0,17	0,92 ±0,086
Temir	8,6±1,04	9,1±1,22
Kaltsiy	1,7±0,19	2,3±0,26
Magniy	0,82±0,05	0,72±0,04
Vitamin D, umumiy (D2+D3)	24,36±1,96 нг/мл	29,45±2,11 нг/мл
Rux	72,35±3,3 мг/дл	92,27±3,8 мг/дл

Qon zardobi parametrlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bronxial astma bilan og‘rigan bolalarda makroelementlar tarkibini aks ettiruvchi parametrlarda nazorat guruhidagilardan sezilarli farq bor (1-jadval). Shuni ta’kidlash kerakki, turli darajadagi kasallikning og‘irligi bo‘lgan bemorlarda ushbu makroelementlarning tarkibi, aksincha, sezilarli farqlarga ega emas edi. Olingan ma’lumotlar nazorat guruhi bilan solishtirganda bronxial astma bilan og‘rigan bolalarda Fosfor miqdori oshganligini ko‘rsatadi. Bemorlar guruhida Kaltsiy, Magniy va Temir darajasi, aksincha, pastroq edi ($p < 0,0001$). Bu bronxial astma patogenezi nuqtai nazaridan muhimdir, chunki Magniy darajasining pasayishi bronxlarning qisqarish qobiliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin, chunki bu magniy adenilatsiklazani faollashtiradi va u o‘z navbatida katalizlaydi, siklik adenozin monofosfat (cAMP) hosil bo‘lishi va

sewmiz hujayralarining degranulyatsiyasini oldini oladi, shu bilan bronxlarning silliq mushaklarining bo‘shashishini ta’minlaydi.

Kaltsiy darajasining pasayishi kasallikning kuchayishi paytida bronxlarning silliq mushaklarining intensiv qisqarishi paytida uning hovuzining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va u surunkali yallig‘lanishni saqlab turishda ham rol o‘ynaydi. Aynan Kaltsiy mast hujayra mediatorlarini chiqarishga qodir bo‘lib, shu bilan shilliq bezlari sekretsiyasini ko‘paytirishga va yallig‘lanishga qarshi hujayralarning nafas olish yo‘llarining devorlariga harakatlanishiga yordam beradi. Qon zardobidagi Fosfor darajasiga alohida e’tibor qaratish lozim: bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarda nazorat guruhiga (0,92 [0,49]) nisbatan uning tarkibida ishonchli o‘sish qayd etilgan (2,1 [1,97; 3,2] mmol/l); 0,9] mmol/l) [p <0,0001].

Fosfor hujayra membranalari, shu jumladan nafas olish epiteliysi fosfolipidlarining bir qismi bo‘lgan asosiy to‘qima hosil qiluvchi makroelement ekanligini hisobga olsak, bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarning qon zardobida ushbu moddaning darajasi oshishi mumkin deb taxmin qilish mumkin va bronxopulmoner tizimda surunkali yallig‘lanish jarayonini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bronxial astmaning klinik ko‘rinishi bo‘lgan bemorlarda nazorat guruhiga (97,27 ng/ml) nisbatan qon zardobida D vitamini darajasining pasayishi (24,36 ng/ml) qayd etilgan [p <0,0001].

Muhokama.

Bronxial astma etiopatogenezini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilayotganiga qaramay, ushbu patologiyasi bo‘lgan bemorlarda minerallar gomeostazining buzilishi muammosi etarlicha o‘rganilmagan va ushbu muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘pincha har tomonlama baholanmagan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar boshqa olimlar tomonidan olingan natijalarga mos keladi. Shunday qilib, Ca2+ ionlari bronxial astma patogenezida ishtirok etishi isbotlangan. Bundan tashqari, tadqiqotchilar bronxial giperreaktivlik sindromi rivojlanishining “kaltsiy” nazariyasini allaqachon shakllantirgan. Cheklangan dalillar Mg tanqisligi traxeobronxial giperreaktivlikning kuchayishi, o‘pka tomirlarining qarshiligi va qorincha aritmiyalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan erkin radikal jarayonlar kuchayadi, ular degeneratsiyaga, nafas yo‘llarining epiteliysining nekroziga va natijada fibroz va bronxokonstriksiyaga olib keladi. Bularning barchasi ushbu ilmiy yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish va og‘ir astmaning biologik belgilarini izlash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarda Fosfor miqdori sezilarli darajada oshgani, shuningdek, nazorat guruhidagi bemorlarga nisbatan qon zardobida Kaltsiy, Magniy va Rux darajasining pasayishi aniqlangan. Makroelement gomeostazidagi o‘zgarishlar bo‘yicha olingan ma’lumotlar bronxial astma patogenezida diselementozlarning muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Ushbu moddalar kontsentratsiyasining o‘zgarishi bronxlarda surunkali yallig‘lanishning rivojlanishiga olib keladi va bolalarda terapiyani optimallashtirishni talab qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Aloyevna G. T., Turdikhadjayevna B. K. Bronchial Asthma in Children and Covid-19: Features of the Course of Comorbidity //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 6. – C. 31-34.

2. Anvarovich R. A., Anvarovna N. S. The influence of deficiency of microelements in children with bronchial hyperreactivity //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 24-2 (102). – C. 63-69.

3. Choi J. W. et al. The prevalence of symptoms of allergic diseasesin children residing in industrialregions of Uzbekistan //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 4. – C. 2105-2115.

4. Karimova N.I., Shamsiev F.M., Abdullaev S.K. Dismicroelementosis in children with bronchial asthma and their diagnostic significance // International Journal of Scientific Pediatrics.

5. Koshkinbayevna J. G., Nurullayevna K. A., Amirbekovna K. A. The influence of environmental factors on the nonspecific immunity of children living in the aral sea region //European science review. – 2022. – №. 5-6. – C. 11-15.

6. Mortazavi Moghaddam S. G., Kianmehr M., Khazdair M. R. The possible therapeutic effects of some medicinal plants for chronic cough in children //Evidence-based complementary and alternative medicine. – 2020. – T. 2020.

7. Sankar J., Das R. R. Asthma–a disease of how we breathe: role of breathing exercises and Pranayam //The Indian Journal of Pediatrics. – 2018. – T. 85. – №. 10. – C. 905-910.

8. Welsh K. G. et al. Fungal sensitization and positive fungal culture from sputum in children with asthma are associated with reduced lung function and acute asthma attacks respectively //Clinical & Experimental Allergy. – 2021. – T. 51. – №. 6. – C. 790-800.

9. Zh S. G. et al. Effective method of treatment of bronchial asthma in out-patient conditions // World science. – 2016. – T. 3. – №. 2 (6). – C. 32-34.

ГЕМОСТАЗ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ РЕВМАТОИД АРТРИТЛИ БЕМОРЛАРДА ЁРДАМЧИ ДАВОЛАШДАГИ ЎЗГАРИШЛАРИ

Мухамеджанова Нодира Исмаилджановна,
Тошкент халқаро Киме университети клиник Фанлар кафедраси доценти,
Каримова Нодира Миралишеровна,
Тошкент халқаро Киме университети клиник Фанлар кафедраси доценти,
Ахматходжаева Дилноза Аноровна,
ТХКМРМ клиник лаборатория диагностикаси кафедраси каттак ўқитувчиси
Мухамеджанова Дилором Исмоилджановна,
“М-клиник” клиник диагностик лабораторияси мудири, т.ф.н.
Матякупова Гулнора Раджабовна,
ТХКМРМ клиник лаборатория диагностикаси кафедраси ассистенти

Аннотация: *Гирудотерапия курсидан сўнг ревматоид артритли беморларда сезиларли таъсирлар қайд этилди. Гирудотерапия коагуляцион гемостазнинг баъзи кўрсаткичларига ижобий таъсир кўрсатди, эндотелиал функцияни нормаллаштирди ва ушбу тоифадаги беморларда энг яхши клиник таъсирга сабаб бўлди. Масалан, гирудотерапия олмаган беморлар гуруҳида гирудотерапия курсидан сўнг қонда фибриноген даражасининг сезиларли даражада пасайиши ва АЧТВнинг кўпайиши кузатилди.*

Калит сўзлар: *Ревматоид артрит, гирудотерапия, гемостаз.*

Аннотация: *После курса гирудотерапии у больных ревматоидным артритом зарегистрированы достоверные эффекты. Гирудотерапия положительно влиял на некоторые показатели коагуляционного гемостаза, нормализовал эндотелиальную функцию и вызывал лучший клинический эффект у данной категории пациентов. Так, например было отмечено достоверное снижение уровня фибриногена крови и увеличение АЧТВ после курса гирудотерапии в группе пациентов, по сравнении не получавшие гирудотерапию.*

Ключевые слова: *Ревматоидный артрит, гирудотерапия, гемостаз.*

Abstract: *After a course of hirudotherapy in patients with rheumatoid arthritis, reliable effects were registered. Hirudotherapy had a positive effect on some indicators of coagulation hemostasis, normalized endothelial function and caused a better clinical effect in this category of patients. For example, a reliable decrease in the level of blood fibrinogen and an increase in APTT were noted after a course of hirudotherapy in a group of patients who did not receive hirudotherapy.*

Keywords: *Rheumatoid arthritis, hirudotherapy, hemostasis.*

Сўнгги йилларда турли хил терапевтик касалликларни даволашнинг муқобил усулларига қизиқиш ортиб бормоқда, бу бир қатор касалликларни даволашда стандарт терапевтик ёндашувларнинг етарли даражада самарадорлиги ва гиёҳ моддаларни даволаш натижасида юзага келадиган муайян асоратларни ривожланиш эҳтимоли нисбатан юқори. Даволашнинг муқобил усуллари “комплементар тиббиёт” атамаси билан тавсифланади (лотинча complementum – қўшимча), бу расман тан олинган усуллар ва даволаш протоколларини тўлдирадиган даволаш усуллари ва турлари тўплами сифатида тушунилади [3]. Бу атама асосан “муқобил тиббиёт”, “анъанавий тиббиёт” ва бошқалар тушунчалари билан боғлиқ. Шуни таъкидлаш

керакки, қўшимча тиббиёт усуллари терапевтик ва профилактика чораларини ўз ичига олади. “Натуропатия” атамаси кўпинча қўшимча тиббиёт билан боғлиқ бўлиб, бу табиий омиллар ёрдамида касалликларнинг олдини олиш ва даволаш усулларини англатади [2, 3].

Қўшимча тиббиётнинг энг кўп қўлланиладиган ва таниқли усулларидан бири бу гирудотерапия, тиббий зулуклар (Hirudo medicinalis) ёрдамида турли касалликларни даволаш усули. Тиббий зулукнинг сўлагидаги энг таниқли модданинг таъсири, унинг тузилишидаги гомологик пептидлар гуруҳи бўлган гирудин энг батафсил ўрганилган. Гирудин тромбиннинг ўзига хос ингибитори бўлиб, иккинчиси билан бирлашганда фаол бўлмаган кучли комплекс ҳосил қилади ва фибриногеннинг фибрингa айланишини блоклайди.

Бириктирувчи тўқималарнинг аутоиммун касалликларида гирудотерапия имкониятлари етарлича ўрганилмаган. Кўпинча Ревматоид артрит (РА) жуда кенг тарқалган. РА-бу асосан ёшларга таъсир қиладиган касаллик, агрессив курс ва аниқланмаган этиопатогенез билан тавсифланади [13]. Аҳолида РА нинг тарқалиши 0,5 дан 1% гача, касаллик бошланганидан 10-15 йил ўтгач, беморларнинг тахминан 90% меҳнат қобилиятини йўқотади ва 1/3 қисми ногирон бўлиб қолади, беморларнинг 25% дан ортиғи қиммат консерватив ёки жарроҳлик даволанишга муҳтож [14]. РА касалликнинг бошланиши учун турли хил вариантлар билан тавсифланади. Кўпгина ҳолларда касаллик полиартрит билан, камроқ моно – ва олигоартрит билан бошланади. РА юрак-қон томир тизимининг патологияси одатда макро ва микроваскуляр ўзгаришлар (васкулит, фиброз, гиалиноз ва фибриноид некроз) шаклланиши, шунингдек, ревматоидли миокардит, грануломатоз эндокардит ва кардиосклероз ривожланиши билан боғлиқ [4, 5]. Атеросклероз ва arterial гипертензия (АГ) билан ривожланадиган РА беморларида қон томир деворидаги ўзгаришлар кўринишидаги коморбид патология ҳам катта ҳисса қўшади [6,7]. РА эндотелиал дисфункциясининг генезисида асосий рол иммун яллиғланишига асосланган тўғридан-тўғри қон томир шикастланишига тегишли [7,1]. РА патогенезида эндотелиал дисфункциянинг ролини кўрсатадиган бир нечта адабиёт маълумотлари мавжуд. Бироқ, эндотелиал дисфункция механизмлари ва патогенетик тузатиш усуллари ҳали ҳам яхши ўрганилмаган[10].

РА беморларида бузилишларни тузатишга ёндашувларнинг мураккаблигига қарамай, даволашнинг асосий усули дори-дармонлардир, бу кўпинча кўплаб ён таъсирлар, асоратлар, даволанишнинг юқори нархи ва дори қаршилигининг шаклланиши билан тавсифланади.

Гирудотерапия ревматология амалиётида поливалент таъсир билан тавсифланган, хавфсиз ва тежамкор усул сифатида тобора кўпроқ қўлланила бошланди.

Ишнинг мақсади.

эндотелиал гемостаз, васкулит, шу жумладан, РА қўшимча-бўғим (тизимли) намоён бўлган беморларда гемостаз айрим кўрсаткичларини тиббий зулук секрецияси таъсирини ўрганиш.

Материаллар ва усуллар

Иш мақсадига эришиш учун, “M-Clinic” тиббиёт марказида амбулатория шароитида даволанган 35 кишини текширдик.

Гирудотерапиянинг беморларнинг қон гемостаз параметрларига таъсири назорат остида ўтказилган тадқиқотда баҳоланди. Гемостазни баҳолаш Sysmex (Япония) томонидан ишлаб чиқарилган гемастазиологик анализаторда амалга оширилди. Тадқиқот учун биоматериаллар оч қорингa 3,2% натрий цитратли вакуумли пробиркаларга олинди.

Беморлар икки гуруҳга бўлинган: биринчи гуруҳ (n=16) асосий терапия, иккинчиси (n=19) ҳар куни 5 сеанс миқдорида қўшимча гирудотерапия олган.

Даволашдан олдин ва кейин барча беморларда баъзи гемостатик параметрларнинг динамикасини баҳолаш учун биз қон ивиш вақтини, қон кетиш давомийлигини,

протромбин вақтини, фаоллаштирилган қисман тромбопластин вақтини (ҚФТВ), халқаро нормаллаштирилган нисбатни (ХНН) ва фибриноген даражасини ўргандик.

Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш талабларнинг t-критерий фойдаланган ҳолда Windows учун EXCEL 2000 электрон жадваллари ёрдамида амалга оширилди.

Натижалар ва хулоса

Даволашдан олдин иккала гуруҳдаги беморларнинг 69,1% гиперкоагуляцияни бошдан кечирган: ҚФТВ нинг қисқариши, протромбин вақтининг қисқариши ва фибриноген даражасининг ошиши. Даволаш пайтида гемостатик параметрларнинг динамикасини ўрганаётганда, ҳирудотерапия РА комплекс терапиясига киритилганда, баъзи гемостатик параметрлар нормаллашгани аниқланди: ҚФТВ сезиларли даражада узайтирилди (1,5 марта) ва фибриноген даражаси камайди (1,25 марта) (2-жадвал). Фақат асосий терапияни олган беморлар гуруҳида гемостаз кўрсаткичларида сезиларли яхшиланиш кузатилмади (1-жадвал).

1-жадвал

Асосий терапия фонида РА беморларида гемостаз параметрларининг динамикаси

Кўрсаткич	Референс кўрсаткичлари	Асосий терапиясини олган беморлар (n-16)	
		даволашдан олдин	Даволанишдан кейин
халқаро нормаллаштирилган нисбатни (ХНН), %	0,85-1,25	1,48 ± 0,65	2,31± 0,63*
қисман фаол тромбопластин вақти (ҚФТВ), сек	21,5-32,65	25,54±2,5	34,02±5,1*
Фибриноген , г / л	2.0	-4.0 0.94 хизмат 0.42	0.73 хизмат 0.29 *
ПТИ, %	75-135	95,89± 12,6	97,87± 9,9*

эслатма* – p < 0.05

2-жадвал

Асосий ва гирудотерапия олган РА беморларида гемостаз параметрларининг динамикаси

Кўрсаткич	Референс кўрсаткичлари	асосий терапия+ гирудотерапия (n-19) олган беморлар	
		Даволанишдан ол-дин	Даволанишдан кейин
халқаро нормаллаштирилган нисбат (ХНН), %	0,85-1,25	1,46±0,45	3,4±1 0,69*
қисман фаол тромбопластин вақти (ҚФТВ), сек	21,5-32,65	21,5±32,65	31,24± 6,1*
Фибриноген , г/ л	2,0-4,0	0,83± 0,12	0,63±0,19*
ПТИ, %	75-135	94,34±5,1	93,1±4,0*

эслатма* – p < 0.05

РА кузатиладиган гиперкоагуляция эндотелиал дисфункция ва яллиғланиш билан чамбарчас боғлиқ. Ревматоид артритли беморларда гирудотерапиянинг эндотелий ва гемостаз ҳолатига юқори клиник самарадорлиги ва ижобий таъсирини кўрсатди. Тадқиқот натижаларига кўра, гирудотерапия курсидан кейин статистик жиҳатдан сезиларли яхшиланиш кузатилди. Шубҳасиз, бу фактлар яллиғланиш жараёни фаоллигининг пасайишини ва ҳирудотерапия пайтида гемостаз жараёнларининг нормаллашишини кўрсатиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Hladovek]. Circulating endothelial cells as a sign of vessel wall lesions // Physiologia bohemoslova-ka. – 1978. – Vol. 27. – P.140-144.

2. Василенко А. М. Комплементарная медицина: пора определиться в терминологии // Вестник восстановительной медицины. 2009. № 2. С. 16–20.

3. Василенко А. М., Шарипова М. М., Лузина К. Э.Комплементарная медицина в современном здравоохранении // Вестник Росздравнадзора. 2011. № 2. С. 67–72.

4. Гржибовский А. М. Анализ номинальных данных (независимые наблюдения) // Экология человека. 2008. № 6. С. 58–68.

5. Жернов В. А., Зубаркина М. М. Медицинская реабилитация гиперлипидемий // Журнал научных статей “Здоровье и образование в XXI веке”. 2013. Т. 15,№ 1–4. С. 369–370.

6. Информационный бюллетень Всемирной организации здравоохранения. 2014 г. № 310. URL: http://www.who.int/mediacentre/factsheets/fs310/ru (дата обращения:08.04.2015).

7. Использование метода гирудотерапии в практическом здравоохранении : методические рекомендации. М. :Министерство здравоохранения Российской Федерации,2002. 78 с.

8. Кузнецова Л. П. Гирудотерапия в лечении хронической сердечной недостаточности у больных ИБС с нормальным и повышенным артериальным давлением : авторефдис. … канд. мед. наук. Москва, 2008. 29 с.

9. Кузнецова Л. П., Люсов В. А., Волов Н. А. и др.Место гирудотерапии в комплексном лечении хронической сердечной недостаточности // Российский кардиологический журнал. 2008. № 2. С. 28–30.

10. Насонов Е.Л.. Самсонов М.Ю.. Тилз Г. и др. Растворимые молекулы адгезии при ревматоидном артрите //Тер. арх. – 1999. – № 5. – С. 17-

11. Насонов Е.Л.. Сура В.В. Взаимосвязь аутоиммунной и иммунокомплексной патологии: Современное состояние проблемы // Тер. арх. – 1989. – № 10. – С. 4-10.

12. Поспелова М. Л. Влияние гирудотерапии на состояние липидного спектра крови у пациентов с гемодинамически значимыми атеросклеротическими поражениям артерий шеи и мозга // Современные проблемы науки и образования. 2011. № 6. С. 15.

13. Поспелова М. Л. Возможности гирудотерапии пациентов со стенозами и окклюзиями артерий шеи и мозга //Ученые записки СПбГМУ им. акад. И. П. Павлова. 2010.№ 2. С. 72–75.

14. Поспелова М. Л., Барнаулов О. Д. Влияние гирудотерапии на показатели плазменного звена гемостаза у пациентов с тромбо окклюзирующими поражениями брахиоцефальных артерий и без таковых // Фундаментальные исследования. 2012. № 10. С. 99–102.

YOSHLAR PARLAMENTI:
O‘ZGARISHLARGA YO‘L OCHADIGAN YANGI AVLODNING PARLAMENTDAGI OVOZI



Assalomu alaykum!

Bugungi mehmonimizni tanishtirishni boshlaymiz. U mamlakatimizdagi yoshlar tashabbuslarini ilgari surayotgan fidoyi yosh rahbarlardan biridir. Yoshlar orasida o‘zining qarorlari va innovatsion yondashuvlari bilan tanilgan ushbu inson yoshlarni ilhomlantirib, ularga yangi marralarni kashf etishga yordam bermoqda. Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi sifatida faoliyat olib borayotgan Otabekxo‘ja Sobitov bizning mehmonimiz.

Assalomu alaykum, Otabek aka! Avvalo, o‘zingizni jurnalimizning o‘quvchilariga tanishtirib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi lavozimiga qanday erishganingiz haqida so‘zlab bersangiz?

Otabek Sobitov: Assalomu alaykum! Taklif uchun rahmat. Men 1997-yilda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug‘ilganman. Ota-onam har doim o‘qish va ta’lim olishga undashgan, bu esa menga doimiy motivatsiya bergan. Maktab davrida ilk sardorlik faoliyatimni vatanparvarlik yo‘nalishida olib bordim. Keyinchalik, tuman, shahar va respublikada sardor bo‘ldim. Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi esa mening ilm olishimda va o‘z ustimda ishlashimda katta yordam berdi. Oliy ta’lim muassasasiga kirish bo‘yicha dastlabki muammolarni yengib, 262-umumta’lim maktabida yoshlar yetakchisi lavozimida ish boshladim. Toshkent aloqa kasb-hunar kolleji va 320-umumta’lim maktabda ish faoliyatim davomida o‘zimni yanada kashf qildim. Yoshlar tashkilotlarida o‘qish, muloqot qilish va tajriba orttirish menga katta imkoniyatlar yaratdi. Keyinchalik, Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligida faoliyat yurita boshladim. Nihoyat, Respublikadagi yirik siyosiy kuch, Parlamentda katta o‘ringa ega bo‘lgan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasida ishlay boshladim, bu esa Yoshlar parlamenti raisi lavozimiga saylanishimga katta amaliy maydon yaratib berdi.

Savol: **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining raisi sifatida qanday asosiy maqsadlar qo‘yganingiz va bu yo‘lda qanday ishlar olib bormoqdasiz?**

Otabek Sobitov: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi 2021 yilda ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlamentlari tashkil etilgan. Yoshlar parlamenti raisi sifatida mening maqsadlarim quyidagilardan iborat: yoshlarning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini yuksaltirish, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb etish, qonunlarni yoshlar orasida targ‘ib qilish orqali ularning jamiyat hayotiga daxldorligini kuchaytirish, yosh avlodning siyosiy faolligini oshirish ustuvor vazifalarni amalga oshirishga tayyormiz.

Savol: **Yoshlar parlamentining faoliyati jamiyatda qanday o‘rin egallamoqda va uning ta’siri qanday?**

Otabek Sobitov: Yoshlar parlamenti jamiyatda katta ta’sirga ega, chunki u yoshlarning fikrini, ehtiyojlarini va masalalarini ko‘tarib, ular uchun yangi tizimlar yaratadi. Yoshlar parlamenti, shuningdek, yoshlarimizni jamiyatdagi qarorlar, qonunlar va siyosatlarni shakllantirishda faol ishtirok etishga undaydi. Bugungi kunda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda yoshlar uchun alohida bob ajratilgan va bu yoshlar parlamentining faoliyatiga katta e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

Savol: **Hozirgi kunda Yoshlar parlamenti yoshlar bilan ishlashda qanday yangi loyihalar yoki tashabbuslar bilan shug‘ullanmoqda?**

Otabek Sobitov: Yoshlar parlamenti ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar bilan yanada samarali ishlashga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Yangi ijtimoiy platformalar yaratish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va ularning fikrlarini jamiyatda kengaytirish uchun yangi loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Bu platformalar orqali yoshlarimizning fikrlarini eshitish, ularni jamoat ishlarida ishtirok etishga rag‘batlantirish mumkin bo‘ladi.

Savol: **Hayotdagi maqsadlarga erishish uchun qanday strategiyalarni tavsiya etasiz? Sizning muvaffaqiyatingizning formulasi qanday?**

Otabek Sobitov: Muvaffaqiyat uchun bir nechta omillar muhim. Birinchidan, doimiy mehnat va qat’iyatlilik zarur. Muvaffaqiyat tasodif emas, balki uzluksiz ishlashning natijasidir. Ikkinchidan, sabr va bardoshlilik muhim: muvaffaqiyat oson kelmaydi. O‘rganish va rivojlanish orqali yangi bilimlar olish, qiyinchiliklarga bardosh berish va har bir muvaffaqiyatsizlikdan saboq olish zarur. Shuningdek, muvaffaqiyatni o‘lchashda shaxsiy qiymatlar, o‘zaro aloqalar va jamiyatga xizmat qilish ham katta ahamiyatga ega.

Savol: **Jurnalimizning o‘quvchilari uchun qanday maslahatlar yoki qo‘shimcha tavsiyalar berishni xohlardingiz? Hayotdagi muvaffaqiyatlarga erishish, motivatsiya va yashash sirlari haqida fikrlaringizni baham ko‘rishigiz mumkin.**

Otabek Sobitov: Yoshlarimiz uchun asosiy maslahatlarim: O‘zgarishlarga tayyor bo‘ling, yangi bilimlarni o‘rganing, va har doim o‘z ustingizda ishlashni davom ettiring. Yashashni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda davom ettiring va har bir qadamda yangi imkoniyatlar oching. Yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish – bu nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimizning kelajagi uchun muhim.

Otabek aka samimiy suhbatingiz uchun tashakkur. Albatta, sizning Yoshlar parlamentidagi faoliyatingizgi kuzatayotgan bugungi kun yoshlari uchun ham katta ilhom baxsh etadi. Sizning suhbatimiz davomida bildirgan fikrlaringiz yoshlarimizni o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida yanada qat’iyatli bo‘lishga undaydi. Yoshlar parlamenti faqatgina huquqiy yordam ko‘rsatishdan tashqari, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ham bevosita ta’sir etuvchi katta kuchga aylangan desak mubolag‘a bo‘maydi. Yoshlarni o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida yangi imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga rag‘batlantirish, Otabek Sobitov kabi yosh rahbarlar tomonidan amalga oshirilayotgan yuksak ishlardir. Yoshlarimizni har tomonlama rivojlantirish, ularga erkin fikrlash va o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishni o‘rgatish – bu yoshlar parlamenti va Otabek Sobitovning eng asosiy vazifalaridir.

Endi har birimizga o‘zimizning ichki kuchimizni kashf etish va o‘z orzularimizga erishish uchun yangi imkoniyatlar ochilishi kerak. Biz yoshlarni quvvatlab, jamiyatimizni yanada yuksaltirish uchun doimo birgalikda ishlashga tayyormiz.

Intervyuni Intizor Xo‘jamova tayyorladi.

“ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI: ILM VA IJODDAGI YANGI YUTUQLAR”

O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri bo‘lgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta’sis qilingan. Ushbu mukofot mamlakatimizda xotin-qizlarni e’zozlash, ularning ezgu orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘zining iqtidori, muhim g‘oya va tashabbuslari, ibratli amaliy ishlari va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o‘zgarishlar jarayonida faol ishtirok etib, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayrati, zamonaviy bilim va malakasi, ma’naviy-intellektual salohiyatini namoyon etayotgan qizlarimizni rag‘batlantirish maqsadida taqdim etiladi. 2025-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror asosida, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar e’lon qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan jami 28-nafar iqtidorli qizlar ushbu mukofotga sazovor bo‘ldi. Mukofot sohibalari orasida talaba, tadqiqotchi, murabbiy va o‘qituvchilar mavjud bo‘lib, ular san’at, sport, fan, ta’lim va texnologiya yo‘nalishlarida o‘z yutuqlari bilan ajralib turadi.



ABDURASULOVA DILNOZA BOTIRALI QIZI

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg‘ona filiali tayanch doktoranti



Ushbu yilning boshlanishi men uchun omadli bo‘ldi: doktoranturaga o‘qishga kirdim va Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga “Axborot texnologiyalari” yo‘nalishida loyiq topildim. Bu mukofotni davlat rahbaridan qabul qilish men uchun katta hayajon va mas’uliyat bo‘ldi. Aniq fanlarga qiziqishim meni 2015-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga olib keldi, u yerda grant asosida o‘qishga qabul qilindim. Dasturlash sohasini o‘rganib, olimpiadalarda yuqori o‘rinlarga ega bo‘ldim va xalqaro maqolalar chop ettirdim. 2017-yilda “Al-Xorazmiy” nomidagi stipendiyani, 2018-yilda esa “Beruniy” stipendiyasini qo‘lga kiritdim. Magistratura bosqichiga imtiyozli tarzda o‘qishga qabul qilinib, ilmiy loyihalar bilan shug‘ullandim, bir qancha dasturiy mahsulotlarga guvohnoma oldim. Oila qurdim va magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, universitetga o‘qishga qabul qilindim. Ilmiy izlanishlarimni davom ettirib, SCOPUS bazalarida maqolalar chop ettirdim va turli tanlovlarda g‘olib bo‘ldim. Ingliz tilidan B2 darajasini oldim va xalqaro tanlovlarda faol qatnashmoqdaman.

Github, Envato, Figma, C++, Java, Python, PHP, Javascript kabi dasturlarda faoliyat yuritib, “Dicede01” kanalimda dasturlash bo‘yicha darslar tayyorlab, yoshlarga ilm bermoqdaman. Hayotdagi mehnatimiz albatta natija beradi, va bu natija ko‘pincha kutganimizdan kattaroq bo‘ladi.

Hayot bu juda qiziq matematika tenglikning ikki tomoni bir birini qanoatlantiradi va shu bilan birgalikda energiyaning saqlanish qonunidek yo‘qdan bor bo‘lmaydi, bordan yo‘q u bir turdan ikkinchi turga o‘tadi. Demak bizning qilgan mehnatimiz o‘zimiz kutgan yo‘ldan natija bermasa ham albatta natija beradi bizga berilgani kattasi bo‘lishi mumkin agar mehnat katta bo‘lsa.

ZARIPOVA RUSHANA ROBERTOVNA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining tayanch doktoranti



Prezidentimiz Qarori bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga ta’lim yo‘nalishida munosib deb topildim. Bu yutuqqa yetishishim oson bo‘lmadi. Eng avvalo, o‘z oldimga aniq maqsad qo‘ydim va unga erishish uchun tinimsiz izlandim. Ilmiy faoliyatimda faollik ko‘rsatish, ta’lim sifati va uslublarini yangilash yo‘lida tajribali ustozlardan o‘rganish, xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda ishtirok etish kabi qadamlar muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, o‘qituvchilik sohasida yangilikka intilish va talabalarga ta’lim berish jarayonida kreativ yondashuvlarni joriy etishga harakat qildim. “Zulfiya” mukofoti yoshlar uchun ulkan ilhom manbai. Chunki bu mukofot faqatgina a’lo baholar yoki ilmiy yutuqlar uchun emas, balki o‘z ustida ishlash, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish, ilm-ma’rifat va ijodiy faoliyatga doimiy qiziqish bildirgan yoshlar uchun ham rag‘batdir. Har bir qizda o‘ziga xos iste’dod, qobiliyat bor. Asosiysi, o‘z qobiliyatiga ishongan holda mehnat qilish, izlanish va harakat qilish lozim. Har qanday yutuqqa erishish jarayonida muayyan qiyinchiliklar bo‘ladi. Ilmiy ish bilan shug‘ullanish, tadqiqot olib borish, yangi pedagogik uslublarni joriy etishda ba’zan qiyin bosqichlar bo‘ldi. Lekin men har doim shuni angladimki, mehnat, sabr-toqat va intizom har qanday to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Oilam, ustozlarim va atrofimdagi insonlarning qo‘llab-quvvatlashi ham juda katta kuch berdi.

Albatta, mukofot men uchun katta mas’uliyat yuklaydi. Kelajakda ilmiy faoliyatimni yanada rivojlantirish, ta’lim tizimidagi innovatsion loyihalar ustida ishlash, yosh avlodning sifatli ta’lim olishi uchun xizmat qilish – asosiy maqsadlarimdan biri. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarimni kengaytirib, yosh tadqiqotchilarga ham o‘z tajribam bilan bo‘lishishni niyat qilganman. Bu kabi e’tiroflar kelgusidagi ishlarga yanada katta mas’uliyat va ilhom bag‘ishlaydi!

G‘ANIYEVA MAFTUNA ABDUAZIZI QIZI

Guliston davlat universitetining tayanch doktoranti



Men 1997-yilda Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi ishchi-dehqon oilasida tug‘ilganman. Bolaligimdan ilm olishga, kitoblarga qiziqishim yuqori bo‘lgani sababli, ota-onam: “Bizning qizimiz olima bo‘ladi”, deb erkalar hamda o‘qishimni hamisha jiddiy nazorat qilishar edi. Bugungi kunda muhtaram prezidentimizning biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan foydalanayotgan bir yosh sifatida Guliston davlat universiteti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura bosqichida tahsil olmoqdaman. 2025-yil men uchun juda omadli va o‘z o‘rnida aytishim joizki, hayajonli boshlandi. Sababi, fan yo‘nalishida “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Bu nafaqat mening, balki har bir o‘zbek qizining orzusi. Sababi, shaxsan prezidentimizning o‘zlaridan bu mukofotni qabul qilib olish katta sharafdir. Shu bilan birgalikda yuksak mas’uliyat ham. Hozirda “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqdaman. Bu yo‘nalishda 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarim respublika va xorijiy nufuzli ilmiy nashrlarda e’lon qilingan. Bundan tashqari “Matematika o‘qitish metodikasi”, “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmalarim nashr etilgan va hozirda bu kitoblardan oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan darslarda foydalanilmoqda. 2024-yilda “O‘qituvchining pedagogik faoliyatida mantiqiy tafakkurning o‘rni va roli” mavzusidagi monografiyamiz Moldova davlatining “Globe edit” nashriyotida nashr etilgan. Ushbu kitob “Ko‘p tilli kitob” deb e’tirof etilib, ispan, italyan, fransuz, nemis, rus va ingliz tillarida nashr etilgan. Hozirda ko‘plab davlatlarning online kitob do‘konlari orqali sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Ilmiy tadqiqotchi yosh sifatida ilm-fan yo‘nalishidagi tanlov va tadbirlarda faol qatnashib kelmoqdaman. Jumladan, “Olimlar bayrami – 2023”da “Yilning eng faol ilm-fan targ‘ibotchisi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritganman. “Science and innovation awards-2024”da faol qatnashib, diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandim. Qo‘lga kiritgan kichik yutuqlarimiz davlat mukofoti sari debocha bo‘ldi. Muhtaram Prezidentimizning bu mukofotni olish jarayonida menga bildirgan ishonchlaridan va tilaklaridan ilhom olib, ilmiy ishimni himoya qilish uchun bel bog‘ladim. Hozirda ilmiy seminarni namunali o‘tkazish uchun izlanmoqdaman. Kelgusida ulkan yutuqlarga erishib, Vatan va yurt otasining ishonchini oqlashga harakat qilaman!

TUREMURATOVA BIYBINAZ KENESBAY QIZI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali magistranti



Prezidentimiz Qarori bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga axborot texnologiyalari yo‘nalishida munosib deb topildim. Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga axborot texnologiyalari yo‘nalishi qo‘shilganligi bu hurmatli Prezidentimizning shu yo‘nalishga bo‘lgan alohida e’tibori dalilidir. Bu yo‘lga kirishim va hozirgi yutuqlarga erishishim, albatta, oson bo‘lmagan. Ilk bosqichdanoq o‘z oldimga katta maqsadlar qo‘ydim: o‘zimning axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi bilimlarim orqali jamiyatga foyda keltirish, imkoniyati cheklangan insonlar uchun teng imkoniyatlar yaratish va yoshlar, xususan, qiz bolalarga ilhom manbai bo‘lish. Bu maqsadlarimni ro‘yobga chiqarish uchun xalqaro loyihalarda ishtirok etdim, sun’iy intellekt sohasida chuqur tadqiqotlar olib bordim, yoshlar va o‘qituvchilar uchun ko‘plab seminar-treninglar o‘tkazdim. Mukofotlar, tan olinishlar – bu jarayonning faqat tashqi ko‘rinishidir. Ularning orqasida tinimsiz mehnat, izlanish, ba’zan esa xatolar ustida saboq olish turadi. Har bir muvaffaqiyatim ortida ustozlarimning ko‘magi, oilamning doimiy qo‘llab-quvvatlashi va o‘z ustimda muntazam ishlash yotadi. Men uchun mukofotlar emas, balki jamiyatga foydali bo‘lish eng muhim qadriyat hisoblanadi. Har bir yoshda, ayniqsa har bir qiz bolada o‘ziga xos iste’dod va salohiyat mavjud. Asosiysi, o‘ziga ishona bilish, orzular sari harakat qilish, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik va har bir imkoniyatdan unumli foydalanish kerak. Kelgusida ilmiy faoliyatimni yanada kengaytirib, Qoraqalpoq imo-ishora tilini chuqurroq o‘rganish, sun’iy intellekt asosida yangi platformalarni yaratish va butun respublika miqyosida inklyuziv ta’limni rivojlantirishni rejalashtiryapman. Shuningdek, o‘z tajribamni yoshlar bilan baham ko‘rish, ayniqsa qizlarga IT sohasiga kirib kelishda yo‘l ko‘rsatish – mening asosiy vazifalarimdan biri. Bu yo‘ldagi har bir qadam, har bir muvaffaqiyat menga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Ammo men bunga tayyorman. Zero, biz yoshlar – kelajak bunyodkorlarimiz!

BABESHKO ALINA ALEKSANDROVNA

O‘zbekiston davlat xoreografiya akadimyasining xoreografiya kafedrasi o‘qituvchisi



Государственная премия имени Зульфии для меня важный этап в моём творчестве. Я надеялась,но не ожидала,такой высокой оценки нашего с педагогами скромного труда. Наша повседневная работа совершается не для наград,поэтому она для меня особенно приятна. Большая честь получить государственную премию лично из рук нашего уважаемого Президента. Я осознаю,возложенную на меня ответственность и приложу все свои усилия для популяризации, развития узбекского национального танцевального искусства. Мой путь в хореографию начался с любви к танцам и желанию узнать азы этого невероятно прекрасного,самобытного и яркого направления в искусстве. Мои педагоги являются вдохновителями моего первоначального изучения и ознакомления с национальными танцами. Само поступление в ТГВШНТиХ явилось для меня значимым моментом, поскольку моя жизнь кардинально изменилась и стала подчинена изучению танцам и тщательному оттачиванию движений,которые давались непросто. Следующим этапом явилось участие на республиканском танцевальном конкурсе “Ёш ижрочиси” (молодых исполнителей,2017 г.),после чего я поступила в бакалавриат университета хореографии на бюджетной основе,благодаря поддержке государства. Затем я уже учавствовала в других республиканских и международных танцевальных конкурсах,развиваясь как сольный исполнитель. К 30-летию независимости республики Узбекистан мне доверили исполнять главный сольный номер птицы “Хумо” масштабного правительственного концерта. Учавствуя регулярно на всех государственных праздниках, я полностью осознавала большую ответственность. Несмотря, на то что я узнала за короткий период до праздника о соло ,я оперативно постаралась создать и подготовить костюм максимально передающий образ птицы “Хумо”. В данный момент моей жизни я также нахожусь на новом этапе карьерного роста. После получения государственной премии “Зульфия”,я чувствую ещё большую ответ-

ственность не только перед государством, педагогами,но и пере своими студентами. Недавно я приступила к изучению самого сложно направления искусства – макома. Как сказал наш уважаемый президент: – Если мы хотим владеть настоящими знаниями наивысшей точки искусства,мы должны в 1-ю очередь овладеть знаниям классики искусства.…Без изучения нашей истории,нет нашего будущего!В каждом направлении танцевального искусства есть свои особенности,и поэтому каждое направление для меня значимо и любимо по своему. Продолжается тенденция по сохранению узбекского танца в новом восприятии зрителем.Например,балет “Лязги” создан по современным мотивам,сохраняя и точно передавая весь смысл хорезмского танца. Также мне нравится еженедельное проведение мини-фестивалей национальной одежды,на которых принимают участие танцоры. Такого формата мероприятия прививают любовь не только к национальной одежде,но и к национальному танцу. На новый уровень восприятия выходит общество,благодаря развитию и открытию в областях филиалов Академий хореографий. Молодым педагогам я бы посоветовала не бояться ответственности и делиться знаниями, приобретая личный педагогический опыт.

ABDUSALAMOVA ZANJILOY FARXOD QIZI

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi



Bolalikdagi Orzular karvoni meni Toshkent sari yetakladi. Men do‘ppidek qishlog‘imni tashlab yelkamda olam-olam orzular ila O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakultetiga hujjatlarimni topshirdim va davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildim. Ulkan maqsadlar hamda shahdam qadamlar ila ijodni davom ettirdim. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan keng foydalandim. Talabalikning ilk yillaridayoq Aleksandr Faynberg nomidagi maxsus stipendiya sovrindori bo‘ldim. Zomin seminari-2024 ishtirokchisi bo‘ldim. Yuzdan ortiq maqolalarim respublika nashrlarida chop etildi. Meni faqat bir narsa harakatga chorlaydi men qishlog‘imdan ulkan maqsadlar ila kelganman. Ortimda menga mahallam, ota-onam ustozlarim Yurtboshim ishonch bildirib qo‘llab quvvatlashmoqda. Bolalikdan yuragimning tubida yana bir kichik maqsadcham meni doim harakatga chorlar edi. Bu ham bo‘lsa Muhtaram yurtboshim ishonchi va minglab qizlarimiz erishishni orzu qilgan “Zulfiya mukofoti” edi. Har bahor tanlov javobini intizorlik bilan kutar, men ham munosib ko‘rilishimni chin dildan istar edim. Bu yili ham har yilgidek intizorlik va umid bilan kutdim. Bahor qor bilan boshlandi lekin men uchun qorli emas nurli keldi. Sababi men “Zulfiya nomidagi davlat mukofoti”ga loyiq topildim. Prezidentimiz qarorlarida ism sharifimni o‘qir ekanman beixtiyor ko‘zlarimga yosh oraladi. Kechagina yulduzlarni qayta-qayta sanab toliqqan tabiatning qir-u adiri-yu har bir mo‘jizasiga hayrat ko‘zi bilan boqqan, kichik qishlog‘ining go‘zal tabiati-yu keng dalalarini she’rlarida kuylagan murg‘ak qizcha ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. Bugun orzularga limmo-lim bo‘lib davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Muhtaram yurtboshimiz ko‘ksimga mukofot taqar ekanlar, Zanji-loy qizim siz kabi jurnalistlar ko‘p bo‘lishi kerak zero sizlar islohotlarimizning targ‘ibotchisi hisoblanasizlar deb aytdilar. Prezidentim ishonchi menga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Endi men har galgidan-da ko‘proq harakat qilishim, bu ishonchga munosib bo‘lishim darkor. Bu yo‘lda qoqilishim, to‘siqlarga duch kelishim mumkindir. Ammo meni bir narsa quvontiradi: to‘g‘ri va o‘zimga munosib

yo‘lni tanladim. Ajdodlarimga ko‘p ko‘rishgan baxtga bugun men erishib turgan ekanman, kelajagi buyuk yurt farzandi sifatida maqsadimga yetishimga ishonaman.

....Lablarimning shiviriga ohista quloq tutaman va anglaganim shu bo‘ladi: O‘zbekiston!

Munis onam aytgan alla navolari birla tomirimga hayot yanglig‘ oqqan, buvijonim aytgan ertaklar tufayli jajji tasavvurimda o‘ynagan savollarimga bugungi javobim – Vatan.

Onam yopgan issiq kulchani qo‘llarimga tutolmay ariqlarga oqizganim, kunduzlari oftoblarga, tunlari pariro‘y mohtobimga mengzaganim – Vatan!

Men yangi O‘zbekistonning baxtli qiziman.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarning to‘liq ro‘yxati bilan mana bu yerda tanishishingiz mumkin.

MUNDARIJA

I BOB

TABIIY FANLAR

Ulug‘murodova Ruhshona Sherzod qizi, Ismoilov Komiljon Tuyg‘unovich.
MENDEL VA IRSIYATNING DOMINANT-RETSESSIV MODELI. 6

Умарова Дилноза, З.Н.Абдужабборова, А.Э. Қаршиев.
ЎРИК НАВЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИ ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. 10

Shoyimova Shoxista, Abdukarimov Javlon Sherzod o‘g‘li.
NEYROLINGVISTIK DASTURLASH TEXNIKALARINING TIBBIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI.....15

Norqobilov Isroil Sherqul o‘g‘li, Mukarramova Sharofat Ikromovna, Ospanov Japparbek Ergeshovich.
O‘RMON FONDI YERLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI.....20

Saidova Dilnoza Baxtiyor qizi.
MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI ATROF OLAM BILAN TANISHTIRISHDA MILLIY VA. 26

Tolmasov Ro‘zibek Tolmasovich, Yusupova Dilroz Hamdamovna.
ME’DA YARA KASALLIGI VA UNING ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI. 32

Tolmasov Ro‘zibek Tolmasovich, Yusupova Dilroz Hamdam qizi.
PALMA YOG‘INING TARKIBI VA INSON ORGANIZMIGA TA’SIRI.....39

G‘afforov Davlatjon Umidjon o‘g‘li.
AQILLI MUQOBIL ENERGIYA VA AVTOMATLASHTIRILGAN TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMIGA EGA ISSIQXONA LOYIHASI. 46

Sag‘dullayev Ahmadjon Baxtiyor o‘g‘li, Nizamov Isomiddin G‘iyos o‘g‘li.
BIOYOQILG‘I TURLARI, OLINISH USULLARI VA UNING ENERGIYASIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI. 51

Qurbonov A., Ishandjanova S.X.
SARATON HUJAYRALARINING METABOLIK O‘ZGARISHLARI VA ULAR BILAN KURASHISH STRATEGIYALARI. 58

Bekmurodova Malika Ro‘zimurod qizi, Toirov Doston Rustamovich.
PODAGRA KASALLIGIDA NATRIURETIK PEPTIDLAR DARAJASI VA YURAK DISFUNKSIYASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK..... 63

R.S. Ro‘ziyeva, N.S. Baxranova, G.Sh.Baxtiyorova, D.A.Islomova.
MAHALLIY XOM ASHYO VA PAXTA ZAVODI CHIQINDILARIDAN GUMUS TABIATLI ORGANOMINERAL O‘G‘IT OLISH..... 69

Эргашев Олмосбек Сиддик ўғли, Убайдуллаев Жавоҳир Лутфулло ўғли, Комилжонова Мохларой Қобил қизи, Раимова Дурдона Акбаралиевна.
ОИЛАВИЙ ПОЛИКЛИНИКА ШАРОИТИДА КАМҚОНЛИКНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ.....73

II BOB

GUMANITAR FANLAR

Turayeva Maftuna Tolibjon qizi.
ATOYI LIRIKASIDA SOMATIZMLARNING BADIIY TALQINLARI. 80

Mashraboy Xalimova Vahidovna, Sayfulloh Kozimov Maxammadjon o‘g‘li.
O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI... 85

Shahnoza Yo‘ldosheva O‘roljon qizi, Iroda Azimova.
O‘ZBEK TILIDAGI BROKA AFAZIYASIGA OID SPONTAN NUTQDA FE’LLARNING IFODALANISHI. 91

Kenjayev Sardor Nurmurod o‘g‘li.
TEMURIYLAR DAVRIDA DINLARARO MUNOSABAT 97

Sharipova Ozoda Xolmurodovna, Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna.
MILLIY FRAZEOLOGIZMLAR ISHTIROK ETGAN VATAN VA VATANPARVARLIK HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ PAREMALARINING SEMANTIK TADQIQI. 102

Soliyeva Madina Murodjon qizi, Mirzarayimov Jaxongir.
FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI INNOVATSION VA MEDIATEXNOLOGIYA VOSITALARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH..... 106

Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi.
NAVOIY VA BOBUR MEROSI: O‘ZBEK ADABIYOTI VA MADANIYATINING ASOSIY POYDEVORI. 112

Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li, Junayev Zuxriddin.
XX ASR BOSHIDA TURKISTON JADID MATBUOTI VA UNING JAMIYATGA TA’SIRI. 117

Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi, S.S.Raximova.
MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA IJODIY QOBILYATLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI NOSTANDART FIKRLASHNI O‘RGATISH..... 122

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi.
HUVAYDONING “ROHATI DIL” ASARI MUQADDIMA BOBLARINING BADIIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI. 126

III BOB

TEXNIKA FANLARI

Nurmatova Nargiza Fatxullayevna, Hokimov Bosimjon Shuhrat o‘g‘li.
YOSHLARNING ID TEXNOLOGIYALAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI. 132

Majidov Anvarxon Mahmudxon o‘g‘li.
AXBOROT HUJUMLARI MODELLARINI QURISH USULI. 137

Qodirova Gulrux Ahrorjon qizi.
AVTOMOBILLARDA METAN GAZ BOSIMINI O‘LCHASH QILISH QURILMASINING MERTOLOGIK XARAKTERISTIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SIFATNI YAXSHILASH. 143

Xoshimjonov Asrorbek Akramjon o‘g‘li, Atajonova Saidaxon Borataliyevna.
JAVASCRIPT FRAMEWORK VA KUTUBXONALARNING TAQQOSLANISHI: REACT, VUE VA ANGULAR. 147

Majidov Yaxyobek Xalimjon o‘g‘li.
AVTOMOBIL YO‘LLARINING XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH: MUAMMOLAR VA INNOVATSIYALAR. 152

Ortiqov Mironshoh Sodiqovich, O‘ngboyeva Muqaddas Yo‘ldoshevna. OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIGA WEB-DASTURLASHNI O‘RGATUVCHI PLATFORMA YARATISH. 155

Абдураимов Арслонбек Аскар угли, Рецензент: Саматов Санъат Бахтиёрович. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГАЛОГЕННЫХ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ В КАЧЕСТВЕ ИНГИБИТОРОВ БИОКОРРОЗИИ. *157*

М.А. Каххорова, Ю.С. Шакирова. ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВО ВТОРИЧНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТЕКСТИЛЯ. *162*

Adxamova Muxlisa Akmaljon qizi. HAVODAGI ZARARLI GAZLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISHDA AQLLI MONITORING TIZIMLARI. *167*

Obidov Jamshidbek G‘ayratjon o‘g‘li, Ro‘ziboyeva Masturaxon Anvarjon qizi. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SIFAT MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (“GLOBAL TEXTILE UZBEKISTAN” MISOLIDA). *173*

Qadirov Diyorbek Alisher o‘g‘li, Suxbatillo Raxmatov. PIYODALAR ISHTIROKIDAGI YO‘L TRANSPORT HODISALARINI TAHLIL QILISH. *177*

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich, Mirzamaxmudov Shukurullo Jaxongir o‘g‘li. ATOM ELEKTR STANSIYALARI VA ULARNING TEXNOLOGIK RIVOJLANISHI... *182*

IV BOB

YOSHLAR VA ILM

Karabayeva Munisa To‘lqin qizi, Shomuhammadov Xoliddin taqrizi ostida. “ADAPTIVE LEARNING TECHNOLOGIES: HOW DATA IS SHAPING PERSONALIZED EDUCATION”. *190*

Mansurova Makhfuza Mukhammad kizi, Dadabayev Zafar Zakirovich. MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING TO READ TEXTS IN ENGLISH. *194*

Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o‘g‘li. MOLIYA TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *199*

Axmadaliyev Qobiljon. MUSTAQILLIKDAN KEYIN ANDIJON HUNARMANDCHILIGINING TIKLANISHI VA YANGI DAVR. *203*

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li, Mardiyeva Nargiza Ilhom qizi. JAMIYATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN TURLI XIL ISLOHOTLARDA TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI. *208*

Egamnazarova Aziza. “TOVAR BOZORLARINING DINAMIKASI: IQTISODIY O‘SISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRI”. *215*

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonov, Rasuljonova Mohlaroyim A’zamjon qizi. KOMMIVOYAJYOR MASALASI YORDAMIDA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH... *221*

Латифов Билолиддин Шокирович, Хужанова Озода Тожиевна. НЕОПРАВДАННЫЙ ВЕКТОР ЖИЗНИ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ДЭНИЕЛА КИЗА “ЦВЕТЫ ДЛЯ Э ЛДЖЕРНОНА”. *226*

Berdiev Gayrat Ibragimovich, Malikova Sevinch Telman qizi. XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARIGA MOS RAVISHDA RAQAMLI BUXGALTERIYANI RIVOJLANTIRISH. *229*

Qurbonova Roza Shamshidinovna. O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN MOBIL ILOVA DIZAYNI. *237*

Мамаджонова Шахло Шукуржоновна. КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ ШКОЛЬНИКОВ. *245*

Komilova Mukarram Kobilzhonovna.
COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF INVESTMENT TERMINOLOGY IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. 251

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li, Nematov Bexruzbek Bobomurod o‘g‘li.
TALABALARGA TEKISLIKDA KVADRATNING KANONIK TENGLAMASI VA UNING XOSSALARI MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. 254

Boboyev Muxammadayubxon Murodxon o‘g‘li.
TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH. 260

Ne’matov Jo‘rabek Ihom o‘g‘li, Alisher Vasiyev Samiyevich.
O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI HAMDA YANGI IMKONIYATLAR. 265

Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li.
YOSHLARNING ILMGA BEFARQLIGI – KELAJAK UCHUN XAVF 270

Raxmonova Mexriniso Shuxratovna.
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA GAMIFIKATSIYA VA UNING O‘QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDAGI ROLI. 274

Xolmirzayeva O‘g‘iloy Murotali qizi.
ILM-FAN VA TABIAT MARKAZIDA TA’LIMIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA JIHOZLASH. 280

D.I. Zayniyeva.
DARSLIK YARATISHDA XALQARO TAJRIBALAR. 284

Dilshoda Umirova Husniddin qizi, Sumanbar Atkamova Askarovna.
THE ROLE OF FOLK RIDDLES IN PRESERVING CULTURAL HERITAGE. 289

Abidov Adxamjon Abdumajid o‘g‘li, Qahhorova Gulchehra Faxriddin qizi.
MOBIL ILOVALARNI IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI. 294

Raxmatullayeva G.I.
MEDIATEXNOLOGIYALARNING MILLIY TARBIYA JARAYONIGA IJTIMOIY-PEDAGOGIK TA’SIRI 299

Xalmatova B.T, Toshmatova G.A., Saidova M.D.
BOLALARDA BRONXIAL ASTMA PATOGENEZIDA MIKROELEMENTLARINING O‘RNI. 304

Мухамеджанова Н.И., Каримова Н.М., Ахматходжаева Д.А., Мухамеджанова Д.И., Матякупова Г.Р.,
ГЕМОСТАЗ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ РЕВМАТОИД АРТРИТЛИ БЕМОРЛАРДА ЁРДАМЧИ ДАВОЛАШДАГИ ЎЗГАРИШЛАРИ 309

V BOB

MA’RIFAT ULASHIB

ЁШЛАР ПАРЛАМЕНТИ: ЎЗГАРИШЛАРГА ЙЎЛ ОЧАДИГАН ЯНГИ АВЛОДНИНГ ПАРЛАМЕНТДАГИ ОВОЗИ. 313

“ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI: ILM VA IJODDAGI YANGI YUTUQLAR”. 316

YOSHLAR VA ILM FAN

Ilmiy-ommabop, o‘quv-metodik, ma’naviy-ma’rifiy jurnali

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirish markazida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.01.2024 yildagi 36-son Qarori bilan ta’sis etilgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining ro‘yxatidan o‘tkazilgan.
(Guvohnoma № 270564., 06.05.2024 y.).
Jurnal bir yilda kamida 4 marotaba elektron nashr etiladi.
Bizning manzil: Toshkent shahri Olmazor tumani Talabalar 70.